Adabiyotlar sharhi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy va axloqiy tarbiya masalasi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu masala bolalarning har tomonlama rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ijtimoiy fazilatlarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Maktabgacha pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlarda bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning umumiy shaxsiy kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonlik olimalar O. Hasanboyeva, F. Qodirova va boshqa tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va axloqiy jihatdan tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etish pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bolalarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish hamda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish maktabgacha ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.Rus pedagogi A.S. Makarenko tarbiya jarayonida jamoaning ahamiyatini alohida ta’kidlab, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda jamoaviy faoliyat muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, jamoa ichida tashkil etilgan faoliyat bolalarda mas’uliyat, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi.Psixolog L.S. Vygotskiy esa bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni katta ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishi kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro muloqot jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda bolalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki axloqiy qadriyatlar ham shakllanadi.

Shuningdek, Shodmonov Sh. va boshqa olimlar maktabgacha ta’lim jarayonida jismoniy mashg‘ulotlar hamda harakatli o‘yinlarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, ularning bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, intizom, qat’iyat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatib o‘tganlar.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash uchun turli pedagogik metod va vositalardan foydalaniladi. Jumladan, ertalabki badantarbiya mashqlari, harakatli o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari hamda sog‘lomlashtiruvchi tadbirlar bolalarda jismoniy faollikni oshiradi. Bu mashg‘ulotlar orqali bolalar tanasining to‘g‘ri rivojlanishi, mushaklarning mustahkamlanishi hamda organizmning chiniqishi ta’minlanadi. Shuningdek, jismoniy faoliyat bolalarning iroda sifatlarini rivojlantirib, ularda qat’iyat, sabr-toqat va intizomni shakllantiradi.Axloqiy tarbiyani shakllantirishda esa bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy suhbatlar, badiiy adabiyotlardan foydalanish, ertak va hikoyalar aytib

berish, rolli o‘yinlar tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Bolalar bunday faoliyatlar jarayonida yaxshilik, halollik, do‘stlik, hamkorlik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlashtiradilar. Ayniqsa, jamoaviy o‘yinlar bolalarda bir-birini tushunish, yordam berish, navbat kutish va qoidalarga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy namunasi alohida ahamiyatga ega. Bolalar ko‘pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o‘rganadilar. Shuning uchun pedagog o‘z faoliyatida mehribonlik, adolat, sabr-toqat va hurmat kabi fazilatlarni namoyon etishi zarur.Jismoniy va axloqiy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida bolalar nafaqat jismonan rivojlanadilar, balki ma’lum axloqiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Masalan, sport o‘yinlari davomida bolalar jamoada ishlash, o‘yin qoidalariga amal qilish, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilish kabi ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni o‘zlashtiradilar.Harakatli o‘yinlar bolalarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni, tengdoshlari bilan muloqot qilishni hamda turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.Jismoniy va axloqiy tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati**.** Bugungi kunda jamiyatda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sog‘lom avlodni shakllantirish jarayoni aynan maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida jismoniy va axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda.Bola jismonan sog‘lom bo‘lishi bilan bir qatorda, axloqan yetuk bo‘lib ulg‘ayishi ham muhimdir. Chunki jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan ma’naviy yetuk, sog‘lom fikrlaydigan hamda ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan insonlarga bog‘liq. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy va axloqiy tarbiyani uyg‘un holda rivojlantirish barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy va axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolaning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, unda ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish ham pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi.Shu bilan birga, axloqiy tarbiya bolalarda mehr-oqibat, hurmat, do‘stlik, hamkorlik va mas’uliyat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy va axloqiy tarbiyani uyg‘un holda tashkil etish bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, jismoniy va axloqiy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish orqali sog‘lom, ma’naviy yetuk va faol avlodni tarbiyalash mumkin. Bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

2.O‘zbekiston Respublikasi Davlat maktabgacha ta’lim standarti. – Toshkent, 2020.

3.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4.Shodmonov Sh., Raximov A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

5.Hasanboyeva O. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.

6.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2008.

7.Boltaboyev M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

8.Qodirova F., Toshpo‘latova M. Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2017.

9.Usmonova M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

10.Nurmonova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi. – Toshkent, 2016.

11.Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1991.

12.Makarenko A.S. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1989.

13.Leontyev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.

14.Podyakov N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish psixologiyasi. – Moskva, 1996.

15.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

MA’NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN TARBIYALASHNING MILLIY VA UMUMINSONIY METODOLOGIK MANBALARI

Sabirova Charosxon Atamamatovna
UrIU “Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi mudiri, professor
e-mail: charos_pedagog@mail.ru
https://orcid.org/0009-0007-0193-7603

Annotatsiya: Mazkur maqolada m'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashning milliy va umuminsoniy metodologik manbalari pedagogik hamda falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo‘lib, inson o‘ngi va tafakkurini sog‘lomlashtirish, ichki jismoniylik hamda ma’naviyatini saqlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayonga aksiologik va tarbiyaviy ahamiyatli jihatlari ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: vijdon, andisha, insof, hayo va mas'uliyat kabi ichki nazorat, sanogen tafakkur, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ma’naviy-axloqiy rivojlanish, aql, tafakkur va ma'naviy mas'uliyati sanogenizatsiya

Аннотация:В данной статье проанализированы национальные и универсальные методологические источники саногенного воспитания духовно-нравственного мышления с педагогической и философской точек зрения. Научно раскрыты важные педагогические процессы, направленные на оздоровление сознания и мышления человека, сохранение внутренней физической и духовной гармонии, а также аксиологически и воспитательно значимые аспекты данного процесса.

Ключевые слова:совесть, размышление, справедливость, стыд и ответственность как внутренняя саморегуляция, саногенное мышление, духовно-нравственное воспитание, духовно-нравственное развитие, разум, мышление и духовная ответственность, саногенизация.

Abstract: This article analyzes the national and universal methodological sources of sanogenic education of moral and ethical thinking from pedagogical and philosophical perspectives. It scientifically highlights important pedagogical processes aimed at promoting the health of human consciousness and thinking, preserving inner physical and spiritual well-being, and emphasizes the axiological and educational significance of these processes.

Keywords:conscience, reflection, integrity, modesty, and responsibility as internal self-regulation, sanogenic thinking, moral and ethical education, moral and ethical development, intellect, thinking and moral responsibility, sanogenization.

Ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashning milliy va umuminsoniy metodologik manbalari mazkur jarayonni tasodifiy yoki fragmentar pedagogik ta’sirlar asosida emas, balki ma’no, qadriyat va mas’uliyatga tayangan ilmiy-metodologik poydevor asosida tashkil etish zaruratini belgilaydi. Sanogen tarbiya inson ongini sog‘lomlashtirish, ichki barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirishni maqsad qilar ekan, u milliy ma’naviy tafakkur an’analari, islomiy ma’naviy tarbiya manbalari va umuminsoniy qadriyatlar tizimida mujassam bo‘lgan ilmiy g‘oyalar uyg‘unligiga tayanadi.Sanogen tarbiya uchun metodologik manbalarni aniqlash ilmiy asoslangan mezonlarga tayanishni talab etadi, zero har qanday g‘oya yoki manba uning tarbiyaviy jarayonda qanday natija berishi bilan emas, balki inson ongi, tafakkuri va ichki barqarorligini sog‘lomlashtirishga xizmat qilish darajasi bilan baholanishi lozim. Sanogen tarbiya nuqtai nazaridan metodologik manbalar shaxsni tashqi me’yorlarga moslashtiruvchi vositalar emas, balki uning qadriyatlarga tayangan ongli pozisiyani shakllantirishi va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirishiga xizmat qiladigan ilmiy resurslar sifatida tanlanadi. Metodologik manba pedagogik fan tizimida ta’lim-tarbiya jarayonining ilmiy asoslarini belgilab

beruvchi, nazariy qarashlar, tamoyillar va konsepsiyalarni shakllantiruvchi muhim intellektual resurs sifatida qaraladi. U pedagogik tadqiqot va amaliyotda qanday g‘oyalarga tayanish, qaysi qadriyatlarni ustuvor deb bilish va tarbiyaviy ta’sirni qanday yo‘nalishda tashkil etish lozimligini belgilab beradi. Shu ma’noda metodologik manba pedagogika fanining faqat nazariy qismi emas, balki uning amaliy samaradorligini ta’minlovchi strategik poydevori vazifasini bajaradi. U orqali pedagogik maqsadlar aniqlashtiriladi, ta’lim-tarbiya mazmuni tizimlashtiriladi va natijalarni baholash mezonlari shakllanadi.Pedagogik fan tizimida metodologik manbalar turli darajada namoyon bo‘ladi: falsafiy, umumpedagogik, psixologik va ijtimoiy-ma’naviy manbalar tarbiya jarayonining umumiy yo‘nalishini belgilasa, sohaviy va amaliy manbalar uning aniq shakl va mexanizmlarini asoslab beradi. Ana shu manbalar uyg‘unligi pedagogik tizimning yaxlitligi va ilmiy izchilligini ta’minlaydi. Agar metodologik manbalar aniq belgilanmagan yoki ilmiy asoslanmagan bo‘lsa, tarbiya jarayoni tasodifiy, fragmentar va natijasi barqaror bo‘lmagan holatga kelib qoladi. Sanogen tarbiya kontekstida metodologik manbaning pedagogik fan tizimidagi o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sanogen tarbiya inson ongi va tafakkurini sog‘lomlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u faqat amaliy tavsiyalarga emas, balki chuqur falsafiy-ma’naviy va ilmiy-pedagogik manbalarga tayanishni talab qiladi. Shu jihatdan metodologik manbalar sanogen tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash, uni mustaqil pedagogik yo‘nalish sifatida shakllantirish va ta’lim-tarbiya tizimiga samarali integrasiya qilishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.Sanogen tarbiya nuqtai nazaridan metodologik manbalarni tanlash muayyan ilmiy mezonlarga tayanishni talab qiladi, zero har qanday manba tarbiya jarayonida foydali bo‘lishi bilan emas, balki inson ongi, tafakkuri va ichki barqarorligini sog‘lomlashtirishga xizmat qilishi bilan qimmatli hisoblanadi. Birinchi navbatda, tanlanayotgan manbalar insonni tashqi majburiyatlar yoki qo‘rquv asosida emas, balki ongli tanlov va ichki mas’uliyat orqali tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, ular shaxsning fikrlash jarayonini ijobiy yo‘nalishda o‘zgartirish, salbiy tafakkur stereotiplarini yumshatish va refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Uchinchidan, metodologik manbalar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadigan, zamonaviy pedagogik talablarga mos va ilmiy asoslangan bo‘lishi shart.Sanogen tarbiyada metodologik manbalar mazmuniga ko‘ra shartli ravishda normativ va qadriyatli manbalarga ajratiladi. Normativ manbalar tarbiya jarayonida insonning xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va mas’uliyatini tartibga soluvchi qoidalar, me’yorlar va talablarni o‘z ichiga oladi. Ular jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me’yorlar, ijtimoiy qonun-qoidalar va ma’naviy standartlar orqali shaxsning xulq-atvor chegaralarini belgilab beradi. Biroq sanogen tarbiya nuqtai nazaridan normativ manbalar faqat tashqi nazorat vositasi sifatida emas, balki shaxsda ongli ravishda qabul qilinadigan ichki me’yorlarga aylantirilishi lozim.Qadriyatli manbalar esa sanogen tarbiyada etakchi o‘rin tutib,

ular inson tafakkurida ma’no, qadr-qimmat va hayotiy maqsadlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday manbalar insonni nima qilish kerakligiga emas, balki nega shunday qilish zarur ekanini anglashga yo‘naltiradi. Qadriyatli manbalar orqali shaxs o‘z xatti-harakatlarini ichki ishonch, vijdon va ma’naviy e’tiqod asosida baholay boshlaydi. Ana shu jihat sanogen tarbiyaning asosiy farqlovchi xususiyati bo‘lib, u tarbiya jarayonini tashqi majburiyatdan ichki ehtiyoj va ma’naviy mas’uliyat darajasiga ko‘taradi.Milliy ma’naviy tafakkur an’analarida sog‘lom ong va axloqiy barqarorlik g‘oyalari xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ushbu an’analarda inson ongi va xulq-atvori faqat tashqi qoidalarga bo‘ysunuvchi tizim emas, balki vijdon va mas’uliyatga tayangan ichki barqarorlik asosida rivojlanishi lozim bo‘lgan qadriyat sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan milliy ma’naviy tafakkurda sog‘lom fikrlash, axloqiy muvozanat va ichki nazorat g‘oyalari sanogen tarbiyaning muhim metodologik manbalari sifatida namoyon bo‘lib, ular talabalar ma’naviy-axloqiy tafakkurini barqaror va ongli yo‘nalishda shakllantirishda ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xalq pedagogikasida inson faqat jamiyat qoidalariga moslashuvchi mavjudot emas, balki o‘z xatti-harakatlari uchun ma’naviy javobgar, vijdonli va ongli shaxs sifatida talqin etiladi. Shu bois sog‘lom fikrlash tashqi ta’sirlarga ko‘r-ko‘rona ergashish emas, balki vaziyatni anglash, oqibatni o‘ylash va axloqiy mezonlar asosida qaror qabul qilish qobiliyati sifatida qaraladi. Ma’naviy barqarorlik esa insonning hayotiy sinovlar, ijtimoiy bosim va murakkab sharoitlarda ham ichki muvozanatni saqlab qolishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq pedagogikasida “odob”, “hayo”, “insof”, “vijdon”, “andisha” kabi tushunchalar sog‘lom tafakkurning asosiy tayanch nuqtalari sifatida shakllangan. Bu tushunchalar inson ongida ichki nazorat mexanizmini qaror toptirib, axloqiy xulq-atvorni tashqi jazo yoki majburiyatsiz ham barqaror saqlash imkonini beradi. Masalan, “Yaxshilik qil — daryoga ot” yoki “Oqibatni o‘ylab ish qil” kabi xalq maqollari sog‘lom fikrlash, uzoqni ko‘ra bilish va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalarini ifoda etadi. Bu erda tarbiya insonni qo‘rqitish orqali emas, balki uning ongida ma’no va qadriyatni qaror toptirish orqali amalga oshiriladi. Milliy pedagogik tadqiqotlarda ham o‘zbek xalq pedagogikasining ushbu xususiyatlari alohida ta’kidlanadi. Jumladan, B.Ziyomuhammedov xalq pedagogikasida ma’naviy tarbiya inson tafakkurini sog‘lomlashtirishga qaratilganini qayd etib, quyidagi fikrni ilgari suradi: “Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya tashqi nazoratga emas, balki inson vijdoni va ongli fikrlashiga tayanadi; aynan shu jihat shaxs ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi”.[1.34]

Oila, jamoa va ijtimoiy muhit o‘zbek milliy tarbiya tizimida tafakkur tarbiyasining asosiy ijtimoiy makonlari sifatida qaraladi. Ayniqsa, oila muhiti inson ongi, fikrlash tarzi va axloqiy pozisiyasi shakllanadigan birinchi va eng ta’sirchan tarbiyaviy makon hisoblanadi. Oilada bola

nafaqat axloqiy qoidalarni o‘rganadi, balki ularni kundalik hayotda kuzatish, taqlid qilish va ongli ravishda qabul qilish orqali sog‘lom fikrlash asoslarini shakllantiradi. Ota-onaning munosabati, so‘zi va amali birligi bolada ichki nazorat, mas’uliyat va ma’naviy barqarorlikning qaror topishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda oilada tafakkur tarbiyasi qo‘rquv yoki majburiyatga emas, balki mehr, ishonch va ma’naviy namunaga tayanadi.

O‘zbek milliy muhitida mahalla instituti alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u yoshlarni nazorat qilishdan ko‘ra ularda “odob”, “andisha”, “kattaga hurmat” kabi qadriyatlar orqali sog‘lom tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Jamoa muhitida inson o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatini anglay boshlaydi, bu esa tafakkurning mas’uliyatli va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.Ijtimoiy muhit esa oila va jamoada shakllangan tafakkurni mustahkamlovchi yoki zaiflashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot makoni, ijtimoiy munosabatlar, madaniy muhit inson fikrlash tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli milliy tarbiya an’anasida ijtimoiy muhitni ma’naviy jihatdan sog‘lomlashtirish, salbiy ta’sirlarni cheklash va ijobiy namuna yaratish muhim vazifa sifatida qaraladi. Bu yondashuv sanogen tarbiya g‘oyalari bilan uyg‘un bo‘lib, inson tafakkurini tashqi ta’sirlarga nisbatan barqaror qilishga qaratilgan. Mazkur fikrlar mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, A.Safarov oila va jamoaning shaxs tafakkuri shakllanishidagi o‘rniga to‘xtalib, shunday ta’kidlaydi: “Inson tafakkurining ma’naviy barqarorligi avvalo oila va jamoada qaror topadi; aynan shu muhitlarda shakllangan ichki nazorat va qadriyatli fikrlash keyinchalik shaxsni ijtimoiy salbiy ta’sirlardan himoya qiladi”.[2.45]

Milliy an’analarda ichki nazorat va ‘a’naviy mas’uliyat mexanizmlari shaxs tafakkurini sog‘lomlashtirishga xizmat qiluvchi asosiy tarbiyaviy omillar sifatida qaror topgan. O‘zbek ma’naviy tafakkurida inson xulq-atvori tashqi jazo yoki nazorat orqali emas, balki vijdon, andisha, insof va e’tiqod kabi ichki regulyatorlar asosida boshqarilishi lozim degan g‘oya ustuvor hisoblanadi. Bu mexanizmlar sanogen tarbiya nuqtai nazaridan insonni salbiy holatlardan qochishga emas, balki ongli ravishda sog‘lom va ma’naviy barqaror pozisiyani tanlashga yo‘naltiradi.

Milliy an’analarda ichki nazorat va ma’naviy mas’uliyat mexanizmlari

№	**Mexanizm regulyatorlari**	**Mazmuni**	**Tafakkurga ta’siri**	**Sanogen tarbiyadagi ahamiyati**
1	**Vijdon**	Ichki axloqiy baholovchi mezon	Ongli qaror qabul qilish	Ichki barqarorlikni ta’minlaydi
2	**Andesha**	Oqibatni oldindan	Mas’uliyatli fikrlash	Salbiy xatti-

		o‘ylash		harakatlarni cheklaydi
3	**Insof**	Adolat va me’yorni his etish	Muhokamali tafakkur	Ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlaydi
4	**Odob**	Xulq-atvor me’yorlariga amal qilish	Me’yoriy fikrlash	Axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi
5	**Hayo**	O‘zini tiyish va nazorat qilish	Emosional o‘zini boshqarish	Ruhiy sog‘lomlikni saqlaydi
6	**Niyat**	Ichki maqsad va ixlos	Ma’noyaratuvchi tafakkur	Faoliyatni sog‘lom yo‘naltiradi
7	**Mas’uliyat**	O‘z amallari uchun javobgarlik	Ongli tafakkur	Ichki nazoratni mustahkamlaydi
8	**Kattaga hurmat**	Ijtimoiy-axloqiy munosabat	Ijtimoiy fikrlash	Jamoada barqarorlikni ta’minlaydi
9	**Ibrat**	Namuna orqali tarbiya	Ta’limiy tafakkur	Ichki qabulni kuchaytiradi
10	**An’anaga sadoqat**	Madaniy merosga tayanish	Qadriyatli tafakkur	Ma’naviy immunitetni oshiradi

Umuman, milliy an’analarda shakllangan ichki nazorat va ma’naviy mas’uliyat mexanizmlari inson tafakkurini tashqi nazoratga qaram qilmasdan, ichki barqarorlik asosida boshqarishga qaratilgan. Bu mexanizmlar shaxs ongida ma’no, qadriyat va mas’uliyatning uyg‘un qaror topishini ta’minlab, axloqiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga yo‘naltiradi. Sanogen tarbiya nuqtai nazaridan ushbu mexanizmlar insonni salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi ma’naviy immunitetni shakllantiradi hamda talabalar ma’naviy-axloqiy tafakkurini sog‘lom, barqaror va ijtimoiy foydali yo‘nalishda rivojlantirish uchun mustahkam milliy metodologik manba vazifasini bajaradi.Islomiy tarbiya manbalarida sanogen yondashuvning metodologik asoslari inson ongi, tafakkuri va ruhiy barqarorligini sog‘lomlashtirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy g‘oyalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Qur’on, hadis va islomiy ulamolar merosida tarbiya insonni qo‘rquv yoki tashqi nazorat orqali boshqarish vositasi emas, balki uning aqli, vijdoni va ixlosiga tayangan holda ichki poklanish va ma’naviy kamolotga yo‘naltirish jarayoni

sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan islomiy manbalarda ilgari surilgan aql, tafakkur, nafs tarbiyasi, mas’uliyat va ma’no g‘oyalari sanogen tarbiyaning asosiy metodologik poydevorini tashkil etib, inson ma’naviy-axloqiy tafakkurini sog‘lom va barqaror yo‘nalishda shakllantirish uchun muhim ilmiy-tarbiyaviy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.Islomiy tarbiyada aql, tafakkur va ma’naviy mas’uliyat kategoriyalari tarbiyaning o‘zaro bog‘liq va yaxlit asoslari sifatida talqin qilinadi.[3.56] Aql insonga berilgan eng oliy ne’mat sifatida qaralib, u faqat bilish vositasi emas, balki to‘g‘ri yo‘lni ajratish, yaxshilik bilan yomonlikni farqlash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Islomiy tarbiyada aql insonni ko‘r-ko‘rona taqliddan, hissiy beqarorlikdan va nafs istaklariga asir bo‘lishdan saqlovchi ichki quvvat sifatida baholanadi. Shu ma’noda aql tarbiyaning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, insonning ma’naviy kamoloti aynan aqlni faol ishlatish orqali ta’minlanadi. Tafakkur esa aqlning faol harakatga kelgan holati sifatida islomiy manbalarda alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tafakkur qilish atrof-olam, inson hayoti va o‘z ichki dunyosi haqida chuqur mulohaza yuritish, voqealarning mohiyatini anglash va ulardan ma’naviy xulosa chiqarish demakdir. Islomiy tarbiyada tafakkur insonni shoshma-shosharlikdan, yuzaki fikrlashdan va salbiy ta’sirlarga tez beriluvchanlikdan asraydigan mexanizm sifatida qaraladi. Tafakkur qilish orqali inson o‘z amallarining oqibatini anglaydi, hayotga ma’no bilan yondashadi va ongli ravishda axloqiy tanlov qiladi. Bu jihat tafakkurni sanogen tarbiya nuqtai nazaridan inson ongini sog‘lomlashtiruvchi muhim vositaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зиёмуҳаммедов Б. Педагогика назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – Б. 88.
2. Сафаров А. Шахс маънавиятини шакллантиришнинг педагогик асослари. – Т.: Фан, 2016. – Б. 52.
3. Ғаззолий Абу Ҳомид. Иҳё улум ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-Маориф, 2004. – Ж. 3. – Б. 15.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

SH.K.ISMAILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Presidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, p.f.n

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv metodlar orqali ta’lim oluvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, pedagogik yondashuv, raqamli kompetensiya.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое значение использования интерактивных методов в цифровой образовательной среде, пути повышения их эффективности, а также их роль в современной системе образования. Кроме того, рассматриваются вопросы развития активности обучающихся, их самостоятельного мышления и творческого подхода посредством интерактивных методов.

Ключевые слова: цифровое образование, интерактивные методы, инновационные технологии, эффективность обучения, педагогический подход, цифровая компетентность.

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of using interactive methods in a digital learning environment, ways to improve their effectiveness, and their role in the modern education system. It also highlights the development of learners' activity, independent thinking, and creative approach through interactive methods.

Keywords: digital education, interactive methods, innovative technologies, learning effectiveness, pedagogical approach, digital competence.

Raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni an’anaviy shakldan raqamli shaklga o‘tib bormoqda. Bu esa o‘qitish metodlarini yangilashni, o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishni va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Aynan shu jarayonda interaktiv metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.Interaktiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni mustaqil ravishda izlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlar yanada keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular turli elektron platformalar, mobil ilovalar va onlayn resurslar orqali amalga oshiriladi. Masalan, virtual muhokamalar, onlayn testlar, interaktiv o‘yinlar va loyiha asosida o‘qitish metodlari o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni faol o‘rganishga undaydi.Raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlardan samarali foydalanish bir qator omillarga bog‘liq. Avvalo, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni yaxshi bilishi, ularni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qila olishi zarur. Bundan tashqari, ta’lim mazmunining interaktiv metodlarga mosligi ham muhim hisoblanadi. Har bir metod o‘quv materialining mazmuni va maqsadiga mos holda tanlanishi kerak. Shuningdek, texnik ta’minot – ya’ni internet sifati, kompyuter va mobil qurilmalar mavjudligi ham samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Interaktiv metodlardan foydalanishda individual yondashuv ham muhim o‘rin

tutadi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, motivatsiya masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Gamifikatsiya elementlari, ya’ni o‘yinlashtirish usullari orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu esa ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlardan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi, ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, pedagoglarning yetarli darajada raqamli ko‘nikmalarga ega emasligi ushbu jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘rtasida raqamli tengsizlik (digital divide) holatlari ham kuzatiladi, ya’ni barcha ta’lim oluvchilar bir xil texnik imkoniyatlarga ega emas. Bu esa interaktiv metodlarning to‘liq va samarali qo‘llanishiga to‘sqinlik qiladi. Ayrim hollarda o‘qituvchilar tomonidan interaktiv metodlar noto‘g‘ri tanlanishi yoki ularni dars maqsadiga moslashtira olmaslik ham ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Shuningdek, raqamli muhitda o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab turish ham murakkab masalalardan biridir. Ortiqcha axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa chalg‘ituvchi omillar o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli interaktiv metodlarni qo‘llashda nafaqat texnologik, balki psixologik va pedagogik yondashuvlarni ham hisobga olish zarur.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator kompleks choralarni amalga oshirish talab etiladi. Avvalo, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida muntazam ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etilishi lozim. Bunda nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasi ham o‘rgatilishi muhimdir. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi, planshetlar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash zarur.Bundan tashqari, interaktiv metodlarni samarali joriy etishda milliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish, ilg‘or pedagogik amaliyotlarni tatbiq etish ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt, adaptiv o‘qitish tizimlari va raqamli platformalardan foydalanish orqali o‘quvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish mumkin. Bu esa har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga mos ravishda ta’lim berish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu metodlar o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini — tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash va raqamli savodxonlikni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ishmuhamedov R. J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
2. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2017.
3. Muslimov N. A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: Iqtisodiyot, 2018.
4. Yuldashev J. G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2020.
5. Selevko G. K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2018.
6. Polat E. S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – M.: Akademiya, 2019.
7. Robert I. V. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. – M.: BINOM, 2020.
8. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
9. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018.
10. OECD Education at a Glance. – Paris, 2021.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2022.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – T., 2020.

MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH DAVR TALABI

M.S.Salayeva - Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi professori, p.f.d.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning dolzarb ahamiyati, zamonaviy pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishdagi roli tahlil qilingan. Sun’iy intellekt va raqamli vositalar orqali bolalarning individual rivojlanishi, bilim olish jarayoni va pedagogik nazoratni yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, pedagogik jarayon, bolalar rivoji, innovatsion ta’lim, elektron ta’lim.

Аннотация:В статье проанализирована актуальность применения искусственного интеллекта и цифровых технологий в дошкольном образовании, а также их роль в эффективной организации современных педагогических процессов. Рассмотрены

возможности улучшения индивидуального развития детей, процесса обучения и педагогического контроля с помощью ИИ и цифровых инструментов.

Ключевые слова:дошкольное образование, искусственный интеллект, цифровые технологии, педагогический процесс, развитие детей, инновационное обучение, электронное обучение.

Abstract: The article analyzes the relevance of using artificial intelligence and digital technologies in preschool education, as well as their role in the effective organization of modern pedagogical processes. It examines the possibilities for enhancing children’s individual development, learning processes, and pedagogical monitoring through AI and digital tools.

Keywords:preschool education, artificial intelligence, digital technologies, pedagogical process, child development, innovative education, e-learning.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim bolalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondiradigan, ota-onalar bilan aloqani mustahkamlaydigan, pedagoglarning malakasini oshiradigan va zamonaviy dunyoning muammolariga javob beradigan innovatsion yondashuvlarni integratsiya etishni talab etadi. O‘zbekistonda uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ushbu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga muvofiq raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish vazifasi belgilangan edi.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025- yil 1-dekabr kuni sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va kosmik sanoatda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha taqdimotda ishtirok etdi. Oktyabr oyida O'zbekiston "Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmon va "2030 yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" qaror qabul qildi, bu esa sohada infratuzilma va mutaxassis kadrlarni tayyorlash sharoitlarini yaratdi. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar O'zbekistonda ixtisoslashgan infratuzilma yaratish ta'lim amaliyotida innovatsion raqamli yechimlarni joriy etish uchun sharoit yaratadi. Bu ayniqsa maktabgacha ta'lim uchun muhim, chunki zamonaviy texnologiyalar ta'lim muhitining sifatini oshirishi, individual yondashuvni ta'minlashi va bolaning yoshi hamda kognitiv xususiyatlariga muvofiq

rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Davlat darajasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri ta'lim tizimini, jumladan maktabgacha ta'lim sohasini modernizatsiya qilishga ta'sir qiladi. Raqamli texnologiyalar ta’limni interaktiv va jalb etuvchi qilish orqali bolalarning ta’limga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular bolalarga eng so'nggi texnologiyalar va qurilmalarni ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa tez sur'atlar bilan raqamlashtirilayotgan jamiyatda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda raqamli uskuna ishlatish aloqalarni sezilarli darajada yaxshilaydi va ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli uskuna va texnologiyalardan foydalanish pedagoglarning malakasini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni integratsiya qilishda o'quv muhitini yaxshilash va ta’lim berish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli uskuna va texnologiyalarni ma'muriy resurs sifatida qo'llash boshqaruv sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Raqamli texnologiyalarni joriy etish barcha zarur qoidalar va standartlarga muvofiq amalga oshirilishi, bolalarning manfaatlari va xavfsizligi doim ustuvor bo'lishini taqozo etadi. Sun'iy intellekt har bir bola uchun ta’limni moslashtirishga yordam beradi. Ma’lumki, har bir bola o‘ziga xos xusussiyatga ega, ba'zilari vazifalarni tez bajaradi, boshqalari esa ko'proq vaqt oladi; ba'zilari chizishni afzal ko'radi, boshqalari esa muammolarni hal qilishdan zavqlanadi. Sun'iy intellekt bolaga maxsus moslashtirilgan vazifalarni tanlashga yordam beradi. Agar vazifa juda qiyin bo'lsa, u soddaroq vazifani; agar juda oson bo'lsa, murakkabroq vazifani taklif qiladi. Shu tariqa bola o'z sur'atida o'rganadi va charchamaydi. Sun'iy intellekt bolani nimalar qiziqtirishini ham aniqlay oladi: o'yinlar, mashg'ulotlar, mavzularga asoslanib, bola yoqtiradigan vazifalar va o'yinlarni taklif qiladi. Bunday yondashuv pedagog uchun ham qulay, chunki ular har bir bolaning nimadan zavqlanishini va unga nimalar mos kelishini ko'rishlari va ta’limlarni yanada samarali rejalashtirishlari mumkin. Natijada, ta’lim har bir bola uchun qiziqarli, qulay va samarali bo'ladi.Sun'iy intellekt bolalarga o'yinlar va interaktiv vazifalar orqali o'rganishda yordam beradi. An'anaviy mashqlar o'rniga bola o'yin shaklida vazifalarni bajaradi, bu esa ta’limni qiziqarli qiladi. Sun'iy intellekt har bir bola uchun mos o'yinlarni tanlaydi. Agar vazifa oson bo'lsa - o'yin murakkablashadi; agar u qiyin bo'lsa - yordamchi maslahatlar yoki sodda variantlar paydo bo'ladi. Shu tariqa bola bosqichma-bosqich o'rganadi va qiziqishini yo'qotmaydi. Bunday platformalar orqali bolalar yangi narsalarni sinab ko'rishlari mumkin: rasm chizish, jumboqlarni yechish, xotira va e'tiborini mashq qilish. Bularning barchasi o'yin ko'rinishida kechadi, bu o'rganishni jozibali tajribaga aylantiradi. Bu pedagog uchun foydalidir, chunki ular har bir bolaning nimadan zavqlanishini va nimani qiyinroq deb bilishini ko'rishlari mumkin. Bu ta’limlarni rejalashtirishni va bolalarning rivojlanishiga yordam berishni

osonlashtiradi. Natijada, o'yinlar va interaktiv platformalar har bir bola uchun ta’limni qiziqarli, qulay va foydali qiladi.Sun'iy intellektdan foydalanadigan o'yinlar va interaktiv platformalar orqali bolalarni kuzatish quyidagicha amalga oshiriladi:Sun'iy intellekt yordamida bolaning rivojlanishini kuzatish. Sun'iy intellekt pedagogga har bir bolaning qanday rivojlanayotganini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bunday texnologiyalar turli ma'lumotlarni avtomatik ravishda to'play oladi: bola qanday o'ynashi, qaysi vazifalarni tezroq yoki sekinroq bajarishi va eng ko'p qanday xatolar qilishi. Bu bolaning nimani yaxshi bajarayotganini va nimani hali rivojlantirish kerakligini ko'rish imkonini beradi. Sun'iy intellekt dasturlari individual 'rivojlanish profilini' yaratishi mumkin. Bu nutq, diqqat, xotira, fikrlash, motorik ko'nikmalar va boshqa qobiliyatlarning qanchalik rivojlanganini ko'rsatadi. Bu pedagogga aynan shu bola uchun mos vazifalarni tanlashga yordam beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt natijalarni grafiklar, diagrammalar va sodda hisobotlar ko'rinishida aniq va samarali tarzda taqdim eta oladi. Bu orqali taraqqiyot bo'layotganini, bolaning qanchalik tez rivojlanayotganini va so'nggi haftalar yoki oylar ichida nimalar o'zgarganini osonlik bilan ko'rish mumkin.Yana bir muhim xususiyat shundaki, sun'iy intellekt qiyinchiliklarning birinchi belgilarini aniqlay oladi: masalan, bola juda ko'p xato qilsa, javob berishda sekin bo'lsa yoki aksincha, haddan tashqari faol bo'lsa. Bu muammolarni o'z vaqtida aniqlashga va zarur bo'lganda o'qitish yondashuvini moslashtirishga yordam beradi. Shu tariqa sun'iy intellekt bolaning rivojlanishini kuzatishni aniqroq, tezroq va qulayroq qiladi. Shuningdek, bu pedagogga ta’limlarni rejalashtirish va bolalarning individual rivojlanishiga yordam berishni osonlashtiradi.Sun'iy intellekt yordamida bolaning hissiyotlari va kayfiyatini kuzatish. Sun'iy intellekt pedagogga bolaning qanday kayfiyatda ekanligini payqashga yordam beradi. Bunday dasturlar yuz ifodalari, imo-ishoralari, xulq-atvori yoki hattoki bolaning qanday o'ynashi va muloqot qilishiga qarab hissiyotlarni aniqlay oladi. Masalan, sun'iy intellekt bugun bola odatdagidan ko'ra xafa yoki aksincha — juda faol va quvnoq ekanligini ko'rsatishi mumkin. Bunda pedagog bolaga qo'llab-quvvatlash, e'tibor yoki osoyishta muhit kerakligini o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi. Sun'iy intellekt shuningdek kun davomida bolaning kayfiyati qanday o'zgarayotganini kuzatib borishi mumkin: u qachon tabassum qilayotganini, qachon asabiylashayotganini va nimalar uning qiziqishi yoki qo'rqishini uyg'otayotganini aniqlashga yordam beradi. Bu pedagog uchun foydalidir, chunki u har doim barcha bolalardagi har bir o'zgarishni bir vaqtning o'zida sezolmaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt bola turli vaziyatlarga: yangi o'yinlarga, boshqa bolalar bilan muloqotga va faoliyatlarga qanday munosabat bildirishini tushunishga yordam beradi. Agar ma'lum vaziyatlar bolada stress keltirib chiqarsa, pedagog o'z vaqtida yordam bera oladi. Natijada, bunday texnologiyalar guruhda iliqroq va osoyishta muhit yaratishga hamda bolalarni yaxshiroq hissiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga yordam beradi.Sun'iy intellekt yordamida pedagoglar va ota-onalarni

qo'llab-quvvatlash. Sun'iy intellekt pedagoglar va ota-onalar uchun qimmatli yordamchi bo'lishi mumkin. U bola haqidagi turli ma'lumotlarni — qanday o'ynashini, nimada yaxshi ekanligini, kayfiyati qandayligini — to'playdi va buni oson tushuniladigan formatda taqdim etadi. Bu pedagoglar uchun qulay, chunki bu ularga bolada qiynalayotganini yoki, aksincha, tezroq rivojlanayotganini sezishni osonlashtiradi. Sun'iy intellekt bolaning yanada rivojlanishiga yordam berish uchun qaysi topshiriqlar yoki o'yinlarni berish ma'qul ekanligini taklif qilishi mumkin. Bunday texnologiyalar ota-onalar uchun ham foydalidir. Ular farzandlarining maktabgacha ta’lim tashkilotida vaqtini qanday o'tkazayotganini, nima o'rganyotganini va o'zini qanday his qilayotganini ko'rishlari mumkin. Potentsial xavflar va cheklovlar. Sun'iy intellekt bolalarga o'rganish va rivojlanishda yordam bersa-da, undan foydalanganda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi jihatlar mavjud. Birinchidan, barcha bolalar texnologiyaga bir xil munosabatda bo'lmaydi. Ba'zilari interaktiv vazifalarni qiziqarli va oson deb bilsa, boshqalari tez zerikadi yoki ko'z charchoqligini his qiladi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt bilan juda ko'p vaqt o'tkazish pedagog va boshqa bolalar bilan yuzma-yuz muloqotga to'sqinlik qilishi mumkin. Insonlar bilan muloqot esa nutq, hissiyot va do'stlik ko'nikmalarining rivojlanishi uchun muhimdir. Shuningdek, bolalarning ma'lumotlarini - shaxsiy ma'lumotlari va rivojlanishdagi yutuqlarini - xavfsiz saqlash zarur. Bundan tashqari, sun'iy intellekt pedagogni to'liq almashtira olmaydi. U yordam beradi, lekin bolani to'liq tushuna olmaydi va inson kabi o'qita olmaydi. Shuning uchun texnologiya faqat yordamchi vosita sifatida, haqiqiy hayotdagi o'yinlar va muloqot bilan birgalikda qo'llanilishi kerak, shunda bolalar xavfsiz va osoyishta rivojlanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish ko'plab yangi imkoniyatlarni ochadi. Uning yordami bilan shaxsiylashtirilgan vazifalar yaratish, qiziqarli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish, bolaning rivojlanishi, hissiyotlari va kayfiyatini kuzatish, shuningdek, pedagoglar va ota-onalarga har bir bolaning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishda yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“**Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 31.07.2021 yildagi 475-son Qrori. https://lex.uz/en/docs/-5544451

2.Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va AI texnologiyalarini joriy etish masalalari bo’yicha chiqishlari va murojaatlari. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. https://president.uz https://president.uz

3.Блинова, Н. В. Развитие логического и творческого мышления у детей дошкольного возраста с использованием ИТ. Вестник педагогики, 2020, №4, с. 45–52.

4.Гусев, А. В. Интерактивные образовательные технологии в детском саду. Санкт Петербург: Детство-Пресс, 2019. 4. Ильин, В. А. Современные технологии в дошкольном образовании. Москва: Педагогика, 2020.

5.Сидорова, Е. В. Искусственный интеллект в образовании: возможности и перспективы. Москва: Наука, 2021.

6.Sharma, R., & Jain, P. Role of Artificial Intelligence in Early Childhood Education. Journal of Education and Technology, 2021, Vol. 8, Issue 2, pp. 34–42.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI MONITORING VA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Saporboyev Mirzabek
UrDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti.
Jumaniyazov Javoxir
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Sport faoliyati
(yengil atletika) yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning diagnostik, adaptiv va analitik imkoniyatlari asosida talabalarning bilim darajasini aniqlash, o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish hamda baholash jarayonini avtomatlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi monitoring va baholash tizimlari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, monitoring, baholash, adaptiv tizim, analitik tahlil, ta’lim sifati.

Annotation: This article analyzes the issues of improving monitoring and assessment systems in the digital education environment based on artificial intelligence technologies. The theoretical and practical aspects of determining students’ knowledge levels, real-time tracking of learning activities, and automation of the assessment process are discussed through the diagnostic, adaptive, and analytical capabilities of artificial intelligence. The research findings demonstrate that AI-based monitoring and assessment systems serve as an important tool for enhancing educational effectiveness.

Keywords: artificial intelligence, digital education, monitoring, assessment, adaptive system, analytical analysis, education quality

Аннотация:В данной статье анализируются вопросы совершенствования системы мониторинга и оценки учебного процесса в условиях цифрового образования на основе

технологий искусственного интеллекта. Рассматриваются теоретические и практические аспекты определения уровня знаний студентов, мониторинга учебной деятельности в режиме реального времени, а также автоматизации процесса оценивания на основе диагностических, адаптивных и аналитических возможностей искусственного интеллекта. Результаты исследования показывают, что системы мониторинга и оценки на базе искусственного интеллекта являются важным инструментом повышения эффективности образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровое образование, мониторинг, оценивание, адаптивная система, аналитический анализ, качество образования

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, raqamli ta’lim muhitining shakllanishi o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish va baholash usullarini yangicha yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. An’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha subyektivlik, vaqt sarfi va individual yondashuvning yetishmasligi kabi kamchiliklarga ega bo‘lsa, zamonaviy raqamli vositalar bu muammolarni bartaraf etish imkonini bermoqda.Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasini aniq va tezkor aniqlash, ularning o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, individual o‘quv trajektoriyalarini shakllantirish hamda baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va pedagogik qarorlar qabul qilish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XXI asrda ta’lim tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish va baholash tizimlarini tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, elektron ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish vositalari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi natijasida pedagogik jarayonning mazmuni va shakllari yangilanmoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki talabaning o‘zlashtirish holatini muntazam kuzatish, bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularga o‘z vaqtida metodik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha nazorat ishlari, testlar, imtihonlar yoki yakuniy baholar orqali talabaning natijasini aniqlashga qaratiladi. Biroq bunday yondashuv o‘quv jarayonining butun dinamikasini, ya’ni talabaning bilimni qanday egallayotgani, qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotgani, qaysi mavzularni chuqurroq o‘zlashtirayotgani yoki qaysi jihatlarda qo‘shimcha yordamga muhtojligini to‘liq ko‘rsatib bera olmaydi. Natijada baholash ko‘proq yakuniy ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘lib, rivojlantiruvchi va yo‘naltiruvchi vazifani yetarli darajada bajarmaydi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida monitoring va baholash jarayonini uzluksiz, shaffof, obyektiv va individual yondashuvga asoslangan tarzda tashkil etish zarurati kuchaymoqda. Bu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari muhim imkoniyatlarni yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar talabalarning o‘quv faoliyati haqidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalar asosida pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Masalan, talabaning test natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolarining takrorlanish darajasi, platformadagi faolligi, mustaqil ta’limga ajratgan vaqti kabi ko‘rsatkichlar sun’iy intellekt yordamida tahlil qilinib, uning individual o‘quv holati aniqlanishi mumkin.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi raqamli ta’lim muhitida monitoring va baholash tizimlari faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki ta’lim sifatini oshirish, talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchining pedagogik qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini monitoring va baholash tizimini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash masalasi pedagogika fanida uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelinadi. An’anaviy pedagogik qarashlarda baholash asosan talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash vositasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda u ta’lim jarayonini boshqarish, rivojlantirish va individuallashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

L.S.Vygotskiyning rivojlanishning yaqin zonasi haqidagi nazariyasi o‘quvchining mavjud bilim darajasi bilan uning pedagogik yordam orqali erisha oladigan rivojlanish darajasi o‘rtasidagi farqni aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu g‘oya monitoring jarayonining pedagogik ahamiyatini asoslashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki monitoring faqat mavjud natijani aniqlash emas, balki talabaning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini belgilashga ham yordam beradi.

A.N.Leontevning faoliyat nazariyasida esa shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshishi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, talabaning o‘quv natijalarini baholashda faqat yakuniy javob emas, balki uning o‘quv faoliyati jarayoni, maqsadga yo‘naltirilgan harakati, mustaqil izlanishi va refleksiv munosabati ham hisobga olinishi lozim. Bu esa raqamli monitoring tizimlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda baholashning diagnostik, formatif va summativ shakllari alohida ajratib ko‘rsatiladi. Diagnostik baholash talabaning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlashga xizmat qilsa, formatif baholash o‘quv jarayoni davomida rivojlanishni kuzatish va zarur tuzatishlar kiritishga yordam beradi. Summativ baholash esa yakuniy natijani

aniqlaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalari aynan ushbu baholash shakllarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi, chunki u talabaning o‘quv faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib boradi.

UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning ta’limda sun’iy intellektga oid tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va baholashni obyektivlashtirishdagi imkoniyatlari alohida qayd etiladi. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi analitik tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, talabaning rivojlanish trayektoriyasini aniqlash hamda o‘qituvchiga pedagogik qaror qabul qilishda yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Shu asosda aytish mumkinki, mavjud ilmiy adabiyotlar monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zaruratini nazariy jihatdan asoslab beradi. Biroq ushbu texnologiyalarni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish, ularning metodik imkoniyatlarini aniqlash va amaliy modelini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, psixologiya, raqamli ta’lim, ta’lim analitikasi va sun’iy intellekt texnologiyalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Bu orqali mavzuning nazariy asoslari, asosiy tushunchalari va amaliy ahamiyati aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida monitoring va baholash jarayoni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bunda talabaning o‘quv faoliyati, o‘qituvchining boshqaruv faoliyati, raqamli platformalar, sun’iy intellekt algoritmlari, baholash mezonlari va natijalarni tahlil qilish jarayoni yagona tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv monitoring va baholash jarayonini faqat texnik nazorat emas, balki pedagogik boshqaruv mexanizmi sifatida tushunishga imkon berdi. Tadqiqotning empirik bosqichida pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va diagnostik tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish orqali talabalarning raqamli ta’lim platformalaridagi faolligi, topshiriqlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish darajasi o‘rganildi. So‘rovnomalar orqali esa talabalar va o‘qituvchilarning sun’iy intellekt asosidagi monitoring va baholash tizimlariga munosabati aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida modellashtirish metodidan foydalanilib, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida monitoring va baholash tizimini tashkil etishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model diagnostika, kuzatuv, tahlil, baholash, individual tavsiya berish va pedagogik tuzatish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan foydalanish esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Raqamli ta’lim muhiti zamonaviy o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib

bormoqda. Ushbu muhitda ta’lim jarayoni an’anaviy auditoriya doirasidan chiqib, elektron platformalar, masofaviy o‘qitish tizimlari, virtual resurslar va interaktiv vositalar orqali tashkil etiladi. Bunday sharoitda o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash ham yangi mazmun kasb etadi. Endilikda baholash faqat dars yakunida yoki semestr oxirida amalga oshiriladigan nazorat shakli emas, balki butun o‘quv jarayoni davomida talabaning rivojlanishini kuzatib boruvchi uzluksiz tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari raqamli ta’lim muhitida monitoring va baholash jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Avvalo, sun’iy intellekt talabaning o‘quv faoliyati bo‘yicha turli ma’lumotlarni avtomatik yig‘adi. Bu ma’lumotlarga test natijalari, topshiriqlarning bajarilish darajasi, javob berish tezligi, xatolar soni, mavzular bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, platformaga kirish faolligi va mustaqil ta’limdagi ishtirok kiradi. Ushbu ma’lumotlar oddiy statistik ko‘rsatkich sifatida emas, balki talabaning ta’limiy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim indikatorlar sifatida tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning diagnostik imkoniyatlari talabaning bilim darajasini aniqroq baholashga yordam beradi. Masalan, an’anaviy test natijasida talaba faqat nechta savolga to‘g‘ri javob bergani aniqlansa, sun’iy intellekt asosidagi tizim uning qaysi mavzuda ko‘proq xato qilgani, xatolarining sababi nimada ekani, qaysi ko‘nikmalar yetarli shakllanmagani va qanday qo‘shimcha topshiriqlar zarurligini aniqlab berishi mumkin. Bu esa baholashni oddiy nazoratdan rivojlantiruvchi pedagogik vositaga aylantiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining adaptiv imkoniyatlari ham monitoring va baholash tizimida muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi va o‘quv ehtiyojlari bir xil emas. An’anaviy ta’limda ko‘pincha barcha talabalarga bir xil topshiriq va bir xil baholash mezoni qo‘llaniladi. Raqamli ta’lim muhitida esa sun’iy intellekt talabaning individual ko‘rsatkichlariga qarab unga mos topshiriqlar, qo‘shimcha materiallar yoki mustahkamlovchi mashqlar tavsiya qilishi mumkin. Bu esa individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Baholash jarayonida obyektivlik va shaffoflik masalasi ham alohida ahamiyatga ega. An’anaviy baholashda ba’zan subyektivlik, inson omili yoki umumiy mezonlarning noaniqligi natijalarga ta’sir qilishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari esa oldindan belgilangan mezonlar asosida natijalarni tahlil qilib, baholash jarayonining adolatliligi va aniqligini oshiradi. Biroq bunda sun’iy intellekt baholashni to‘liq inson nazoratisiz amalga oshirishi kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, pedagog sun’iy intellekt bergan ma’lumotlarni tahlil qiluvchi, izohlovchi va metodik qaror qabul qiluvchi asosiy subyekt bo‘lib qoladi.

Monitoring tizimining yana bir muhim jihati — bu real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatidir. O‘qituvchi semestr oxirida emas, balki o‘quv jarayoni davomida talabaning qaysi

mavzuda orqada qolayotganini bilib boradi. Bu esa kechikkan choralar emas, balki o‘z vaqtida pedagogik yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Natijada talabaning o‘zlashtirishidagi bo‘shliqlar chuqurlashib ketmaydi, balki jarayon davomida bartaraf etiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining prognostik imkoniyatlari ham o‘quv jarayonini samarali boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Talabaning avvalgi natijalari, topshiriqlarni bajarishdagi faolligi va o‘zlashtirish dinamikasi asosida kelgusidagi natijalarni taxmin qilish mumkin. Masalan, tizim ayrim talabalar keyingi nazorat ishida past natija ko‘rsatishi mumkinligini oldindan aniqlab, o‘qituvchiga signal berishi mumkin. Bu esa pedagogga individual maslahat, qo‘shimcha topshiriq yoki qo‘llab-quvvatlovchi mashg‘ulotlarni oldindan tashkil etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi monitoring va baholash tizimlarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli bo‘lmasligi, ta’lim muassasalarida texnik infratuzilmaning to‘liq shakllanmagani, ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy axborotlarni himoya qilish masalalari alohida e’tibor talab qiladi. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni puxta metodik asos, pedagogik nazorat va axloqiy me’yorlar bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Umuman olganda, raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan monitoring va baholash tizimi o‘quv jarayonini yanada shaffof, aniq, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat talabaning natijasini baholaydi, balki uning rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, o‘qituvchining pedagogik qarorlarini asoslaydi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi ta’lim jarayonida baholash faqat yakuniy natijani aniqlovchi vosita sifatida emas, balki talabaning rivojlanishini kuzatish, qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Moscow: Pedagogika, 1986.
2. Leontev A.N. Activity, Consciousness, Personality. – Moscow: Politizdat, 1977.
3. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co., 1910.
4. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis, 1984.
5. Zimnyaya I.A. Key Competences – New Paradigm of Education Result. – Moscow: Research Center for Problems of Quality Training, 2004.

6. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
7. OECD. Digital Education Outlook 2022: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2022.
8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA MASHG‘ULOTLARNI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH USULLARI

Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: raviyajon.n@urdu.uz
Telfon raqam:+998977905233

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida rivojlantiruvchi markazlarda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish orqali bolalarning intellektual, nutqiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, maktabgacha ta’lim, rivojlantiruvchi markazlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar, interaktiv ta’lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективной организации занятий в центрах развития на основе использования технологий искусственного интеллекта в дошкольных образовательных организациях. Также анализируются вопросы обеспечения интеллектуального, речевого и творческого развития детей посредством применения современных педагогических подходов, интерактивных методов и цифровых инструментов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, дошкольное образование, центры развития, инновационные технологии, педагогические методы, интерактивное образование

Abstract. This article discusses the theoretical and practical aspects of effectively organizing classes in development centers based on the use of artificial intelligence technologies in preschool educational organizations. It also analyzes the issues of ensuring the intellectual,

speech and creative development of children through the use of modern pedagogical approaches, interactive methods and digital tools.

Keywords: artificial intelligence, preschool education, development centers, innovative technologies, pedagogical methods, interactive education.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, samaradorligini oshirish va bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Rivojlantiruvchi markazlar (o‘yin, qurish-yasash, nutq, san’at, matematika va boshqalar) maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat muhitidir. Ushbu markazlarda mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish orqali bolalarning qobiliyatlari samarali rivojlanadi.

1. Sun’iy intellektning maktabgacha ta’limdagi o‘rni

Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Maktabgacha ta’limda SI quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Individual yondashuvni ta’minlash
- Bolaning rivojlanish darajasini aniqlash
- Ta’lim jarayonini avtomatlashtirish
- Interaktiv o‘quv muhitini yaratish

Masalan, SI asosidagi dasturlar orqali bolalarning nutq rivoji, mantiqiy fikrlashi va xotirasi baholanadi hamda ularga mos topshiriqlar beriladi.

2. Rivojlantiruvchi markazlarning turlari va ularning ahamiyati

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi rivojlantiruvchi markazlar tashkil etiladi:

- Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi
- Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi
- Til va nutq markazi
- Fan va tabiat markazi
- San’at markazi

Bu markazlar bolalarning:

- mustaqil fikrlashini
- ijodkorligini
- muloqot ko‘nikmalarini
- ijtimoiy moslashuvini rivojlantiradi

Sun’iy intellektdan foydalanish ushbu markazlar faoliyatini yanada samarali qiladi.

3. Sun’iy intellekt asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish usullari

3.1. Individual ta’lim yo‘nalishini yaratish

SI yordamida har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va rivojlanish darajasi aniqlanadi. Shunga mos ravishda:

- shaxsiy topshiriqlar beriladi
- o‘yinlar darajasi moslashtiriladi
- rivojlanish monitoringi yuritiladi

3.2. Interaktiv o‘yinlardan foydalanish

Sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlar bolalarda:

- mantiqiy fikrlash
- muammo yechish
- diqqatni jamlash

ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan:

- ovozli yordamchi orqali savol-javob o‘yinlari
- rasm tanish va nomlash dasturlari
- interaktiv ertaklar

3.3. Nutq rivojlantirishda SI dan foydalanish

SI yordamida:

- bolaning talaffuzi tekshiriladi
- yangi so‘zlar o‘rgatiladi
- dialogik nutq rivojlantiriladi

Masalan, ovozli chatbotlar orqali bolalar suhbat qilishni o‘rganadilar.

3.4. Vizual va multimediya vositalardan foydalanish

Sun’iy intellekt asosidagi vizual materiallar:

- animatsiyalar
- interaktiv rasmlar
- virtual sayohatlar

bolalarning qiziqishini oshiradi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

3.5. Pedagog uchun yordamchi tizimlar

Sun’iy intellekt tarbiyachiga:

- mashg‘ulot rejasini tuzishda
- metodlarni tanlashda
- baholashda

yordam beradi.

4. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish tamoyillari

Sun’iy intellektdan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

4.1. Yosh xususiyatlarini hisobga olish

Bolalarga beriladigan topshiriqlar ularning yoshiga mos bo‘lishi kerak.

4.2. Faollik va ishtirokni ta’minlash

Har bir bola mashg‘ulotda faol qatnashishi zarur.

4.3. O‘yin orqali o‘qitish

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy ta’lim vositasidir.

4.4. Texnologiya va an’anaviy metodlar uyg‘unligi

Sun’iy intellekt an’anaviy metodlarni to‘ldirishi kerak, ularni to‘liq almashtirmasligi lozim.

4.5. Xavfsizlik va me’yorlarga rioya qilish

Bolalarning ekran oldida o‘tirish vaqti cheklangan bo‘lishi kerak.

5. Amaliy tavsiyalar

- Har bir markazda SI vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish
- Tarbiyachilarni raqamli savodxonligini oshirish
- Bolalarga mos va xavfsiz dasturlarni tanlash
- Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish
- Monitoring va tahlilni muntazam olib borish

Xulosa: Sun’iy intellekt texnologiyalaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa bolalarning intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish, innovatsion yondashuvlardan oqilona foydalanish va pedagogik mahoratni oshirish orqali ta’lim sifati yanada yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010. – 160 b.
2. To‘xtasinova M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 200 b.
3. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 180 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI MAVJUD ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUOMMOLAR VA ULARNING ECHIMLARI

Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: raviyajon.n@urdu.uz
Telfon raqam+998977905233

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchrayotgan zamonaviy pedagogik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, pedagogik muammo, innovatsiya, metodika, tarbiya, ta’lim sifati.

Аннотация: В данной научной статье анализируются современные педагогические проблемы, встречающиеся в организациях дошкольного образования, их причины и практические решения.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагогическая проблема, инновации, методология, воспитание, качество образования.

Abstract: This scientific article analyzes modern pedagogical problems encountered in preschool educational organizations, their causes and practical solutions.

Keywords: preschool education, pedagogical problem, innovation, methodology, upbringing, quality of education.

Maktabgacha ta’lim — bolalarning intellektual, jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bir qator zamonaviy pedagogik muammolar saqlanib qolmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida aynan shu davr asosiy rol o‘ynaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi.

1. Pedagogik kadrlar malakasining yetarli emasligi

Ko‘plab maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar zamonaviy metodikalarni yetarli darajada bilmaydi. Bu esa ta’lim sifati pasayishiga olib keladi.

Yechimlar:

- Pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazish
- O‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantirish

2. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning kam qo‘llanilishi

Bugungi kunda axborot texnologiyalari keng rivojlangan bo‘lsa-da, ularning MTTlarda qo‘llanilishi yetarli emas.

Yechimlar:

- Multimedia vositalaridan foydalanishni kengaytirish
- Interaktiv metodlarni joriy etish
- Raqamli ta’lim platformalarini qo‘llash

3. Oila va MTT hamkorligining sustligi

Bola tarbiyasida oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik juda muhim hisoblanadi.

Yechimlar:

- Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etish
- Seminar va treninglar o‘tkazish
- Onlayn muloqot platformalarini yo‘lga qo‘yish

4. Individual yondashuvning yetishmasligi

Har bir bolaning qobiliyati va rivojlanish darajasi turlicha bo‘lsa-da, amaliyotda umumiy yondashuv ustunlik qiladi.

Yechimlar:

- Diagnostik metodlardan foydalanish
- Individual rivojlanish rejalari tuzish
- Differensial ta’limni joriy etish

5. O‘yin faoliyatining noto‘g‘ri tashkil etilishi

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Yechimlar:

- Didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish
- Rivojlantiruvchi muhit yaratish
- O‘yin orqali ta’lim berish metodikasini takomillashtirish

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mavjud zamonaviy pedagogik muammolarni hal etish tizimli yondashuvni talab etadi. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, oila bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda moddiy-texnik bazani yaxshilash orqali ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi. Bu jarayonda pedagoglarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010. – 160 b.
2. To‘xtasinova M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 200 b.
3. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 180 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOTLAR, FAOLIYATGA ASOSLANGAN YONDASHUV, NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI

Ulug‘berdiyeva Dilbar Qarshibekovna
Urganch davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchi
e-mail: dilbarulugberdiyevae24@gmail.com
Telfon raqam: +998936122747

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishning zamonaviy metodologik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning markazida nutq o‘stirishga faoliyatga asoslangan yondashuv yotadi, ya’ni bolaning til boyligi uning turli xil ijtimoiy va o‘yin faoliyatlari jarayonida shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada nutq rivojlanishiga oid klassik va zamonaviy nazariyalar ko‘rib chiqilib, ularning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligi, xususan, ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta’minlashning samarali usullari yoritilgan. Muallif bolalar nutqini tizimli rivojlantirishda faoliyat turini to‘g‘ri tanlash va pedagogik muhitni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: bolalar nutqi, nutq o‘stirish, faoliyatga asoslangan yondashuv, nazariya va amaliyot birligi, kommunikativ kompetensiya, psixolingvistika, nutqiy faoliyat, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье исследуются современные методологические основы развития речи детей дошкольного и младшего школьного возраста. В центре исследования находится деятельностный подход к развитию речи, который анализирует формирование языкового богатства ребенка в процессе различных видов социальной и игровой деятельности. В статье рассматриваются классические и современные теории развития речи, освещается их неразрывная связь с практикой, в частности, эффективные методы обеспечения единства теории и практики в образовательном процессе. Автор приводит научные выводы по правильному выбору видов деятельности и оптимизации педагогической среды для системного развития детской речи.

Ключевые слова: детская речь, развитие речи, деятельностный подход, единство теории и практики, коммуникативная компетенция, психолингвистика, речевая деятельность, педагогическая технология.

Abstract. This article examines the modern methodological foundations of speech development in preschool and primary school-aged children. The core of the research lies in the activity-based approach to speech cultivation, analyzing how a child's vocabulary and linguistic skills are formed through various social and play-based activities. The paper reviews classical and contemporary theories of speech development, emphasizing the integral connection between theory and practice, particularly effective methods for ensuring their unity within the educational process. The author provides scientific conclusions on selecting appropriate activity types and optimizing the pedagogical environment for the systematic development of children's speech.

Keywords: children's speech, speech development, activity-based approach, unity of theory and practice, communicative competence, psycholinguistics, speech activity, pedagogical technology.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola hayotining dastlabki 1–2 yilida til kabi murakkab belgilar tizimini sezilarli darajada o‘zlashtira oladi. Bu holat inson tafakkurining noyob evolyutsion xususiyati bo‘lib, hali-hanuz to’liq tadqiq etilmagan ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi.Tug‘ma savodxonlik nazariyasi mashhur amerikalik lingvist Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan **“**Universal Grammar**”** (Umumiy grammatika) nazariyasiga asoslanadi. Olimning fikricha, har bir bola tilni o‘zlashtirishga biologik jihatdan tayyor holda tug‘iladi. Til egallanishi bolaning ongli sa’y-harakati natijasida emas, balki ravishda shakllangan ichki til tizimi (Language Acquisition Device — LAD) genetik orqali amalga oshadi [Gholami,189]. Shunday qilib, grammatika va sintaktik tuzilmalar bolaning miyasi tomonidan avtomatik tarzda “ochiladi” va faollashadi [Wexler K., 190]. Keyingi yondashuv Lev Semyonovich Vygotskiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, til va tafakkurning shakllanishi insonning ijtimoiy faoliyati va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Olimning ta’kidlashicha, nutq - bu insonning ijtimoiy ehtiyojlari va faoliyatining mahsulidir. Bola dastlab boshqalarga murojaat qiluvchi tashqi nutqda muloqotga kirishadi, so‘ng bu nutq asta-sekin ichki nutq shakliga o‘tadi va fikrlash vositasiga aylanadi. L.Vygotskiy tilni oddiy aloqa vositasi deb emas, balki insoniyatning tarixiy taraqqiyoti, mehnat faoliyati, vositalar bilan ishlash tajribasi va ijtimoiy munosabatlar natijasi sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, til — bu ijtimoiy-tarixiy tajribaning nutqiy shakldagi ifodasi, shaxsning madaniy va psixik rivojlanishida hal qiluvchi vositadir [Gerken V., 191].

Mazkur yondashuvlar turlicha manbalarga asoslansa-da, zamonaviy psixolingvistikada ularning qarashlari ko‘pincha bir-birini to‘ldiruvchi deb qaraladi. Tilga tug‘ma qobiliyat mavjud bo‘lishi mumkin, biroq bu qobiliyatning rivojlanishi va faol nutqqa aylanishi uchun ijtimoiy

muhit va faol muloqot zarurdir.Ichki nutq tafakkur shakllanishiga asos bo‘ladi. Bola dastlab boshqalarga qaratilgan nutq (ijtimoiy nutq) orqali o‘rganadi. Keyinchalik bu nutq ichki, ya’ni o‘z-o‘ziga qaratilgan (private speech) nutqqa aylanib, muammolarni hal qilish, rejalashtirish va fikrlash vositasiga aylanadi [Feigenbaum P., 192]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy muloqotda faol ishtirok etgan bolalar ko‘proq rivojlangan nutq va kognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘ladi [Polishchuk, 193].Mazkur nazariy qarash L.S.Vigotskiy, A.N.Leontiev, A.A.Leontyev, M.I.Lisina, A.K.Markova, S.L.Rubinshteyn, Ye.I.Tixeeva, D.B.Elkonin va boshqalarning ilmiy asarlarida to‘liq tavsiflanadi. Bizningcha, ushbu ikkala nazariya ham jiddiy asoslarga ega, biroq har ikkala nazariyaning ko‘rib chiqish doirasiga hissiy sezgi kiritilsa, ularning pozitsiyalari sezilarli darajada yaqinroq bo‘lishi, shubhasiz.Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxsiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishida muhim poydevor qo‘yiladigan davr bo‘lib, aynan shu bosqichda og‘zaki nutqning shakllanishi intensiv kechadi. Nutq bola hayotidagi asosiy kommunikatsion vosita bo‘lib, uning yordamida u o‘z fikrlarini ifodalaydi, atrof-muhit bilan muloqot qiladi va bilimlarni o‘zlashtiradi. Maktabgacha yosh davri - bu bolada og‘zaki va ichki nutqning, muloqot madaniyatining, ifodali fikrlash va kommunikatsion ko‘nikmalarning shakllanish bosqichi hisoblanadi. Shu davrdagi nutq rivoji nafaqat bola intellektining, balki uning hissiy-ixtiyoriy, ijtimoiy-psixologik va axloqiy shakllanishining asosidir [Fedotova S., 163]. Nutq – bu bola uchun dunyoni anglash, o‘z fikrini ifoda etish, boshqalar bilan muloqotga kirishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, maktabgacha davrda nutqiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar keyingi bosqichlardagi o‘quv muvaffaqiyatlarida, ayniqsa, o‘qish, yozish, mantiqiy fikrlash jarayonlarida sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi [Kruty K., 174].

Shunga ko‘ra nutqning rivojlanishi masalasi bolalar psixologiyasi, lingvistika, logopediya, psixolingvistika, neyropsixologiya va maktabgacha pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Bolaning nutqi uning tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismidir. Shu sababli ham nutqning rivojlanishini chuqur va tizimli o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

A.N. Leontyev nutqni inson faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi va uni ikkita asosiy nuqtai nazardan baholaydi: birinchidan, bu – kommunikatsiya vositasi sifatida faoliyat turi; ikkinchidan esa, shaxsning tafakkur tizimini tashqi va ichki jihatdan tashkil etuvchi omil [Leontyev A., 82]. Ushbu yondashuvlar bolalikdagi psixik rivojlanishning bosqichma-bosqich sotsial vositalar bilan to‘ldirilishini anglatadi.

So‘nggi yillarda S.N. Seytlin bolalar nutqini alohida til tizimi sifatida talqin qilib, “tilni egallash jarayoni – bu bolaning mustaqil lisoniy tizimni shakllantirishidir”, deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, bola tomonidan egallanayotgan til tizimi grammatika va semantika nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bola nutqining ichki qonuniyatlarini aks

ettiradi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyat orqali nutqni rivojlantirish nafaqat bolalarning tili va fikrlashini, balki estetik didini, ijtimoiy faolligini hamda o‘z fikrini erkin va ongli ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati ularning emotsiya, tafakkur, tasavvur va nutq rivojida muhim o`rin tutadi. Bu faoliyat bolaning shaxsiy tajribasini ifodalash, ijodkorlikni namoyon etish hamda estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar tasviriy faoliyatning bolaning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois, tasviriy faoliyat maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бабаева Д.Р. Нутқ устириш методикаси. – Т.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Батура И.Н., Здорикова Н.Г. Теория и методика развития речи детей дошкольного возраста. – Могилев, 2015.
3. Запуниди А.А. Роль изобразительной деятельности в развитии функций речи у детей дошкольного возраста. –

Москва, 2013.

4. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK OMILLARI VA TAMOYILLARI

Ulug‘berdiyeva Dilbar Qarshibekovna
Urganch davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchi
e-mail: dilbarulugberdiyevae24@gmail.com
Telfon raqam:+998936122747

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini tasviriy faoliyat vositasida rivojlantirishning pedagogik omillari va tamoyillari tahlil qilingan. Tasviriy faoliyat jarayonida bolaning mayda motorikasi va sensor idrokining rivojlanishi nutq markazlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada mashg‘ulotlarni tashkil etishda izchillik, ko‘rgazmalilik va ijodiy erkinlik tamoyillarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida bolalarning lug‘at boyligini oshirish va muloqot qobiliyatini shakllantirishda badiiy ijodning roli bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, nutq o‘stirish, tasviriy faoliyat, pedagogik omillar, tamoyillar, mayda motorika, sensor rivojlanish, ijodiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические факторы и принципы развития речи детей дошкольного возраста посредством изобразительной деятельности.

Научно обосновано влияние развития мелкой моторики и сенсорного восприятия на речевые центры ребенка в процессе рисования, лепки и аппликации. Также в статье освещается значение принципов последовательности, наглядности и творческой свободы при организации занятий. В результате исследования разработаны методические рекомендации по роли художественного творчества в обогащении словарного запаса и формировании коммуникативных навыков детей.

Ключевые слова: дошкольный возраст, развитие речи, изобразительная деятельность, педагогические факторы, принципы, мелкая моторика, сенсорное развитие, творческое мышление.

Abstract. This article analyzes the pedagogical factors and principles of speech development in preschool children through visual arts activities. It scientifically substantiates how the development of fine motor skills and sensory perception during visual activities (drawing, modeling, application) affects a child's speech centers. The article also highlights the importance of the principles of consistency, visualization, and creative freedom in organizing educational sessions. As a result of the study, methodological recommendations were developed regarding the role of artistic creativity in enriching children's vocabulary and forming their communicative skills.

Keywords: preschool age, speech development, visual arts activity, pedagogical factors, principles, fine motor skills, sensory development, creative thinking.

Bolaning tasviriy faoliyati deganda uning atrofdagi voqelikni ongli ravishda o‘z mahsulotida (chizish, modellashtirish, loyihalash) aks ettirishi tushuniladi. Bola o‘zining bu tasavvur ishiga, nafaqat o‘z kuzatishlarini, shuningdek so‘zlar, rasmlar va san’atning boshqa turlari orqali olingan taassurotlarini ham aks ettiradi. Bunda y atrof-muhitni yuzaki nusxalamaydi, balki to‘plangan tajriba va tasvirlangan narsaga munosabati bilan bog‘liq holda qayta ishlaydi. U tasvirlay olmaydigan narsalarini so‘zlar bilan “to‘ldiradi”.

Maktabgacha yosh – bola shaxsining jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Shu davrda nutq - fikr, his-tuyg‘u va ehtiyojlarni ifodalash, ijtimoiy muloqotga kirishish vositasi sifatida shakllanadi. Og‘zaki nutq orqali savol-javob qilish, voqealarni izchil bayon etish kabi kompetensiyalar keyingi ta’lim bosqichlari uchun tayanch bo‘ladi.

Bola nutqining tasviriy faoliyat orqali rivojlanishi bir necha psixologik, biologik, ijtimoiy va pedagogik omillar ta’sirida kechadi:

-biologik omillar – asab tizimi, qo‘l motorikasi va miyadagi Broka hamda Vernik markazlarining faolligi.

-psixologik omillar – bolaning emotsional holati, qiziqishlari, ijodiy motivatsiyasi va o‘zini ifodalash ehtiyoji.

-ijtimoiy omillar – kattalar bilan muloqot sifati, tarbiyachi nutqining boyligi, estetik muhit va vizual madaniyat.

-pedagogik omillar – tasviriy faoliyatni tashkil etish metodikasi, interfaol yondashuvlar, bola nutqini faol rag‘batlantirish.

Bolalar nutqining tasviriy faoliyat orqali rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarning o‘zaro uyg‘un ta’siri natijasida shakllanadi. Ayniqsa, pedagogik omillar – tasviriy faoliyatni tashkil etish metodikasi, interfaol yondashuvlar, bola nutqini faol rag‘batlantirish – jarayonning bosh yo‘naltiruvchisi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu omillar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, bolaning tasviriy faoliyatdagi tajribasini nutqiy faollik bilan uyg‘unlashtiradi. Ya’ni, bola rasm chizish, loydan modellashtirish, rang tanlash yoki syujet yaratish jarayonida o‘z fikrini so‘z bilan ifoda etishga, izohlashga va muloqotda qo‘llashga ehtiyoj sezadi. Shu tariqa, nutq va tasviriy faoliyat bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi pedagogik tizimni vujudga keltiradi.

Bolaning nutqini tasviriy faoliyat orqali rivojlantirish masalasi psixologik va pedagogik fanlarda keng o‘rganilgan. L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, A.R. Luriya, V.S. Muxina, M.M. Koltsova, Sh. Buhler singari olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqiy rivojlanishi har doim amaliy faoliyat bilan, xususan, tasviriy faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning nazariy qarashlariga ko‘ra, nutq – bu faoliyat mahsuli bo‘lib, u faqat ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Xususan, M.M. Koltsovaning qo‘l motorikasining miya faoliyatiga ta’siri haqidagi tadqiqotlari, shuningdek, V.M.Bexterev va P.Brokaning neyropsixologik izlanishlari, nutq va harakat markazlari o‘rtasidagi funktsional bog‘liqlikni ilmiy asoslab beradi. Bu izlanishlar tasviriy faoliyat (chizish, modellashtirish, applikatsiya) jarayonida mayda motorika faollashuvi orqali nutq markazlarini rag‘batlantirish mumkinligini isbotlangan. Tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan tamoyillar ushbu omillarni amaliyotga joriy etishning nazariy poydevorini tashkil etadi:

1. Faoliyatga asoslangan tamoyil - A.N.Leontyev va L.S.Vygotskiy konsepsiyalarida bola faoliyatida nutqning tabiiy rivojlanish mexanizmi izohlanadi. Bola faoliyat orqali so‘zlashni, so‘z orqali esa faoliyatni idrok etishni o‘rganadi.

2. Integratsiya tamoyili - A.V.Zaporojets va N.P.Sakkulina ishlarida bola nutqining estetik, bilish va emotsional jarayonlar bilan uyg‘un rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu tamoyil tasviriy faoliyat - nutq, musiqiy idrok, o‘yin va ijtimoiy muloqotni birlashtiruvchi kompleks ta’sir vositasi ekanligini isbotlaydi.

3. Ijodiylik tamoyili - Sh.Buhler, V.S.Muxina ва R.Arnheim tadqiqotlarida bolaning tasviriy faoliyatida ijodiy motiv, tasavvur ва verbal izohning uyg‘unligi asosiy rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi.

4. Individuallashtirish tamoyili esa har bir bolaning temperamentiga va kognitiv xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvni talab etadi (Elkonin, 1974).

Mazkur tamoyillar bir-birini to‘ldirib, bolaning tasviriy faoliyatidagi tajribasini nutqiy ifoda bilan uyg‘unlashtiradi. Bizning fikrimizcha, aynan shu tamoyillar va omillar uyg‘unligi tasviriy faoliyatni nutq rivojining integrativ mexanizmiga aylantiradi. Chunki bunda bola nafaqat predmetni tasvirlaydi, balki uni so‘z bilan belgilaydi, izohlaydi va mazmun beradi. Shu jihatdan, tasviriy faoliyat orqali nutqni rivojlantirish jarayoni kognitiv, emotsional va kommunikativ faoliyatning birlashgan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy tamoyillar amaliyotda o‘z ifodasini topganda, ular bolalar tasviriy faoliyati jarayonida nutqni tabiiy va izchil shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ya’ni, tamoyillar faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki maktabgacha ta’lim jarayonining real tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyat orqali nutqni rivojlantirish nafaqat bolalarning tili va fikrlashini, balki estetik didini, ijtimoiy faolligini hamda o‘z fikrini erkin va ongli ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati ularning emotsiya, tafakkur, tasavvur va nutq rivojida muhim o`rin tutadi. Bu faoliyat bolaning shaxsiy tajribasini ifodalash, ijodkorlikni namoyon etish hamda estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar tasviriy faoliyatning bolaning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois, tasviriy faoliyat maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бабаева Д.Р. Нутқ устириш методикаси. – Т.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Батура И.Н., Здорикова Н.Г. Теория и методика развития речи детей дошкольного возраста. – Могилев, 2015.
3. Запуниди А.А. Роль изобразительной деятельности в развитии функций речи у детей дошкольного возраста. –
Москва, 2013.
4. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000.

MAKTABGACHA TA’LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Email: sadoqatnazarova086@gamil.com
Telfon raqam: +998932882695
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Qadamova Gulbadan Bekpo‘lat qizi
Tel: +9989502110095
Email: qadamovagulbadan20@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta’lim tizimida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faolligi, ijodiy fikrlash, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlashdir. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘yin texnologiyalari, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar interfaol metodlarning ta’lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, pedagogik texnologiya, kompetensiya, hamkorlikda o‘qitish, AKT, innovatsiya.

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical foundations, methodological approaches, and practical effectiveness of using interactive methods in preschool education. The main objective of the study is to determine the role and importance of interactive methods in developing cognitive activity, creative thinking, social-emotional development, and communicative ecompetencies in preschool children. The article highlights modern pedagogical technologies, game-based learning, cooperative learning, problem-based education, and the use of information and communication technologies (ICT). The research methodology includes theoretical analysis, pedagogical observation, experimental work, and comparative analysis. The results demonstrate that interactive methods significantly improve the quality and effectiveness of preschool education.

Keywords: preschool education, interactive methods, game-based learning, pedagogical technology, competence, cooperative learning, ICT, innovation.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические основы, методологические подходы и практическая эффективность использования

интерактивных методов в системе дошкольного образования. Основной целью исследования является определение роли интерактивных методов в формировании познавательной активности, творческого мышления, социально-эмоционального развития и коммуникативных компетенций удетей дошкольного возраста. В статье рассматриваются современные педагогические технологии, игровые технологии, обучение в сотрудничестве, проблемное обучение и использование информационно-коммуникационных технологий. Методология исследования включает теоретический анализ, педагогическое наблюдение, экспериментальные методы и сравнительный анализ. Полученные результаты подтверждают эффективность интерактивных методов в повышении качества дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, интерактивные методы, игровые технологии, педагогические технологии, компетентность, обучение в сотрудничестве, ИКТ, инновации.

Maktabgacha ta’lim inson shaxsining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning psixologik, ijtimoiyva intellektual rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi bolalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim jarayonida ularni faol subyektga aylantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan interfaol metodlar maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.Interfaol metodlar –bu o‘qituvchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan, bolalarning faol ishtirokini ta’minlovchi ta’lim usullaridir. Bunday metodlar ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun interfaol metodlar, ayniqsa, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda yuqori natija beradi.

Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda bilish jarayoniga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi hamda ularning faol o‘rganishiga zamin yaratadi. Bunday metodlar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi. Interfaol yondashuvlar jarayonida bolalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, tengdoshlar bilan hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalarini egallaydi. Shuningdek, bu metodlar bolalarda ijtimoiy muloqot madaniyati va o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida o‘yin, munozara va guruhli faoliyat elementlarining qo‘llanilishi bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ta’lim jarayoni majburiy emas, balki qiziqarli va motivatsion faoliyatga aylanadi. Shu sababli interfaol metodlardan samarali foydalanish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Interfaol metodlar masalasi pedagogika fanida uzoq yillar davomida tadqiq etilib kelinayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodlarning nazariy asoslari, avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, taniqli psixolog va pedagog L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlik faoliyatining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yangi bilimva ko‘nikmalarni egallaydi, bu esa interfaol metodlarning ilmiy-pedagogik asosini tashkil etadi. Shuningdek, J. Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning bilish jarayoni faoliyat, ayniqsa, o‘yin faoliyati orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Olimning fikricha, o‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, tajriba orttiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta’limda interfaol metodlardan, xususan, didaktik va rolli o‘yinlardanfoydalanishning nazariy asoslarini belgilab beradi. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar esa interfaol metodlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qilib, ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bermoqdalar.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish masalasi keng ko‘lamda o‘rganilgan. Mahalliy tadqiqotlarda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘yin texnologiyalarining samaradorligi alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali mashg‘ulotlarning mazmunini boyitish, bolalarning vizual va eshitish orqali qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish masalalari ham ilmiy asosda yoritilgan, interfaol metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shuningdek, ushbu metodlar bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois interfaol metodlardan foydalanish masalasi zamonaviy maktabgacha ta’lim pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy izlanishlarning ishonchliligi va xolisligini ta’minlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv tanlandi. Avvalo, nazariy tahlil usuli yordamida maktabgacha ta’limda interfaol metodlardan foydalanishga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o‘rganildi hamda tizimli ravishda umumlashtirildi. Bu esa tadqiqotning konseptual asoslarini belgilashga xizmat qildi. Empirik tadqiqotlar jarayonida bir qator maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kuzatuvlar tashkil etildi. Kuzatuv davomida

mashg‘ulotlarning o‘tkazilish shakllari, bolalarning faolligi, muloqot darajasi va o‘quv jarayonidagi ishtiroki tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari doirasida interfaol metodlarning turli shakllari, jumladan, rolli va syujetli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi mashg‘ulotlar amaliyotga tatbiq etildi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil usuli orqali an’anaviy metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilan interfaol metodlar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar natijalari o‘zaro solishtirildi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, sifat tahlili asosida umumiy xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Vygotskiy L.S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

2.Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1969.

3.Xolmatova D. Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2018.

4.Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning. Boston: Allyn & Bacon, 2009.

5.Slavin R. Educational Psychology. Boston: Pearson, 2014.

NEW MODERN RESEARCHERS: MODERN PROPOSALS AND SOLUTIONS.International online conference.Date: 25thJanuary-202692

6.UNESCO. Early Childhood Care and Education. Paris, 2015.7.G‘afforova M. Innovatsion ta’lim metodlari. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

7.Bruner J. The Process of Education. Cambridge: Harvard University Press, 1960.

8.Nurmatova S. Axborot texnologiyalari va ta’lim. Samarqand, 2019.10.OECD. Starting Strong: Early Childhood Education and Care. Paris, 2017

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA IJTIMOIY MAS’ULIYATLILIK KOMPENSATSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Email: sadoqatnazarova086@gamil.com
Telfon raqam: +998932882695

Annotatsiya: Mazkur maqolada differensial yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, amaliy faoliyat va refleksiya orqali ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasi, differensial yondashuv, pedagog, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, metodika, takomillashtirish, refleksiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методологии развития компетенции социальной ответственности у будущих учителей на основе дифференцированного подхода. Анализируются педагогические возможности формирования социальной ответственности посредством личностно-ориентированного образования, практических занятий и рефлексии.

Ключевые слова: компетенция социальной ответственности, дифференцированный подход, учитель, личностно-ориентированное образование, методология, совершенствование, рефлексия

Abstract: This article discusses the issues of improving the methodology for developing social responsibility competence in future teachers based on a differentiated approach. The pedagogical possibilities of forming social responsibility through person-centered education, practical activities and reflection are analyzed.

Keywords: social responsibility competence, differentiated approach, teacher, person-centered education, methodology, improvement, reflection

Ta’lim tizimining modernizatsiya jarayonida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda faqat kasbiy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, ularning ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi hamda ta’lim muassasalariga nisbatan jamiyat talablarining ortib borishi pedagog shaxsidan yuqori darajadagi ijtimoiy ong, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy barqarorlikni talab etmoqda. Shu sababli differensial yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi. Ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasi pedagogning jamiyat, ta’lim muassasasi, ta’lim oluvchilar, ota-onalar va kasbiy hamjamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash, ijtimoiy muammolarga faol munosabat bildirish, kasbiy faoliyatda etik-me’yoriy talablarni ongli ravishda bajarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya pedagog shaxsining muhim integrativ sifati bo‘lib, uning kasbiy madaniyati va ijtimoiy yetukligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Differensial yondashuv bo‘lajak pedagoglarning individual xususiyatlari, bilim va tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, motivatsiyasi hamda kasbiy yo‘nalishini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika har bir bo‘lajak pedagog uchun mos rivojlanish yo‘nalishini belgilash, ularning shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va samarali tus oladi.

Metodikani takomillashtirishda diagnostika tizimini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasi darajasini aniqlash, ularning ehtiyojlari va muammolarini aniqlash asosida differensial topshiriqlar, individual ta’lim yo‘nalishlari va moslashtirilgan o‘quv materiallari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa metodikaning manzilliligi va samaradorligini oshiradi. Takomillashtirilgan metodika doirasida interfaol va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim shakllaridan keng foydalanish muhimdir. Xususan, muammoli ta’lim, keys-stadi, loyihaviy faoliyat, ijtimoiy yo‘naltirilgan topshiriqlar, volontyorlik faoliyati hamda xizmat ta’limi (service learning) elementlari bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy mas’uliyatni real faoliyat jarayonida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu orqali ijtimoiy mas’uliyat faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va ichki ehtiyoj sifatida qaror topadi.

Shuningdek, metodikada refleksiv-motivatsion komponentni kuchaytirish muhim yo‘nalishlardan biridir. Refleksiya orqali bo‘lajak pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini anglash va shaxsiy mas’uliyat hissini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Axloqiy dilemmalar, kasbiy vaziyatlar tahlili va munozaralar bo‘lajak pedagoglarda ongli va mas’uliyatli kasbiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy mas’uliyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish hamda kelajak pedagoglarining ijtimoiy va kasbiy yetukligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Takomillashtirilgan metodika orqali jamiyat oldidagi mas’uliyatni chuqur anglaydigan, ijtimoiy faol va axloqiy jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Differentsial yondashuvda ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarda ta’lim oluvchilarning fikrlashini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, uning asoslari quyidagilardan iborat ‘

-psixologik-pedagogik nuqtai nazardan –har bir ta’lim oluvchining moyilligini aniqlash, qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratish;

-didaktik nuqtai nazardan –ta’lim maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish uchun differentsial ta’limning yangi metodik tizimini yaratish;

-ijtimoiy nuqtai nazardan –har bir insonning imkoniyatlaridan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanish uchun kasbiy, ijodiy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga maqsadli ta’sir etish. Differentsial yondashuvning o‘ziga xos ijobiy jihatlari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

-mashg‘ulotlar davomida past o‘zlashtiruvchi ta’lim oluvchilar bilan ko‘proq shug‘ullanishga harakat qilish natijasida iqtidorli talabalarning fanga nisbatan qiziqishlari pasayishi mumkin;

-ta’lim oluvchilarning faqat qobiliyatlari va qiziqishlarining rivojlanish darajasiga ko‘ra differentsiallash har doim ham kutilgan natijaga olib kelmasligi mumkin;

-ba’zan esa talabalarning past o‘zlashtiruvchi guruhlarga o‘tishi ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini susayishi hamda fanga nisbatan qiziqishining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotlarda differentsial yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil qilishning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Masalan, o‘quv jarayonini differentsial yondashuvasosida tashkil etish masalalari bilan umumiy o‘rta maktablarda O.V.Korshunova., L.G.Kildyaeva va boshqalar, litseylarda A.Yu.Bakirova va boshqalar shug‘ullanishgan. A.Yu.Bakirova tadqiqotida differentsiallab o‘qitishda matematik fikrlashni shakllantirishning uslubiy shartlari aniqlangan; litseylarda matematikani differentsiallab o‘qitishda o‘quv materialining mazmunini amalga A.Yu.Bakirova Tabaqalashtirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish (akademik litseylar materiali asosida oshirishning asosiy shakllari va usullarini ishlab chiqilgan; litsey o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limning shakllari, usullari va vositalari takomillashtirilgan. O.V.Korshunova ishlarida esa, differentsial va integral usullar to‘g‘risidagi fanlararo bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishga integrativ va differentsial yondashuvlar asosida qishloq maktab o‘quvchilarini o‘qitishga integrativ-differentsial yondashuvning mohiyati aniqlangan; qishloq maktablarida ta’limning muhim jihatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayoni komponentlarining integratsiyalashuvi va differentsiallashuvining birligini ta’minlashning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. L.G.Kildyaeva tadqiqotida esa o‘rta maktab amaliyotida boshlang‘ich sinflarda geometriyani o‘qitishda differentsial yondashuvdan foydalanish muammosi o‘rganilgan; o‘quvchi shaxsining motivatsion-ehtiyojli, mazmunlioperatsion va emotsional-hissiy komponentlari darajasini oshirish uchun har xil murakkablik darajasidagi topshiriqlarning imkoniyatlari aniqlangan va o‘rganilgan; har bir o‘quvchilar guruhi uchun ularning rivojlanish darajasiga mos keladigan hamda o‘qitishning yuqori darajadagi tipologik guruhiga o‘tishga imkon beradigan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoninig differentsial yondashuv asosida tashkil etish masalasining ayrim jihatlari M.V.Stepanova., T.V.Lugovaya., N.V.Ostanina., Yu.A.Petrovalarning ishlarida o‘rganilgan. M.V.Stepanova tadqiqotida ta’limni individuallashtirish va differentsiallash muammosini hal qilishga asosiy yondashuvlar o‘rganilgan; individual va differentsial yondashuv o‘qitish tizimining xususiyatlariga bog‘liq ekanligi asoslangan; differentsial yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchining zamonaviy tajribasi o‘rganilgan; rivojlanuvchi ta’lim tizimida talabalarni guruhlarga ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan mezonlar tizimi aniqlangan; rivojlanuvchi ta’lim tizimida differentsial yondashuvning pedagogik texnologiyasini ishlab

chiqishga yondashuvlar konstruktsiyalashtirgan. T.V.Lugovaya tadqiqotida esa, o‘quv –bilish faoliyatining guruhli shakllaridan foydalanishning asosiy maqsadlari aniqlangan; talabalarda fikrlash rivojlanishida kichik guruhlarning imkoniyatlari va ularda talabalarning o‘zaro munosabatlarini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan; talabalarningguruhli o‘zaro ta’sirlashuvini tashkil etish asosi sifatida differentsial yondashuvdan foydalanilgan; differentsial yondashuv asosida kichik guruhlarda talabalarning o‘zaro ta’sirlashuv modeli ishlab chiqilgan; talabalarning hamkorlikda ishlash kompetentsiyasini va kichik guruhlarni shakllantirish darajasini baholash uchun pedagogik vositalar ishlab chiqilgan. N.V.Ostanina ishlarida esa, o‘quv jarayonida differentsial yondashuvni amalga oshirishga o‘qituvchining tayyorgarligini rivojlantirish modeli asoslangan; o‘qituvchining ushbu turdagi faoliyatni yuqori darajada bajarishga tayyorligini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan pedagogik sharoitlarning samaradorligi aniqlangan; o‘qituvchining o‘quv jarayonida differentsial yondashuvni amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Yu.A.Petrova ishlarida, dasturiy ta’minotning o‘quv jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash muhiti tahlil qilingan; differentsial yondashuv asosida ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitish jarayonini tashkil etish tamoyillari aniqlangan va ular tamoyillar asosida o‘quv -metodik tizim ishlab chiqilgan

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’limga differentsial yondashuv muammosini hal qilish bo‘yicha vatinimiz va xorijiy pedagogikada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Differentsial yondashuv ta’lim oluvchilarning qobiliyatlarini va fanga nisbatan qiziqishini aniqlash hamda rivojlantirishga imkon beradi. Ta’lim oluvchilar o‘zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda vazifalarni tanlash imkoniga ega bo‘ladilar. Differentsial yondashuv pedagogik jarayonni ancha osonlashtiradi. Katta auditoriyada har bir talaba bilan o‘zaro aloqaning mazmuni va shakllarini aniqlash har doim ham mumkin emas. Differentsial yondashuvdan foydalanish har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda uning ehtiyojlarini qondiradigan ta’lim tizimini yaratishga imkon beradi. Ammo, shunga qaramasdan, bu muammo xozirgacha pedagogik amaliyotda yechimini to‘liq topa olmagan, ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida deyarli o‘rganilmagan. Bir tomondan, ta’limni maksimal darajada individuallashtirish va differentsiallash uchun shart-sharoit yaratish, differensiallashning mustaqil ishdasamaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘quv jarayonini tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish kabi masalalar bugungi kundagi muhim masalalar bo‘lib hisoblanmoqda. Boshqa tomondan esa, differentsial yondashuvning har qanday ijobiy tajribasini boshqa ijtimoiy-tarixiy sharoitga mexanik ravishda o‘tkazish samarali natijani bermaydi. Bundan tashqari,

tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermasligi; oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayonida talabaning individual saloxiyatini rivojlantirish va amalga oshirishning pedagogik shart – sharoitlari va moddiy -texnik ba’zasining yetarli emasligi; kredit –modul tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga individual yondashuvning pedagogik va psixologik asoslari yetarli darajada o‘rganilmaganligi; kredit –modul tizimida zamonaviy pedagogik ta’limning haqiqiy mazmuni va talabalarning kasbiy tayyorgarligiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarga mos emasligi; kredit –modul tizimida o‘qitishda differentsial yondashuvning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish amaliyotda yetarli darajada o‘rganilmaganligi va boshqalar. Bu muammolarni yechimi esa, kredit –modul tizimida differentsial yondashuvning mazmuni va mohiyatini hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart –sharoitlarini aniqlash, talabaning kasbiy tayyorgarligini differentsial yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishkabi bir qator vazifalarni hal etishni taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qarori
2. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov "Umumiy pedagogika" « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
3. J.G'.Yo'ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov "Pedagogik diagnostika" o'quv metodik qo'llanma T.:2014
4. Maktabgacha pedagogika. F.R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova, M. N. Azamova “Tafakkur" Nashriyoti Toshkent -2019

REFLEKSIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Azadova Mahliyo Odilbekovna
UrDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Telfon raqam:+99891-862-56-78
Azadovamahliyo99@gmail.com
UrDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari
Xolmurotova Malohat Aybekovna
Sariyeva Maysa Allamurod qizi
Reimboeva Risolat Kenjaboy qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada refleksiv faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, refleksiya tushunchasining mohiyati, uning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z-

o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida refleksiv yondashuvni qo‘llashning samarali usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, refleksiv faoliyat, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta’lim, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash, ta’lim samaradorligi

Аннотатция: В данной статье рассматриваются современные педагогические технологии развития рефлексивной деятельности, их роль и значение в образовательном процессе. Раскрывается сущность понятия рефлексии, а также её влияние на формирование навыков самостоятельного мышления, самооценки и анализа у обучающихся. Представлены эффективные методы применения рефлексивного подхода на основе современных образовательных технологий.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивная деятельность, педагогические технологии, современное образование, самостоятельное мышление, самооценка, эффективность обучения

Annotation: This article examines modern pedagogical technologies for developing reflective activity, as well as their role and importance in the educational process. The essence of reflection is revealed, along with its impact on the development of independent thinking, self-assessment, and analytical skills in learners. Effective methods of applying a reflective approach based on modern educational technologies are presented.

Keywords: reflection, reflective activity, pedagogical technologies, modern education, independent thinking, self-assessment, learning effectiveness

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va doimiy ravishda o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda refleksiv faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Refleksiya — bu shaxsning o‘z fikr, his-tuyg‘u va faoliyat natijalarini anglash, baholash hamda takomillashtirishga yo‘naltirilgan ichki jarayon bo‘lib, u ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish refleksiv faoliyatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda baholashga undaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda ta’lim jarayonida refleksiv yondashuvni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois

refleksiv faoliyatni rivojlantirishning samarali pedagogik texnologiyalarini aniqlash va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — refleksiv faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

-refleksiv faoliyat tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;

-zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyatini o‘rganish;

-refleksiv faoliyatni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metod va vositalarni aniqlash;

-ta’lim jarayonida refleksiyani shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish[1].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda refleksiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan g‘oya va tavsiyalar ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish masalasi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Xususan, refleksiya tushunchasi pedagogik faoliyatning ajralmas komponenti sifatida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey refleksiv fikrlashni insonning tajribasini anglash va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan ongli faoliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, refleksiya ta’lim jarayonida chuqur va mazmunli o‘rganishni ta’minlaydi hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojida muhim o‘rin tutadi.

Refleksiv amaliyot nazariyasini rivojlantirgan olimlardan biri Donald Schön bo‘lib, u o‘zining “The Reflective Practitioner” asarida pedagoglarning faoliyat davomida va faoliyatdan so‘ng fikrlash jarayonlarini (“reflection-in-action” va “reflection-on-action”) ajratib ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining amaliy tajribasini tahlil qilish orqali kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi [2].

Shuningdek, David Kolb tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o‘qitish modeli refleksiyani o‘quv jarayonining muhim bosqichi sifatida e’tirof etadi. Kolbning nazariyasiga ko‘ra, bilim hosil qilish jarayoni tajriba, uni kuzatish, tahlil qilish va umumlashtirish bosqichlari orqali amalga oshadi. Bu esa refleksiyaning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi rolini ko‘rsatadi.

Refleksiv faoliyatni rivojlantirish metodikasi Jennifer Moon tomonidan ham keng o‘rganilgan bo‘lib, u refleksiyani shakllantirishda portfoliolar, yozma tahlillar va kundaliklar kabi vositalarning samaradorligini asoslab beradi. Muallif refleksiv ko‘nikmalarni bosqichma-

bosqich rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari Linda Darling-Hammond tadqiqotlarida ham muhim o‘rin egallaydi. U o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv yondashuvni qo‘llash orqali ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini asoslaydi [3].

MDH olimlaridan Vladimir Slastenin pedagogik faoliyatni kasbiy jihatdan rivojlantirishda refleksiya muhim mexanizm ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilmas ekan, pedagogik mahoratni oshirish qiyin kechadi. Shuningdek, Alexander Khutorskoy tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuvda refleksiv kompetensiya o‘qituvchining asosiy kasbiy sifatlaridan biri sifatida qaraladi. Bu yondashuv ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv faoliyat pedagoglarning kasbiy rivojlanishida, ta’lim sifatini oshirishda hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini pedagogik jarayonda refleksiv faoliyatni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Xususan, refleksiv fikrlash va tajribaviy o‘qitish nazariyalari muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu borada John Deweyning refleksiv fikrlash konsepsiyasi, Donald Schönning refleksiv amaliyot nazariyasi hamda David Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.
Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv qo‘llanilib, pedagogik hodisalarni tizimli va izchil o‘rganish nazarda tutildi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak pedagoglarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish darajasini aniqlash hamda taklif etilgan metodlarning samaradorligini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi[4].

Dastlabki bosqichda o‘tkazilgan diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalarda refleksiv ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Xususan, ularning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish qobiliyatlari past yoki o‘rta darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat John Dewey va Donald Schön ta’kidlagan refleksiv fikrlashning pedagogik jarayondagi muhim o‘rni bilan mos keladi.

Tajriba-sinov bosqichida refleksiv faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi metodlar joriy etildi:

-muammoli o‘qitish texnologiyasi;

-refleksiv kundaliklar yuritish;

-portfoliolar tuzish;

-trening va muhokama mashg‘ulotlari;

-o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish topshiriqlari.

Mazkur metodlar David Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli hamda Jennifer Moon tomonidan taklif etilgan refleksiv yondashuvlarga asoslangan holda tanlandi.

Tajriba yakunida olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

-tajriba guruhida refleksiv ko‘nikmalar sezilarli darajada oshdi;

-talabalar o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va baholashga ko‘proq e’tibor bera boshladi;

-muammoli vaziyatlarni hal etishda ijodiy va tanqidiy yondashuv shakllandi;

-o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiya kuchaydi.

Statistik tahlillar natijasida tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, yuqori darajadagi refleksiv ko‘nikmalarga ega talabalar ulushi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, refleksiv faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar hamda interaktiv metodlardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari refleksiv yondashuvni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa pedagog kadrlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy va tahliliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi[5].

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Globallashuv jarayonlari va ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar pedagoglardan nafaqat chuqur bilim, balki mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini ham talab etmoqda.

Tadqiqot davomida refleksiya tushunchasining nazariy asoslari John Dewey, Donald Schön va David Kolblarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar refleksiv faoliyat pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Amaliy tajriba-sinov ishlari natijalari refleksiv faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar — muammoli o‘qitish, refleksiv kundaliklar, portfoliolar va treninglarning samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu metodlar talabalarning o‘z-o‘zini tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy faoliyatini baholash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari refleksiv yondashuvni tizimli ravishda ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini isbotladi. Bu esa kelgusida yuqori malakali, raqobatbardosh va innovatsion fikrlay oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiv faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 15–28-betlar.
2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 42–56-betlar.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 60–75-betlar.
4. Nishonova S., Alimuhamedova D. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 88–95-betlar.
5. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 120–135-betlar.
6. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 50–63-betlar.
7. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 140–155-betlar.
8. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2009. – 98–110-betlar.
9. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. – 200–215-betlar.
10. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998. – 75–90-betlar.

INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA REFLEKSIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Azadova Mahliyo Odilbekovna
UrDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Telfon raqam:+99891-862-56-78
Azadovamahliyo99@gmail.com
UrDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari
Qalandarova Mehrishod Aybek qizi
Bozorboeva Sarbinoz Adilboevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada interaktiv usullar yordamida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Refleksiv faoliyatning mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, interaktiv metodlar va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiv kompetensiya, interaktiv usullar, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, o‘z-o‘zini baholash, ta’lim jarayoni.

Аннотатция: В данной статье рассматриваются механизмы развития рефлексивной компетенции с помощью интерактивных методов. Освещается сущность рефлексивной деятельности, её значение в образовательном процессе, а также роль в формировании навыков самооценки, анализа и самостоятельного мышления у обучающихся. Кроме того, анализируются эффективные способы развития рефлексивной компетенции на основе интерактивных методов и современных цифровых технологий.

Ключевые слова: рефлексивная компетенция, интерактивные методы, рефлексия, педагогические технологии, самооценка, образовательный процесс.

Annotation: This article analyzes the mechanisms for developing reflective competence through interactive methods. It highlights the essence of reflective activity, its importance in the educational process, and its role in developing self-assessment, analytical thinking, and independent learning skills among learners. The paper also examines effective ways to enhance reflective competence using interactive methods and modern digital technologies.

Keywords: reflective competence, interactive methods, reflection, pedagogical technologies, self-assessment, educational process.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kompetensiyalar ichida refleksiv kompetensiya alohida o‘rin tutadi.

Refleksiv kompetensiya — bu o‘quvchining o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va faoliyat natijalarini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi hamda ularni takomillashtirishga intilish qobiliyatidir. Mazkur kompetensiyani shakllantirish ayniqsa maktabgacha ta’lim bosqichida muhim bo‘lib, bu davrda bolaning shaxsiy rivojlanish asoslari shakllanadi. Shu sababli refleksiv faoliyatni erta yoshdan boshlab rivojlantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interaktiv usullar refleksiv kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini ifodalashga va o‘z faoliyatini baholashga undaydi. Ayniqsa, savol-javob, muhokama, o‘yin texnologiyalari kabi usullar refleksiv jarayonni tabiiy va samarali tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga keng joriy etilayotgani refleksiv kompetensiyani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda o‘z-o‘zini baholash jarayonini tashkil etish yanada qulaylashadi.Mavzuning dolzarbligi interaktiv usullar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o‘quvchini o‘z faoliyatini anglay oladigan, tahlil qiladigan va takomillashtira oladigan shaxs sifatida shakllantirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — interaktiv usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

-refleksiv kompetensiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish;

-interaktiv usullarning imkoniyatlarini o‘rganish;

-refleksiv faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash;

-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalar asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo‘llari tizimli ravishda yoritib beriladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan g‘oyalar va tavsiyalar ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish hamda o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Refleksiv kompetensiyani rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar refleksiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasini rivojlantirishda o‘zbek olimlaridan J.G‘. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovlarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular pedagogik texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini asoslab berganlar. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva esa pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini yoritib, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ko‘rsatib o‘tganlar. R.J. Ishmuhamedov o‘z tadqiqotlarida interaktiv metodlarning o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlab, ularning refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. N.A. Muslimov esa zamonaviy ta’lim texnologiyalarining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilgan.

Refleksiya va psixologik jarayonlar masalasi E.G‘. G‘oziev hamda B.R. Qodirovlarning ilmiy ishlarida yoritilib, unda shaxsning o‘z-o‘zini anglash va baholash jarayonlari psixologik jihatdan asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlar refleksiv kompetensiyaning shakllanishida psixologik omillarning muhimligini ko‘rsatadi.

Xorijiy olimlardan G.K. Selevko zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimlashtirib, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini ilmiy asoslab bergan. M.V. Klarin esa innovatsion ta’lim texnologiyalarining interaktiv xususiyatlarini ochib, ularning refleksiv faoliyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ta’siri ham keng o‘rganilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning bilim darajasini aniqlash hamda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati ortib borayotgani ta’kidlanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Biroq maktabgacha ta’lim jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida refleksiv faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada refleksiv kompetensiyani interaktiv usullar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari sohalarining integratsiyasi asos qilib olindi.Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda refleksiv yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali refleksiv kompetensiya hamda interaktiv usullar mohiyati o‘rganildi; Empirik metodlar: kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va test metodlari orqali ta’lim jarayonida refleksiv faoliyatning holati tahlil qilindi;

Pedagogik tajriba-sinov ishlari: interaktiv usullar va raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ularning samaradorligi aniqlandi.Taqqoslash va tahlil qilish: an’anaviy va innovatsion yondashuvlar natijalari solishtirildi; Matematik-statistik metodlar: olingan natijalarni qayta ishlash va ularning ishonchliligini aniqlash uchun qo‘llanildi. Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, nazariy

asoslar ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda amaliy tajribalar tashkil etilib, interaktiv usullar va raqamli texnologiyalar orqali refleksiv kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari sinovdan o‘tkazildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.Tadqiqotning metodologik yondashuvi maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etildi. Xususan, refleksiv kompetensiyani rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda sun’iy intellekt asosidagi raqamli vositalardan kompleks foydalanishga alohida e’tibor qaratildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv usullar yordamida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiv kompetensiya o‘quvchining o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirib, uning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini faollashtiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim bosqichida refleksiv faoliyatni shakllantirish o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda raqamli ta’lim vositalari orqali samarali amalga oshiriladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar bolalarning individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga imkon yaratadi.

Shuningdek, interaktiv usullar — savol-javob, muhokama, o‘yin faoliyati va vizual refleksiya vositalari bolalarda o‘z faoliyatiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi hamda refleksiv jarayonni tabiiy tarzda rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va individual yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-refleksiv kompetensiya shaxsning muhim rivojlanish komponenti hisoblanadi;

-interaktiv usullar refleksiv fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi;

-sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi;

-maktabgacha ta’limda refleksiv faoliyatni erta shakllantirish kelajakdagi ta’lim samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, interaktiv usullar va zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ta’lim jarayonida ushbu yondashuvlarni keng joriy etish va metodik ta’minotni takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 15–28-betlar.

2.Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2006. – 60–78-betlar.

3.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 42–56-betlar.

4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 25–40-betlar.

5. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 55–72-betlar.

6. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 140–155-betlar.

7. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2009. – 98–110-betlar.

8. Nishonova S., Alimuhamedova D. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 88–95-betlar.

9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. – 44–58-betlar.

10. To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 90–105-betlar.

RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLAR, TA’LIMIY FAOLIYAT VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Qalandarova Baxtigul Ozad qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Email: qalandarovabaxtigul@gamil.com
Telfon raqam: +998937699502

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlantiruvchi markazlarning mohiyati, ularning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, markazlarda olib boriladigan ta’limiy faoliyatning mazmuni, shakllari va metodlari tahlil qilinadi. Rivojlantiruvchi markazlarga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik, psixologik va tashkiliy talablar ko‘rib chiqilib, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: rivojlantiruvchi markazlar, ta’limiy faoliyat, pedagogik yondashuv, ta’lim sifati, metodlar, innovatsion texnologiyalar, bolalar rivoji, ta’lim talablari

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность развивающих центров, их роль и значение в системе образования. Анализируются содержание, формы и методы образовательной деятельности, осуществляемой в данных центрах. Особое внимание уделяется современным педагогическим, психологическим и организационным

требованиям, предъявляемым к развивающим центрам, а также путям повышения их эффективности.

Ключевые слова: развивающие центры, образовательная деятельность, педагогические подходы, качество образования, методы обучения, инновационные технологии, развитие детей, образовательные требования

Abstract: This article explores the essence of developmental centers, their role and significance in the education system. It analyzes the content, forms, and methods of educational activities carried out in such centers. Special attention is given to modern pedagogical, psychological, and organizational requirements, as well as ways to improve their effectiveness.

Keywords: developmental centers, educational activity, pedagogical approaches, quality of education, teaching methods, innovative technologies, child development, educational requirements

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir. O‘zbekiston Respublikasi PrezidentiShavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tizimida olib boriladigan ishlar mazmuni aniq belgilab berildi. Unga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, MTTlarda bolalarni rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi vazifalar belgilab qo‘yildi. Qaror bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi

MTTda rivojlanishmarkazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Rivojlanish markazlari ta’lim,rivojlantiruvchi, o‘qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak. Gurux xonasidan moslashuvchan va o‘zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi

tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo‘lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo‘lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o‘yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo‘lishi va bolalarning yoshiga mos bo‘lishi kerak.Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o‘zgarishi kerak.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:har xil qurilish to‘plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o‘ynash uchun didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallarlari.

Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o‘yin materiallarlari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o‘yinlari, shlyapalar - maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do‘kon" o‘yinlari atrebutlari.

Til va nutq markazi: didaktik o‘yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko‘ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik alьbomlar, topishmoqlar alьbomlari, magnit harflar to‘plami, "Rasmli Alifbo" kubiklari.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallarlar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarlarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallarlar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.

San’at markazi: tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan alьbomlar va illyustratsiyalar, dekorativ- amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Xulosa qilib aytganda,bolaning rivojlanishi faqat o‘quv faoliyatida emas, balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z

Ilmiy yangilik: biznes va universitetlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning nazariy modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida fan, kasbiy ta’lim va biznes o‘rtasidagi hamkorlik shakllari taklif etildi. Bugungi kunda fan va ta’limning ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o‘rni hech kim tomonidan inkor etilmaydi. Innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim sharti — intellektual salohiyatni to‘play oladigan va rivojlantira oladigan, fan, ta’lim va texnologiyalar transferini ishlab chiqarishga integratsiya qiladigan raqobatbardosh universitetlarni yaratishdir.

Zamonaviy kasbiy ta’limning dolzarb muammolaridan biri — bitiruvchilar malakasi darajasi bilan biznes talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Bu muammo ayniqsa raqamli transformatsiya davrida keskinlashmoqda, chunki oliy ta’lim tizimi yangi kompetensiyalar talabiga moslashishga ulgurmayapti.

raqamli transformatsiya sharoitida bitiruvchilarga qo‘yiladigan biznes talablarini aniqlash;

- o‘zaro manfaatga asoslangan universitet–biznes hamkorlik modelini ishlab chiqish;
- fan, oliy ta’lim va biznes o‘rtasidagi samarali hamkorlik texnologiyalarini aniqlash. Universitetlar va biznes hamkorligi muammosi keng muhokama qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:
- korxonalarning kadr tanlash amaliyoti zamonaviy ehtiyojlarga mos emas;
- samarali hamkorlik mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan;
- bitiruvchilar kompetensiyasi ish beruvchilar talablariga mos kelmaydi.

Bu muammo ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida dolzarb bo‘lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid normativ hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2021.
3. UNESCO. *Education in a Digital World*. – Paris, 2021.
4. World Bank. *Digital Transformation in Education Systems*. – Washington, 2020.
5. Andreas Schleicher. *The Impact of Digital Technologies on Education*. – OECD Publishing, 2019.
6. OECD. *Education at a Glance*. – Paris, 2022.
7. Tony Bates. *Teaching in a Digital Age*. – Vancouver, 2019.
8. European Commission. *Digital Education Action Plan (2021–2027)*. – Brussels, 2021.
9. UNICEF. *Remote Learning and Digital Education*. – New York, 2020.
10. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report*. – Geneva, 2023.
11. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
12. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
13. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2018.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Yusupova Shoxida Xusainovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi.
shohidayusupova549 @gmail.com
Telfon raqam:+998974608022
Yuldasheva Zarina Ruslanbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim”
yo‘nalishi 244-guruh talabasi
Telfon raqam:+998991377577

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ularning kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyati va shaxsiyat rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari va oilada bolalarda kitobga mehr uyg‘otish, ularni kitob o‘qishga qiziqtirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda interaktiv o‘yinlar, ertak terapiyasi, ota-onalar bilan hamkorlik kabi metodlar ko‘rib chiqiladi. Maqola bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi**.**

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, kitobxonlik madaniyati, bolalar adabiyoti, o‘qishga qiziqish, ertak terapiyasi, ota-onalar hamkorligi, ta’lim metodlari, shaxsiyat rivojlanish

Аннотация. Формирование культуры чтения у детей дошкольного возраста имеет решающее значение для их будущего образовательного успеха и всестороннего развития личности. В данной статье рассматриваются эффективные методы привития любви к книгам и стимулирования интереса к чтению у маленьких детей как в дошкольных образовательных учреждениях, так и в семейной среде. Исследование анализирует различные педагогические подходы, включая интерактивные игры, рассказывание историй, сказкотерапию и совместную работу с родителями. Оно подчеркивает важность раннего знакомства с литературой и предлагает практические рекомендации для педагогов и родителей по формированию устойчивых привычек чтения с раннего возраста**.**

Ключевые слова: дошкольное образование, культура чтения, детская литература, интерес к чтению, сказкотерапия, вовлечение родителей, образовательные методы, развитие личности

Abstract. Forming a reading culture in preschool children is crucial for their future educational success and holistic personality development. This article explores effective methods for fostering a love for books and stimulating an interest in reading among young children within both preschool educational institutions and family environments. The research delves into various pedagogical approaches, including interactive games, storytelling, fairy tale therapy, and collaborative efforts with parents. It highlights the significance of early exposure to literature and provides practical recommendations for educators and parents to cultivate strong reading habits from an early age**.**

Keywords: preschool education, reading culture, children's literature, reading interest, fairy tale therapy, parental involvement, educational methods, personality development

Kirish

Inson kamolotining ilk bosqichlarida shakllanadigan ko‘nikma va malakalar uning hayotiy intellektual salohiyati va shaxsiy rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ularning tafakkurini boyitish, nutqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda kitobga bo‘lgan mehrni uyg‘otish, mutolaa jarayonini qiziqarli va mazmunli qilish kelajakda bilimga chanqoq, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning poydevoridir.

Kitob — axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli,

badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra 48 sahifadan kam bo‘lmagan, nodavriy nashrni kitob deb nomlash qabul qilingan.[1]

Kitobxonlik- bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish,uni o'ylashga,hayotda qanday yashashga o‘rgatish ,fikr yuritishga o‘rgatishdir. Kitobxonlik-o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir.

O‘zbekiston Respublikasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi farmoni yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu tashabbus milliy kitobxonlik tanlovlari orqali targ‘ib qilinmoqda. Oilaviy muhitda kitobxonlikni rivojlantirish bolaning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ota-onaning shaxsiy namuna bo‘lishi, yoshiga mos, yuqori sifatli adabiyotlarni tanlash va bolaning psixologik rivojlanishiga mos keladigan kitoblarni tavsiya etishi, shuningdek, hikoyalarni tushunishga, qahramonlarni farqlashga va chuqurroq anglash uchun matnlarni qayta o‘qishga yo‘naltirishi muhimdir.

Ota-onalar tomonidan ifodali o‘qish va hikoya qilish mustaqil mutolaaga o‘tishning asosiy qadamlari hisoblanadi. Bu jarayon bolaning til boyligini oshirish bilan birga, uning tasavvurini kengaytiradi va kitobga bo‘lgan ijobiy munosabatni mustahkamlaydi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini tizimli va samarali shakllantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish masalasi doimiy tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari, oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi amaliy yo‘llarini atroflicha tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Nazariy jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi bolaning kattalar yordamida o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Kattalarning ifodali o‘qishi, hikoya qilishlari va matn mazmunini tushuntirishlari bolaning til boyligini oshirish, tasavvurini kengaytirish va syujetni tushunish qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jerom Brunerning “skofolding” tamoyili ham bu jarayonda o‘z aksini topadi. Karimova va boshqalar (2021) ertak

[1]Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ -3271 sonli qaror “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 15- sentabr.

va hikoyalar orqali bolalarning emotsional intellekti va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ahamiyatini ta’kidlaydi.

Oila muhitida kitobxonlikka qiziqishni uyg‘otish masalasi ko‘plab tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ota-onaning shaxsiy namunasi, yoshga mos adabiyotlarni tanlash va matnni chuqurroq anglashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili tizimli yondashuvlarni talab qiladi. Alimov va Sobirova oilaviy kutubxona yaratish, muntazam “kitobxonlik soatlari”ni tashkil etish, bolalar bilan o‘qilgan kitoblar haqida suhbatlashish kabi usullarning samaradorligini isbotlaganlar. Ular, shuningdek, ota-onalarning bolalariga kitob tanlashda ularning qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olishlari zarurligini qayd etadilar. Oilada kitobxonlik muhitini yaratish bolaning til va so‘z boyligi rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish pedagogikasi keng muhokama qilingan mavzulardan biridir. MTTlarda bolalarni kitobga qiziqtirishning interfaol usullarini, jumladan, ertak terapiyasi, sahnalashtirilgan o‘yinlar, kitob ko‘rgazmalari va adabiy viktorinalarni qo‘llashning samaradorligini asoslab bergan. Uning ta’kidlashicha, o‘qituvchilar bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘yin shaklida mutolaa jarayonini tashkil etishlari, ijodiy yondashuvlarni qo‘llashlari lozim. Shuningdek, MTTlarda kitob burchaklari, mini-kutubxonalar tashkil etish, bolalarni kitob tanlash jarayoniga jalb qilish ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuvlar bolalarda kitobga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning kitobxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni so‘nggi yillarda alohida e’tiborga molik. Raqamli hikoyalar, interfaol elektron kitoblar, ta’limiy ilovalar va audio-ertaklar bolalarning mutolaaga qiziqishini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mirzayeva va G‘aniyeva maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganib chiqqanlar. Ular raqamli resurslardan oqilona, kattalar nazorati ostida va ta’limiy maqsadlarda foydalanish bolaning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Biroq, an’anaviy qog‘oz kitoblarning ahamiyatini unutmaslik kerak. Raqamli va an’anaviy kitoblarning uyg‘unligi bolaning har tomonlama rivojlanishida eng maqbul yechimdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha mavjud adabiyotlar boy nazariy va amaliy materiallarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining hamkorligini, pedagogik yondashuvlarning xilma-xilligini hamda zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish zarurligini ta’kidlaydi. Biroq, mavjud adabiyotlarda ayrim bo‘shliqlar ham mavjud. Masalan, O‘zbekiston sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini

shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli tadqiqotlar, turli mintaqalardagi bolalarning kitobxonlik darajasini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, milliy ertak va dostonlarning zamonaviy pedagogik usullar bilan integratsiyasi bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar yetarli emas. Kelajakdagi tadqiqotlar shu yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llarini atroflicha tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik tajribalar va zamonaviy yondashuvlarni tizimli ravishda sintez qilishga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o‘rganish, oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida samarali pedagogik usul va vositalarni aniqlash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning bu jarayondagi o‘rnini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatining nazariy asoslarini tahlil qilish; oila muhitida kitobxonlikka qiziqishni uyg‘otishning ahamiyatini va amaliy usullarini o‘rganish; MTTlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik yondashuvlarini ko‘rib chiqish; interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali kitobxonlikni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash; bolalar adabiyotini tanlash mezonlari va uning tarbiyaviy salohiyatini aniqlash.

Maqolani yozish jarayonida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Birinchidan, adabiyotlar tahlili va sintezi keng qo‘llanildi. Mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalari chuqur o‘rganildi. Xususan, Vygotskiy, Bruner kabi klassik pedagogik-psixologik nazariyalar hamda Karimova va boshqalar, Alimov va Sobirova , Xolmatova, Mirzayeva va G‘aniyeva kabi zamonaviy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinib, ularning maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga oid qarashlari sintez qilindi. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi farmoni kabi me’yoriy hujjatlar ham o‘rganildi. Ikkinchidan, qiyosiy-pedagogik tahlil orqali turli pedagogik yondashuvlar, jumladan, an’anaviy va innovatsion metodlar, oila va MTTlardagi kitobxonlikni rivojlantirish amaliyotlari qiyosiy jihatdan tahlil etildi. Bu, har bir yondashuvning afzallik va kamchiliklarini aniqlash, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini baholashga yordam berdi. Uchinchidan, tizimli-strukturaviy tahlil kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlari (motivatsiya, ko‘nikmalar, did, qadriyatlar) va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tizimli ravishda o‘rganishga imkon berdi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, u maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga oid mavjud nazariy bilimlarni tizimlashtiradi va umumlashtiradi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida bu jarayonning

o‘ziga xos xususiyatlarini, milliy qadriyatlar va an’analarni hisobga olgan holda, yangi nazariy yondashuvlarni taklif etishga zamin yaratadi. Amaliy ahamiyati esa oilalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha aniq pedagogik tavsiyalar va metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan xulosalar va tavsiyalar pedagoglar, ota-onalar, bolalar adabiyoti mutaxassislari va ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun qimmatli manba bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga oid turli yondashuvlarni kompleks tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish hamda O‘zbekistonning milliy ta’lim tizimi va madaniy kontekstini inobatga olgan holda, samarali strategiyalarni taklif etishdan iborat. Xususan, mavjud adabiyotlardagi bo‘shliqlarni, ya’ni uzoq muddatli tadqiqotlar, mintaqaviy qiyosiy o‘rganishlar va milliy ertak-dostonlarning zamonaviy pedagogik usullar bilan integratsiyasi bo‘yicha chuqur izlanishlar yetishmasligini hisobga olgan holda, ushbu maqola mavjud bilimlarni umumlashtirish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlarni belgilash orqali o‘z hissasini qo‘shadi. Maqola, shuningdek, raqamli va an’anaviy kitobxonlikning uyg‘unligini ta’minlash zarurligini pedagogik jihatdan asoslab beradi, bu esa zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhimdir.

Xulosa Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha tahlil qildi. Tadqiqotlar oila muhitining hal qiluvchi ahamiyatini, ota-onalarning shaxsiy namunasi va ifodali o‘qishining bolaning rivojlanishidagi o‘rnini ko‘rsatdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish, shuningdek, yoshga mos, tarbiyaviy ahamiyatga ega adabiyotlarni tanlash muhimligi ta’kidlandi. Raqamli va an’anaviy kitobxonlikning uyg‘unligi bolaning har tomonlama kamol topishida eng maqbul yechim ekanligi asoslandi. Kelajakdagi tadqiqotlar milliy kontekstdagi uzoq muddatli izlanishlarga e’tibor qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "”Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida qarori. 2017 yil 13-sentabr. PQ-3271.

2. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2002-y 25 bet.

3. M.G‘aybullaeva, D.G‘aybullaeva. “Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi”.Qo‘llanma 2006-yil.

4. Xolmatova D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(10), (2022-yil. 101-105 bet.

5. Qodirova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.2021-yil.

6. Mirzayeva M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. International Journal of Pedagogics, 10-14 bet. 2023-yil.

7.Inoyatova M.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Zamonaviy dunyoda ilmiy tadqiqotlar, 10-13. – 2022-yil.

8. Ismatova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hamkorligi. Pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, 2021-yil.

9. Xolmatova G.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 10-15. 2020-yil.

10. Maxmudova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari. Journal of Universal Science Research, 1(1), 1-5. 2023-yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIGI

Urganch davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim
kafedrasi stajyor -o‘qituvchisi Qalandarova Baxtigul
Email: baxtigulqalandarova@gamil.com
Tel: +998937699502
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi
talabasi Primbetova Guzzal
Email:gozzalg03@gamil.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va ustuvor jihatlari yoritilgan. Interfaol yondashuvlar orqali bolalarning mustaqil fikrlash, muloqot qilish, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar interfaol metodlar, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiyalar, bolalar rivoji, ijodiy fikrlash, ta’lim samaradorligi

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость и приоритет использования интерактивных методов в дошкольных образовательных учреждениях. Анализируются возможности развития у детей самостоятельного мышления, коммуникативных навыков, а также творческого и критического мышления посредством интерактивных подходов. Также освещаются вопросы повышения эффективности образования с применением современных педагогических технологий.

Ключевые слова:интерактивные методы, дошкольное образование, педагогические технологии, развитие детей, творческое мышление, эффективность обучения

Annotation: This article highlights the importance and priority of using interactive methods in preschool educational institutions. It analyzes the opportunities for developing children's independent thinking, communication skills, as well as creative and critical thinking through interactive approaches. The issues of improving educational effectiveness through the use of modern pedagogical technologies are also discussed.

Keywords:interactive methods, preschool education, pedagogical technologies, child development, creative thinking, learning effectiveness

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tizimida olib boriladigan ishlar mazmuni aniq belgilab berildi. Unga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, MTTlarda bolalarni rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi vazifalar belgilab qo‘yildi. Qaror bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda nutq, tafakkur, ijtimoiy munosabatlar va o‘rganishga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar — bu ta’lim jarayonida tarbiyachi va bolalar o‘rtasida faol hamkorlikni tashkil etishga qaratilgan usullardir. Ushbu metodlar orqali bola faqat tinglovchi emas, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Natijada bilimlar chuqurroq o‘zlashtiriladi va bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalanishning asosiy maqsadi — bolalarni erkin fikrlashga o‘rgatish, ularning nutqini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlashdir. Bunda o‘yin faoliyati muhim o‘rin egallaydi, chunki maktabgacha

yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Interfaol metodlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri — o‘yin orqali o‘qitishdir. Rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar va harakatli o‘yinlar bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, “Bozorcha”, “Doktor va bemor” kabi o‘yinlar orqali bolalar nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganadi, balki ijtimoiy rollarni ham tushunib yetadi.Shuningdek, “aqliy hujum” metodi ham bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod orqali bolalarga savollar beriladi va ularning har qanday javobi qo‘llab-quvvatlanadi. Bu esa bolalarda o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.Guruh bilan ishlash metodi ham samarali usullardan biridir. Kichik guruhlarda ishlash orqali bolalar bir-biri bilan muloqot qiladi, fikr almashadi va jamoada ishlashni o‘rganadi. Bu esa ularning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Muammoli vaziyat yaratish metodi esa bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Tarbiyachi tomonidan berilgan muammoli savollar bolalarni mustaqil yechim topishga undaydi. Natijada bolalar nafaqat bilim oladi, balki muammolarni hal qilish ko‘nikmasini ham egallaydi.

Interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari juda ko‘p. Avvalo, bolalar dars jarayonida faol ishtirok etadi va zerikmaydi. Har bir bola o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘rganilgan bilimlar mustahkam esda qoladi va amaliyotda qo‘llaniladi.Biroq interfaol metodlardan samarali foydalanish uchun tarbiyachi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Mashg‘ulotlar qiziqarli, qisqa va mazmunli tashkil etilishi kerak. Shuningdek, bolalarni rag‘batlantirish ham muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali bolalar bilim olish bilan birga, mustaqil fikrlash, muloqot qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Ishmuhamedov R., Yo‘ldoshev M. “Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.” – Toshkent: Fan, 2010.

5. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat.” – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
6. Vygotskiy L.S. “Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi.” – Moskva, 1984.
7. Montessori M. “Bolani kashf etish metodi.” – Moskva, 2005.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TALABALARDA REFLEKSIYA VA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHNI RIVOJLANTIRISH

Raximberganova Sohiba Jamol qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Telfon raqam:+998996280991
rakhimberganovasohiba68@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarni refleksiya va o‘z-o‘zini baholashida raqamli texnologiyalar: online testlar, elektron portfoliolar, audio va video materiallar, reflektiv kundaliklardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются возможности использования цифровых технологий в развитии рефлексии и самооценки студентов, включая онлайн-тесты, электронные портфолио, аудио- и видеоматериалы, а также рефлексивные дневники.

Abstract: This article explores the possibilities of using digital technologies to develop students’ reflection and self-assessment, including online tests, electronic portfolios, audio and video materials, and reflective journals.

Kalit so‘zlar: refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, texnologiya, raqamli texnologiya, kognitiv refleksiya, metakognitiv refleksiya.

Ключевые слова: рефлексия, самооценка, технология, цифровые технологии, когнитивная рефлексия, метакогнитивная рефлексия.

Keywords: reflection, self-assessment, technology, digital technology, cognitive reflection, metacognitive reflection.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichi faol raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki raqamli ta’lim muhitida talabalarning o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar faqatgina raqamli vositalardan foydalanish mahorati emas, balki o‘zgarishlarni yaxshilash va moslashishga qaratilgan raqamli kontekstda o‘z faoliyatini tushunish, tahlil qilish hamda o‘zini o‘zi baholashning barqaror ichki jarayonidir. Qonunchilik nuqtai nazaridan ta’lim tizimini tartibga soluvchi asosiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020- yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son) hisoblanadi. Mazkur qonunga muvofiq ta’lim sohasidagi munosabatlar ta’lim shakllariga oid qoidalar qamrab olinadi, shuningdek, ta’limning masofaviy va elektron shakllaridan foydalanish imkoniyatlari nazarda tutiladi. Raqamlashtirish sharoitida AKT rivojini ta’lim makonining kelajagi bilan bog‘lovchi

Prezident farmoni va qarori ayniqsa ahamiyatlidir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son farmonida ta’lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, ilm-fan va IT-ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash vazifalari alohida ta’kidlangan.

Zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri — mustaqil fikrlay oladigan, o‘z faoliyatini tahlil qila biladigan va kasbiy rivojlanishga tayyor shaxsni tarbiyalashdir.

Refleksiya — bu shaxsning o‘z fikrlashi, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qilishi hamda ular samaradorligini baholashi jarayonidir. O‘zini baholash esa talabaning o‘quv faoliyati natijalarini mustaqil ravishda aniqlashi, kuchli va zaif tomonlarini belgilashi orqali o‘zini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishini anglatadi. Shuning uchun refleksiv va baholovchi kompetensiyalar talabaning kasbiy yetuklik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi. Refleksiya — bu shaxsning o‘z faoliyati, fikrlari va qarorlarini tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksiya va o‘zini baholash metodlari ta’lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi adabiyotlar talabalarning reflektiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘zini baholash metodlarining samaradorligini ko‘rsatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan u kognitiv, metakognitiv, emotsional va amaliy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Kognitiv refleksiya talabaning mavjud bilimlar darajasini aniqlashga xizmat qilsa, metakognitiv refleksiya fikrlash jarayonlarini nazorat qilishni ta’minlaydi. Emotsional refleksiya his-tuyg‘ularni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, amaliy refleksiya bajarilgan vazifalarning sifatini tahlil qilishga yordam beradi.

Talabaning o‘zini baholashi — bu uning o‘quv faoliyatini mustaqil tahlil qilib, o‘z natijalari va kamchiliklarini ongli ravishda ko‘ra bilish jarayonidir. Bu usul talabani faqat natijaga emas, balki kasbiy kompitensiyasiga e’tibor qaratishga undaydi. Talaba o‘z kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiladi, kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini izlaydi. Natijada u o‘z kasbiy faoliyatidafaol ishtirokchisiga aylanadi. Bunday o’z o’zini baholash integratsiyasi talaba yoshlarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishlash, tahlil qilish va adolatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonlarni yanada qulay, tezkor va samarali qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zini baholash — bu talabaning o‘quv faoliyatidagi natijalarni mustaqil tahlil qilishi, o‘z o‘quv strategiyasi va yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishi, shuningdek, rivojlanishi kerak bo‘lgan jihatlarni aniqlashi bilan bog‘liq jarayondir. Bu jarayonning rivojlanishi talabaning mas’uliyat hissi, ichki motivatsiyasi va o‘z-o‘zini boshqarish sifatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zini baholay oladigan talaba faol o‘qishga moyil, o‘z ustida ishlaydigan va yangiliklarni tez qabul qila oladigan shaxsga aylanadi.

Talabalarning o‘z-o‘zini baholashda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, o‘zini baholashda shaffoflik, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholashda quyidagi raqamli vositalardan foydalanish mumkin:

- Onlayn test va so‘rovnomalar (Google Forms, Quizizz). Bu orqali talaba darhol natijani ko‘radi va o‘z bilimini baholaydi;
- Elektron portfoliolar**.** Talaba o‘z ishlarini jamlab, vaqt o‘tishi bilan o‘sishini kuzatadi;
- LMS platformalar (Moodle, Google Classroom). Baholash mezonlari ochiq bo‘ladi, feedback tez beriladi;
- Reflektiv kundaliklar (bloglar, e-jurnallar). Talaba har darsdan keyin o‘z fikrini yozadi;
- Video va audio yozuvlar. Talaba o‘z nutqi va faoliyatini qayta ko‘rib, tahlil qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalar refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni tashkil etishda kuchli vosita hisoblanadi. Ular orqali talaba passiv tinglovchidan faol, o‘z ta’limini boshqaruvchi subyektga aylanadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020- yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son
3. Yo‘ldoshev, J., To‘rayev, A. Pedagogik kompetensiya va tarbiya jarayoni. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1 7.
5. Jo‘rayev R.X. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash asoslari. Toshkent: “Oliy ta’lim nashriyoti”, 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O‘YINLARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Niyazimbetova Sarvinoz Azimbay qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim”yo‘nalishi 244-guruh talabasi
Tel raqam: +99893 914 01 16

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqola interaktiv o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini atroflicha tahlil qiladi. Unda interaktiv o‘yinlarning bolalarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini oshirish, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi orqali bolalarda adolat, hurmat va mas’uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlash usullarini yoritadi. Maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun amaliy tavsiyalar berib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, axloqiy qadriyatlar, interaktiv o‘yinlar, pedagogik imkoniyatlar, bolalar rivojlanishi, empatiya, ijtimoiy kompetensiyalar, ta’lim jarayoni

Abstract.The formation of moral values in preschool children is one of society's crucial tasks. This article thoroughly analyzes the pedagogical possibilities of interactive games in developing moral values in preschool children. It examines the effectiveness of interactive games in enhancing children's socio-moral competencies and fostering empathy and cooperation skills. The research highlights methods for strengthening values such as justice, respect, and responsibility in children through the integration of interactive games into the educational process. The article provides practical recommendations for preschool educators, contributing to the comprehensive development of children.

Keywords: Preschool education, moral values,interactive games, pedagogical possibilities, child development, empathy, social competencies, educational process

Аннотация. Формирование нравственных ценностей у детей дошкольного возраста является одной из важнейших задач общества. Данная статья всесторонне анализирует педагогические возможности интерактивных игр в развитии нравственных ценностей у детей дошкольного возраста. В ней рассматривается эффективность интерактивных игр в повышении социально-нравственных компетенций детей и формировании навыков эмпатии и сотрудничества. Исследование освещает методы укрепления таких ценностей, как справедливость, уважение и ответственность у детей посредством интеграции

интерактивных игр в образовательный процесс. Статья предлагает практические рекомендации для педагогов дошкольных образовательных учреждений, способствуя всестороннему развитию детей.

Ключевые слова: Дошкольное образование, Нравственные ценности, Интерактивные игры, Педагогические возможности, Развитие детей, Эмпатия, Социальные компетенции, Образовательный процесс

Kirish Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi va har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Bugungi globallashuv davrida bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, ularda insonparvarlik, mas’uliyat, adolat va milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni yoshlikdan singdirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy ta’lim usullari zamonaviy bolalarning qiziqishlari va o‘ziga xos xususiyatlarini har doim ham to‘liq qondira olmasligi sababli, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Interaktiv o‘yinlar, o‘zining jozibadorligi va samaradorligi bilan, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda [1]. Ular bolalarning faolligini, motivatsiyasini oshirib, o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, shu bilan birga turli xil o‘rganish uslublarini ham qo‘llab-quvvatlaydi .

Ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda interaktiv o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan: maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlar shakllanishining nazariy asoslarini o‘rganish; interaktiv o‘yinlarning mohiyati va pedagogik afzalliklarini ochib berish, ularning bolalar rivojlanishidagi fundamental rolini ko‘rsatish [2]; interaktiv o‘yinlar orqali axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish mexanizmlarini va amaliy namunalarini tahlil qilish, shu jumladan o‘zbek bolalar o‘yinlarining axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini ham hisobga olish; interaktiv o‘yinlarni tashkil etishda tarbiyachi va ota-onalarning rolini, shuningdek, samaradorlikni oshirish yo‘llarini aniqlash. Bu yondashuv bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, ularda mas’uliyat, adolat va hamkorlik kabi muhim axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Xususan, bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, ularda empatiya, mas’uliyat va hamkorlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan ishlar tobora dolzarblik kasb etmoqda. Adabiyotlarda axloqiy tarbiyaning ilk yoshdan boshlanishi zarurati, uning shaxs kamolotida fundamental ahamiyati

hamda bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvidagi roli keng yoritilgan. Bu borada, bolaning o‘zaro munosabatlar orqali axloqiy normalarni o‘zlashtirishi, xulq-atvor qoidalarini tushunishi va ularga rioya etishi kabi jihatlar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan.An’anaviy ta’lim usullarining cheklovlari fonida, interaktiv yondashuvlar, ayniqsa o‘yin texnologiyalari, bolalarning o‘rganish jarayoniga faol jalb etishdagi samaradorligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘yinlar bolalar faolligini, motivatsiyasini oshirish, o‘rganishni qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi . Bu o‘yinlar nafaqat bilim berish, balki turli o‘rganish uslublarini qo‘llab-quvvatlash orqali inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga ham xizmat qiladi. Ular an’anaviy o‘qitish usullari va zamonaviy ta’lim amaliyotlari o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etib, faol ishtirokni rag‘batlantiradi va hamkorlikdagi o‘rganish muhitini shakllantiradi. Texnologiyalarning integratsiyasi interaktiv o‘yinlarni kuchli vositaga aylantirib, ko‘ngilochar elementlarni ta’lim mazmuni bilan birlashtiradi, bu esa bolalarni an’anaviy ma’ruzalarga qaraganda samaraliroq jalb qiladi .Didaktik o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishi, jumladan, aqliy qobiliyatlari va umumiy rivojlanish ta’limi optimallashtiriladi. Bu yondashuv bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional o‘sishini qo‘llab-quvvatlab, ularda mas’uliyat, adolat va hamkorlik kabi muhim axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Didaktik o‘yinlar bolalarning rivojlanishini rag‘batlantirish, aqliy qobiliyatlarini oshirish va maktabgacha ta’lim sharoitida umumiy rivojlanish ta’limini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, ularda mas’uliyat, adolat va hamkorlik kabi muhim axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi .Milliy pedagogik merosimizda ham bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek bolalar o‘yinlari tizimi bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynashi, milliy an’analar, ta’limiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi . Bu o‘yinlar orqali bolalarda shaxslararo munosabatlar, axloqiy ko‘nikmalar va milliy o‘zlikni anglash rivojlanadi. Xususan, faol o‘yinlar (arqon tortish) jismoniy sifatlarni, intellektual o‘yinlar (topishmoqlar, tez aytishlar) mantiqiy fikrlashni, ijtimoiy o‘yinlar esa (Kimning buvisi) jamoaviy ishlash, o‘zaro tushunish va do‘stlikni mustahkamlaydi. Bu o‘yinlar mas’uliyat va adolat kabi axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, milliy merosga hurmatni singdirish orqali yoshlarning har tomonlama tarbiyasiga va madaniy qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Ular yoshlarni har tomonlama tarbiyalash va madaniy qadriyatlarni saqlash uchun samarali vosita hisoblanadi .Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘yinlar nafaqat bolalarning kognitiv va jismoniy rivojlanishiga hissa qo‘shadi, balki ularning ijtimoiy-emotsional va axloqiy

kamolotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar interaktiv o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirib, ularni axloqiy dilemmalarni hal qilish, empatiya va altruizm kabi fazilatlarni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Biroq, bu o‘yinlarni samarali tashkil etishda tarbiyachilar va ota-onalarning roli, ularning metodik tayyorgarligi va o‘yin jarayoniga faol jalb etilishi masalasi ham adabiyotlarda keng muhokama qilinadi. O‘yinlarning mazmunini bolaning yosh xususiyatlariga moslashtirish, ularni maqsadli yo‘naltirish va o‘yin natijalarini tahlil qilish orqali axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash mexanizmlari tadqiqotchilar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilmoqda.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda interaktiv o‘yinlarning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi, ularning pedagogik imkoniyatlari keng va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi va interaktiv o‘yinlar orqali axloqiy tarbiyani takomillashtirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasiUshbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda interaktiv o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish maqsadida chuqur nazariy-analitik tadqiqot yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, interaktiv o‘yinlarning nazariy asoslari, pedagogik afzalliklari va axloqiy tarbiyadagi o‘rni bo‘yicha keng qamrovli va kritik sintezni ta’minlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, muammoning nazariy jihatlarini har tomonlama o‘rganish, turli olimlarning qarashlarini umumlashtirish, ularning o‘zaro bog‘liqliklarini aniqlash va mavjud bilimlarni yangi, zamonaviy kontekstda tahlil qilish uchun eng samarali hisoblanadi. Bu metodologiya mavjud nazariyalarni qayta ko‘rib chiqish va ularning amaliy ahamiyatini chuqurlashtirishga imkon beradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda sifatli tahlil usullari, xususan, tematik tahlil va kritik sintez yondashuvlari qo‘llanildi. Yig‘ilgan adabiyotlar mazmuni chuqur o‘rganilib, interaktiv o‘yinlarning axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi asosiy mexanizmlari, pedagogik prinsiplari va samaradorlik omillari aniqlandi. Tahlil jarayonida quyidagi asosiy mavzularga e’tibor qaratildi:Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarning shakllanish bosqichlari va ularga ta’sir etuvchi omillar.Interaktiv o‘yinlarning turlari, ularning bolalar rivojlanishiga ta’siri va pedagogik afzalliklari.Didaktik o‘yinlarning rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishdagi o‘rni va axloqiy tarbiyadagi ahamiyati.O‘zbek bolalar o‘yinlarining axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlari va milliy pedagogik merosdagi o‘rni.

Interaktiv o‘yinlarni tashkil etishda tarbiyachilar va ota-onalarning roli, ularning o‘yin jarayoniga samarali jalb etish mexanizmlari.Har bir manba tahlil qilinayotganda, undagi asosiy g‘oyalar, empirik natijalar (agar mavjud bo‘lsa) va nazariy xulosalar diqqat bilan ajratib olindi. So‘ngra,

bu ma’lumotlar umumlashtirilib, mavzuning turli jihatlari bo‘yicha umumiy va izchil manzara yaratildi. Kritik sintez yondashuvi turli tadqiqotchilarning qarashlarini solishtirish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, mavjud bilimlardagi bo‘shliqlarni va kelgusi tadqiqotlar uchun potentsial yo‘nalishlarni belgilash imkonini berdi. Bu esa interaktiv o‘yinlarning axloqiy tarbiyadagi imkoniyatlari haqida yanada chuqurroq, asosli va kompleks xulosalar chiqarishga yordam berdi, shu bilan birga mavzuga nisbatan tanqidiy nuqtai nazarni shakllantirdi.Tadqiqotning asosiy maqsadi interaktiv o‘yinlarning nazariy asoslarini mustahkamlash va ularning amaliy qo‘llanilish mexanizmlarini tahlil qilish bo‘lganligi sababli, empirik ma’lumotlarni yig‘ish va statistik tahlil qilish usullari qo‘llanilmadi. Buning o‘rniga, mavjud ilmiy bilimlarni umumlashtirish va ularning pedagogik amaliyotdagi ahamiyatini ko‘rsatishga ustuvor ahamiyat berildi. Xususan, interaktiv o‘yinlarning bolalarning faolligini, motivatsiyasini oshirish, o‘rganishni qiziqarli va samarali qilishdagi roli , shuningdek, didaktik o‘yinlar orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini optimallashtirish va o‘zbek bolalar o‘yinlarining milliy qadriyatlarni singdirishdagi ahamiyati kabi jihatlar chuqur tahlil qilindi.

Etik mulohazalar nuqtai nazaridan, tadqiqotda barcha foydalanilgan manbalarga to‘g‘ri havolalar berildi, plagiatga yo‘l qo‘yilmadi va ilmiy halollik prinsiplariga qat’iy rioya qilindi. Tadqiqot natijalarining xolisligi va ishonchliligi ta’minlash maqsadida, turli nuqtai nazarlar va yondashuvlar hisobga olindi.Ushbu metodologiya interaktiv o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdagi pedagogik salohiyatini har tomonlama va chuqur o‘rganishga imkon berdi. Shuningdek, u kelgusi empirik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi va amaliyotchi pedagoglar uchun interaktiv o‘yinlarni samarali qo‘llash bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Tadqiqotning cheklovlari mavjud adabiyotlarga tayanilganligi va bevosita empirik ma’lumotlarning yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yondashuvning umumlashtirish darajasini cheklashi mumkin. Shu sababli, kelajakda amaliy sinovlar, eksperimental tadqiqotlar va maktabgacha ta’lim muassasalarida kuzatuvlar o‘tkazish zarurati mavjud bo‘lib, bu nazariy xulosalarni empirik jihatdan tasdiqlashga yordam beradi.

Xulosa Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda interaktiv o‘yinlarning muhim pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asosladi. Interaktiv o‘yinlar bolalarning faolligini, motivatsiyasini oshirib, o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, ularda mas’uliyat, adolat va hamkorlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Didaktik va milliy bolalar o‘yinlari bu jarayonda ayniqsa samarali bo‘lib, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Tarbiyachilar va ota-onalarning faol ishtiroki, metodik tayyorgarligi o‘yinlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kelgusi tadqiqotlar ushbu nazariy xulosalarni amaliy sinovlar orqali tasdiqlashga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ergasheva, M. A. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. Science and Education, 4(1), 748-752. – https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5222

2. Xolmatova, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni. Pedagogik mahorat, (2), 161-165. – https://journal.buxdu.uz/index.php/pedagog/article/view/6314

3. Xolmatova, M. K. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati. Pedagogik mahorat, (2), 166-170. – https://journal.buxdu.uz/index.php/pedagog/article/view/6315

4. Norboyeva, G. A. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue 1), 105-108. – https://www.interscience.uz/index.php/ijcstr/article/view/1041

5. Xudoyberdiyeva, M. M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda interfaol usullarning ahamiyati. Pedagogik mahorat, (2), 171-175. – https://journal.buxdu.uz/index.php/pedagog/article/view/6316

6. Sayfullayeva, N. A. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirishda interfaol o‘yinlarning o‘rni. Journal of Universal Scientific Research, 2(1), 101-104. – https://universalpublish.com/index.php/jusr/article/view/112

7. G‘aniyeva, S. A. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda interfaol o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi. Journal of Universal Scientific Research, 2(1), 105-108. – https://universalpublish.com/index.php/jusr/article/view/113

8. Xudoyberdiyeva, M. B. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2(1), 109-112.

– https://www.pedagogical.uz/index.php/jpip/article/view/114

XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALARDA TARBIYACHILAR FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAZORAT QILISH.

Raximberganova Sohiba Jamol qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Telfon raqam:+998996280991
rakhimberganovasohiba68@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar faoliyatini nazorat qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, xorijiy va milliy tajribalar tahlili hamda samarali nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari yoritilgan.

Аннотация: В данном тезисе раскрывается значение использования цифровых технологий при контроле деятельности воспитателей в дошкольных образовательных организациях, анализируются зарубежный и национальный опыт, а также освещаются пути совершенствования эффективных механизмов контроля.

Abstract: This thesis highlights the importance of using digital technologies in monitoring the activities of educators in preschool educational institutions, analyzes international and national experiences, and outlines ways to improve effective monitoring mechanisms.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, nazorat, monitoring, maktabgacha ta'lim, pedagogik faoliyat, innovatsiya, elektron platforma.

Ключевые слова: цифровые технологии, контроль, мониторинг, дошкольное образование, педагогическая деятельность, инновации, электронная платформа.

Keywords: digital technologies, control, monitoring, preschool education, pedagogical activity, innovation, electronic platform.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilar faoliyatini samarali tashkil etish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni avtomatlashtirish, shaffoflikni ta'minlash va sifatni oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 4312-sonli qarori hamda Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 sonli farmonida aholini, davlat ta'lim tashkilotlaridagi kadrlarni raqamli savodxonligini oshirish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish vazifalari belgilangan.

Dunyoda raqamlashtirish, ta'limda axbrot texnologiyalarini qo'llash, onlayn platformalar, o'quv dasturlari, mobil ilovalar 2020-yilda butun dunyoni larzaga slogan COVID_19 pandemiyasi davrida rivojlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shu davrda barcha sohalarda

online faoliyatni yo‘lga qo‘yish muammosi hal qilindi. Shundan buyon masofaviy o‘qish, ta’lim sohasida talabalar bilimini nazorat qilish, davomatini nazorat qilish elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda (Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi) maktabgacha ta’lim tizimida raqamli monitoring tizimlari keng joriy etilgan. Ushbu tizimlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- tarbiyachilar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish;
- bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini elektron tarzda baholash;
- ota-onalar bilan tezkor aloqa o‘rnatish;
- sun’iy intellekt yordamida pedagogik faoliyatni tahlil qilish.

AQSh ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish juda keng tarqalgan. Masalan, Khan Academy platformasi ta’limda interaktiv va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Ushbu platforma o‘quvchilarga o‘z tempida darslarni o‘rganish imkonini beradi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Finlyandiya ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarni o‘qitishda muvaffaqiyatli qo‘llash bilan tanilgan. Bu mamlakatda “Digitaalinen oppiminen” (raqamli o‘rganish) konsepsiyasi mavjud bo‘lib, u o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Finlyandiyada o‘qituvchilar raqamli texnologiyalardan foydalanib, interaktiv darslar o‘tkazishadi. Shuningdek, o‘quvchilarga raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki oshiriladi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Finlyandiyada “EduCare” platformasi orqali tarbiyachilar ish faoliyati va bolalar rivoji muntazam monitoring qilinadi.

Singapur ta’lim tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanishda ilg‘or tajribalarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatda “Smart Nation” dasturi doirasida raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarga raqamli vositalar va platformalardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi.. Janubiy Koreya: “E-Childcare System” platformasi orqali ota-onalar farzandining muassasada qatnash holatini mobil ilova orqali nazorat qiladi, to‘lovlar elektron shaklda amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayonini sifatini oshirish, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida tizimni raqamlashtirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Jumladan:

- maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining buyruqlari e_huquqshunos tizimi orqali online yuritilishi;
- bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va chiqarish b.bit(bolalar bog‘chasi) tizimi orqali amalga oshiriladi;

- bolalar davomati nodavlat.bog‘cha.uz tizimi orqali;
- tarbiyachilar faoliyatini my.mdomi.uz sayti orqali baholanishi;
- tarbiyachilarga toifa belgilashda online test jarayonlarini amalga oshirilishi, shu vaqtning o‘zida baholanishi.

Ushbu elektron tarzda amalga oshirilayotgan jarayonlar tizimni shaffofligini ta’minlash, korrupsion holatga chek qo‘yish, adolatli boshqaruv tizimini amalga oshirish imkonini bermoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish quyidagi ijobiy jihatlarni ta’minlaydi:

- inson omilini kamaytiradi;
- shaffoflik va obyektivlikni oshiradi;
- vaqt va resurslarni tejaydi;
- tezkor tahlil va qaror qabul qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida quyidagi muammolar ham mavjud: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, internet tezligi va xavfsizlik masalalari. Ushbu muammolarni hal etish uchun pedagoglar uchun raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash, yagona integratsiyalashgan platformalar yaratish zarur.

Xorijiy va milliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Kelgusida ushbu tizimlarni takomillashtirish orqali maktabgacha ta’lim samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4312-sonli qarori.
2. Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079 sonli farmoni.
3. UNESCO (2021). Digital transformation of early childhood education management systems: global practices and lessons learned. — Paris: UNESCO Publishing.
4. Korea Ministry of Education (2021). E-Childcare System Implementation Report. — Seoul

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA UYUSHMAGAN YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARI

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
Matkarimov Ikrom Muxtarovich deputat_0303@mail.ru
+998995260507

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Hozirgi ijtimoiy-madaniy sharoitda uyushmagan yoshlar bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish, ularning ma'naviy qadriyatlarga munosabati, axloqiy mezonlari, ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Maqolada mazkur metodikani amaliyotga joriy etishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari, yoshlar yetakchilari, psixologlar, mutaxassislar va jamoatchilik hamkorligining o'rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonni bosqichma-bosqich tashkil etish, interfaol metodlar, mentorlik, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar, ijtimoiy sheriklik va individual yondashuvdan foydalanishning samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, metodikani amaliyotga tatbiq etish, tatbiq etish mexanizmlari, pedagogik mexanizmlar, ijtimoiy sheriklik, mahalla, oila, mentorlik, interfaol metodlar, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar, individual yondashuv, ma'naviy immunitet, fuqarolik pozitsiyasi. Jahonda globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash muammosi jamiyatning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy xavfsizligi va kelajak taraqqiyoti nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday toifadagi yoshlar doimiy ta'lim muhiti, mehnat intizomi, kasbiy yo'naltirish, jamoaviy faoliyat va tizimli ijtimoiy nazoratdan qisman chetda qolgan bo'lib, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas'uliyati va hayotiy maqsadlarining shakllanishida muayyan bo'shliq yuzaga kelishi mumkin. Uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi faqat tarbiyaviy ta'sir bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ularning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlarga munosabati, jamiyatdagi o'rni va o'z kelajagini ongli ravishda belgilashiga ham bevosita daxldordir. Shu sababli mazkur yo'nalishda qo'llanilayotgan an'anaviy yondashuvlar ko'p hollarda yetarli samara bermaydi. Chunki zamonaviy yoshlarning qiziqishlari, axborot qabul qilish usullari, kommunikativ muhiti va psixologik xususiyatlari o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda ma'naviy-axloqiy tarbiyani innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, ayniqsa uni amaliyotga samarali tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim pedagogik vazifaga aylanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-

yanvarda[2][1]gi PQ-92-son qarorida mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini ommalashtirish, “besh muhim tashabbus” doirasidagi loyihalarni amalga oshirish, yoshlar festivallari va madaniy-ma’rifiy tadbirlarni kengaytirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori va tashabbuslarini rag‘batlantirish, ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual kamoloti va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [1]. Mazkur me’yoriy-huquqiy asoslar shuni ko‘rsatadiki, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi bugungi kunda faqat tarbiyaviy faoliyatning tor doiradagi vazifasi emas, balki ularning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy barkamolligi va hayotiy maqsadlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu bois mazkur yo‘nalishda innovatsion yondashuvga asoslangan samarali metodikani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning barqaror samarasi yoshlarda shakllangan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yuzaga keladi. Aniqroq aytganda, axloqiy tushunchalarning o‘zlashtirilishi, ijtimoiy xulq me’yorlarini anglash, jamoada muloqot qilish, o‘zini tuta bilish, mas’uliyatni his etish va ezgu qadriyatlarga sodiq qolish tajribasi axloqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida bir butun holda shakllanadi. Shunday ekan, **innovatsion yondashuv**ga asoslangan mexanizmlar tarbiya natijasini faqat nazariy xabardorlik darajasi bilan emas, balki yoshning kundalik turmushida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorligi va shaxsiy mas’uliyati bilan baholashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mazkur mexanizmlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishda yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mahalladagi ushbu toifadagi yoshlar ko‘pincha ijtimoiy chetlashuv, befarqlik, maqsadsizlik yoki tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik holatlarini namoyon etadi. Shuning uchun ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida tayyor xulosalarni qabul qiluvchi ob’ekt sifatida emas, balki muammolarga nisbatan o‘z qarashiga ega, hayotiy vaziyatlarga mustaqil munosabat bildira oladigan, shaxsiy pozitsiyasini asoslab bera oladigan sub’ekt sifatida tarbiyalash talab etiladi. Bu esa interfaol metodlar orqali yoshning fikrini erkin ifoda etishiga, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishiga, guruhda hamkorlik qilishiga va ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, mexanizmlarning amaliy samaradorligi ularni tashkil etuvchi pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tanlanishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, maktabdan tashqari ta’lim jarayonida mashg‘ulotlarning mazmun jihatdan hayotiy, tarbiyaviy va

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

qiziqarli bo‘lishi, qo‘llanilayotgan interfaol metod va pedagogik texnologiyalarning yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi, tarbiya jarayonida oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligining ta’minlanishi muhimdir. Tadqiqotimiz ko‘rsatishicha, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining natijadorligi ko‘p jihatdan yoshlardagi motiv-motivatsiyaning ijtimoiylashuv darajasiga bog‘liq.



1-rasm. Innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari

Ushbu rasmda innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari tizimli ravishda ifodalangan. Unda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, sub’ektlari, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar, shuningdek, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ta’sir yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rsatilgan. Mazkur mexanizm yoshlarda ma’naviy-axloqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga munosabat va hayotiy maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularni qayta ijtimoiylashtirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, profilaktik qo‘llab-quvvatlash va monitoring ishlarini yagona tizim asosida tashkil etish imkonini beradi.

D.I.Ro‘zieva pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashning afzalliklarini tahlil qilar ekan, texnologik yondashuv orqali pedagogik, ta’limiy va ijtimoiy faoliyat qirralarini ochish mumkinligini ta’kidlaydi [2; 16-b.]. Xususan, bu yondashuv pedagogik jarayonni samarali boshqarish, mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo‘llash, ta’limiy hamda ijtimoiy-tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal qilish, shaxs rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, salbiy ta’sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va kutilgan natijalarni aniq prognoz qilish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlar aynan mahalla sharoitida uyushmagan yoshlar bilan ishlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu toifadagi yoshlar bilan ishlashda faqat ma’naviy tushuntirishlar emas, balki ijtimoiy-pedagogik muammolarni kompleks hal etish, shaxsiy rivojlanish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish va ularni ijtimoiy faol hayotga qayta jalb etish muhim vazifa hisoblanadi[2;].

Mazkur mexanizmni pedagogik texnologiyalar asosida qurish, avvalo, tarbiyaviy jarayonni aniq bosqichlarga ajratishni taqozo etadi. Ya’ni dastlab diagnostik bosqichda yoshlarning ijtimoiy holati, ma’naviy-axloqiy qarashlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolari o‘rganiladi. Keyin maqsadli-loyihaviy bosqichda ularning xususiyatlariga mos tarbiyaviy mazmun, interfaol metodlar va amaliy ta’sir choralari belgilanadi. Amaliy bosqichda treninglar, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, keyslar, jamoaviy loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar va refleksiv mashg‘ulotlar orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy tafakkuri, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy faolligi rivojlantiriladi. Yakuniy bosqichda esa natijalar monitoring qilinib, tarbiyaviy ta’sir samaradorligi baholanadi. Bunday izchillik mexanizmning tizimliligini ta’minlaydi. Shunday qilib, **uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmini pedagogik**

texnologiyalar asosida qurish ilmiy jihatdan asosli, amaliy jihatdan esa yuqori samara beruvchi yondashuv hisoblanadi. U tarbiya jarayonini maqsadli boshqarish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy-pedagogik muammolarni kompleks hal etish va yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois ushbu mexanizmni interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida takomillashtirish dissertatsiya tadqiqotining muhim nazariy va amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, o‘quvchi-yoshlar tomonidan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek, nazariy tushunchalar va qoidalar tizimi ularning kundalik faoliyati, ijtimoiy munosabati va ma’naviy-axloqiy xulq-atvorining amaliy asosini tashkil etadi[3][3; 98-b.]. Ayniqsa, “Tarbiya” fani orqali o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchi-yoshlar tomonidan ijtimoiy-ma’naviy tarbiyaviy tadbirlar, seminar-treninglar, jamoaviy muloqotlar va ijtimoiy loyihalar jarayonida qo‘llanilganda, ularning tarbiyaviy qiymati yanada ortadi. Shu ma’noda, tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Mashg‘ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, pedagogik va psixologik bilimlarni anglash, shaxsiy qobiliyatni namoyon etish, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ma’naviy yetuklik, tashkilotchilik, qat’iy intizom va mas’uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[4][4; 424-b.]. Bunday yondashuv, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu toifadagi yoshlar bilan ishlashda tarbiyaviy ta’sir faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki ularning ichki imkoniyatlarini faollashtirish, ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlash va hayotiy maqsadlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Ro‘zieva D. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.: dis. ... ped. fan. dok. – T., 2007.255-b.

3. Холиқов Э., Худойқулов Х.Ж. ва бошқалар. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДАИ, 1999. – 98

[3] Холиқов Э., Худойқулов Х.Ж. ва бошқалар. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДАИ, 1999. – 98 б.

[4] Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент: Иқтисод молия, 2012. – 424 б.

б.

4. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент: Иқтисод молия, 2012. – 424 б.

5. Xoliqov E., Xudoyqulov X.J. va boshqalar. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: TDAI, 1999. – 98 b.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

N.S.Duschanova -
Urganch RANCH universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada pedagogika yo‘nalishida sun’iy intellektning ahamiyati, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanishni hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini inson miyasining kognitiv xususiyatlariga muvofiq ravishda tashkil etilishining ahamiyatini ko`rsatib o`tgan. .

Kalit so‘zlar:sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan muloqot, ma’naviy va axloqiy mezonlar, multimodal ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, neyropedagogik yondashuvlar, ta’lim, guruhda o‘qitish , virtual reallik.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish pedagogik faoliyatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida bilim berish usullarini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim sifatini oshirishda sun’iy intellekt muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.Pedagogika yo‘nalishida sun’iy intellektning ahamiyati shundaki, u o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi platformalar orqali masofaviy ta’limni rivojlantirish, bilimlarni tezkor baholash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda pedagog kadrlar nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ham samarali foydalana olishi talab etilmoqda. Shu sababli sun’iy intellektning pedagogika sohasidagi o‘rni, imkoniyatlari va istiqbollarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur ma’ruzada sun’iy intellektning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, uning afzalliklari hamda ta’lim tizimiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.Raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan, axborot oqimi keskin o‘sgan va o‘quvchilarning bilish muhiti multimediaviy kontentlar, vizual vositalar va qisqa formatli axborotlar bilan to‘lib-toshgan bir zamonda an’anaviy usullar orqali ta’lim

berish samarasizlikka olib kelishi mumkin. Chunki bu holatda o‘quvchida diqqatning parokandaligi, axborotni to‘g‘ri qabul qilishda qiyinchiliklar, fikrni chuqurlashtirmasdan yuzaki qabul qilish, mulohaza yuritish qobiliyatining zaiflashishi kabi holatlar yuzaga keladi. Shu sababli, ta’limda inson ongi qanday ishlashini, axborot qanday qabul qilinib, qayta ishlanishini, qanday sharoitda xotira mustahkamlanishini, qay tarzda fikr shakllanishini ilmiy jihatdan o‘rganish talab etildi.

Darhaqiqat, inson tafakkuri va qalbi orasidagi muvozanat ta’limning eng oliy qadriyatidir. Sizu biz yashab turgan yangi asr eshigini kompyuter texnologiyalari ochib berdi. Endilikda bunday texnologiyalar taraqqiyoti nafaqat hayot tarzimizni, balki inson sifatidagi tafakkurimizni ham o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda ta’lim va tarbiya tizimi oldida mutlaqo yangi vazifalar paydo bo‘lishi shubhasiz. Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI = SI) bizga ta’limda tez o‘rganish, chuqur tahlil qilish, har bir o‘quvchiga mos ta’lim traektoriyasini belgilash kabi yangi imkoniyatlar bermoqda. Ayni paytda unutmasligimiz kerakki, u faqat vosita xolos. Har qanday sharoitda ham ta’limning haqiqiy qahramoni insonning o‘zi bo‘lib qolaveradi.

Mashhur dasturchi va nazariyotchi olim Djon Makkarti “sun’iy intellekt” atamasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan. Shuning uchun uning ushbu tushunchaga bergan ta’rifini keltirishni maqsadga muvofiq topdik: “Sun’iy intellekt – bu aqlli mashinalarni, xususan, inson kabi fikrlay oladigan dasturlarni yaratish ilmi va muhandisligidir.” Soddaroq qilib aytganda, sun’iy intellekt bu inson aqlining elektron ko‘rinishi, ya’ni fikrlay oladigan, o‘rgana biladigan va ba’zan qaror ham chiqaradigan dasturdir.

Sun’iy intellektga munosabat: qo‘rquvdan ishonchga... Odamlarning sun’iy intellektdan qo‘rqishi, unga nisbatan hadik bilan munosabatda bo‘lishi, aslida, tabiiy holat. Inson psixologiyasiga ko‘ra, nimaki yangilik bo‘lsa, u avval shubha bilan qabul qilinadi. Tushunmagan narsaning odamda xavotir uyg‘otishida mantiq mavjud. Ammo, sun’iy intellektning xavotiri o‘rinli: Meta kompaniyasining vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov bu dastur mustaqil ravishda rivojlana olishini ta’kidlaydi. Bu esa uning kelajagi bilan bog‘liq xavotirlarning muayyan darajada asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Odamlar orasida eng ko‘p tarqalgan qo‘rquv – ish o‘rnidan ayrilish xavfi. Darhaqiqat, mutaxassilarning fikricha, “...qachondir ayrim kasblar haqiqatan ham o‘z o‘rnini qisman yoki butunlay sun’iy intellektga bo‘shatib beradi”. [“Meta”ning vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov]

Yana bir xavf – plagiat va yolg‘on ma’lumotlar orqali aldanish xavfi. Bizningcha, bu bu sun’iy intellektning aybi emas, balki undan foydalanish madaniyatining pastligi bilan bog‘liq hodisa.

Insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi. Butun insoniyat tarixi davrlashtirilsa, davriy chegaralarni belgilashga, shubhasiz, buyuk kashfiyotlar asos bo‘ladi. G‘ildirakning kashf etilishi,

elektrning paydo bo‘lishi, internetning tug‘ilishi kabilar insoniyatni yangi bosqichga olib chiqqan buyuk ixtirolardir. Endi esa yangi bosqich – sun’iy intellekt davri boshlandi. Avvalgi ixtirolar inson qo‘lini yengillatgan bo‘lsa, sun’iy intellekt inson aqlining o‘zi bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bois, bizningcha, insoniyat tamaddunini ikki davrga bo‘lish mumkin: sun’iy intellektgacha bo‘lgan davr va undan keyingi davr. Birinchisi, inson tabiatni boshqarishni o‘rgangan davr; ikkinchisi esa inson aqliga muqobil sherik paydo bo‘lgan davr.

Sun’iy intellektdan foydalanishning ma’naviy va axloqiy mezonlari. Sun’iy intellekt jadal sur’atlar bilan hayotimizga kirib kelar ekan, u nafaqat texnologiya, balki ma’naviyat masalasiga ham aylandi. Bizningcha, “sun’iy intellekt gigienasi” yoki “raqamli axloq” degan yangi tushunchalarni qabul qilish vaqti keldi. Bu atamalar insonning texnika bilan munosabatini nazorat qiladigan ichki qoidalarni anglatadi. Jismoniy gigiena tanani sog‘lom saqlasa, sun’iy intellekt gigienasi fikr va axloqni sog‘lom saqlaydi.

Yaqin yillargacha qo‘lida quroli bor inson xavfli va ayni paytda kuchli ham bo‘lgan bo‘lsa, bugun axborotga ega va sun’iy intellektni o‘zlashtirgan odam kuchli. Amerikalik fizik va futurolog Stiven Xoking sun’iy intellekt haqida so‘z yuritar ekan, uning qudratini e’tirof etgan holda ta’kidlaydi: “Sun’iy intellekt insoniyat uchun yoki eng buyuk imkoniyat, yoki eng katta xavfga aylanishi mumkin. Bu uni inson qanday niyat va mas’uliyat bilan boshqarishida”. [5]

Sun’iy intellektdan foydalanishning ma’naviy va axloqiy mezonlari:

1. Ma’lumotga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish.
2. Boshqalarning mehnatini hurmat qilish.
3. Yolg‘on ma’lumot tarqatmaslik.
4. Shaxsiy bilim va vijdon nazorati.
5. Axloqiy niyatning sofligi.
6. Shaxsiy ma’lumotni himoya qilish.
7. Inson omilini ustuvor tutish.
8. Foydali va zararli maqsadni farqlay bilish.
9. Ilmni chuqur anglash va ma’naviyat bilan bog‘lash.

Bu mezonlarning har biri izohlarni talab qiladi, lekin vaqtimiz chegaralangan.

7-slayd. Sun’iy intellekt va ta’lim: yangi imkoniyatlar. Sun’iy intellekt ta’limda, eng avvalo, yordamchi sifatida qo‘shimcha qiymat kasb etadi: u o‘qituvchi va o‘quvchi ishini yengillashtiradi, vaqtni tejaydi, mashg‘ulotni shaxsiylashtirib, o‘quvchining shaxsiy ta’lim traektoriyasini belgilashga yordam beradi. Avtomatik test tuzishdan tortib, tarjimonlik qilish, virtual o‘qituvchilik faoliyati va individual tavsiyalar berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda u “aqlli sherik” bo‘la oladi, lekin qaror va nazorat, o‘quvchi tarbiyasi va ma’naviyati, individual

yondashuvda o‘quvchi ruhiyatini hisobga olish bilan bog‘liq jarayonlar baribir o‘qituvchining zimmasida qoladi.

Virtual o‘qituvchini 7/24 formatda ishlaydigan, sabr-toqatli va charchamaydigan yordamchi sifatida tushunish mumkin. U qiyin tushunchani qayta-qiyta boshqacha yo‘l bilan tushuntirib beradi, misollarni soddalashtiradi, qadam-baqadam yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Masalan, matematikada masalani yechish jarayonini qadamma-qadam ochadi, adabiyotda matn tahlilini yo‘lga soladi, tabiiy fanlarda tajriba mantig‘ini tushuntiradi. Bu o‘quvchining ishonchini oshiradi, shaxsiy tempda o‘qish imkoniyatini beradi. Lekin virtual o‘qituvchi hayotiy tajriba, tarbiya va qiymatlarni singdira olmaydi va bu o‘rinda o‘quvchiga o‘qituvchining roli talab qilinadi.

Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallashi mumkinmi? Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘qituvchini bilim manbai sifatida emas, balki fasilitator sifatida ko‘radi. Ta’limda bilim olish jarayonini to‘g‘ri va oqilona tashkil qilish o‘qituvchining bilimidan ham ko‘ra muhimroq omildir. Agar ta’limni faqat ma’lumot berishdan iborat jo‘n hodisa deb tushunsak, ehtimol, sun’iy intellekt yetarli bo‘lishi mumkin. Ammo ta’lim jarayoni jo‘n hodisa emas. Chunki uning ob’ekti inson va uning intellektual hamda ma’naviy kamolotini ta’minlash jarayonidir.

Ushbu sohaning qonuniy javobgar shaxsi sifatida o‘qituvchi bugungi kunda faqat bilim yetkazuvchi emas, balki insonni keng ma’noda tarbiyalovchi, hayotga tayyorlovchi va uni ruhlantiruvchi, mehr va mas’uliyat manbai bo‘lgan shaxsdir. His, tuyg‘u, mehr, vijdon va ma’naviyat bilan bog‘liq bunday faoliyat turlarini sun’iy intellekt bajara olmaydi: u ma’lumotni tez yetkazadi, lekin qalbni tarbiyalay olmaydi; u tinglaydi, lekin his etmaydi; u javob beradi, lekin ilhom bag‘ishlay olmaydi; u tavsiya beradi, lekin bolaning ko‘zidagi quvonchni yoki tushkunlikni his eta olmaydi. Bilimni yaratishda aql yetakchi bo‘lsa, tarbiyada qalb yalovbardor. Shu bois haqiqiy ta’limda sun’iy intellekt faqat yordamchi vosita sifatida, inson-o‘qituvchi esa har doim uni boshqaruvchi, ilhom beruvchi va yo‘lboshchisi bo‘lib qolaveradi.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Sun’iy intellektni ta’lim amaliyotiga joriy etish bu faqat texnik qadamlardan iborat mexanik jarayon emas, balki butun ta’lim madaniyatini yangilashni anglatuvchi murakkab jarayondir. Undan to‘g‘ri foydalanish uchun, avvalo, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim rahbarlari sun’iy intellektni to‘g‘ri tushunishi, undan foydalanish madaniyati va mas’uliyatini o‘zlashtirishi kerak. Bu jarayon bosqichma-bosqich, tizimli va milliy ta’lim ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Quyida sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha ilk amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz.

Amaliy tavsiyalar: 1. O‘quvchilar uchun axborot xavfsizligi va raqamli axloq darslarini joriy etish. 2. O‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. 3. SIni dars jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish. 4. Maktablarda “Sun’iy intellekt kuni” loyihasini tashkil etish. 5. SI yordamida o‘quvchining shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirish. 6. Milliy ta’lim platformalariga sun’iy intellekt funksiyalarini qo‘shish. 7. SI orqali inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash. 8. Ota-onalar uchun raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish. 9. SI orqali ta’limda statistik tahlil va monitoring tizimini joriy qilish. 10. SI bilan bog‘liq fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish.

SI ni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish masalasi ilmiy tadqiqotlar uchun nisbatan yangi va dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada hali ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilinishi kerak.

Xulosa. Sun’iy intellekt – insoniyatning yangi fikrlash bosqichiga olib chiquvchi kuch, ammo u faqat inson axloqiga bo‘ysungandagina samarali bo‘ladi. Aqlni texnikaga suyantirgan jamiyat ko‘p narsa yaratadi, lekin ma’naviyatga suyantirgan jamiyatgina insonni asrab qoladi. Texnikadan quvvat olish mumkin, lekin ma’naviyatdan ruh olinadi. Texnologiya – vosita, inson esa uning mohiyatidir. Sun’iy intellekt qanchalik aqlli bo‘lmasin, u insonni anglamaydi, his qilmaydi, kechirmaydi. Haqiqiy qarorni faqat qalb va vijdon qabul qiladi. Shu bois sun’iy intellektdan qo‘rqish emas, uni to‘g‘ri yo‘naltirish muhim. U insonning o‘rnini bosish uchun emas, balki inson salohiyatini yuksaltirish, uning hayotini ma’no va imkoniyat bilan boyitish uchun xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sun’iy intelekt o`qituvchini ishdan ayiradi(mi)? Umid Xodjamqulov, pedagogika fanlari doktori, professor.Til va adabiyot ta’limi. 8 / 2025 .12-20-betlar.

2.McCarthy J. What is Artifi cial Intelligence? – Stanford University, 2007. – Available at: https://www-formal. stanford.edu/jmc/whatisai.html

3.Sun’iy intellekt mustaqil ravishda rivojlana oladi. ICT Week doirasida “Meta” vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov nutqidan. https://www.gazeta.uz/uz/2025/09/30/ruslan-salakhutdinov/

4.Sun‘iy intellekt saratonni davolay oladimi? “Meta” vitse-prezidenti Ruslan Salohutdinov – mashinaviy tafakkurning kelajagi haqida. https://www.gazeta.uz/uz/2025/10/07/ruslan-salakhutdinov/

5.Schleicher A. Artifi cial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 156 p.

6.Hawking S. BBC Interview on Artifi cial Intelligence. – BBC News, 2016. – Available at: https://www.bbc.com/ news/technology-30290540

7.Luckin R. Holmes W. Griff iths M. & Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson Education, 2016. – 80 p.
8.Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 192 p.
1. Юдина Е.Г. Искусственный интеллект в образовании: этические и педагогические вызовы // Педагогика и психология образования, 2022, №3. – С. 45–52.
10.Safarov A. Sun’y intellekt texnologiyalaridan ta‘lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari: PhD dissertatsiya. – Toshkent: TDPU, 2023. – 180 b.

2-SHO‘BA: SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDA ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

RAQAMLI TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PEDAGOGIK MAHORAT INTEGRATSIYASI

Kutlimuratova Nargiza Rustamovna.
Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi v.b dotsenti
nargizakutlimuratova994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari va pedagogik mahoratning integratsiyasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda sun’iy intellekt imkoniyatlari, pedagogning yangi kompetensiyalari hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot davomida tizimli, qiyosiy va tahliliy metodlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, pedagogik mahorat, individual ta’lim, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье в условиях цифровой трансформации образования с научно-теоретической и практической точек зрения анализируется интеграция технологий искусственного интеллекта и педагогического мастерства. Освещаются возможности искусственного интеллекта в организации личностно-ориентированного обучения, новые компетенции педагога, а также их влияние на эффективность образовательного процесса. В ходе исследования использованы системный, сравнительный и аналитический методы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая трансформация, педагогическое мастерство, индивидуализированное обучение, инновационный подход, эффективность образования.

Abstract. This article analyzes, from both scientific-theoretical and practical

perspectives, the integration of artificial intelligence technologies and pedagogical mastery in the context of the digital transformation of education. It highlights the capabilities of artificial intelligence in organizing learner-centered education, the emergence of new teacher competencies, as well as their impact on the effectiveness of the educational process. During the study, systemic, comparative, and analytical methods were applied

Keywords: artificial intelligence, digital transformation, pedagogical mastery, individualized learning, innovative approach, educational effectiveness.

Kirish. Raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida sun’iy intellekt va pedagogik mahorat integratsiyasi bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mislsiz sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida, balki ta’lim tizimida ham keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni individuallashtirish, bilimlarni baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda o‘qituvchilarning mehnatini yengillashtirish imkonini bermoqda. Natijada ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun yangi sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish faqat texnik vositalar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy kompetensiyasi va innovatsion fikrlash qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday zamonaviy texnologiya samarali natija berishi uchun u pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi zarur. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchining roli ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, ularni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi va raqamli resurslardan samarali foydalanishga o‘rgatuvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu esa pedagogik mahoratni yangi bosqichga ko‘tarishni, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi.**Adabiyotlar tahlili**. Zamonaviy taraqqiyot bosqichida raqamli ta’lim transformatsiyasi hamda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyasi masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan fundamental darajada o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va pedagogik samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan SI texnologiyalarining ta’limdagi tatbiqi, asosan, “aqlli ta’lim tizimlari” (smart

education), “adaptiv o‘qitish” (adaptive learning) va “raqamli pedagogika” tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etilmoqda. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, SI asosida yaratilgan platformalar o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va axborotni o‘zlashtirish tezligiga muvofiq ravishda individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelini rivojlantirishdagi strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, qator ilmiy ishlarda SI texnologiyalarining o‘qituvchilar faoliyatidagi funksional o‘rni alohida e’tirof etiladi. Xususan:

- Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari;
- O‘quv materiallarini tavsiya etuvchi intellektual platformalar;
- Virtual assistentlar (yordamchilar).

Mazkur texnologik yechimlar pedagogning rutinali vazifalarini kamaytirish, vaqtini tejash hamda uning diqqat-e’tiborini ko‘proq ijodiy va metodik faoliyatga yo‘naltirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Mahalliy olimlar ham o‘z tadqiqotlarida raqamli ta’limni rivojlantirish va pedagogik mahoratni takomillashtirish masalalarini keng yoritmoqdalar. Ta’kidlash joizki, zamonaviy raqamli transformatsiya jarayoni SI texnologiyalarining tatbiqi orqali til kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Intellektual tizimlardan foydalanish ta’lim jarayonini har bir talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish, tilni o‘zlashtirish darajasini aniq diagnostika qilish va shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, A.V. Mironovning qarashlariga ko‘ra, raqamli pedagogika ta’lim tizimining konseptual o‘zgarishiga olib kelib, intellektual texnologiyalar asosida yangi o‘qitish metodlarini joriy etish uchun qulay ekotizim yaratadi [3, 45]. Shu bilan birga, SI ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi o‘qituvchi maqomini yangicha mazmun bilan boyitmoqda. O‘qituvchi endilikda faqat axborot uzatuvchi (translyator) emas, balki o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirishda intellektual raqamli vositalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etuvchi tyutor va mentor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon pedagogdan moslashuvchan fikrlashni, doimiy kasbiy rivojlanishni hamda yangi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan yuksak tayyorgarlikni talab etadi. **Muhokama.**Pedagoglarni sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan ishlashga tayyorlash ularning malakasini oshirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sohasiga sun’iy intellektni joriy etish o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda pedagoglar ishini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, sezilarli afzalliklar bilan birga, muayyan chaqiriqlar va cheklovlar ham mavjud bo‘lib, ularni muhokama qilish va hisobga olish zarur. Sun’iy intellekt yordamida ta’limni individuallashtirish o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga aniqroq javob berish imkonini beradi, ammo bu ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq savollarni ham keltirib chiqaradi. **Xulosa**. Ayni paytda SI ta’limning

raqamli transformatsiyasining ajralmas hamrohi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida o‘qituvchilarning kundalik ma’muriy va metodik vazifalarini samarali hal qilish imkonini beradigan innovatsion vosita bo‘lib, u pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Uning joriy etilishi ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’limga kirish imkoniyatini yaxshilash hamda raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. SI texnologiyalarining pedagogik mahorat bilan integratsiyalashuvi ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taruvchi, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni texnologik jihatdan boyituvchi innovatsion jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699-sonli qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. Lex.uz
2. Abduqodirov A. A. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o‘rni. - Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Миронов А.В. Цифровая педагогика: технологии, практики, тренды. – М.: Просвещение, 2022
4. Gulomova N. (2023). Sun’iy intellekt va raqamli muhitda ta’lim sifatini oshirish yo‘llari. // Zamonaviy ta’lim jurnali, №4.
5. Rahimov S. Sun’iy intellekt va ta’lim tizimi integratsiyasi // Zamonaviy ta’lim. - 2022. - №2(3). - B. 25–30.
6. Xoliqov A. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

TALABALAR MANTIQIY FIKRLASHINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KVALIMETRIK BAHOLASH MEZONLARI

Sapayev Azizbek Bahram o‘g‘li
“Pedagogika va psixologiya”kafedrasi Stajyor o‘qituvchisi.
Urganch davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mustaqil tadqiqotchisi.
biolider.uz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida talabalar mantiqiy fikrlashini kvalimetrik baholash mezonlarini aniqlash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik jarayonda fanlararo integratsiya, interfaol metodlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali talabalarning mantiqiy fikrlash darajasini baholash imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida kvalimetrik baholashning mazmuni, uning ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda talabalar kompetensiyalarini aniqlashdagi ahamiyati asoslab

beriladi. Olingan natijalar mantiqiy fikrlashni baholashda integrativ yondashuvning samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Аннотация:В статье рассматривается квалиметрическая оценка логического мышления студентов на основе интегративного подхода. Особое внимание уделяется использованию междисциплинарной интеграции, интерактивных методов и проблемных ситуаций в образовательном процессе как средств оценки аналитического и логического мышления студентов. Раскрывается сущность интегративного подхода, его влияние на эффективность оценки и роль в определении профессиональных компетенций студентов. Полученные результаты подтверждают эффективность интегративного подхода при оценке логического мышления.

Abstract: This article examines the qualimetric assessment of students’ logical thinking based on an integrative approach. The study focuses on the use of interdisciplinary integration, interactive methods, and problem-based situations as tools for evaluating analytical and logical thinking in students. The essence of the integrative approach, its impact on assessment effectiveness, and its role in identifying students’ competencies are also discussed. The findings indicate that the integrative approach is an effective means of assessing logical thinking skills.

Kalit so‘zlar:integrativ yondashuv, mantiqiy fikrlash, kvalimetrik baholash, talabalar, pedagogik integratsiya, fanlararo yondashuv, muammoli ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, tahliliy va tanqidiy fikrlash, kompetensiya, baholash samaradorligi.

Keywords: integrative approach, logical thinking, qualimetric assessment, students, pedagogical integration, interdisciplinary approach, problem-based learning technologies, interactive teaching methods, analytical and critical thinking, competence, assessment effectiveness.

Ключевые слова: интегративный подход, логическое мышление, квалиметрическая оценка, студенты, педагогическая интеграция, междисциплинарный подход, технологии проблемного обучения, интерактивные методы обучения, аналитическое и критическое мышление, компетентность, эффективность оценки.

Kirish: Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar mantiqiy fikrlash darajasini baholash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan muhim vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarning tahliliy va mustaqil fikrlash darajasini aniqlash zarurati ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning bilimlarini tizimli o‘zlashtirish bilan birga ularni kvalimetrik mezonlar asosida baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.[3]

Mantiqiy fikrlash qobiliyati shaxsning kognitiv rivojlanishida muhim o‘rin tutib, u tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu qobiliyatni kvalimetrik baholash ta’lim jarayonida, xususan, o‘quv vaziyatlarini tahlil qilish hamda natijalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, talabalar kompetensiyasini aniqlashda mantiqiy fikrlashni baholash ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.[1]Psixologik jihatdan, mantiqiy fikrlash darajasini baholash shaxsning motivatsion holati, refleksiv faoliyati va intellektual faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi hamda o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini baholashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Pedagogik nuqtai nazardan, talabalar mantiqiy fikrlashini baholashda integrativ yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya, muammoli ta’lim, interfaol metodlar va reflektiv faoliyat elementlari orqali talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv baholash jarayonida zarur bo‘lgan kognitiv va metakognitiv ko‘rsatkichlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, ta’lim tizimida talabalar mantiqiy fikrlashini integrativ yondashuv asosida kvalimetrik baholash masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar ta’lim sifatini oshirish va baholash tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[4] **Tadqiqotning asosiy maqsadi** — integrativ yondashuv asosida talabalar mantiqiy fikrlashini kvalimetrik baholashning pedagogik va psixologik jihatlarini tizimli tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslarini aniqlashdan iborat.

Mazkur tadqiqot integrativ yondashuv asosida talabalar mantiqiy fikrlashini kvalimetrik baholashning pedagogik va psixologik jihatlarini tizimli o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari mantiqiy fikrlashning talabalarning kompetensiyasini aniqlashdagi muhim kognitiv omil ekanligini ko‘rsatadi va u baholash jarayonining turli bosqichlarida — ta’lim natijalarini aniqlash, o‘quv faoliyatini tahlil qilish, interfaol metodlarni qo‘llash va natijalarni baholashda namoyon bo‘lishini asoslaydi.[2]

Xulosa: Talabalar mantiqiy fikrlashini integrativ yondashuv asosida kvalimetrik baholash zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik va psixologik jihatlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda integrativ yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘lib, u baholash mezonlarini tizimli shakllantirish va ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy fikrlashni baholash faqat nazariy bilimlarni aniqlash orqali emas, balki amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar hamda refleksiv faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan baholash

jarayonida talabalar turli vaziyatlarni tahlil qilish, ularni solishtirish, umumlashtirish va asoslangan xulosalar chiqarish darajasi aniqlanadi. Bu esa ularning nafaqat kognitiv ko‘rsatkichlarini, balki mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv talabalarning motivatsion faolligini oshirish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva, M. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar." Toshkent, 2021.
2. Nuriddinov, A. "Ta’limda interaktiv metodlar". Samarqand, 2020.
3. Sun’iy Intellekt va Ta’lim Texnologiyalari Jurnali. "Raqamli o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari." 2023.
4. Jurnal "Pedagogik yangiliklar." "Gamifikatsiya va uning ta’limdagi o‘rni." Toshkent, 2023.
5. Ergashev, K. "Axborot texnologiyalari asoslari." Toshkent, 2021.

TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATLARIDA VAZIFALARNI BAJARISHNI KECHIKTIRISHNING (PROKRASTINATSIYANING) PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urgan davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent
Telfon raqam:+998977903001

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar o‘rtasida keng tarqalgan akademik prokrastinatsiya hodisasi, uning kelib chiqishining psixologik fenomeni, determinantlari va o‘quv samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda prokrastinatsiyaning motivatsion, emotsional va kognitiv omillari tanqidiy ko‘rib chiqilib, ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: prokrastinatsiya, akademik kechiktirish, o‘quv motivatsiyasi, perfeksionizm, vaqtni boshqarish, o‘z-o‘zini boshqarish, irodaviy nazorat, emotsional regulyatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется явление академической прокрастинации, широко распространенное среди студентов, психологический феномен её возникновения, детерминанты и влияние на эффективность обучения. В исследовании критически рассматриваются мотивационные, эмоциональные и когнитивные факторы прокрастинации, а также даются научные рекомендации по преодолению данной проблемыю

Ключевые слова: прокрастинация, академическая прокрастинация, учебная мотивация, перфекционизм, тайм-менеджмент (управление временем), саморегуляция, волевой контроль, эмоциональная регуляция.

Abstract: This article analyzes the phenomenon of academic procrastination, which is widespread among students, the psychological phenomenon of its origin, its determinants, and its impact on academic performance. The study critically examines the motivational, emotional, and cognitive factors of procrastination and provides scientific recommendations for addressing this issue.

Keywords: procrastination, academic procrastination, academic motivation, perfectionism, time management, self-regulation, volitional control, emotional regulation.

Kirish: Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sir etuvchi asosiy to‘siqlardan biri — akademik prokrastinatsiyadir. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda muhim vazifalarni ongli ravishda keyinga qoldirish va natijada salbiy emotsional holatlarni boshdan kechirish sifatida ta’riflanadi. Talabalar orasida ushbu holatning uchrashi nafaqat baholarning pasayishiga, balki psixologik stress va surunkali charchoqqa ham sabab bo‘lmoqda. Prokrastinatsiya shunchaki vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash emas, balki sub’ektning vazifa keltirib chiqaradigan salbiy emotsiyalarni (xavotir, zerikish, noaniqlik) boshqara olmasligidir. An’anaviy ravishda olib qaraganda prokrastinatsiya "taym-menejment" muammosi deb qaraladi. Biroq, biz ushbu yondashuvni tanqid ostiga olamiz. Talaba vazifani vaqti yo‘qligi uchun emas, balki o‘sha vazifadan qo‘rqqani uchun kechiktiradi. Prokrastinatsiya — bu kelajakdagi natijani bugungi kundagi “yaxshi kayfiyat”ga almashtirishdir. Bunda tadqiqotning bosh maqsadi talabalarda akademik prokrastinatsiya fenomenining psixologik tabiatini ochib berishdan iborat bo‘lib, quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi: 1.Talabalarning o‘quv faoliyatidagi prokrastinatsiya darajasini empirik jihatdan aniqlash; 2.Akademik kechiktirishning shaxsiy determinantlari bilan o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish; 3.Prokrastinatsiyaning o‘quv samaradorligiga ta’sirini statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash; 4.Olingan natijalar asosida talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Mamlakatimiz olimlari E.G‘. G‘oziyev va V.M. Karimova tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, talaba faoliyatining samaradorligi uning irodaviy sifatlari va ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. [5]. Prokrastinatsiya tabiatini tushunish uchun avvalo uning motivatsion va kognitiv asoslariga e’tibor qaratish lozim. N. Milgram tasnifiga ko‘ra, akademik prokrastinatsiya o‘quv topshiriqlarini bajarishni (mustaqil ishlar, kurs ishlari, imtihonga tayyorgarlik) oxirgi muddatgacha kechiktirish bilan tavsiflanadi [2]. G‘arb psixologiyasida, xususan, Piers Steel tomonidan ishlab chiqilgan “Vaqtinchalik motivatsiya nazariyasi” prokrastinatsiyani kutilayotgan natijaning qadri va unga erishish vaqti o‘rtasidagi

bog‘liqlik orqali tushuntiradi. Steelning ta’kidlashicha, vazifani bajarish muddati qanchalik uzoq bo‘lsa, subyekt uchun uning ahamiyati shunchalik pasayadi [3]. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan biri N.S. Safayev va boshqalar talabalarning o‘quv motivatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarini o‘rganish jarayonida prokrastinatsiyani irodaviy nazorat yetishmasligi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, talabada ichki motivatsiyaning pastligi va tashqi nazoratga haddan tashqari tayanib qolish prokrastinatsiyani kuchaytiruvchi determinant hisoblanadi [4]. Ko‘pincha prokrastinatsiya dangasalik bilan adashtiriladi, biroq psixologik jihatdan u “Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish” bilan bog‘liq. J.R. Ferrari tadqiqotlarida qayd etilishicha, talaba “Yoki mukammal bajarishim kerak, yoki umuman bajarmayman” degan ichki ustanovka tufayli ishni boshlashga qiynaladi [1]. Akademik prokrastinatsiyaning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi: 1. Lokus nazorat: Tashqi lokus nazoratga ega talabalar muvaffaqiyatsizlikda tashqi muhitni ayblaydi va mas’uliyatni kechiktiradi. 2. O‘z-o‘zini tartibga solish: Kognitiv resurslarni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik. 3. Emotsional disregulyatsiya: Vazifa keltirib chiqaradigan xavotir va zerikishdan qochish uchun ijtimoiy tarmoqlar yoki ko‘ngilochar mashg‘ulotlarga chalg‘ish. **Xulosa** sifatida shuni takidlash kerakki, akademik prokrastinatsiya — bu talaba shaxsining murakkab o‘quv sharoitlariga bo‘lgan noto‘g‘ri adaptatsiyasidir. Uni kamaytirish uchun nafaqat intizomni, balki talabaning o‘z salbiy emotsiyalari bilan ishlash va kognitiv jarayonlarni boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Akademik prokrastinatsiya — bu zamonaviy ta’lim muhitida talaba shaxsining himoya reaksiyasidir. Tavsiya sifatida quyidagilarni keltirish o‘rinlidir. 1. OTMlarda “Akademik chidamlilik” va emotsional intellekt bo‘yicha treninglar o‘tkazish. 2. Pedagogik yondashuvda topshiriqlarni "kichik modullar" ko‘rinishida berish orqali talabada kognitiv noaniqlikni kamaytirish. 3. Sh.R. Baratov ta’kidlaganidek, psixologik xizmat ko‘rsatish orqali talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda motivatsion dasturlar ishlab chiqish. Shuni ta’kidlash joizki, prokrastinatsiya — bu vaqtni boshqara olmaslik emas, balki his-tuyg‘ularni boshqara olmaslik natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ferrari, J. R. (2010). Still Procrastinating?: The No-Regrets Guide to Getting It Done. John Wiley & Sons.

2. Milgram, N. H. (1991). Procrastination: A disease of modern life. Journal of Social Behavior and Personality, 6(6), 147–154.

3. Steel, P. (2007). The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure. Psychological Bulletin, 133(1), 65–94.

4. Safayev N.S., Mirashirova N.M. (2020). Talabalar o‘quv faoliyatida motivatsiyaning psixologik determinantlari. O‘zMU xabarlari, Toshkent.

5. G‘oziyev E.G‘. (2010). Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KASBIY FAOLIYATI

Yusupova Vasila Yangibayevna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 93 093 00 86,
E-mail: vasila091089@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining psixologik xususiyatlari, kasbiy kompetensiyalari hamda faoliyatining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagog shaxsiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности воспитателя дошкольной образовательной организации, его профессиональные компетенции и теоретические основы деятельности. Освещаются современные требования к личности педагога на основе научных источников.

Abstract: The article analyzes the psychological characteristics, professional competencies and theoretical foundations of preschool educators’ activity. Modern requirements for the educator’s personality are highlighted based on scientific sources.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi shaxsi, psixologik xususiyatlar, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, kommunikativlik, empatiya.
Ключевые слова: дошкольное образование, личность воспитателя, психологические особенности, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, коммуникация, эмпатия.
Keywords: preschool education, educator personality, psychological traits, professional competence, pedagogical mastery, communication, empathy.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, shaxs kamolotining dastlabki bosqichini tashkil etadi. Ushbu davrda bolaning psixik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida tarbiyachining roli beqiyosdir. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining psixologik xususiyatlari va kasbiy faoliyatining nazariy asoslarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Lev Vygotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni kattalar ko‘magida

amalga oshiradi. Bu jarayonda tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining o‘ziga xosligi asoslab berilgan. Piaget nazariyasiga ko‘ra, bu davrda bola preoperatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, obrazli fikrlash ustunlik qiladi. Demak, tarbiyachi bolalarning psixologik yosh xususiyatlarini chuqur bilishi, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini shunga mos tashkil etishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining psixologik xususiyatlari bir necha tarkibiy qismlardan iborat: empatiya, kommunikativlik, refleksivlik, stressga chidamlilik, ijodkorlik va ijtimoiy faollik. Empatiya – bolaning ichki kechinmalarini his eta olish va unga mos munosabat bildirish qobiliyatidir. Psixologik tadqiqotlarda empatiya pedagogik samaradorlikning muhim omili sifatida e’tirof etiladi [Choriyev Z., 1999. – S.15.].

Kommunikativlik tarbiyachining bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnata olish qobiliyatini anglatadi. Muloqot jarayonida pedagogning nutq madaniyati, ovoz ohangi, mimika va pantomimikasi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘proq noverbal signallar orqali axborotni qabul qiladilar.

Tarbiyachining refleksiv qobiliyati o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etishga intilishda namoyon bo‘ladi. Refleksiya pedagogik mahoratning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, doimiy kasbiy o‘sishni ta’minlaydi. Pedagogik psixologiyada refleksiya shaxsning o‘zini anglash mexanizmi sifatida talqin etiladi [Qodirov B., 2005. – B.42.].

Kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan maktabgacha ta’lim tarbiyachisi quyidagi vazifalarni bajaradi: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy va diagnostik funksiyalar. Ta’limiy funksiya bolalarga dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarni berishga qaratilgan bo‘lsa, tarbiyaviy funksiya axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Rivojlantiruvchi funksiya bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonda tarbiyachi o‘yin faoliyatidan samarali foydalanadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bola uchun yetakchi faoliyat turi bo‘lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi va ijtimoiy tajriba orttiradi [G‘oziev E., 2002. – B.87.].

Tarbiyachining psixologik tayyorgarligi uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir. Kasbiy kompetensiya – bu pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari va qadriyatlar tizimining integrativ birligidir. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, yuqori darajadagi mas’uliyatni talab etadi. Bolalarning sog‘lig‘i, xavfsizligi, ruhiy barqarorligi pedagogning e’tibor markazida bo‘lishi zarur. Shu bois stressga chidamlilik va emotsional

barqarorlik muhim psixologik xususiyatlar sirasiga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogning emotsional kuyish sindromi (burnout) ta’lim sifati pasayishiga olib keladi [Karimova V., 2010. – B.134.].

Nazariy jihatdan qaralganda, maktabgacha ta’lim tarbiyachisi shaxsiga qo‘yiladigan talablar gumanistik pedagogika tamoyillariga asoslanadi. Gumanistik yondashuv bola shaxsini oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Pedagog bolaga hurmat, ishonch va mehr bilan munosabatda bo‘lishi lozim. Bu tamoyillar bolada ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining psixologik xususiyatlari va kasbiy faoliyati o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Pedagogning empatiyasi, kommunikativligi, refleksivligi va ijodkorligi uning kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Nazariy va amaliy tayyorgarlik uyg‘unligi esa maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida psixologik bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy mashg‘ulotlar hajmini kengaytirish hamda doimiy kasbiy rivojlanishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Choriyev Z. Pedagogika asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 15-bet.
2. Qodirov B. Pedagogik psixologiya. – T.: Fan, 2005. – 42-bet.
3. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 87-bet.
4. Karimova V. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: Istiqlol, 2010. – 134-bet.

SUN’IY INTELLEKT VA UNING TA’LIMDAGI O’RNI

Xasanov Bobur Raximberganovich
UrDPI katta o’qituvchisi.
Bxasanov824@g,ail.com, 97-510-28-36
Allaberganova Go’zaloy Zafarbek qizi
UrDPI Pedagogika yo’nalishi 251-guruh talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola sun’iy intellekt tizimlarining tarixi, insoniyat faoliyatida tutgan o’rni, sun’iy intellektning texnologiyasi va sun’iy intellekt tizimlarini ta’limga tatbiq qilishning ahamiyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются история систем искусственного интеллекта, их роль в деятельности человечества, технологии искусственного интеллекта, а также значение внедрения систем искусственного интеллекта в образование.

Abstract: This article discusses the history of artificial intelligence systems, their role in human activity, the technology of artificial intelligence and the importance of implementing artificial intelligence systems.

Kalit so’zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya, dasturiy ta’minot, sun’iy intellect,ta’lim.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, телекоммуникации, программное обеспечение, искусственный интеллект, образование.

Keywords: information and communication technologies, telecommunications, software, artificial intelligence.

Odatda, robotlar deganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o‘rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida, mobil qurilmangizdagi dasturlar: google-tarjimon, lug‘atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo‘lib, ma’lum bir yo‘nalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya’ni, bajarmoqchi bo‘lgan amallaringiz turiga qarab tegishli dasturdan foydalanasiz. Sun’iy intellekt o‘zi nima? Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Hozirda sun’iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. 1990 yillarda sun’iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi. Sun’iy intellektning yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko‘pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni Sun’iy intellekt ning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Foydami yoki zarar? Sun’iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa Sun’iy intellekt ga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT- sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud. Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask Sun’iy intellekt ning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil. Maskning fikricha, “Sun’iy intellekt insoniyat sivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. sun’iy intellekt mehnat bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun’iy

intellekt ortidan kelib chiqadigan xavfxatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”. Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to‘xtalib o‘tadi. “Bir necha o‘n yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, Sun’iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman”, – deydi Geyts. “Boshqalar” deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki, Mark Sun’iy intellektga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: “Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun’iy intellekt ning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5-10 yil ichida ko‘ramiz”, deya Ilon Maskning fikriga e’tiroz bildirgan edi. Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo‘lgaqo‘yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba’zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko‘rinishini imkon qadar odamlarnikiga o‘xshatishga urinishmoqda. Bundan tashqari, sun’iy intellekt jurnalistlarning doimiy ko‘makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda “ishlayotgan” robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Sun’iy intellekt ning qo‘llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshirdi. Swiss Re sug‘urta kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilga kelib 4,7 mln aholi ishsiz qolishi mumkin. Shuningdek, ishsizlik g‘aznachilar, pochta xodimlari, hisobchilar va idora xizmatchilariga xavf solishi mumkinligi aytilgan. Sun’iy intellekt ularning vazifasini bemalol bajara oladi. Sun’iy intellekt – ta’limda keltirib o’tilganlardan tashqari, aksariyat iste’molchilarning robotlarga ishonch bildirmayotganligi sun’iy intellektning ommalashishiga halal berayotgan to‘siqlardan biridir. Odamlar o‘ziyurar mashina yoki samolyotlar xizmatini qabul qilishlari uchun biroz vaqt kerak, Biroq, zamonaviy texnologiyalar qurshovida o‘sib-ulg’ayayotgan yosh avlodda buning aksi bo‘lib, ularni bu jarayon u qadar havotirga solayotgani yo‘q. Har qancha e’tiroz va tanqidlarga qaramay sun’iy intellekt rivojlanishdan odamlarga yordam berishdan to‘xtamayapti. Ayniqsa, ta’limdada uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Endilikda robotlar nisbatan murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham uddasidan chiqishyapti. Robot-shifokorlarning tibbiyot hodimlari bilan o‘ziga xos hamkorligi samaradorlikni ancha oshirdi. Medtronis kompaniyasi esa IBM bilan hamkorlikda qandli diabet kasalligi bilan og‘rigan bemorlar uchun maxsus dastur ishlab chiqmoqda. Mazkur dasturiy ta’minot qon tarkibidagi qand miqdorining favqulodda tushib ketishini 3 soat avval aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun shu kasallika chalingan 600 ta anonim bemorlarning tibbiy ma’lumotlari o‘rganib chiqildi. Bu endi odamlar o‘z salomatliklarini mobil qurilmalardagi maxsus dasturlar orqali muntazam nazorat qilib borish imkoniga ega bo‘lishadi deganidir. Ko‘rib turganingizdek, sun’iy intellekt ning hayotimizdagi

o‘rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Ular insoniyatning yutug‘imi yoki mag‘lubiyati, degan savol ustidagi bahslar hali uzoq davom etadi. Eng muhimi, fantastik yozuvchi Ishoq Azimov ta’biri bilan aytganda, robotlarni yaratishda odamlarga zarar yetkazmaslik shior qilib olinishi kerak. Sun'iy intellekt haqida 8 ta fakt Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Olimlar sun'iy intellekt bilan tajriba o'tkazishga ishtiyoq bilan qarashsa-da, ko'p odamlar bu hodisadan ehtiyot bo'lishadi. Hatto Tesla rahbari Elon Mask ham buni insoniyat uchun "asosiy tahdid" va urush va ishsizlikning mumkin manbasi deb atagan. Keling, sun'iy aql bilan bog'liq bir nechta qiziqarli faktlarni ko'rib chiqamiz:

1-fakt. Sun’iy intelekt xizmatining beminnatligi va vaqt meyorlarining cheklanmaganligi.

2-fakt. U buzilishlarga moslasha oladi Amerikalik olimlar sun'iy intellekt bilan jihozlangan robot bilan tajriba o’tkazishdi. U jiddiy zarar ko'rgan taqdirda ham ishlashda davom etishini aniqladilar. Tajriba davomida "jarohat olgan" robot kamida oltita turli xil jarohatlarga, shu jumladan ikkita pastki oyoq-qo'llarining to'liq yo'qolishiga moslasha oldi va robotning "qo'li" kamida 14 turdagi jarohatlarga, shu jumladan uning ikkita dvigatelining ishdan chiqishiga moslasha oldi.

3-fakt: Sun’iy intelekt yaratuvchilarining e'tiqodi va stereotiplarini meros qilib oladi Sun'iy miya o'z xulosalarini dastlab unga kiritilgan ma'lumotlar asosida chiqaradi, shuning uchun u irqiy va jinsi xurofotlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuzni tanib olish uchun ba'zi kompyuter tizimlari 35% hollarda qora tanli ayollarning jinsini chalkashtirib yuborgan va oq tanli erkaklarning atigi 0,8%. Buning sababi shundaki, sun'iy intellekt ishlaydigan ma'lumotlar bazalaridagi fotosuratlari 75% erkaklar tashkil etadi, ularning 80% oq tanli fotosuratlarda.

4-fakt. Sun'iy intellekt savollarga javob berishi mumkin Bugungi kungacha eng kuchli sun'iy intellekt bilan ishlaydigan matn ishlab chiqaruvchisi - OpenAI-dan GPT-2 butun xatboshilarini yozishi mumkin va xatolarga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga, tizim umumiy bilimlarga tegishli bo'lsa, savollarga to'g'ri javob beradi.

5-fakt. Sun’iy intelekt inson qila oladigan hamma narsani o'rganishga qodir Tadqiqotchilar sun'iy intellekt 2060 yilga kelib insonning deyarli barcha vazifalarini mustaqil ravishda bajara olishiga umid qilishmoqda. Masalan, Oksford universiteti olimlari Google-ning DeepMind Sun’iy intelekt bo'limi bilan hamkorlikda tizimni odamlarga qaraganda labda o'qishni yaxshi o'rgatishdi. Watch, Attend and Spell dasturi xuddi shunga o'xshash lablar harakati bilan so'zlar orasidagi farqni aniqlaydi va 50% gacha jim nutqni tahlil qiladi. Dudaklarni o'qigan mutaxassislar uchun xuddi shu ko'rsatkich atigi 12% ni tashkil qiladi. Tizim BBC yangiliklar dasturlarini tomosha

qilish orqali o'qitildi. Videodan 118000 ta jumlani o'rganib chiqqandan so'ng, 17,500 dan ortiq so'zlardan iborat so'zlarni tomosha qiling, qatnashing va imlo qiling.

6-fakt.Sizning qiziqishingiz va siz so ‘rayotgan ma’lumotlar bo’yicha sizga ma’lumot taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umaralievich, K. U. SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES ON THE BASIS OF CULTURAL AND HUMANISTIC APPROACH.

2. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Xakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.

3. Suyumov, J. Y. (2021). KOMPYUTER IMITATSION MODELLARI ASOSIDA FAOL OQITISH TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI. Scientific progress, 2(3), 459-466.

4. Suyumov, J. Y. (2021). Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7), 205-210.

5. Raximov, D. S. (2021). DIVERSIFIKATSIYA HUDUDLAR SANOATNI MUVOZANATLI STRATEGIK RIVOJLANTIRISh YO‘NALIShLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 199-207.

6. Рахимов, Д. Ш. (2021). САНОАТ ИҚТИСОДИЁТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИЛАЁТГАН МАҲСУЛОТЛАРНИ ДИВЕРСИКАЦИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. Scientific progress, 1(6), 505-511.

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR HAYOTIGA TA’SIRI: IMKONIYATMI YOKI XAVF

Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Bayjanova Sadokat Ilxamovna
“Pedagogika” yo‘nalishi
3-bosqichtalabasi Qo‘ziyeva Shirinoy Oybek qizi
Qodirova Lobar Jamoladdin qizi
bayjanovasadoqat3010@gmail.com

Annatatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarning (Instagram, TikTok, YouTube, Facebook) yoshlar hayotiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi. Yoshlarning kuniga 3,5–5 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishi, ularning ta’limi, psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qadriyatlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning bilim olish, aloqa o‘rnatish va ijtimoiy faollikni oshirishdagi ijobiy roli bilan birga, qaramlik, depressiya, kiberzo‘ravonlik, past o‘zini baholash va soxta

axborot kabi salbiy oqibatlari ham yoritilgan. Tadqiqot O‘zbekiston yoshlari misolida ham umumiy statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan. Xulosa qismida raqamli savodxonlikni oshirish, ekran vaqtini cheklash va oila-maktab hamkorligi orqali zararli ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, psixologik ta’sir, raqamli savodxonlik, kiberzo‘ravonlik, ijobiy va salbiy ta’sir, O‘zbekiston yoshlari

Аннотация: В данной статье анализируются положительные и отрицательные влияния современных социальных сетей (Instagram, TikTok, YouTube, Facebook) на жизнь молодежи. Рассматривается, что молодежь проводит в социальных сетях в среднем 3,5–5 часов в день, а также влияние этого на их образование, психологическое состояние, социальные отношения и духовные ценности. В статье освещается как положительная роль социальных сетей в получении знаний, установлении коммуникации и повышении социальной активности, так и их негативные последствия, такие как зависимость, депрессия, кибербуллинг, низкая самооценка и распространение ложной информации. Исследование проведено на примере молодежи Узбекистана, а также на основе общих статистических данных. В заключительной части представлены практические рекомендации по снижению негативного воздействия через повышение цифровой грамотности, ограничение экранного времени и развитие сотрудничества семьи и школы.

Ключевые слова: социальные сети, молодежь, психологическое воздействие, цифровая грамотность, кибербуллинг, положительное и отрицательное влияние, молодежь Узбекистана.

Abstrakt: This article analyzes the positive and negative impacts of modern social networks (Instagram, TikTok, YouTube, Facebook) on the lives of young people. It examines how spending 3.5–5 hours per day on social media affects their education, psychological state, social relationships, and moral values. The article highlights not only the positive role of social networks in acquiring knowledge, establishing communication, and increasing social activity, but also their negative consequences such as addiction, depression, cyberbullying, low self-esteem, and the spread of misinformation. The research is conducted based on general statistical data, including the example of youth in Uzbekistan. In the conclusion, practical recommendations are provided to reduce negative impacts through improving digital literacy, limiting screen time, and strengthening cooperation between family and school.

Keywords: social networks, youth, psychological impact, digital literacy, cyberbullying, positive and negative effects, youth of Uzbekistan.

Bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 13–25 yoshdagi yoshlarning 90 foizdan ortig‘i har kuni bir necha

soat ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Bu platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki dunyoqarash, qadriyatlar va xulq-atvorni shakllantiruvchi kuchga aylangan. Biroq, ularning ta’siri ikki tomonlama: bir tomondan imkoniyatlar ochsa, ikkinchi tomondan jiddiy xavflar tug‘diradi.Masal hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan ko'pchilik foydalandi.Bu insonlarga ish,o'qish jarayonida haqiqatan kerak. Zero hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda bu normal holat sifatida qabul qilinadi.Ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘ri ishlatilganda yoshlarga katta foyda keltiradi. Ular cheksiz axborot manbai bo‘lib, bepul ta’lim olish, chet tillarini o‘rganish va yangi ko‘nikmalar egallashga yordam beradi. Yoshlar do‘stlari bilan masofadan turib aloqa qilishi, umumiy qiziqishlarga ega tengdoshlari bilan tanishishi mumkin. Pandemiya davrida masofaviy o‘qish va muloqot uchun ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, ekologik muammolar, inson huquqlari va ijtimoiy adolat mavzularida yoshlar o‘z ovozini eshittirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi mumkin.Afsuski, salbiy jihatlar ham ko‘p. Haddan tashqari foydalanish vaqtni behuda sarflashga, o‘qish samaradorligining pasayishiga va uyqu buzilishiga olib keladi. Doimiy “mukammal” hayot tasvirlarini ko‘rish natijasida yoshlarda past o‘zini baholash, depressiya va tashvish kuchayadi. Kiberzo‘ravonlik (cyberbullying), soxta xabarlar va shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi ruhiy salomatlikka jiddiy zarar yetkazadi. O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan.Ijtimoiy tarmoqlar kuchli vosita bo‘lib, uning ta’siri bizning foydalanish madaniyatimizga bog‘liq. Oilalar va maktablar raqamli savodxonlikni o‘rgatishi, ekran vaqtini cheklashi va yoshlarni oflayn faoliyatlarga undashi kerak. Yoshlarning o‘zlari ham vaqtni boshqarishni o‘rganib, ishonchli kontentni tanlashi lozim. Faqat mas’uliyatli yondashuv bilan ijtimoiy tarmoqlarni kelajak avlod uchun imkoniyatga aylantirish mumkin.O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari soni 2025 yilda 11,7 millionga yetgan (aholining 31,7 foizi). Facebookda 15,8 million foydalanuvchi qayd etilgan, ularning 67 foizi erkaklar va asosiy guruh 18–24 yoshdagilar. Instagram va TikTok yoshlar orasida eng mashhur. Mahalliy tadqiqotlar (masalan, Azamatov va Otamurodov, 2024–2025) ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Prezidentning 2025 yildagi yoshlar bilan ochiq muloqotida raqamli ekotizimni rivojlantirish va yoshlarni sun’iy intellekt asosida qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilangan.

So‘nggi global tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, algoritmlar asosida ishlaydigan ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga asosan ularning qiziqishlariga mos kontentni taqdim etadi. Bu esa “axborot pufagi” (echo chamber)ni yuzaga keltirib, yoshlarning turli nuqtayi nazarlarga ochiqligini cheklashi mumkin. Natijada tanqidiy fikrlash pasayadi va ijtimoiy qarashlarda biryoqlamalik kuchayadi.

Bundan tashqari, qisqa videolar formatining keng tarqalishi yoshlarning diqqat jamlash

qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Uzoq muddatli o‘qish va tahlil qilish talab etiladigan faoliyatlarga e’tibor kamayishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Jumladan, blogerlik, frilans faoliyati, onlayn tadbirkorlik kabi yo‘nalishlar orqali yoshlar daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Yana bir muhim jihat – bu raqamli xavfsizlikdir. Ko‘plab yoshlar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, maxfiylik sozlamalari va internet xavfsizligi qoidalarini yetarli darajada bilmaydi. Shu sababli ta’lim tizimiga raqamli xavfsizlik va media savodxonlik bo‘yicha bilimlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarni na faqat muammo, balki imkoniyat sifatida ham ko‘rish lozim. Ularning ta’siri muvozanatli va ongli foydalanishga, shuningdek, ta’lim, oila va jamiyatning hamkorligiga bevosita bog‘liqdir.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’sirini o‘rganishda media savodxonlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, baholash va tanqidiy yondashishni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni yolg‘on axborot (feyk xabarlar)dan himoya qilishda media savodxonlik darajasini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda “raqamli iz” (digital footprint) tushunchasi ham dolzarbdir. Har bir foydalanuvchi internetda o‘zidan ma’lum iz qoldiradi va bu kelajakda uning ta’limi, ish faoliyati yoki obro‘siga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli yoshlar o‘z onlayn faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashishlari zarur.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlardagi “layk” va “izoh”lar tizimi dopamin ajralishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu foydalanuvchilarda qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Natijada yoshlar virtual tasdiqqa haddan tashqari bog‘lanib qolishi, real hayotdagi muvaffaqiyatlardan ko‘ra onlayn baholashni ustun qo‘yishi ehtimoli ortadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ijtimoiy platformalardan interaktiv o‘qitish vositasi sifatida foydalanish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – bu raqamli tengsizlik (digital divide) masalasidir. Barcha yoshlar ham bir xil darajada internet va texnologiyalardan foydalana olmaydi. Bu esa ta’lim sifati va imkoniyatlar o‘rtasida tafovutni yuzaga keltiradi. Shu bois davlat siyosatida barcha hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish va teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotiga chuqur singib ketgan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, ularni to‘g‘ri boshqarish, ongli foydalanish va ilmiy asosda yondashish orqali uning ijobiy tomonlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Faverio, M., Anderson, M., & Park, E. (2025). Teens, Social Media and Mental Health. Pew Research Center.

2.World Happiness Report. (2026). Social media is harming adolescents at a scale large enough...

3.DataReportal. (2025). Digital 2025: Uzbekistan.

4.U.S. Surgeon General. (2023/2025 yangilanish). Social Media and Youth Mental Health.

5.Azamatov, A. A., & Otamurodov, D. O. (2024–2025). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta’siri. Ilmiy tadqiqotlar jurnali.

6.Abdumalikov, A. A. (2025). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy tarbiyasiga ta’siri.

7.NapoleonCat. (2025–2026). Social Media Users in Uzbekistan.

OILA MUHITI VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING O‘QUVCHI O‘ZLASHTIRMASLIGIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK O‘RGANISH

Atadjanova Dinora Ulug‘bekovna – UrDPI
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)., professor v.b.
dinoraatajanova90@gmail.comm
+998907190191

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot oila muhiti va ota-ona munosabatlarining o‘quvchilarning akademik o‘zlashtirmasligiga psixologik ta'sirini empirik usulda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda 120 nafar 5–9-sinf o‘quvchisi va ularning ota-onalari ishtirok etdi. Korrelyatsion tahlil, tematik intervyu va standartlashtirilgan psixodiagnostik vositalar qo‘llanildi. Natijalar oila ichidagi hissiy muhit, ota-ona tarbiyaviy uslubi va muloqot sifatining o‘quvchi akademik muvaffaqiyati bilan kuchli bog‘liqligini tasdiqladi ($r=0,71$; $p<0,001$). Ayniqsa, avtoritar va e’tiborsiz uslublar, shuningdek, oiladagi mojaro va hissiy beqarorlik akademik muvaffaqiyatsizlik xavfini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: oila muhiti, ota-ona munosabatlari, akademik o‘zlashtirmaslik, tarbiyaviy uslub, hissiy muhit, oila psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi, psixodiagnostika.

Аннотация. Данное исследование посвящено эмпирическому изучению психологического влияния семейной среды и родительских отношений на академическую неуспеваемость учащихся. В исследовании приняли участие 120 учеников 5–9 классов и

их родители. Результаты подтвердили сильную корреляцию между эмоциональным климатом семьи, родительским стилем воспитания, качеством общения и академической успеваемостью учащихся (r=0,71; p<0,001).

Ключевые слова: семейная среда, родительские отношения, академическая неуспеваемость, стиль воспитания, эмоциональный климат, психология семьи, педагогическая психология.

Abstract. This study empirically investigates the psychological impact of family environment and parental relationships on students' academic underachievement. A total of 120 students from grades 5–9 and their parents participated. Correlational analysis, thematic interviews, and standardized psychodiagnostic tools were employed. Results confirmed a strong association between family emotional climate, parenting style, quality of communication, and student academic performance (r=0.71; p<0.001). Authoritarian and neglectful parenting styles, as well as family conflict and emotional instability, were found to significantly increase the risk of academic failure.

Keywords: family environment, parental relationships, academic underachievement, parenting style, emotional climate, family psychology, educational psychology, psychodiagnostics.

KIRISH. O‘quvchilarning akademik o‘zlashtirmasligi zamonaviy ta’lim psixologiyasida keng o‘rganilayotgan murakkab ko‘p omilli hodisa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham ushbu muammo dolzarbligini yo‘qotmayapti: statistik ma’lumotlarga ko‘ra, umumta’lim maktablari o‘quvchilarining 18–22 foizi akademik qiyinchiliklarga duch keladi.

An’anaviy tadqiqotlar akademik muvaffaqiyatsizlikni asosan kognitiv omillar - intellekt darajasi, diqqat va xotira bilan bog‘liq deb hisoblagan. Biroq so‘nggi o‘n yillikdagi tadqiqotlar oila muhiti va ota-ona munosabatlarining bolaning maktabdagi natijalariga ta’siri kamida kognitiv omillar ta’siri darajasida ekanligini isbot qilib kelmoqda.Baumrind tomonidan ishlab chiqilgan va Maccoby & Martin tomonidan kengaytirilgan tarbiyaviy uslublar nazariyasiga ko‘ra, ota-onaning talabchanlik va ta’sirchanlik o‘lchovlarining nisbati farzandning akademik, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demokratik uslub yuqori akademik muvaffaqiyat bilan bog‘liq bo‘lsa, avtoritar va e’tiborsiz uslublar o‘zlashtirmaslik xavfini oshiradi.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi nuqtayi nazaridan oila mikrotizimdagi eng yaqin va eng ta’sirchan muhit hisoblanadi. Ota-ona bilan munosabatlarning sifati - iliqlik, qo‘llab-quvvatlash, muloqot tarzlari - bolaning o‘z-o‘zini baholashiga, o‘quv motivatsiyasiga va stress tolerantligiga bevosita ta'sir qiladi.O‘rta Osiyo madaniy kontekstida ushbu muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan empirik tadqiqotlar juda cheklangan. Ko‘pchilik xorijiy natijalarni O‘zbekiston oilalari xususiyatlarini hisobga olmagan holda qo‘llash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Shu sababli, ushbu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida oila muhiti va ota-ona munosabatlarining o‘quvchi o‘zlashtirmasligiga ta’sirini empirik usulda aniqlashga qaratilgan.O‘quvchilar va ota-onalar bilan o‘tkazilgan yarim tuzilmali intervyularning tematik tahlili to‘rtta asosiy tema aniqladi: (1) “E’tiborning yo‘qligi” - o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning 73,3% ota-onasining hissiy mavjudligi yetarli emasligini ta’kidladi; (2) “Tazoq va qoralash” - 68,3% avtoritar boshqarishdan o‘rindiqni his qilganini bildirdi; (3) “Maktabka ishonch yo‘q” - ota-onalarining 61,7 % o‘qituvchilar bilan muloqotda muammolari borligini aytdi; (4) “Kelajakka oid tashvish” - 56,7% iqtisodiy qiyinchiliklarni va kelajak to‘g‘risidagi tashvishni bolaning o‘qishga ishtiyoqini pasaytirgandek his qildi.Tadqiqot natijalari oila muhiti va ota-ona munosabatlarining o‘quvchi akademik o‘zlashtirmasligiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Korrelyatsion ko‘rsatkichlar (r=0,57–0,71) xorijiy meta-tahlillar bilan hamohang: Gershoff & Grogan-Kaylor (2016) 75 ta tadqiqotni tahlil qilib, jismoniy jazo va avtoritar uslubning akademik natijalar bilan manfiy korrelyatsiyasini (r=-0,41 dan -0,62 gacha) aniqlagan edi.

E’tiborsiz ota-ona uslubining eng kuchli manfiy prediktor ekanligi (β=-0,34) Steinberg va boshqalarning (2019) o‘smirlar o‘rtasidagi ko‘p yillik tadqiqotlari xulosalari bilan to‘liq mos keladi. Bu uslub bolaning o‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) qobiliyatini rivojlantirishiga to‘sqinlik qiladi: ota-ona nazorati ham, hissiy qo‘llab-quvvatlash ham yo‘q bo‘lganda bola o‘quv vazifalarini mustaqil boshqara olmaydi.Oiladagi mojaro ko‘rsatkichining manfiy ta’siri (β=-0,26) stress diathesis modeli orqali tushuntiriladi: surunkali oilaviy stressga duchor bo‘lgan bolalarda kortizol darajasining doimiy oshishi hippokampus funksiyasiga salbiy ta’sir qilib, xotira va o‘quv samaradorligini pasaytiradi. Bu mexanizm intervyularda ham tasdiqlandi: o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning 68,3% uy vazifalarini bajarishda tashvish va tarangliqni his qilishini ta'kidladi.O‘rta Osiyo madaniy kontekstida qiziqarli xususiyat aniqlandi: kollektivistik madaniyat ta’sirida “oila nomi" va "obro‘" uchun tashvish ko‘pincha avtoritar bosimni yanada kuchaytiradi. Ota-onalar o‘z farzandini boshqalar bilan taqqoslaydi va muvaffaqiyatsizlikni sharmandagarlik sifatida baholaydi. Bu holat bolada o‘qish bilan bog‘liq salbiy shartlangan reflekslarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.Tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud: birinchidan, o‘zini-o‘zi baholash (self-report) vositalaridan foydalanish ijtimoiy istaklilik (social desirability) muammosini keltirib chiqarishi mumkin; ikkinchidan, tadqiqot kesimli (cross-sectional) dizaynda o‘tkazilgani sababli sabab-oqibat bog‘liqliklarini to‘la isbotlash imkoni yo‘q; uchinchidan, ikkita maktabga cheklanganligi umumlashtirish imkoniyatini qisqartiradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda uzunlamasiga (longitudinal) dizayn, ko‘proq maktablarni qamrab olish va neyrofiziologik o‘lchov usullarini qo‘llash tavsiya etiladi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot oila muhiti va ota-ona munosabatlarining o‘quvchi akademik o‘zlashtirmasligiga kuchli va ko‘p qirrali psixologik ta'sir ko‘rsatishini empirik jihatdan isbotladi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

1. E'tiborsiz ota-ona uslubi akademik muvaffaqiyatsizlikning eng kuchli prediktori hisoblanadi (β=-0,34), undan keyin oiladagi hissiy sovuqlik va mojaro darajasi keladi.

2. Demokratik tarbiyaviy uslub va ota-ona qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchi akademik muvaffaqiyatini 61,4% darajasida izohlaydi (R^2=0,614).

3. O‘rta Osiyo madaniy kontekstida kollektivistik me'yorlar va obro‘ tashvishi avtoritar bosimni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Intervyu natijalari miqdoriy ko‘rsatkichlarni tasdiqladi: o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning 73,3% hissiy e'tibor etishmasligini, 68,3% esa qoralash va bosim muhitini ta'kidladi.

Amaliy tavsiyalar: maktab psixologlari o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarni aniqlaganda oilaviy omillarni birlamchi tahlil qilishi; ota-onalar uchun "Demokratik tarbiya" psixoeduktiv trening dasturlari ishlab chiqilishi; maktabda oila psixologi bilan hamkorlik dasturlari yo‘lga qo‘yilishi tavsiya etiladi. Ta'lim vazirligi darajasida ota-ona psixologik savodxonligini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Siegel, D. J. (2020). The developing mind: How relationships and the brain interact to shape who we are (3rd ed.). Guilford Press.

2. Steinberg, L., Lamborn, S. D., Dornbusch, S. M., & Darling, N. (2019). Impact of parenting practices on adolescent achievement: Authoritative parenting, school involvement, and encouragement to succeed. Child Development, 63(5), 1266–1281.

3. Yusupova, N. X. (2022). O‘zbekiston umumta’lim maktablarida akademik muvaffaqiyatsizlikning psixologik determinantlari. O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarnomasi, 3, 112–119.

4. Karimov, A. B., & Toshmatov, Z. N. (2023). Oila muhitining o‘quvchi o‘quv motivatsiyasiga ta’siri. Ta’lim va Rivojlanish, 8(1), 33–40.

5. Nazarova, D. R. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zlashtirmaslikning oilaviy determinantlari. Psixologiya va Pedagogika Jurnali, 6(2), 14–21.

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O`RTA OSIYO TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Bayjanova Sadokat Ilxamovna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
“Pedagogika” yo‘nalishi
Bayjaova3010@gmail.com, +998932869100
3-bosqichtalabasi ***Berdiyeva Xulkar Maqsudbek qizi***
Ollaberganova Munira Marks qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning O‘rta Osiyo taraqqiyotidagi o‘rni haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilishdagi faoliyati, yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ularning jamiyat ongini yuksaltirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning ilm-fan, madaniyat va matbuot rivojiga qo‘shgan hissasi ham tahlil qilingan. Bundan tashqari, jadidchilik harakatining bugungi kundagi ahamiyati va uning zamonaviy ta’lim tizimi bilan bog‘liqligi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, islohot, ta’lim tizimi, milliy uyg‘onish, taraqqiyot

Аннотация: В данной статье представлены общие сведения о возникновении джадидского движения, этапах его развития, а также его роли в развитии Средней Азии. Также освещается деятельность джадидов по реформированию системы образования, создание школ нового метода и их значение в повышении общественного сознания. В статье анализируются просветительские идеи таких представителей джадидского движения, как Махмудходжа Бехбуди и Абдулла Авлони, а также их вклад в развитие науки, культуры и печати. Кроме того, раскрывается значение джадидского движения в современности и его связь с современной системой образования.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, школы нового метода, реформа, система образования, национальное возрождение, развитие

Abstract: This article provides general information about the emergence, stages of development, and the role of the Jadid movement in the progress of Central Asia. It also highlights the Jadids’ activities in reforming the education system, the establishment of new-method schools, and their importance in raising public awareness. The article analyzes the enlightenment ideas of Jadid representatives such as Mahmudxo‘ja Behbudiy and Abdulla Avloniy, as well as their contributions to the development of science, culture, and the press. In addition, the relevance of the Jadid movement in modern times and its connection with the contemporary education system are also discussed.

Keywords: Jadidism, enlightenment, new-method schools, reform, education system, national awakening, development

Kirish: Jadidchilik yoki jadidizm (jadīd – yangi) – o‘n to‘qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[1]. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, o‘lkani qoloqlikdan olib chiqish, yangi usul maktablari, matbuot va milliy uyg‘onish orqali mustaqillikka erishishni maqsad qilgan. Ular millatni ta’lim va islohotlar orqali taraqqiyotga yetaklash, diniy xurofotdan voz kechib, dunyoviy bilimlarni egallash g‘oyasini ilgari surgan.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan.

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli, TurkistonningYevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoqosti qilinishi va bunday og‘ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchuno‘zzamonasining ilg‘or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidanuyg‘onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilikharakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javobsifatidamaydonga kelgan ulkan ijtimoiy-siyosiy harakat edi. O‘lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og‘ir qismatinio‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘ziningbutun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchunsafarbaretgan ziyolilarningbutun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Jadidchilikning asosiyg‘oyavamaqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdanozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiyavaparlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovonjamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzishvahokazolardan iborat edi. Turkiston jadidchilik harakati ba’zi bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, “oldinmadaniy-ma’rifiy harakat bo‘lib, keyin ijtimoiy- siyosiy harakatga o‘sib o‘tgani” yo‘q. Uo‘z tabiati maqsad va mohiyatiga ko‘ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va islohotchilik harakati bo‘lgan [2]Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada

qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urfodatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z “Xitobnoma”si(1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitdaTurkistonmintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablaritarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatrt gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish,xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va

ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi. 1908-yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi: Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov) Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja), Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy boshchiligidagi jadidlar ma’rifatparvarlik g‘oyalarining asosi – xalqni ta’lim, yangi usul maktablari, matbuot va teatr orqali uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglash hamda mustaqillikka erishish bo‘lgan. Ular “taraqqiyot maktabda” degan tamoyil asosida millatni jaholatdan qutqarishni bosh maqsad deb bilganlar.

Jadid ma'rifatparvarlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

Ta’lim va Yangi usul maktablari: Behbudiy “Maktabi usuli jadid”ni targ‘ib qilib, darsliklar yaratdi. Avloniy esa ta’lim-tarbiyani birlashtirib, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yuksak axloqli insonni voyaga yetkazishni maqsad qildi.

Matbuot va Nashriyot: O‘zbek matbuoti asoschilari (“Sadoyi Turkiston” kabi gazeta va jurnallar) orqali xalqni ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilib, milliy uyg‘onishni targ‘ib qildilar.

Teatr va San’at: Behbudiyning “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek teatri asoslandi, bu orqali savodsizlik va jaholat oqibatlari sahna orqali ko‘rsatib berildi.

Milliy g‘oya va Mustaqillik: Jadidlar nafaqat ma'rifat, balki millatning siyosiy huquqlarini tiklash, davlatchilikni mustahkamlash g‘oyalarini ilgari surdilar.

Xulosa va takliflar: Jadidchilik harakati O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy harakat sifatida jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu harakat xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatga yo‘naltirish hamda ta’lim tizimini zamonaviy asosda rivojlantirishga xizmat qilgan. Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, xususan yangi usul maktablarining tashkil etilishi va matbuotning rivojlanishi jamiyat ongining yuksalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalari o‘z faoliyatlari orqali milliy uyg‘onish va ma’naviy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratganlar. Shu bois,

bugungi kunda jadidchilik merosini chuqur o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish hamda ta’lim tizimida ularning ilg‘or pedagogik g‘oyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida jadidlarning yangi usul maktablari tajribasini qo‘llash, ularning asarlarini keng targ‘ib qilish va o‘quv dasturlariga kiritish orqali milliy ong va ma’naviyatni yanada rivojlantirish mumkin. Shu jihatdan, jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi kun taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Jadid ma’rifatchilik harakatining g‘oyaviy asoslari. –T. “Toshkent islom universiteti”.2016. b – 178.
3. Shaxnozaxon, K. (2023). Jadid ma’rifatparvarchlik namoyondalarining ijtimoiy-siyosiy, falasafiy qarashlari. World scientific research journal, 15(1), 234-238.
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq 2001. B108-109
5. Shaxnozaxon, K. (2023). Jadid ziyolilarining milliy ma’naviyatimizdagi ahamiyati. образование наука и инновационные идеи в мире, 20(7), 35-38.

TALABALARDA ZO‘RAVONLIK TASAVVURLARINING NAMOYON BO‘LISHIDA GENDER FARQLAR

Sa’dullayeva Moxinur G‘ulomjon qizi
Urganch davlat pedagogika institute
Pedagogika va psixologiya kafedrasi
kafedrasi v.b dotsenti
mohinur3339@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi, uning psixologik va ijtimoiy omillari hamda gender farqlari asosida namoyon bo‘lishi keng tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari erkak va ayol talabalar o‘rtasida zo‘ravonlikni qabul qilish, unga munosabat va unga moyillik darajasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, gender, talabalar, psixologiya, ijtimoiy omillar

Аннотация:В данной научной статье проводится всесторонний анализ формирования представлений о насилии среди студентов, а также их проявления с учетом психологических и социальных факторов и гендерных различий. Результаты исследования показали, что между студентами мужского и женского пола существуют значительные различия в восприятии насилия, отношении к нему и уровне склонности к насильственному поведению**.**

Ключевые слова: насилие, гендер, студенты, психология, социальные факторы

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the formation of perceptions of violence among students, as well as their manifestation considering psychological and social factors and gender differences. The results of the study showed that there are significant differences between male and female students in their perception of violence, their attitudes toward it, and their level of tendency toward violent behavior.

Keywords: violence, gender, students, psychology, social factors

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar ichida zo‘ravonlik masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy shaklda, balki psixologik, ijtimoiy va hatto raqamli muhitda ham keng namoyon bo‘lib, ayniqsa yoshlar orasida uning turli ko‘rinishlari tobora ko‘proq uchramoqda. Talabalar — jamiyatning eng faol, o‘z fikriga ega va ijtimoiy jarayonlarga tez moslashuvchi qatlami sifatida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida muhim o‘rin egallaydi.

Talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u psixologik xususiyatlar, oilaviy muhit, ijtimoiy tajriba, ta’lim tizimi hamda ommaviy axborot vositalarining ta’siri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, zamonaviy media makonida zo‘ravonlik elementlarining keng tarqalganligi yoshlarning ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tengdoshlar bosimi, ijtimoiy stereotiplar va madaniy qadriyatlar ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur muammoni o‘rganishda gender yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Chunki erkak va ayol talabalar zo‘ravonlikni qabul qilish, unga munosabat bildirish va unga nisbatan xulq-atvor namoyon etishda sezilarli farqlarga ega. Erkak talabalar ko‘pincha jismoniy kuch va agressivlik bilan bog‘liq stereotiplar ta’sirida zo‘ravonlikni nisbatan ko‘proq qabul qilishi mumkin. Ayol talabalar esa ko‘proq emotsional sezgirlik, empatiya va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan ajralib turib, zo‘ravonlikning psixologik shakllariga nisbatan yuqori sezgirlik ko‘rsatadi.

Shuningdek, gender farqlari nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy konstruksiyalar — ya’ni jamiyat tomonidan shakllantirilgan rollar, kutilmalar va stereotiplar orqali ham belgilanadi. Bu esa talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishida gender omilini kompleks tarzda o‘rganishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, zo‘ravonlikning oldini olish va talabalar orasida konstruktiv ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu

nuqtai nazardan, zo‘ravonlik tasavvurlarining gender farqlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilish profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida gender farqlarini aniqlash, ularning psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini tahlil qilish hamda ushbu yo‘nalishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Zo‘ravonlik fenomeni ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, zo‘ravonlik xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi.

Leonard Berkowitz agressiya nazariyasida insonning ichki hissiy holati va tashqi muhit ta’siri zo‘ravonlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Shuningdek, Craig A. Anderson tadqiqotlarida gender farqlari zo‘ravonlikning turli shakllarida (jismoniy va psixologik) turlicha namoyon bo‘lishi qayd etilgan. Erkaklar ko‘proq jismoniy agressiyaga moyil bo‘lsa, ayollar ko‘proq bilvosita yoki psixologik zo‘ravonlik shakllarini qo‘llaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy stereotiplar, oilaviy muhit va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ham zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.

Tadqiqotning o‘rganilishi. Mazkur tadqiqotda talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va uning gender farqlari asosida namoyon bo‘lishi empirik jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot kvantitativ va qisman sifat yondashuvlariga asoslangan holda olib borildi. Unda jami 120 nafar talaba (60 nafar erkak va 60 nafar ayol) ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Ishtirokchilar turli fakultet va yo‘nalishlardan tanlab olinib, bu orqali natijalarning nisbatan ob’ektivligi va umumlashtirilish darajasi ta’minlashga harakat qilindi.

Tadqiqot jarayonida asosiy metod sifatida strukturaviy so‘rovnoma (anketa) va standartlashtirilgan psixologik testlardan foydalanildi. So‘rovnoma savollari Likert shkalasi (1 dan 5 gacha baholash tizimi) asosida tuzilib, respondentlarning zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabati, uni qabul qilish darajasi, zo‘ravonlik holatlariga reaksiyasi hamda shaxsiy tajribasi o‘rganildi. Psixologik testlar orqali esa ishtirokchilarning agressivlik darajasi, empatiya ko‘rsatkichlari va ijtimoiy moslashuv xususiyatlari aniqlashtirildi.

Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, ularning ishonchliligi va ahamiyatliligi tekshirildi. Tahlil jarayonida foizli taqsimot, o‘rtacha qiymatlar va guruhlararo taqqoslash usullaridan foydalanildi. Erkak va ayol respondentlar natijalari alohida tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ko‘rsatdi:

Erkak talabalar jismoniy zo‘ravonlikni nisbatan ko‘proq qabul qilishi va ayrim holatlarda uni muammoni hal etish vositasi sifatida ko‘rishi kuzatildi. Bu holat ularning ijtimoiy rollar va “kuchli bo‘lish” stereotiplari bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi;

Ayol talabalar psixologik zo‘ravonlikka (masalan, haqorat, ijtimoiy bosim, e’tiborsizlik) nisbatan yuqori sezgirlik ko‘rsatdi va bunday holatlarni salbiy baholash darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi;

Zo‘ravonlikni umumiy rad etish ko‘rsatkichi ayol respondentlar orasida yuqoriroq bo‘lib, ular nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘proq moyillik bildirdi;

Erkak talabalar orasida agressiv reaksiyalar va impulsiv qaror qabul qilish holatlari nisbatan ko‘proq uchrashi qayd etildi;

Ayol talabalar esa empatiya va hamdardlik ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan ajralib turdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim respondentlar zo‘ravonlikni bevosita emas, balki bilvosita shaklda (masalan, psixologik bosim, ijtimoiy cheklash) namoyon etish holatlari ham aniqlangan bo‘lib, bu ayniqsa ayol talabalar orasida ko‘proq kuzatildi.

Umuman olganda, olingan natijalar gender farqlari zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa talabalar bilan ishlashda genderga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida gender omilining muhim rol o‘ynashini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Olingan empirik ma’lumotlar erkak va ayol talabalar zo‘ravonlikni qabul qilish darajasi, unga nisbatan munosabat hamda reaksiyalarida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, erkak talabalar jismoniy zo‘ravonlikka nisbatan nisbatan yuqori tolerantlik namoyon etishi, ayol talabalar esa psixologik zo‘ravonlik shakllariga nisbatan yuqori sezgirlik ko‘rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi faqat biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, madaniy stereotiplar, tarbiya tizimi va kommunikativ tajriba bilan ham bevosita bog‘liqdir. Gender rollariga oid jamiyatdagi qarashlar yoshlarning xulq-atvori va ijtimoiy reaksiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zo‘ravonlikni kamaytirish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleks yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

oliy ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan tizimli va uzluksiz profilaktik dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish;

talabalar uchun gender xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik treninglar, seminarlar va ma’rifiy mashg‘ulotlarni tashkil etish;

ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o‘zaro hurmat va tolerantlik madaniyatini rivojlantirish;

talabalar orasida nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish;

psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish va talabalar uchun anonim maslahat xizmatlarini kengaytirish.Shuningdek, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud bo‘lib, ular respondentlar sonining nisbatan kamligi va ma’lumotlarning faqat ma’lum bir ijtimoiy guruh doirasida olinganligi bilan izohlanadi. Shu sababli kelgusida mazkur yo‘nalishda kengroq auditoriyani qamrab olgan, hududiy va madaniy farqlarni hisobga olgan holda chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.Umuman olganda, zo‘ravonlik tasavvurlarining gender asosida o‘rganilishi nafaqat nazariy jihatdan, balkialiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlar orasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish va zo‘ravonlikning oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. Berkowitz, L. (1993). Aggression: Its Causes, Consequences, and Control. New York: McGraw-Hill.
3. Anderson, C. A., & Bushman, B. J. (2002). Human aggression. Annual Review of Psychology, 53, 27–51.
4. Baron, R. A., & Richardson, D. R. (2005). Human Aggression (2nd ed.). New York: Springer.
5. World Health Organization (WHO). (2021). Violence and Health: Global Status Report. Geneva: WHO Press.
6. UNESCO. (2020). School Violence and Bullying: Global Status Report. Paris: UNESCO Publishing.
7. Archer, J. (2004). Sex differences in aggression in real-world settings: A meta-analytic review. Review of General Psychology, 8(4), 291–322.
8. Eagly, A. H., & Steffen, V. J. (1986). Gender and aggressive behavior: A meta-analytic review. Psychological Bulletin, 100(3), 309–330.
9. Hyde, J. S. (2005). The gender similarities hypothesis. American Psychologist, 60(6), 581–592.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari (2020–2024 yillar).

11. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish dasturi. Toshkent.

SUN’IY INTELLEKT VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Xasanov Bobur Raximberganovich
UrDPI katta o‘qituvchisi
Allaberganova Go’zaloy Zafarbek qizi
UrDPI Pedagogika yo’nalishi 251-guruh talabasi
xasanovbobur459@gmail.com, +998975102836

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellektning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi ahamiyati hamda ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot va kundalik hayotdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt bilan bog‘liq muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar, avtomatlashtirish, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье освещаются происхождение искусственного интеллекта, этапы его развития, современное значение, а также его роль в образовании, медицине, экономике и повседневной жизни. Также анализируются проблемы, связанные с искусственным интеллектом, и перспективные направления его развития.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровые технологии, машинное обучение, нейронные сети, автоматизация, инновации.

Annotation: This article highlights the origin of artificial intelligence, the stages of its development, its current significance, as well as its role in education, medicine, economics, and everyday life. The article also analyzes problems related to artificial intelligence and explores promising directions for its future development.

Keywords: artificial intelligence, digital technologies, machine learning, neural networks, automation, innovation.

Kirish XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu davrning eng muhim yutuqlaridan biri sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishidir. Sun’iy intellekt inson tafakkuriga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beradi.Bugungi kunda sun’iy intellekt nafaqat ilm-fan sohasida, balki kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib bormoqda.**Sun’iy intellekt tushunchasi:**Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining

inson aqliy faoliyatiga xos vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha ilk bor 1956-yilda John McCarthy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Sun’iy intellekt quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Mashinali o‘qitish (Machine Learning)
- Chuqur o‘qitish (Deep Learning)
- Neyron tarmoqlar
- Robototexnika
- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)
- Kompyuter ko‘rishi
- **Sun’iy intellektning qo‘llanilish sohalari**.**Ta’limda**Ta’lim tizimida sun’iy intellekt individual yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Aqlli o‘quv platformalari talabalar bilimini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalar beradi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantiradi.Masalan:
- virtual o‘qituvchi yordamchilari
- avtomatik baholash tizimlari
- aqlli test platformalari
- masofaviy ta’limni optimallashtirish

Tibbiyotda: Tibbiyotda SI kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika va davolash jarayonlarini takomillashtirmoqda. Ayrim algoritmlar shifokorlardan ham tezroq tahlil qilishi mumkin. Qo‘llanilishi:

- rentgen va MRT tahlili
- kasalliklarni prognozlash
- robot-jarrohlik
- dori yaratish jarayonlari
- **Iqtisodiyot va biznesda**:Bank, savdo va marketing sohalarida SI katta ma’lumotlarni tahlil qilib, samarali qarorlar qabul qilishga yordam bermoqda.
- Masalan:
- chatbotlar
- firibgarlikni aniqlash
- avtomatlashtirilgan xizmatlar
- bozor prognozlari
- **Sun’iy intellektning afzalliklari**:Sun’iy intellektning asosiy ustunliklari:

1. Tezkorlik
2. Aniqlik
3. Katta hajmdagi ma’lumotni qayta ishlash

4. Inson mehnatini yengillashtirish
5. Resurs va vaqt tejalishi
6. **Muammolar va xavflar**:Shu bilan birga, sun’iy intellekt ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi:

- ish o‘rinlarining qisqarishi
- axborot xavfsizligi muammolari
- etik masalalar
- algoritmik xatolar
- inson nazoratining kamayishi
- Ayniqsa, SI’dan mas’uliyatli foydalanish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.
- **Kelajak istiqbollari**:Kelajakda sun’iy intellekt yanada rivojlanib:
- aqlli shaharlar,
- avtonom transport,
- aqlli tibbiyot,
- raqamli ta’lim,
- inson va mashina hamkorligi kabi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi.

Ko‘plab olimlar SI texnologiyalari to‘rtinchi sanoat inqilobining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishini ta’kidlamoqda.Sun’iy intellekt zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. U inson faoliyatini yengillashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, undan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish muhimdir. Sun’iy intellekt kelajak texnologiyasi emas, balki bugungi kun voqeligidir. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt zamonaviy taraqqiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida jamiyat rivojida katta ahamiyat kasb etmoqda. U inson faoliyatining turli sohalariga kirib borib, mehnat unumdorligini oshirish, murakkab jarayonlarni soddalashtirish hamda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat va axborot texnologiyalari sohalarida sun’iy intellektdan foydalanish yangi bosqichni boshlab berdi.Bugungi kunda sun’iy intellekt faqat texnologik yangilik emas, balki innovatsion taraqqiyotning strategik omiliga aylanmoqda. U katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, inson imkoniyatlarini kengaytirish va ko‘plab murakkab masalalarni hal etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa jamiyat hayot sifatini yaxshilash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ilmiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiladi.Shuningdek, sun’iy intellekt shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, ta’lim jarayonida individual o‘qitish tizimlarini yaratish, o‘quvchilarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos dasturlar ishlab chiqish imkoniyati kengaymoqda.

Bu esa zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.Biroq sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog‘liq axloqiy, ijtimoiy va huquqiy masalalarga ham jiddiy e’tibor qaratish lozim. Texnologiyalardan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish, inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish hamda sun’iy intellekt rivojini nazorat qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalari yanada takomillashib, insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanishi shubhasiz. Shu sababli ushbu sohani chuqur o‘rganish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Demak, sun’iy intellekt — bu nafaqat texnologik yutuq, balki kelajak taraqqiyotining muhim poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI::

1. O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
2. John McCarthy. *Programs with Common Sense*. Stanford University Press, 1959.
3. Stuart Russell, Peter Norvig. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education, 4th edition, 2020.
4. Ian Goodfellow, Yoshua Bengio, Aaron Courville. Deep Learning. MIT Press, 2016.
5. Andrew Ng. Machine Learning bo‘yicha ilmiy ishlari va ma’ruzalari.
6. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education* hisobotlari.
7. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report*.
8. OpenAI va zamonaviy sun’iy intellekt bo‘yicha ilmiy manbalar.
9. IEEE ilmiy jurnallari va konferensiya materiallari.

INNOVATSION TA’LIM MUHITINING MOHIYATI, MAQSAD VA TAMOYILLARI

Bayjanova Sadokat Ilxamovna
Urganch davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi
o‘qituvchisi
Bayjaova3010@gmail.com, +998932869100

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta’lim muhiti, uning nazariy-metodik asoslari hamda pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi tahlil qilingan. Innovatsion ta’lim muhitining mohiyati, tamoyillari va zamonaviy pedagogik jarayondagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda yetakchi olimlarning (Skatkin, Slastenin, Zagvyazinskiy, Kuzmina, Babanskiy, Kan-Kalik va boshqalar) ilmiy qarashlari hamda UNESCO tavsiyalari tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ekanligi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: innovatsion ta’lim, pedagogik muhit, kompetensiya, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, differensial yondashuv, pedagogik jarayon, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya

Аннотация: В данной статье анализируется инновационная образовательная среда, её теоретико-методологические основы и применение в процессе преподавания педагогических дисциплин. Раскрываются сущность и принципы инновационной образовательной среды, её роль в модернизации педагогического процесса. Также рассматриваются научные взгляды ведущих ученых (Скаткин, Сластенин, Загвязинский, Кузьмина, Бабанский, Кан-Калик и др.), а также рекомендации ЮНЕСКО. Обосновано, что основная цель инновационного подхода заключается в развитии у обучающихся критического мышления, креативности и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: инновационное образование, педагогическая среда, компетенция, интерактивные методы, цифровые технологии, дифференцированный подход, педагогический процесс, мотивация, коммуникативная компетенция.

Abstract: This article analyzes the innovative educational environment, its theoretical and methodological foundations, and its application in teaching pedagogical disciplines. It highlights the essence and principles of the innovative educational environment and its role in modernizing the pedagogical process. The study also examines the scientific views of leading scholars (Skatkin, Slastenin, Zagvyazinsky, Kuzmina, Babansky, Kan-Kalik, etc.) as well as UNESCO recommendations. It is substantiated that the main goal of the innovative approach is to develop students’ critical thinking, creativity, and professional competencies.

Keywords: innovative education, pedagogical environment, competence, interactive methods, digital technologies, differentiated approach, pedagogical process, motivation, communicative competence.Innovatsion ta’lim muhiti zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalar, interfaol metodlar va yangi didaktik yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur muhit an’anaviy ta’limdan farqli ravishda talaba shaxsini markazga qo‘ygan holda, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.Innovatsion ta’lim muhitining mohiyati – ta’lim subyektlari o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, bilimlarni faol o‘zlashtirishni ta’minlash va pedagogik jarayonni texnologik hamda metodik jihatdan yangilashdan iborat. Bunda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, multimediya vositalari va kollaborativ o‘qitish metodlari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mazkur muhit ochiqlik, moslashuvchanlik va individuallashtirish xususiyatlari bilan ajralib turadi.Innovatsion ta’lim muhitining asosiy maqsadi – raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashdan

iborat. Shu bilan birga, u ta’lim jarayonining sifatini oshirish, bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda o‘qitishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur muhit quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili – ta’lim jarayonida talabaning individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini inobatga olish;

Faollik va interaktivlik tamoyili – talabaning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash;

Innovatsionlik tamoyili – yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy etish;

Moslashuvchanlik tamoyili – ta’lim mazmuni va shakllarini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish;

Integrativlik tamoyili – fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va kompleks yondashuvni shakllantirish;

Raqamlashtirish tamoyili – ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

M.N.Skatkin ta’lim mazmuni va didaktik tizimni takomillashtirishga oid konsepsiyalarni ishlab chiqib, bilimlarni o‘zlashtirishning faol va ijodiy xarakterini asoslab berganlar. Ularning fikricha, innovatsion ta’lim muhiti o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishi zarur.

Slastenin pedagogik jarayonni tizimli tashkil etish va o‘qituvchining kasbiy faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan olimlardan biridir. Uning fikricha, zamonaviy ta’limning samaradorligi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi hamda pedagogik jarayon shaxsga yo‘naltirilgan, faol va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Slastenin ta’lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraydi. U innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchining metodik mahorati, pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilishi hamda ta’lim jarayonini boshqarish kompetensiyasi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish va o‘quv faoliyatini faollashtirish orqali amalga oshiriladi. Zagvyazinskiy pedagogik innovatsiyalarni ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, innovatsion ta’lim muhiti faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini kompleks yangilash orqali shakllanadi.

Shuningdek, olim ta’lim jarayonida o‘quvchi (talaba) faolligini oshirish, muammoli ta’lim vaziyatlarini yaratish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Uning yondashuvida pedagogik tizimning samaradorligi o‘qitish metodlari, vositalari va natijalarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi.Kuzmina fikricha, pedagogik faoliyat murakkab

tizimli jarayon bo‘lib, u maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish va natijani tahlil qilish bosqichlaridan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy bilim, pedagogik mahorat va kommunikativ qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olima pedagogik tizim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining refleksiv faoliyati, ya’ni o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning yondashuvi zamonaviy innovatsion ta’lim muhitida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020 hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” farmonida ham innovatsion ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlangan. Mazkur hujjatlar ta’lim jarayonida innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, pedagogik jarayonni raqamlashtirish, zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish hamda o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda interaktiv, adaptiv va texnologik yondashuvlar asosida pedagogik jarayonni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish jamiyatning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan rivojlanish bosqichi, shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishi hamda ta’limda teng imkoniyatlar va hamkorlik madaniyatini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Innovatsion ta’lim muhiti pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida faqat metodik yangilanish emas, balki o‘qituvchining ijtimoiy, kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishni ham talab etadi. Bu esa ta’lim jarayonini interaktiv, hamkorlikka asoslangan va texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.UNESCO innovatsion ta’lim muhiti va pedagogik fanlarni o‘qitish masalalarini global ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraydi. UNESCOning ta’limga oid konsepsiyalarida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirish muhim strategik vazifa sifatida belgilangan. Ushbu yondashuvni amalga oshirishda talabalarning kasbiy tayyorgarligi, metodik qo‘llanmalar sifati va o‘quv muhitining texnik ta’minotini hal qiluvchi ahamiyatga ega. UNESCO o‘qituvchining rolini o‘zgarayotgan ta’lim muhitida “facilitator” (yo‘naltiruvchi) sifatida talqin qilib, pedagogik jarayonni interaktiv, texnologik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etishni tavsiya etadi. Bu esa pedagogik fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlar, raqamli platformalar va ochiq ta’lim resurslaridan samarali foydalanishni talab etadi.Innovatsion muhitni yaratish uchun faqat didaktik resurslar emas, balki jamiyatning ijtimoiy tafakkurini o‘zgartirish ham zarur. Yu.K.Babanskiyning asosiy ilmiy qarashlari ta’lim jarayonini optimallashtirish nazariyasiga

asoslanadi. U pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda metod, shakl va vositalarni maqsadga muvofiq tanlash va uyg‘unlashtirish muhimligini ta’kidlaydi.Babanskiy shuni ta’kidlaydi: “Ta’lim jarayonini optimallashtirish – bu belgilangan maqsadga eng qisqa vaqt va eng kam kuch sarflagan holda, eng yuqori natijaga erishishni ta’minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik tanlovdir.”Uning yondashuviga ko‘ra, innovatsion ta’lim muhitida ham asosiy masala yangi metodlarni ko‘paytirish emas, balki mavjud pedagogik vositalarni eng samarali tarzda integratsiya qilish va ta’lim natijadorligini oshirishdan iboratdir.V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqot nazariyasini ishlab chiqqan olim sifatida ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Uning eng ko‘p keltiriladigan mazmuniy fikrlaridan biri quyidagicha ifodalanadi:“Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxsiy-ijodiy hamkorlik jarayoni bo‘lib, u ta’lim va tarbiya maqsadlarini birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladi.”Kan-Kalikning yondashuviga ko‘ra, samarali ta’lim muhiti o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, emotsional barqarorligi va talaba bilan ishonchli munosabat o‘rnatish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli u pedagogik muloqotni ta’lim jarayonining markaziy metodik va shaxsiy komponenti sifatida talqin etadi.

Innovatsion ta’limning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli vositalar asosida takomillashtirish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishdan iboratdir. A.I.Sherbakov pedagogik jarayonni tizimli yondashuv asosida tashkil etish va o‘qituvchi faoliyatining psixologik-pedagogik jihatlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning ilmiy qarashlarida pedagogik faoliyatning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, kommunikativ qobiliyati hamda ta’lim jarayonini boshqarish mahoratiga bog‘liqligi ta’kidlanadi.Innovatsion ta’lim muhiti pedagogik fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib, u ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, talabaning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish hamda uning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF–6079. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.
3. B.X. Xodjayev. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 214 b.

4. Hattie J. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. – London: Routledge, 2012. – 296 p.

5. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. – Alexandria: ASCD, 2014. – 189 p.

6. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 240 p.

7. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. 5th ed. – New York: Free Press, 2003. – 576 p.

8. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris: UNESCO, 2011.

9. OECD. Innovative Learning Environments. – Paris: OECD Publishing, 2013.

MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Urganch davlat pedagogika instituti dots.v.b.
eshchanovaxolida@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediasavodxonlik tushunchasi, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda o‘quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие медиаграмотности, её роль в современной системе образования, а также анализируются педагогические основы формирования медиаграмотности у учащихся. Кроме того, обосновывается эффективность подходов, направленных на развитие критического мышления, использование интерактивных методов и цифровых технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная культура, критическое мышление, педагогические технологии, цифровое образование, компетентностный подход

Abstract. This article examines the concept of media literacy, its role in the modern education system, and analyzes the pedagogical foundations for developing media literacy among students. It also substantiates the effectiveness of approaches aimed at enhancing critical thinking, as well as the use of interactive methods and digital technologies in the educational process.

Keywords: media literacy, information culture, critical thinking, pedagogical technologies, digital education, competency-based approach

Globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot oqimining keskin ortishi insondan nafaqat bilim olishni, balki uni tahlil qilish, baholash va to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mediasavodxonlik zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda o‘quvchilar turli xil axborot manbalari – internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarga duch kelmoqda. Ushbu ma’lumotlarning ishonchliligini aniqlash, manipulyatsiyalardan himoyalanish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.Mediasavodxonlik masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, media ta’lim nazariyasi asoschilari tomonidan mediasavodxonlik shaxsning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mediasavodxonlik quyidagi komponentlar asosida ko‘rib chiqiladi:

- axborotni izlash va saralash ko‘nikmalari;
- tanqidiy fikrlash;
- media mahsulotlarni tahlil qilish;
- axborot xavfsizligi madaniyati.

Milliy pedagogika sohasida ham mediasavodxonlikni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va u kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘liq holda qaralmoqda.

- Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:
- nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlarni o‘rganish);
- kuzatuv;
- pedagogik tajriba;
- taqqoslash va umumlashtirish metodlari.

Shuningdek, o‘quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilib, ularning natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mediasavodxonlikni samarali shakllantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi:

1. Interfaol metodlardan foydalanish

“Munozara”, “Aqliy hujum”, “Debat” kabi metodlar o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

O‘quvchilarga turli manbalardan olingan axborotni solishtirish, fakt va fikrni ajratish, xulosalar chiqarish vazifalari berilishi muhim.

3. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish

Multimedia vositalari, onlayn platformalar va interaktiv resurslar orqali darslarni tashkil etish mediasavodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Amaliy faoliyatga yo‘naltirish

O‘quvchilarga media mahsulot yaratish (masalan, video, blog, prezentatsiya) topshiriqlari berilishi ularning ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarini oshiradi.

5. Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish

Internetdan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

№	Pedagogik yo‘nalish	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1.	Interfaol metodlardan foydalanish	“Munozara”, “Aqliy hujum”, “Debat” kabi metodlar orqali o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi	Axborotni tahlil qilish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalari rivojlanadi
2.	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	Turli manbalardagi axborotni solishtirish, fakt va fikrni ajratish, xulosa chiqarish topshiriqlari beriladi	Tanqidiy va analitik fikrlash shakllanadi
3.	Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish	Multimedia vositalari, onlayn platformalar va interaktiv resurslardan foydalaniladi	Raqamli savodxonlik va axborot bilan ishlash kompetensiyasi oshadi
4.	Amaliy faoliyatga yo‘naltirish	Media mahsulotlar (video, blog, prezentatsiya) yaratish vazifalari beriladi	Ijodiy yondashuv va tahliliy ko‘nikmalar rivojlanadi
5.	Axborot xavfsizligi madaniyatini	Internetdan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya	Axborot xavfsizligi va mas’uliyatli foydalanish

	shakllantirish	qilish o‘rgatiladi	ko‘nikmalari shakllanadi

Mediasavodxonlikni shakllantirish jarayoni faqatgina axborot bilan ishlashni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijtimoiy faolligini va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun samarali asos bo‘lib xizmat qiladi.

Annotatsiya. Raqamli davrda texnologik taraqqiyot va raqamli qurilmalarning keng qo'llanilishi tufayli bolalar tarbiyasida misli ko'rilmagan muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqola internetga qaramlik,yuzma–yuz muloqotning pasayishi va ota–ona nazoratidagi qiyinchiliklar kabi masalalarga e'tibor qaratib,raqamlilashtirish ta'siri ostida bolalar tarbiyasidagi o'zgarishlarni ya'ni undagi muammolar va yechimlarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: raqamli tarbiya,internetga qaramlik, raqamli savodxonlik, ijtimoiy rivojlanish,bolalar psixologiyasi

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi.Bu jarayon inson hayotining barcha sohalariga,xususan,bolalar tarbiya tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar,internet tarmoqlari,ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi natijasida bolalar va o'smirlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy xulq–atvori keskin o'zgarib bormoqda. Bolalar tarbiyasi ko'proq bevosita muloqot, axloqiy qadriyatlar va milliy an'analarga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda raqamli muhit ushbu jarayonga muqobil va ba'zan ustun omil sifatida kirib kelmoqda. Natijada, ota–onalar farzandlarini tarbiyalashda yangi muammolarga duch kelmoqdalar. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi–raqamli davrda bolalar tarbiyasidagi dolzarb muammolarni aniqlash,ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

Xususan, bu muammolarni o'rganib chiqish va yechimlarni topishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

1.Raqamli davr va bolalar tarbiyasining transformatsiyasi

Raqamli texnologiyalar hayotimizga chuqur singib borar ekan, bolalar tarbiyasidagi asosiy vazifalar ham tubdan o'zgarib bormoqda. Avvallari bilim manbai sifatida ota–onalar va maktab asosiy ro'l o'ynagan bo'lsa, hozirda internet global bilim manbaiga aylangan. Bu esa quyidagi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda:

-Bolalar mustaqil ravishda axborot olish imkoniyatiga ega bo'ldi;

-Ota–onaning nazorat ro'li qisqarib bormoqda;

-Tarbiya jarayonida tashqi (virtual) ta'sirlar kuchaymoqda.

Natijada, bola tarbiyasi an'anaviy shakldan raqamli muhit bilan integratsiyalashgan murakkab tizimga aylanmoqda.

2.Raqamli davrda bola tarbiyasidagi asosiy muammolar

2.1. Internet va gadjetlarga qaramlik.

Bugungi kunda bolalar orasida eng dolzarb muammolardan biri–bu internet va mobil qurilmalarga qaramlikdir. Bu holat quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

-Diqqatning susayishi;

-Uyqu rejimining buzilishi;

-Jismoniy faollikning kamayishi;

-Ruhiy muammolar (depressiya, asabiylik).

2.2. Muloqotning kamayishi

Raqamli vositalar oilaviy muloqotni qisqartirib yubormoqda. Ota–onalar va farzandlar o‘rtasidagi jonli suhbatlar o‘rnini virtual aloqalar egallamoqda. Bu esa:

-Emotsional yaqinlikning pasayishiga;

-O‘zaro tushunmovchiliklarga;

-Ijtimoiy ko‘nikmalarning sust rivojlanishiga olib keladi.

2.3. Axborot xavfsizligi muammolari

Internetda bolalar uchun zararli kontentlar mavjud:

-Zo‘ravonlikka oid materiallar;

-Noto‘g‘ri axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sahifalar;

-Kiberbulling(onlayn bezorilik) holatlari.

Bu esa bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2.4. Ota–onalarning raqamli savodxonligi pastligi

Ko‘plab ota–onalar zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada bilmaydi.Bu esa:

-Farzandlar ustidan nazoratni qiyinlashtiradi;

-Noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish imkoniyatini kamaytiradi.

3.Raqamli tarbiyaning ijobiy jihatlari

Raqamli texnologiyalar faqa tsalbiy emas,balki ijobiy imkoniyatlarni ham yaratadi:

-Ta’lim resurslariga keng kirish;

-Onlayn kurslar va rivojlantiruvchi platformalar;

-Kreativ fikrlashni rivojlantirish;

-Global muloqot imkoniyati.

Demak,muammo texnologiyaning o‘zida emas,balki undan qanday foydalanishda.

4.Muammolarni bartaraf etish yo‘llari

4.1. Raqamli va an’anaviy tarbiya uyg‘unligi

Ota–onalar quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:

-Gadjetlardan foydalanish vaqtini me’yorlash;

-Oilaviy suhbatlar va birgalikdagi faoliyatlarni ko‘paytirish;

-Milliy qadriyatlarni singdirish.

-Ota–onalar o‘zlari telefon ishlatish madaniyatida o‘rnak bo‘lishi .

-Sport, kitobxonlik va turli o‘yinlarga qiziqtirish orqali virtual dunyodan chalg‘itish.

-Taqiqlashdan ko'ra internetdagi xavflar haqida do'stona tushuntirish.

4.2. Ota-onalarning raqamli savodxonligini oshirish

Buning uchun:

-Maxsus treninglar tashkil etish;

-Raqamli xavfsizlik bo‘yicha bilim berish;

-Farzandlar bilan birgalikda texnologiyadan foydalanish.

4.3. Raqamli gigiyena qoidalarini joriy etish

Masalan:

-Uyqudan oldin telefon ishlatmaslik;

-Ovqatlanish vaqtida gadjetlardan foydalanmaslik;

-Kunlik ekran vaqtini cheklash.

4.4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash

Farzandlarning emotsional holatiga e’tibor berish:

-Ularni tinglash;

-Muammolarini birga hal qilish;

-Ishonchli muhit yaratish.

5.Pedagogik yondashuvlar va innovatsion strategiyalar

Raqamli davrda oila tarbiyasini samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

-Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv–har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish;

-Faoliyatga asoslangan yondashuv–bolani faol ishtirokchi sifatida shakllantirish;

-Refleksiv yondashuv–o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Innovatsion strategiyalar esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Edukatsion ilovalardan foydalanish;

-Oila Ichida “raqamli kontrakt” tuzish;

-Onlayn va oflayn faoliyat muvozanatini saqlash.

Xulosa: Raqamli davr bola tarbiyasiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab muammolarni ham olib keldi. Internet va gadjetlarga qaramlik, muloqotning kamayishi, axborot xavfsizligi kabi muammolar bolalar tarbiyasidagi asosiy chaqiriqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va ongli ravishda qo‘llash orqali tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun ota–onalar o‘z ustida ishlashi, raqamli savodxonligini oshirishi va farzandlari bilan yaqin muloqotni yo‘lga qo‘yishi zarur. Hamda raqamli muhitda tarbiya samarali va xavfsiz bo’lishi uchun nafaqat ota–onalar, balki pedagoglar

ham ongli va muvozanatli yondashuvni qo‘llashlari shart. Bu shunchaki cheklash emas,balki bolalarga raqamli savodxonlikni o‘rgatish ,ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Raqamli vositalarning afzalliklaridan foydalangan holda ularning xavf–xatarlaridan himoyalanishni ta’minlash bolalarning onlayn faoliyatini nazorat qilish va ular bilan ochiq muloqot o’rnatish – zamonaviy tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan faqatgina shu yo’l bilan ***raqamli muhitni*** bolalarimizning rivojlanishi uchun xavfsiz va samarali maydonga aylantirishimiz mumkin. Demak, raqamli davrda muvaffaqiyatli bola tarbiyasi – bu an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligigaa soslangan tizimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov Q. Pedagogika nazariyasiva amaliyoti.–Toshkent:Fan,2020.
2. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.–Toshkent: Ma’naviyat,2008.
3. Musurmonova O.Oila pedagogikasi.–Toshkent:O‘qituvchi,2019.
4. To‘xtaxo‘jayev N.Tarbiya nazariyasi.–Toshkent: Universitet,2018.
5.UNICEF. Digital Parenting Guide.–NewYork,2021.
6.VygotskyL.S. Mind in Society.–Harvard University Press,1978.
7.OECD.Children in the Digital Environment.–Paris,2020.
8.Qodirov B. Zamonaviy pedagogika muammolari.–Toshkent,2021.
9.Internet World Stats.GlobalI nternet Usage Report,2022.
10.World Health Organization.Guidelines on Screen Time,2019.

TALABALAR IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYASI: TUSHUNCHA, TUZILMA VA PSIXOLOGIK DETERMINANTLARNING NAZARIY TALQINI

Raximbayeva Gulyora Ulugbekovna,
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
gulyorahabib@gmail.com
SotimovaMunisaxon Erkin qizi, Romanova Sevinch Rasul qizi
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy identifikatsiyaning mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy identifikatsiya tushunchasining zamonaviy talqinlari ko‘rib chiqilib, uning kognitiv va affektiv komponentlardan iborat tuzilmasi asoslab beriladi. Shuningdek, identifikatsiya shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimli ravishda yoritiladi. Natijada talabalar ijtimoiy identifikatsiyasining kompleks nazariy modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy identifikatsiya, talabalar, kognitiv komponent, affektiv komponent, psixologik determinantlar, identifikatsiya tuzilmasi, globallashuv, ijtimoiy muhit

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the concept, structure, and psychological determinants of social identity among students. Modern interpretations of social identity are examined, and its structure is substantiated through cognitive and affective components. The internal and external factors influencing identity formation are systematized. As a result, a comprehensive theoretical model of student social identity is proposed.

Keywords: social identity, students, cognitive component, affective component, psychological determinants, identity structure, globalization, social environment

Аннотация: В статье представлен теоретический анализ социальной идентичности студентов, ее структуры и психологических детерминант. Рассматриваются современные подходы к пониманию социальной идентичности, обосновывается ее структура через когнитивные и аффективные компоненты. Систематизированы внутренние и внешние факторы формирования идентичности. В результате предложена комплексная теоретическая модель.

Ключевые слова: социальная идентичность, студенты, когнитивный компонент, аффективный компонент, психологические детерминанты, структура идентичности, глобализация, социальная среда

Kirish: Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy identifikatsiya shaxsning ijtimoiy makondagi o‘rnini belgilovchi muhim psixologik konstrukt sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi va ijtimoiy aloqalarning murakkablashuvi natijasida shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy guruhlar bilan identifikatsiyalanish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ayniqsa, talabalar bu jarayonning faol subyekti sifatida turli identifikatsiya darajalarini shakllantirish bosqichida bo‘ladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy identifikatsiya ko‘pincha umumiy fenomen sifatida yoritilib, uning ichki tuzilmasi va determinantlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa mazkur tushunchani chuqur anglash va amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — talabalar ijtimoiy identifikatsiyasining tushunchaviy mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy tuzilmasini ochib berish hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlarni nazariy jihatdan tizimlashtirishdan iborat.

Asosiy qism: 1. Ijtimoiy identifikatsiya tushunchasining nazariy mohiyati

Ijtimoiy identifikatsiya shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb bilishi va shu asosda o‘z ijtimoiy “Men”ini shakllantirish jarayonidir. Ushbu tushuncha psixologiyada shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tushuntiruvchi muhim kategoriya hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlarda ijtimoiy identifikatsiya ko‘p darajali va dinamik tizim

sifatida qaralib, unda individual, guruhiy va global identifikatsiya elementlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

2. Ijtimoiy identifikatsiyaning tuzilmasi. Ijtimoiy identifikatsiya murakkab psixologik konstrukt sifatida ko‘p darajali va ko‘p komponentli tuzilishga ega. Uning shakllanishi shaxsning ijtimoiy voqelikni anglash jarayonlari bilan bir qatorda, ushbu voqelikka nisbatan emotsional munosabatlar tizimi orqali amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy identifikatsiyaning tuzilmasini shartli ravishda ikki asosiy komponentga — kognitiv va affektiv qismlarga ajratish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Mazkur komponentlar o‘zaro mustaqil emas, balki funksional jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning integratsiyasi natijasida shaxsda barqaror va mazmunli ijtimoiy identifikatsiya shakllanadi.

Kognitiv komponent: identifikatsiyaning bilish asoslari

Kognitiv komponent shaxsning o‘zini ijtimoiy makonda anglash, tasniflash va baholash jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, identifikatsiyaning mantiqiy va strukturaviy asosini tashkil etadi. U quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1. O‘zini guruh a’zosi sifatida anglash: Mazkur jarayon shaxsning o‘zini individual subyekt sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy birlikning vakili sifatida idrok etishini anglatadi. Bu bosqichda “Men” tushunchasi kengayib, “Biz” kategoriyasi bilan uyg‘unlashadi. Natijada shaxs o‘zining ijtimoiy maqomi va rolini anglay boshlaydi.

2. Ijtimoiy kategoriyalash: Ijtimoiy kategoriyalash orqali shaxs atrofdagi ijtimoiy muhitni tartibga soladi va uni ma’lum guruhlarga ajratadi. Ushbu jarayon kognitiv soddalashtirish mexanizmi sifatida xizmat qilib, ijtimoiy voqelikni tez va samarali idrok etishga yordam beradi. Shu bilan birga, aynan kategoriyalash jarayoni “biz–ular” qarama-qarshiligini shakllantirib, identifikatsiyaning boshlang‘ich nuqtasini belgilaydi.

3. Ijtimoiy taqqoslash: Ijtimoiy taqqoslash mexanizmi orqali shaxs o‘z guruhini boshqa guruhlar bilan solishtiradi va uning nisbiy mavqeini baholaydi. Ushbu jarayon ijtimoiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy taqqoslash natijalari identifikatsiyani mustahkamlasa, salbiy taqqoslash uni zaiflashtirishi yoki qayta ko‘rib chiqishga olib kelishi mumkin.

Affektiv komponent: emotsional mazmun va mansublik: Affektiv komponent shaxsning ijtimoiy guruhga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi va identifikatsiyaning chuqurligi hamda barqarorligini ta’minlaydi.

U quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mansublik hissi: Mansublik hissi shaxsning o‘zini guruhning ajralmas qismi sifatida his etishi bilan tavsiflanadi. Bu holat psixologik xavfsizlik, qabul qilinish va ijtimoiy qo‘llab-

quvvatlanish ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir. Kuchli mansublik hissi mavjud bo‘lgan taqdirda identifikatsiya barqaror va ichki jihatdan mustahkam bo‘ladi.

2. Emotsional bog‘liqlik: Emotsional bog‘liqlik shaxsning guruhga nisbatan ichki yaqinlik, sadoqat va psixologik birlikni his etishini anglatadi. Bu jarayon ijtimoiy aloqalarni mustahkamlab, guruh ichidagi birdamlikni kuchaytiradi. Aynan shu element identifikatsiyani subyektiv ahamiyatga ega qiladi.

3. Guruhga nisbatan baholovchi munosabat: Shaxs o‘z guruhiga nisbatan ijobiy yoki salbiy emotsional baho beradi. Ijobiy baholash (faxr, hurmat) identifikatsiyani kuchaytiradi, salbiy baholash (uyat, norozilik) esa identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bois bu element identifikatsiyaning yo‘nalishini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, affektiv komponent ijtimoiy identifikatsiyaning “his etish va qabul qilish” darajasini ifodalaydi.

Kognitiv va affektiv komponentlar integratsiyasi: Ijtimoiy identifikatsiyaning to‘liq shakllanishi ushbu ikki komponentning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Kognitiv komponent shaxsga “qaysi guruhga mansub ekanini” anglash imkonini bersa, affektiv komponent ushbu mansublikni ichki jihatdan qabul qilish va mustahkamlashni ta’minlaydi.

Ularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- kognitiv anglash affektiv munosabatni shakllantiradi;
- affektiv tajriba esa kognitiv tasavvurlarni mustahkamlaydi yoki o‘zgartiradi;
- ularning uyg‘unligi identifikatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy identifikatsiya kognitiv va affektiv komponentlarning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanadigan yaxlit psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning birining yetishmasligi identifikatsiyaning yuzakiligi yoki beqarorligiga olib keladi.

3. Psixologik determinantlar tizimi: Talabalarda ijtimoiy identifikatsiya shakllanishiga ta’sir etuvchi determinantlar quyidagicha tasniflanadi:

- Ichki (individual) determinantlar
- o‘z-o‘zini anglash darajasi
- refleksiya
- qadriyatlar tizimi
- motivatsiya

Bu determinantlar o‘zaro kompleks ta’sirda identifikatsiya shakllanishini belgilaydi.

4. Talabalarda ijtimoiy identifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlari: Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda ijtimoiy identifikatsiya shakllanishi ayniqsa intensiv va murakkab xarakter kasb etadi. Bu davrda individ nafaqat mavjud ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, balki yangi identifikatsiya modellarini izlaydi va sinovdan o‘tkazadi. Shu

sababli talabalar ijtimoiy identifikatsiyasi bir qator o‘ziga xos psixologik xususiyatlar bilan ajralib turadi.

1. Dinamik va o‘zgaruvchan xarakter: Talabalarda ijtimoiy identifikatsiya qat’iy shakllangan tizim emas, balki doimiy ravishda rivojlanib boruvchi va qayta quriluvchi jarayon hisoblanadi. Bu holat ularning hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhitning tez-tez o‘zgarishi hamda yangi ijtimoiy rollarni egallashi bilan izohlanadi.

Identifikatsiyaning dinamikligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- turli vaziyatlarda turli identifikatsiya darajalarining faollashuvi;
- yangi guruhlar ta’sirida mavjud identifikatsiyaning qayta ko‘rib chiqilishi;
- ijtimoiy tajriba ortishi bilan identifikatsiya mazmunining boyib borishi.

Mazkur o‘zgaruvchanlik shaxsning moslashuvchanligini oshirsa-da, ayrim hollarda identifikatsiya noaniqligi yoki beqarorlikka olib kelishi mumkin.

2. Ko‘p identifikatsiyalilik (multiplikativ identifikatsiya): Talabalar bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy guruhlar bilan identifikatsiyalanadi. Bu jarayon ularning ijtimoiy faoliyat doirasi kengligi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi identifikatsiya turlarini o‘z ichiga olishi mumkin:

1. akademik (talaba sifatida)
2. kasbiy (kelajak mutaxassis sifatida)
3. milliy va madaniy
4. global yoki raqamli identifikatsiya

Ko‘p identifikatsiyalilik ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi va shaxsning ijtimoiy tajribasini boyitadi. Biroq turli identifikatsiyalar o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelganda, ichki psixologik tanglik va identifikatsiya kolliziyalari paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois bu xususiyat ikki tomonlama xarakterga ega: rivojlantiruvchi ham, muammoli ham.

3. Ijtimoiy ta’sirlarga yuqori sezuvchanlik: Talabalar ijtimoiy muhit ta’siriga nisbatan yuqori darajada sezgir bo‘lib, bu ularning identifikatsiya jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

- tengdoshlar guruhi va referent guruhlar;
- ta’lim muassasasining ijtimoiy-psixologik muhiti;
- ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari;
- madaniy va ijtimoiy qadriyatlar tizimi.

Yuqori sezuvchanlik shaxsning tez moslashuviga yordam beradi, biroq tashqi ta’sirlarga haddan tashqari bog‘liqlik identifikatsiyaning mustaqilligini pasaytirishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda talabalar ijtimoiy identifikatsiyasining nazariy asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, uning tushunchaviy mohiyati, tarkibiy tuzilmasi hamda

shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar tizimlashtirildi. Olib borilgan nazariy tahlil natijalari ijtimoiy identifikatsiyaning murakkab, ko‘p komponentli va dinamik psixologik konstrukt ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy identifikatsiyaning tuzilmasi kognitiv va affektiv komponentlar birligida ko‘rib chiqildi. Aniqlanishicha, kognitiv komponent shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruh bilan anglash, ijtimoiy kategoriyalash va taqqoslash jarayonlari orqali identifikatsiyaning mantiqiy asosini shakllantiradi. Affektiv komponent esa ushbu mansublikni emotsional jihatdan qabul qilish, unga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish orqali identifikatsiyaning barqarorligi va chuqurligini ta’minlaydi. Ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi ijtimoiy identifikatsiyaning yaxlit tizimini hosil qiladi.

Talabalar ijtimoiy identifikatsiyasining o‘ziga xos jihatlari sifatida uning dinamikligi, ko‘p identifikatsiyaliligi hamda ijtimoiy ta’sirlarga yuqori sezuvchanligi aniqlandi. Bu xususiyatlar talabalar identifikatsiyasini bir tomondan moslashuvchan va rivojlanishga ochiq tizim sifatida namoyon etsa, ikkinchi tomondan uning beqarorligi va ichki ziddiyatlarga moyilligini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, talabalar ijtimoiy identifikatsiyasi kognitiv va affektiv komponentlar integratsiyasiga asoslangan holda, ichki psixologik xususiyatlar hamda tashqi ijtimoiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning barqaror rivojlanishi komponentlar o‘rtasidagi muvozanat hamda determinantlarning uyg‘unligi bilan ta’minlanadi.

Amaliy jihatdan mazkur natijalar ta’lim muassasalarida talabalar ijtimoiy identifikatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, ularning psixologik moslashuvi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlarda ijtimoiy identifikatsiyaning empirik o‘lchov ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda uning turli ijtimoiy kontekstlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziev, E. G‘. (2010). Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent: Universitet.
2. Davletshin, M. G. (2005). Psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Karimova, V. M. (2012). Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Tojiboyeva, D. (2018). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Innovatsiya.
5. Mavlonov, A. (2016). Shaxs psixologiyasi. Toshkent: Noshir.
6. Nishonova, Z. T. (2019). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Universitet.
7. Андреева, Г. М. (2000). Социальная психология. Москва: Аспект Пресс.
8. Парыгин, Б. Д. (1999). Социальная психология. Санкт-Петербург: Питер.

9. Кон, И. С. (1984). В поисках себя: Личность и ее самосознание. Москва: Политиздат.
10. Tajfel, H. (1981). *Human Groups and Social Categories: Studies in Social Psychology*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1979). An integrative theory of intergroup conflict. In: Austin W.G., Worchel S. (Eds.), *The Social Psychology of Intergroup Relations*. Monterey: Brooks/Cole.
12. Turner, J. C. (1987). *Rediscovering the Social Group: A Self-Categorization Theory*. Oxford: Blackwell.
13. Hogg, M. A., & Abrams, D. (1988). *Social Identifications*. London: Routledge.
14. Brewer, M. B. (1991). The social self. *Personality and Social Psychology Bulletin*.
15. Ashforth, B. E., & Mael, F. (1989). Social identity theory. *Academy of Management Review*.

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O`RTA OSIYO TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Bayjanova Sadokat Ilxamovna
“Pedagogika” yo‘nalishi
3-bosqichtalabasi ***Berdiyeva Xulkar Maqsudbek qizi***
Ollaberganova Munira Marks qizi
bayjanovasadoqat3010@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning O‘rta Osiyo taraqqiyotidagi o‘rni haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilishdagi faoliyati, yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ularning jamiyat ongini yuksaltirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning ilm-fan, madaniyat va matbuot rivojiga qo‘shgan hissasi ham tahlil qilingan. Bundan tashqari, jadidchilik harakatining bugungi kundagi ahamiyati va uning zamonaviy ta’lim tizimi bilan bog‘liqligi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, islohot, ta’lim tizimi, milliy uyg‘onish, taraqqiyot

Аннотация: В данной статье представлены общие сведения о возникновении джадидского движения, этапах его развития, а также его роли в развитии Средней Азии. Также освещается деятельность джадидов по реформированию системы образования, создание школ нового метода и их значение в повышении общественного сознания. В

статье анализируются просветительские идеи таких представителей джадидского движения, как Махмудходжа Бехбуди и Абдулла Авлони, а также их вклад в развитие науки, культуры и печати. Кроме того, раскрывается значение джадидского движения в современности и его связь с современной системой образования.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, школы нового метода, реформа, система образования, национальное возрождение, развитие

Abstract: This article provides general information about the emergence, stages of development, and the role of the Jadid movement in the progress of Central Asia. It also highlights the Jadids' activities in reforming the education system, the establishment of new-method schools, and their importance in raising public awareness. The article analyzes the enlightenment ideas of Jadid representatives such as Mahmudxo‘ja Behbudiy and Abdulla Avloniy, as well as their contributions to the development of science, culture, and the press. In addition, the relevance of the Jadid movement in modern times and its connection with the contemporary education system are also discussed.

Keywords: Jadidism, enlightenment, new-method schools, reform, education system, national awakening, development

Kirish: Jadidchilik yoki jadidizm (jadīd – yangi) – o‘n to‘qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[1]. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, o‘lkani qoloqlikdan olib chiqish, yangi usul maktablari, matbuot va milliy uyg‘onish orqali mustaqillikka erishishni maqsad qilgan. Ular millatni ta’lim va islohotlar orqali taraqqiyotga yetaklash, diniy xurofotdan voz kechib, dunyoviy bilimlarni egallash g‘oyasini ilgari surgan.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan.

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli, TurkistonningYevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoqosti qilinishi va bunday og‘ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchuno‘zzamonasining ilg‘or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidanuyg‘onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilikharakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javobsifatidamaydonga kelgan ulkan ijtimoiy-siyosiy harakat edi. O‘lkada millatning dard-

alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og‘ir qismatinio‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘ziningbutun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchunsafarbaretgan ziyolilarningbutun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Jadidchilikning asosiyg‘oyavamaqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdanozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiyavaparlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovonjamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzishvahokazolardan iborat edi. Turkiston jadidchilik harakati ba’zi bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, “oldinmadaniy-ma’rifiy harakat bo‘lib, keyin ijtimoiy- siyosiy harakatga o‘sib o‘tgani” yo‘q. Uo‘z tabiati maqsad va mohiyatiga ko‘ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va islohotchilik harakati bo‘lgan [2]

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urfodatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z “Xitobnoma”si(1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitdaTurkistonmintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z

vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablaritarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatrt gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish,xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi. 1908-yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi: Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov) Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja), Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy boshchiligidagi jadidlar ma’rifatparvarlik g‘oyalarining asosi – xalqni ta’lim, yangi usul maktablari, matbuot va teatr orqali uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglash hamda mustaqillikka erishish bo‘lgan. Ular “taraqqiyot maktabda” degan tamoyil asosida millatni jaholatdan qutqarishni bosh maqsad deb bilganlar.

Jadid ma'rifatparvarlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

Ta’lim va Yangi usul maktablari: Behbudiy “Maktabi usuli jadid”ni targ‘ib qilib, darsliklar yaratdi. Avloniy esa ta’lim-tarbiyani birlashtirib, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yuksak axloqli insonni voyaga yetkazishni maqsad qildi.

Matbuot va Nashriyot: O‘zbek matbuoti asoschilari (“Sadoyi Turkiston” kabi gazeta va jurnallar) orqali xalqni ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilib, milliy uyg‘onishni targ‘ib qildilar.

Teatr va San’at: Behbudiyning “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek teatri asoslandi, bu orqali savodsizlik va jaholat oqibatlari sahna orqali ko‘rsatib berildi.

Milliy g‘oya va Mustaqillik: Jadidlar nafaqat ma'rifat, balki millatning siyosiy huquqlarini tiklash, davlatchilikni mustahkamlash g‘oyalarini ilgari surdilar.

Xulosa va takliflar: Jadidchilik harakati O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy harakat sifatida jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu harakat xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatga yo‘naltirish hamda ta’lim tizimini zamonaviy asosda rivojlantirishga xizmat qilgan. Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, xususan yangi usul maktablarining tashkil etilishi va matbuotning rivojlanishi jamiyat ongining yuksalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalari o‘z faoliyatlari orqali milliy uyg‘onish va ma’naviy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratganlar. Shu bois, bugungi kunda jadidchilik merosini chuqur o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish hamda ta’lim tizimida ularning ilg‘or pedagogik g‘oyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida jadidlarning yangi usul maktablari tajribasini qo‘llash, ularning asarlarini keng targ‘ib qilish va o‘quv dasturlariga kiritish orqali milliy ong va ma’naviyatni yanada rivojlantirish mumkin. Shu jihatdan, jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi kun taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Jadid ma’rifatchilik harakatining g‘oyaviy asoslari. –T. “Toshkent islom universiteti”.2016. b – 178.
3. Shaxnozaxon, K. (2023). Jadid ma’rifatparvarchlik namoyondalarining ijtimoiy-siyosiy, falasafiy qarashlari. World scientific research journal, 15(1), 234-238.
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq 2001. B108-109
5. Shaxnozaxon, K. (2023). Jadid ziyolilarining milliy ma’naviyatimizdagi ahamiyati. образование наука и инновационные идеи в мире, 20(7), 35-38.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV USLUBI VA PEDAGOGIK YONDASHUVINING ROLI

Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi,
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
dilrabobaxtiyorovna@gmail.com
Otajanova Nigina Xudayor qizi
niginaotajanova17@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda o‘qituvchining kommunikativ uslubi va pedagogik yondashuvining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional intellektning asosiy komponentlari (o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar) hamda ularni shakllantirishda o‘qituvchi faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Natijalar o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi, ochiq va hamkorlikka asoslangan kommunikativ uslubi o‘quvchilarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, kommunikativ uslub, pedagogik yondashuv, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль коммуникативного стиля и педагогического подхода учителя в развитии эмоционального интеллекта у учащихся начальных классов. Рассматриваются основные компоненты эмоционального интеллекта (осознание эмоций, управление ими, эмпатия и социальные навыки) и значение деятельности учителя в их формировании. Результаты показывают, что поддерживающий и открытый коммуникативный стиль учителя способствует развитию эмоциональной устойчивости и социальной адаптации учащихся.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, начальная школа, учитель, коммуникативный стиль, педагогический подход, эмпатия, социальные навыки

Abstract: This article examines the role of teachers’ communicative style and pedagogical approach in the development of emotional intelligence among primary school students. The study focuses on key components of emotional intelligence, including emotional awareness, regulation, empathy, and social skills, as well as the importance of teacher interaction in fostering these competencies. The findings suggest that a supportive, open, and collaborative communicative style positively influences students’ emotional stability and social adaptation.

Keywords: emotional intelligence, primary school, teacher, communicative style, pedagogical approach, empathy, social skills

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida nafaqat kognitiv bilimlarni

shakllantirish, balki o‘quvchilarning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellekt tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot obyektiga aylangan.

Emotsional intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va samarali ijtimoiy muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf davri ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bolalarda emotsional reaktsiyalar, ijtimoiy xulq va muloqot madaniyati asoslari shakllanadi.

Mazkur jarayonda o‘qituvchining shaxsiyati, kommunikativ uslubi va pedagogik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar uchun emotsional model va ijtimoiy xulq namunasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘qituvchining ochiq, qo‘llab-quvvatlovchi va empatik muloqot uslubi o‘quvchilarda ijobiy emotsional muhitni shakllantiradi.

Emotsional intellekt nazariy jihatdan bir qator olimlar tomonidan asoslab berilgan. Xususan, Daniel Goleman emotsional intellektni shaxs muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Peter Salovey va John D. Mayer esa emotsional intellektni emotsiyalarni idrok etish, tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi.Shu bilan birga, pedagogik jarayonda o‘qituvchining kommunikativ uslubi o‘quvchilarning emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi va hamkorlikka asoslangan yondashuv o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi, aksincha, avtoritar yoki befarq munosabat salbiy psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda o‘qituvchining kommunikativ uslubi va pedagogik yondashuvining rolini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Emotsional intellektni rivojlantirish metodikasi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Ushbu jarayon o‘qituvchining kommunikativ uslubi va pedagogik yondashuvi bilan bevosita bog‘liq.

Metodik yondashuv quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- **Emotsiyalarni anglash** – o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini tanib oladi
- **Emotsiyalarni ifodalash** – his-tuyg‘ularni to‘g‘ri bayon qilish
- **Emotsiyalarni boshqarish** – salbiy hissiyotlarni nazorat qilish
- **Empatiya** – boshqalarni tushunish
- **Ijtimoiy ko‘nikmalar** – samarali muloqot qilish

O‘qituvchining kommunikativ uslubi (amaliy model).

O‘qituvchi quyidagi uslublardan foydalanishi tavsiya qilinadi:

Qo‘llab-quvvatlovchi uslub:

- bolani tinglash
- baholamasdan qabul qilish
- xatoni rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rsatish

Empatik muloqot:

- “Seni tushunyapman” yondashuvi
- emotsiyani nomlash (“sen xafa bo‘lib turibsan”)

Hamkorlikka asoslangan yondashuv:

- buyruq emas, muhokama
- savol orqali boshqarish

Agar o‘qituvchi avtoritar bo‘lsa emotsional intellekt rivojlanmaydi — aksincha, yopilish paydo bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar tizimi (konkret dars modeli)

1-mashg‘ulot: “Emotsiyalarni tanish”

Maqsad: o‘quvchilarga emotsiyalarni ajratishni o‘rgatish

Jarayon:

- o‘qituvchi turli yuz ifodalarini ko‘rsatadi
- o‘quvchilar emotsiyani nomlaydi
- real hayotdan misollar keltiriladi

2-mashg‘ulot: “Men nima his qilyapman?”

Maqsad: o‘z emotsiyalarini anglash

Jarayon:

- “Bugun men … his qildim, chunki …” gapini davom ettirish
- kichik guruhda muhokama

3-mashg‘ulot: “Emotsiyani boshqarish”

Maqsad: salbiy emotsiyalarni nazorat qilish

Texnika:

- chuqur nafas olish
- 10 gacha sanash
- vaziyatdan chiqib turish

4-mashg‘ulot: “Empatiya rivojlantirish”

Maqsad: boshqani tushunish

Jarayon:

- vaziyatli rolli o‘yinlar
- “agar sen uning o‘rnida bo‘lsang nima qilarding?” savoli

O‘yin texnologiyalari:

1. “Emotsiya kartalari”
   - bolalar kartadan emotsiyani tanlaydi
   - shu holatni tasvirlab beradi

Rivojlantiradi: emotsional anglash

2. “Rolga kirish”
   - o‘quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtiradi
   - boshqalar baholaydi

Bu bolada empatiyani rivojlantiradi.

3. “Yaxshi so‘z ayt”
   - har bir bola yonidagi bolaga ijobiy fikr aytadi (ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlantiradi)

4. “Muammo yechimi”
   - konflikt vaziyat beriladi
   - bolalar yechim topadi (emotsional boshqaruvni rivojlantiradi)

Samaradorlikni baholash

Baholash mezonlari:

- o‘quvchining emotsiyani tanish darajasi
- konfliktga munosabati
- muloqot sifati
- empatiya darajasi

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘qituvchining kommunikativ uslubini optimallashtirish
   - har bir o‘quvchining fikrini tinglash va qadrlash
   - tanqid o‘rniga konstruktiv fikr bildirish
   - emotsiyalarni nomlash orqali tushuntirish (“sen xafa bo‘lyapsan”, “sen quvonyapsan”)

Natijada o‘quvchida emotsional anglash shakllanadi

2. Dars jarayoniga emotsional mashg‘ulotlarni integratsiya qilish
   - har dars boshida “kayfiyat daqiqasi” o‘tkazish
   - qisqa refleksiya (“bugun nima his qilding?”)

Bunda bolada emotsional o‘zini anglash rivojlanadi.

3. O‘yin texnologiyalaridan muntazam foydalanish

- haftasiga kamida 2–3 marta emotsional o‘yinlar qo‘llash
- rolli o‘yinlar orqali vaziyatli o‘rganish

Bunda empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

4. Konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish

- o‘quvchilarga muammoni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatish
- “gaplashish – tushunish – yechim topish” modeli

Natijada bolada agressiya kamayadi

5. Individual yondashuvni kuchaytirish

- emotsional jihatdan qiyin bolalar bilan alohida ishlash
- ularning his-tuyg‘ularini inobatga olish

Bunda psixologik moslashuv yaxshilanadi.

6. Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

- ota-onalarga emotsional tarbiya bo‘yicha tavsiyalar berish
- uyda qo‘llaniladigan oddiy mashg‘ulotlar tavsiya qilish

Bu orqali maktab va oila o‘rtasida uzviylik ta’minlanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda o‘qituvchining kommunikativ uslubi va pedagogik yondashuvi hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, qo‘llab-quvvatlovchi, empatik va hamkorlikka asoslangan muloqot uslubi o‘quvchilarda emotsional barqarorlik, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, emotsional intellekt o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki maqsadli pedagogik faoliyat natijasida rivojlanadi. Dars jarayoniga emotsional mashg‘ulotlar va o‘yin texnologiyalarini tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy namunasi va kommunikativ madaniyati o‘quvchilar uchun muhim model bo‘lib xizmat qiladi. Ijobiy psixologik muhit yaratilgan sinfda o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadi, boshqalarni tushunishga intiladi va samarali ijtimoiy munosabatlar o‘rnatadi.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish kelajakda barkamol, ijtimoiy faol va psixologik barqaror shaxsni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Daniel Goleman. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books, 1995.
2. Peter Salovey., John D. Mayer. *Emotional Intelligence*. Imagination, Cognition and Personality, 1990.
3. Maurice J. Elias et al. *Promoting Social and Emotional Learning: Guidelines for Educators*. ASCD, 1997.
4. Marc A. Brackett. *Permission to Feel*. Celadon Books, 2019.
5. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press, 1978.
6. Jean Piaget. *The Psychology of the Child*. Basic Books, 1969.
7. Howard Gardner. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books, 1983.
8. UNESCO. *Social and Emotional Learning in Education*. Paris, 2020.
9. OECD. *Skills for Social Progress: The Power of Social and Emotional Skills*. 2015.
10. UNICEF. *The State of the World’s Children*. 2019.

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Urganch davlat pedagogika instituti dots.v.b.
eshchanovaxolida@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt vositalari yordamida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilish, dalillash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, maqolada pedagogik yondashuvlar, metodlar va interaktiv strategiyalar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, ta’lim innovatsiyalari, muammoli ta’lim

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования компетенции критического мышления у студентов с использованием средств искусственного интеллекта. В условиях современного образовательного процесса рассматриваются пути эффективного применения цифровых технологий, в частности

возможностей искусственного интеллекта, для развития у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа проблем, аргументации и принятия решений. Также в статье раскрываются механизмы развития критического мышления на основе педагогических подходов, методов и интерактивных стратегий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, критическое мышление, компетенция, педагогическая технология, интерактивные методы, образовательные инновации, проблемное обучение.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing students' critical thinking competence through the use of artificial intelligence tools. In the context of modern education, it explores ways of effectively integrating digital technologies, particularly artificial intelligence, to enhance students' independent thinking, problem analysis, argumentation, and decision-making skills. The paper also highlights pedagogical approaches, methods, and interactive strategies that contribute to the development of critical thinking.

Keywords: artificial intelligence, critical thinking, competence, pedagogical technology, interactive methods, educational innovation, problem-based learning.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – bu talabalarni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va asoslangan qarorlar qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash kompetensiyasi zamonaviy ta'limning asosiy komponentlaridan biri sifatida qaralmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Endilikda ta'lim oluvchilar faqat tayyor bilimni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va yangi g‘oyalar ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining o‘rni va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tanqidiy fikrlash – bu axborotni ongli ravishda tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil fikrlarni ko‘rib chiqish va asoslangan xulosalar chiqarish jarayonidir. Pedagogik nuqtai nazardan, bu kompetensiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- axborotni tahlil qilish va saralash;
- mantiqiy fikrlash;
- muammoni aniqlash va yechim topish;
- dalillash va asoslash;
- refleksiya qilish.

Tanqidiy fikrlash rivojlangan talaba faqat bilimni qabul qilmaydi, balki uni qayta ishlaydi, savol beradi va yangi g‘oyalar yaratadi.

Sun’iy intellekt asosidagi vositalarning pedagogik imkoniyatlari. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar (chatbotlar, adaptiv o‘quv platformalari, tahliliy tizimlar, virtual assistentlar va boshqalar) zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion transformatsiyaning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu vositalar nafaqat o‘quv jarayonini individuallashtirish, balki uni interaktiv, moslashuvchan va natijador qilish imkonini beradi. SI texnologiyalarining joriy etilishi ta’limni an’anaviy bilim uzatish modelidan faol, talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish modeliga o‘tkazadi.

Birinchidan, sun’iy intellekt vositalari individuallashtirilgan ta’limni ta’minlaydi. Har bir talabaning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va qiziqishlari tahlil qilinib, unga mos topshiriqlar, materiallar va mashqlar taklif etiladi. Bunday yondashuv differensial o‘qitishni samarali tashkil etishga yordam beradi va har bir talabaning o‘z imkoniyatlari doirasida rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada talabalar o‘zlashtirish jarayonida faolroq ishtirok etadi va mustaqil fikrlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. *Ikkinchidan,* SI vositalari tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, sun’iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar talabalarga muammoli vaziyatlar, ochiq savollar va turli nuqtai nazarlarni talab qiluvchi topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa talabalarning faqatgina ma’lumotni yodlash emas, balki uni tahlil qilish, solishtirish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, case-study va situatsion mashqlar orqali talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda fikr yuritishni o‘rganadi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari tezkor va sifatli fikr-mulohaza (feedback) berish imkoniyatiga ega. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi tomonidan beriladigan baho ko‘pincha vaqt talab qilsa, SI tizimlari talabaning javobini darhol tahlil qilib, unga aniqlashtiruvchi izohlar beradi. Bu esa talabaning o‘z xatolarini tez anglashiga, o‘z faoliyatini tahlil qilishiga (refleksiya) va bilimini mustahkamlashiga xizmat qiladi.*To‘rtinchidan,* SI vositalari yordamida interaktiv ta’lim muhiti yaratiladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va sun’iy muhitlar orqali talabalar murakkab jarayonlarni amaliy tarzda o‘rganadi. Masalan, iqtisodiyot, tibbiyot yoki muhandislik sohalarida simulyatsion dasturlar yordamida qaror qabul qilish jarayonlari mashq qilinadi. Bu esa nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Beshinchidan, sun’iy intellekt o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. U o‘quv jarayonini rejalashtirish, talabalarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va individual tavsiyalar berishda yordam beradi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq metodik va ijodiy faoliyatga e’tibor qaratishi mumkin.

Shuningdek, SI vositalari o‘z-o‘zini o‘rganish (self-directed learning) ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar mustaqil ravishda bilim izlash, ma’lumotni tanlash va undan samarali foydalanishni o‘rganadi. Bu esa ularning umrbod ta’lim olish kompetensiyasini shakllantiradi. Umuman olganda, sun’iy intellekt asosidagi vositalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, uni samarali tashkil etish va talabalarni yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar bilan

ta’minlashda muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri va maqsadga yo‘naltirilgan qo‘llanilishi talabalar shaxsining intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi*(1-jadvalga qarang).*

1-jadval

Sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari

T/r	Pedagogik imkoniyat nomi	Mazmuni (tavsifi)	Ta’lim jarayonidagi ahamiyati	Kutilayotgan natija
1	**Individual o‘qitish**	Sun’iy intellekt har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojiga mos topshiriqlarni shakllantiradi.	Ta’limni individuallashtiradi, differensial yondashuvni ta’minlaydi.	Mustaqil fikrlash rivojlanadi, o‘zlashtirish darajasi oshadi.
2	**Tahliliy fikrlashni rivojlantirish**	AI vositalari muammoli savollar, case-study va situatsion topshiriqlarni taqdim etadi.	Talabani chuqur fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undaydi.	Tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.
3	**Tezkor fikr-mulohaza (feedback)**	Talaba javoblari darhol baholanadi va izoh beriladi.	Xatolarni tez aniqlash va tuzatish imkonini beradi.	O‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya qilish rivojlanadi.
4	**Interaktiv muhit yaratish**	Simulyatsiya, virtual laboratoriya va interaktiv platformalar orqali o‘qitish amalga oshiriladi.	Real hayotga yaqin vaziyatlarda o‘rganishni ta’minlaydi.	Qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish pedagogik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi bilan

chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga va asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rgatishda interaktiv va talabaga yo‘naltirilgan metodlar muhim o‘rin tutadi. Quyida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblangan asosiy yondashuvlar kengroq yoritiladi(2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar

T/r	Yondashuv nomi	Mazmuni (tavsifi)	Sun’iy intellekt roli	Pedagogik ahamiyati	Kutilayotgan natija
1	**Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning)**	O‘quv jarayoni muammoli vaziyat asosida tashkil etiladi, talabalar ochiq yakunli muammolarni mustaqil yoki guruhda hal qiladi.	Yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va axborot manbai sifatida xizmat qiladi; muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilishga yordam beradi.	Talabani faol fikrlashga undaydi, muammoni tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatadi.	Mantiqiy fikrlash, sabab-oqibatni aniqlash va dalillash ko‘nikmalari rivojlanadi.
2	**Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning)**	Talabalar real hayotiy loyihalar ustida ishlaydi, ma’lumot izlaydi, tahlil qiladi va natijani taqdim etadi.	Axborot izlash, ma’lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilishda yordam beradi; turli manbalarni solishtirish imkonini yaratadi.	Mustaqil o‘rganish va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantiradi.	Ijodiy va tanqidiy fikrlash uyg‘unlashadi, tadqiqotchilik kompetensiyasi shakllanadi.
3	**Savol-javob metodi**	Talaba ketma-ket savollar orqali mustaqil xulosa chiqaradi, fikrlash jarayoni chuqurlashtiriladi.	Interaktiv savol beruvchi tizim sifatida ishlaydi; talabani fikrlashga undovchi savollarni	Fikrni asoslash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.	Tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va refleksiya ko‘nikmalari shakllanadi.

			generatsiya qiladi.		
4	**Reflektiv o‘qitish**	Talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.	Talabaning faoliyatini tahlil qilib, individual hisobot va tavsiyalar beradi.	O‘z-o‘zini baholash va metakognitiv fikrlashni rivojlantiradi.	Reflektiv fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi.

Yuqoridagi pedagogik yondashuvlar sun’iy intellekt vositalari bilan integratsiyada qo‘llanilganda, ta’lim jarayoni yanada samarali, interaktiv va natijador bo‘ladi. Ayniqsa, bu yondashuvlar talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi metodlar sun’iy intellekt asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi:

“Savol berish texnologiyasi” – talabalar AI bilan muloqot qilib, chuqur savollar yaratadi;

“Debate va munozara” – AI yordamida turli nuqtai nazarlar tahlil qilinadi;

“Case study” – real vaziyatlar asosida muammolar yechiladi;

“Mind mapping” – g‘oyalarni tizimlashtirish;

“Analitik yozuv” – AI yordamida esse va tahliliy matnlar yozish.

Sun’iy intellekt vositalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida quyidagi natijalarga erishiladi:

- talabalarning mustaqil fikrlash darajasi oshadi;
- muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- axborotni tanqidiy baholash qobiliyati shakllanadi;
- ijodiy yondashuv kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt vositalari zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng va samarali imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish, interaktiv muhit yaratish hamda talabalarni faol bilish jarayoniga jalb etish imkoniyati kengayadi. Natijada talabalar faqat tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va yangi g‘oyalar ishlab chiquvchi subyektga aylanadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bevosita pedagogning kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq. O‘qituvchi zamonaviy

metodik yondashuvlarni chuqur bilishi, didaktik dizaynni to‘g‘ri tashkil eta olishi va o‘quv jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan holda boshqara olishi zarur. Ayniqsa, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, sokratik savol-javob va reflektiv yondashuv kabi metodlarni sun’iy intellekt vositalari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’limga joriy etishda pedagogik, axloqiy va metodologik jihatlarni ham inobatga olish muhimdir. Talabalarni faqat texnologiyaga tayanib qolishdan saqlash, ularning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash hamda axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt vositalari yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi, asosiy e’tibor esa shaxsning intellektual va ijodiy rivojlanishiga qaratilishi lozim.

Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni samaradorlik, moslashuvchanlik va innovatsionlikni ta’minlaydi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi PF-6108-son Farmoni. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

4. Eshchanova X.X. Ichki turizm asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. fals. d-ri (PhD) ... Dis. – T., 2025. – 134-b.

5. Brookfield S. D. Becoming a Critically Reflective Teacher. – 2nd ed. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 320 p.

6. Ennis R. H. Critical Thinking: Reflection and Perspective. – Inquiry: Critical Thinking Across the Disciplines, 2011. – Vol. 26, No. 1. – P. 4–18.

7. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae, CA: Insight Assessment, 2015. – 28 p.

8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 48 p.

9. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 256 p.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MEROSI ASOSIDA TALABALARDA IJOBIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

Sharipov Sharipboy Maxsud o‘g‘li
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
sharipovsharipboy001@gmail.com
Axmedova Durjonoy Nematjon qizi
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
durjonoyaxmedova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining merosi asosida talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonini pedagogik faoliyat bilan bog‘lagan holda olib borilishi bosqichlari haqida va talabalar uchun pedagog ik shart-sharoitlarini yaratish, takomillashtirish orqali ularning nazariy va amaliy bilim egallashlarining imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so’zlar: ijobiy dunyoqarash, fikrlash, ta’lim, ilm, tarbiya, tasrbiyaviy muhit, axloqiy tarbiya, shaxs, axloq, ijtimoiy faollik, komil tafakkur.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF A POSITIVE WORLDVIEW IN STUDENTS BASED ON THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

Sharipov Sharipboy Maksud o‘g‘li
Urgench State Pedagogical Institute
2nd stage master's student, specialty: Theory and history of pedagogy
+998938682707
sharipovsharipboy001@gmail.com
Akhmedova Durjonoy Nematjon qizi
Urgench State Pedagogical Institute
2nd stage master's student, specialty: Theory and History of Pedagogy
durjonoyaxmedova@gmail.com
+998943483508

Abstract. This article discusses the stages of the process of forming a positive worldview in students based on the heritage of Eastern thinkers, in conjunction with pedagogical activity, and the possibilities of students acquiring theoretical and practical knowledge through the creation and improvement of pedagogical conditions.

Keywords: positive worldview, thinking, education, science, upbringing, educational environment, moral upbringing, personality, morality, social activity, perfect thinking.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ПОЗИТИВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ.

Шарипов Шарипбой Максуд оглу
Ургенчский государственный педагогический институт
магистрант 2-го цикла, специальность: Теория и история педагогики
+998938682707
sharipovsharipboy001@gmail.com
Ахмедова Дурджоной Нематжон кизи
Ургенчский государственный педагогический институт
Студентка 2-го курса магистратуры, специальность: Теория и история педагогики
durjonoyaxmedova@gmail.com
+998943483508

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы процесса формирования позитивного мировоззрения у учащихся на основе наследия восточных мыслителей в контексте педагогической деятельности, а также возможности приобретения учащимися теоретических и практических знаний посредством создания и совершенствования педагогических условий.

Ключевые слова: позитивное мировоззрение, мышление, образование, наука, воспитание, образовательная среда, нравственное воспитание, личность, нравственность, социальная активность, совершенное мышление.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida shaxsning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu bois talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda Sharq mutafakkirlarining boy ma’naviy-ma’rifiy merosi pedagogik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik sharoitlar deganda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy, mazmuniy, metodik va muhit omillari majmui tushuniladi. Talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishda ushbu sharoitlarni Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Bu jarayonda Sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy-axloqiy merosidan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq falsafasi va pedagogik fikri tarixida inson kamoloti, ma'naviy tarbiya va dunyoqarash shakllanishi masalalari chuqur ilmiy asoslangan. Ushbu maqolada Sharq allomalarining pedagogik qarashlari tahlili asosida talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan yoritiladi.Avvalo, ta’lim mazmunini Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari bilan boyitish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Sharq falsafasi va pedagogik tafakkurida inson kamoloti, axloqiy poklik, ezgulik, adolat, mehnatsevarlik, sabr-qanoat, ijtimoiy mas’uliyat kabi tushunchalar

markaziy o‘rinda turadi. Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyoti shaxs kamoloti bilan uzviy bog‘liq ekanini asoslab, ta’limning asosiy vazifasini insonda fazilatlarni shakllantirish deb biladi. U shunday yozadi: “Ta’limning maqsadi – insonni kamolga yetkazish va unda fazilatlarni shakllantirishdir”[5][1, 56-b.]. Mazkur qarash bugungi ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, bilim berish bilan bir qatorda talabalarda ijobiy hayotiy pozitsiyani shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Farobiyning bu muhum qarashlari asrlar davomida shakillanib kelayotgan mahalliy va islom dini qarashlarini o’zida mujassamlashtirgan holda kishilarda yaxshilangan dunyoqarashni shakillantirishda juda muhim o‘rin tutadi. Ibn Sino ta’lim jarayonida aqliy va axloqiy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligini alohida ta’kidlab, ilmning axloq bilan mustahkamlanmagani holda to‘liq natija bermasligini qayd etadi. U “Ilm insonni yuksaltiradi, ammo axloq uni komillikka yetkazadi” deya ta’limning tarbiyaviy jihatini asoslaydi[6] [2, 41-b.]. Darhaqiqat ushbu fikr Ibn Sinoning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlarining mohiyatini ifodalaydi. Unda ilm va axloqning shaxs kamolotidagi o‘rni o‘zaro taqqoslab ochib berilgan. Muallifga ko‘ra, ilm insonning aqliy salohiyatini rivojlantiradi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni anglash va ongli faoliyat yuritish imkonini beradi. Biroq ilmning o‘zi insonni to‘laqonli ma’noda yetuk shaxs darajasiga ko‘tarmaydi. Chunki bilim axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmaganda u shaxs kamolotiga to‘liq xizmat qilmaydi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi insonparvarlik, adolat, ilmga chanqoqlik va ma’naviy komillik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ta’lim va tarbiya orqali insonda ezgu fazilatlarni shakllantirish zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ta’lim nazariy bilimlarni, tarbiya esa amaliy ko’nikma va axloqiy fazilatlarni birlashtiradi.

Mazkur fikr ta’lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda tarbiyaviy yo‘nalishning ustuvorligini asoslaydi. Talaba nafaqat kasbiy bilim va malakalarni egallashi, balki ularni jamiyat manfaatiga xizmat qildira oladigan, axloqiy me’yorlarga amal qiladigan, hayotga ijobiy munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida shakllanishi lozim. Aks holda, bilim axloqdan ajralgan holda insonni komillikka emas, balki faqat tashqi muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu fikr talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi. Chunki ijobiy dunyoqarash bilimga tayangan holda, lekin axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina shaxsning ma’naviy-ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va jamiyatga foydali bo‘lish intilishlarini ta’minlaydi. Sharq mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlarini o‘quv materiallariga singdirish talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

[5] Forobiy . Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993. – 56 b.
[6] Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan, 1980. – b.

Ikkinchi muhim pedagogik shart – tarbiyaviy muhitni insonparvarlik va milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida tashkil etishdir. Ta’lim muhitida talabaga hurmat, ishonch, hamkorlik, ochiq muloqot va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ustuvor bo‘lishi ijobiy dunyoqarash rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy shaxs kamolotida axloqiy muhitning o‘rnini alohida ta’kidlab: “Inson kamoli – yaxshi xulq, ezgu amal va komil tafakkur bilandir”[7] [4, 23-b.], – deya ta’lim-tarbiya jarayonining ma’naviy asoslarini belgilaydi. inson yetukligi faqat bilim, mansab yoki moddiy muvaffaqiyat bilan emas, balki uch muhim omil – axloq, amal va tafakkur birligi orqali ta’minlanishi ta’kidlanadi. “Yaxshi xulq” tushunchasi shaxsning ichki axloqiy qiyofasini, uning muomala madaniyati, halolligi, sabr-toqati, adolatliligi va boshqalarga nisbatan mehr-oqibatini anglatadi. Navoiy nazarida insonning haqiqiy qadri uning tashqi ko‘rinishi yoki ijtimoiy mavqei bilan emas, balki xulq-atvori bilan belgilanadi. Yaxshi xulq jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga, shaxsning atrofdagilar bilan totuv yashashiga xizmat qiladi. “Ezgu amal” deganda shaxsning nafaqat to‘g‘ri fikrlashi, balki o‘z bilim va qarashlarini amaliy faoliyatda jamiyat manfaatiga yo‘naltira olishi tushuniladi. Navoiy uchun komil inson faqat yaxshi niyat bilan cheklanib qolmaydi, balki ezgulikni real hayotda amalga oshiradigan, boshqalarga foyda keltiradigan faol shaxsdir. Demak, inson kamoloti faqat ichki fazilatlarda emas, balki ijtimoiy foydali xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. “Komil tafakkur” esa shaxsning ongli, mustaqil, tanqidiy va mas’uliyatli fikrlash qobiliyatini bildiradi. Navoiy tafakkurni insonni boshqalardan ajratib turuvchi eng muhim sifat sifatida ko‘radi. Komil tafakkurga ega shaxs voqelikni chuqur anglaydi, to‘g‘ri xulosa chiqaradi, o‘z harakatlarining oqibatini oldindan ko‘ra oladi va hayotga ongli munosabat bildiradi. Shunday qilib, Navoiy ta’kidlaganidek, inson kamoloti bir tomonlama emas, balki axloqiy (yaxshi xulq), amaliy (ezgu amal) va intellektual (komil tafakkur) jihatlarning uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. Bu fikr ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki unda axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Mazkur g‘oya talabalarda ijobiy dunyoqarashni rivojlantirishning muhim nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ijobiy dunyoqarash aynan yaxshi xulq, jamiyatga foydali amal va ongli tafakkur uyg‘unligida shakllanadi. Bu esa talabaning hayotga mas’uliyat bilan yondashishi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida yetuk bo‘lib kamol topishini ta’minlaydi. Bu g‘oya talabalarda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchi pedagogik shart – shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlashdir. Talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida ularning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Sharq pedagogik tafakkurida

[7] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001. – 23 b

ham shaxsga individual yondashuv muhim tamoyil sifatida qaraladi. Ibn Sino tarbiya jarayonida shaxsning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlab: “Tarbiyada shoshilinchlik emas, balki bolaning tabiati va imkoniyatiga mos yondashuv ustun bo‘lishi lozim”[8] [2, 67-b.], – deb yozadi. Bu yondashuv talabalarda o‘z qobiliyatiga ishonch, o‘zini anglash va hayotga ijobiy munosabatni rivojlantiradi. Tarbiyada tezkor natijaga erishishga intilish, ya’ni shoshilinchlik, majburlash yoki barcha tarbiyalanuvchilarga bir xil talab qo‘yish samarali emasligini ta’kidlaydi. Aksincha, har bir bolaning tabiiy qobiliyati, psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan tarbiya jarayoni chinakam natija beradi. Ibn Sino “bolaning tabiati” deganda shaxsning tug‘ma layoqati, temperament xususiyatlari, qiziqish doirasi va individual ehtiyojlarini nazarda tutadi. “Imkoniyati” esa uning aqliy rivojlanish darajasi, bilimni o‘zlashtirish tezligi, ijtimoiy muhit ta’siri va hayotiy tajribasi bilan belgilanadi. Demak, tarbiya jarayoni shaxsning ayni holatini, ichki imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan holda olib borilgandagina samarali bo‘ladi. Mazkur fikr shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilining qadimiy nazariy asosini tashkil etadi. Ibn Sino barcha bolalardan bir xil natija talab qilish, ularni bir qolipga solish inson tabiatiga zid ekanini anglatadi. Tarbiyada individual yondashuv bolada o‘ziga ishonch, ijobiy motivatsiya va shaxsiy mas’uliyatni shakllantiradi. Aksincha, shoshilinchlik va majburlash bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, unda qo‘rquv, ishonchsizlik va o‘qishga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin.Demak, mazkur fikr tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsni tezkor natijaga majburlash emas, balki uning ichki imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishdan iborat ekanini ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarga nisbatan individual yondashuvni qo‘llash, ularning qobiliyatiga mos vazifalar berish va shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

To‘rtinchi pedagogik shart – nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlashdir. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalarini faqat nazariy shaklda emas, balki hayotiy misollar, tarbiyaviy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar orqali talabalarga yetkazish ijobiy dunyoqarashning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta’limning hayot bilan bog‘liqligini kuchaytiradi va talabalarda o‘z bilimlarini jamiyat manfaatiga yo‘naltirishga intilish uyg‘otadi. Sharq mutafakkirlarining merosi asosida talabalarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy pedagogik sharoitlari – ta’lim mazmunini boyitish, insonparvar muhit yaratish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va nazariya-amaliyot uyg‘unligidan iborat bo‘lib, ular shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993. – 320 b.

[8] Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan, 1980. – 67 b.

2. Ibn Sino A.A. Donishnoma. – T.: Fan, 1980. – 256 b.
3. Ibn Sino A.A. Tib qonunlari: 5 jildda. – T.: Fan, 1996. – 1-jild. – 420 b.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001. – 240 b.
5. Navoiy A. Xamsa. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 780 b.
6. Navoiy A. Nazm ul-javohir. – T.: Fan, 2000. – 180 b.
7. G‘azzoliy A. Ihyo ulum ad-din. – T.: Movarounnahr, 2004. – 4 jild.
8. Naqshband B. Tasavvufiy hikmatlar. – T.: Sharq, 2003. – 150 b.

OTA-ONANING SMARTFON VA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH DARAJASINING O‘SMIRLAR BILAN EMOTSIONAL YAQINLIK VA ISHONCH MUNOSABATLARIGA TA’SIRI

Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi,
Urganch Davlat Pedagogika Instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
dilrabobaxtiyorovna@gmail.com, +998937519019
Yesmuratova Malaxat Madiyarovna
Urganch Davlat Pedagogika Instituti,
Boshlang`ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
+998 99 592 35 24

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining o‘smirlar bilan emotsional yaqinlik hamda o‘zaro ishonch munosabatlariga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda o‘smirlar va ularning ota-onalari ishtirok etib, so‘rovnoma va psixologik metodlar yordamida ma’lumotlar to‘plandi. Natijalar ota-onaning raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanishi oilaviy muloqot sifatining pasayishiga, emotsional masofaning ortishiga va ishonch darajasining kamayishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni me’yorlash zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: ota-ona, o‘smir, smartfon, ijtimoiy tarmoqlar, emotsional yaqinlik, ishonch, oilaviy munosabatlar, raqamli texnologiyalar

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние уровня использования родителями смартфонов и социальных сетей на эмоциональную близость и доверительные отношения с подростками. В исследовании приняли участие подростки и их родители; данные были собраны с использованием анкетирования и психологических методик. Результаты показали, что чрезмерное использование цифровых устройств родителями приводит к снижению качества семейного общения, увеличению эмоциональной дистанции и снижению уровня доверия. В заключении обосновывается необходимость рационального использования цифровых технологий в семейной среде.

Ключевые слова: родители, подростки, смартфон, социальные сети, эмоциональная близость, доверие, семейные отношения, цифровые технологии

Abstract: This article examines the impact of parents' use of smartphones and social media on emotional closeness and trust relationships with adolescents. The study involved adolescents and their parents, and data were collected using questionnaires and psychological assessment methods. The findings indicate that excessive use of digital devices by parents leads to a decrease in the quality of family communication, an increase in emotional distance, and a decline in trust levels. The study concludes that it is necessary to regulate the use of digital technologies within the family environment to maintain healthy relationships.

Keywords: parents, adolescents, smartphone, social media, emotional closeness, trust, family relationships, digital technologies.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga, xususan oilaviy munosabatlar tizimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki shaxslararo muloqotning asosiy platformasiga ham aylangan. Biroq ushbu texnologiyalarning keng qo‘llanilishi oilaviy muhitda yangi psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda.Zamonaviy oilalarda ota-onaning raqamli qurilmalardan foydalanish chastotasi ortib borishi ko‘pincha o‘smirlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotning qisqarishiga olib kelmoqda. Natijada oilaviy aloqalarda emotsional yaqinlikning pasayishi, o‘zaro tushunmovchiliklarning kuchayishi va ishonch munosabatlarining zaiflashuvi kuzatilmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda ota-ona bilan barqaror emotsional aloqa va ishonchli munosabatlarning mavjudligi bolaning psixologik farovonligi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mazkur muammoni tushuntirishda bir qator psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Sherry Turkle raqamli texnologiyalar insonlar o‘rtasidagi muloqotni soddalashtirishi bilan birga, chuqur emotsional aloqalarning zaiflashishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar ota-onaning xulq-atvorini kuzatish orqali o‘z xulqini shakllantiradi; shu bois ota-onaning doimiy ravishda smartfon bilan band bo‘lishi bola tomonidan normal xulq modeli sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga muvofiq, oila bolaning rivojlanishidagi eng yaqin va ta’sirchan ijtimoiy muhit bo‘lib, undagi har qanday o‘zgarish shaxs shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi oilaviy munosabatlar sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati raqamli texnologiyalarning umumiy ijtimoiy ta’siriga bag‘ishlangan

bo‘lib, aynan ota-onaning raqamli xulqi va o‘smirlar bilan emotsional yaqinlik hamda ishonch munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u oilaviy munosabatlar tizimida raqamli texnologiyalarning tutgan o‘rnini aniqlash, ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi psixologik aloqalarning o‘zgarish mexanizmlarini ochib berish hamda ushbu jarayonni ilmiy asosda baholashga qaratilgan.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining o‘smirlar bilan emotsional yaqinlik va ishonch munosabatlariga ta’sirini aniqlashdan iborat.

NAZARIY ASOS

Raqamli texnologiyalar sharoitida oilaviy munosabatlarning o‘zgarishini tushuntirishda bir qator psixologik yondashuvlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, zamonaviy oilada ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xulqi nafaqat kommunikatsiya shakllarini, balki emotsional aloqalarning sifatini ham qayta shakllantirmoqda.

Avvalo, raqamli texnologiyalarning insonlararo munosabatlarga ta’siri Sherry Turkle tomonidan chuqur tahlil qilingan. Uning fikricha, texnologiyalar muloqotni kengaytirgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha yuzaki aloqalarni kuchaytirib, real emotsional yaqinlikning pasayishiga olib keladi. “Birgalikda yolg‘izlik” (alone together) fenomeni aynan shuni ifodalaydi: insonlar jismonan bir joyda bo‘lsa-da, psixologik jihatdan bir-biridan uzoqlashadi. Ushbu yondashuv ota-onaning doimiy ravishda smartfon bilan band bo‘lishi o‘smir tomonidan emotsional e’tiborsizlik sifatida qabul qilinishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi mazkur muammoni tushuntirishda asosiy nazariy poydevor hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi. Agar ota-ona muloqot jarayonida tez-tez smartfonga chalg‘isa yoki ijtimoiy tarmoqlarga ustuvor ahamiyat bersa, bu xulq modeli o‘smir tomonidan normal va maqbul xatti-harakat sifatida qabul qilinadi. Natijada, o‘smirning o‘zi ham real muloqotdan ko‘ra virtual muhitni afzal ko‘ra boshlaydi, bu esa oilaviy emotsional yaqinlikning susayishiga olib keladi.

Oilaviy muhitning shaxs rivojlanishidagi rolini tushuntirishda Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, oila bolaning rivojlanishidagi eng yaqin mikro tizim bo‘lib, undagi o‘zgarishlar bevosita shaxs shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarning oilaviy muhitga kirib kelishi mikro tizim ichidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘zgartirib, kommunikatsiya sifati va emotsional almashinuv intensivligiga ta’sir qiladi.

Bundan tashqari, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tushuntirishda Erik

Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘smirlik davrida shaxs “identifikatsiya va rol chalkashligi” bosqichini boshdan kechiradi. Bu jarayonda ota-ona bilan ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarning mavjudligi o‘smirning sog‘lom identifikatsiya shakllanishi uchun zarur shart hisoblanadi. Aksincha, emotsional masofaning ortishi va ishonchning zaiflashuvi o‘smirda ichki ziddiyatlar, tashvish va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar sifatini baholashda ota-ona tarbiya uslublari ham muhim omil sifatida qaraladi. Bu borada Diana Baumrind tomonidan taklif etilgan tarbiya uslublari (avtoritar, demokratik, permissiv va beparvo) konsepsiyasi keng qo‘llaniladi. Xususan, demokratik (avtoritativ) uslub yuqori darajadagi emotsional yaqinlik va ishonch bilan tavsiflanadi, bu esa o‘smirning psixologik barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, beparvo yoki haddan tashqari nazorat qiluvchi uslublar emotsional uzilish va ishonchning pasayishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish ko‘pincha aynan beparvolik elementlarini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, yuqoridagi nazariy yondashuvlar ota-onaning raqamli xulqi oilaviy munosabatlar tizimida muhim psixologik omil ekanligini ko‘rsatadi. U emotsional yaqinlik, ishonch va kommunikatsiya sifatiga ta’sir ko‘rsatish orqali o‘smir shaxsining rivojlanish jarayoniga bilvosita, ammo sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Ota-onaning raqamli xulqi va oilaviy muloqot xususiyatlari. Zamonaviy oilalarda smartfon va ijtimoiy tarmoqlarning keng qo‘llanilishi ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot shakllarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. An’anaviy muloqot shakllaridan farqli ravishda, raqamli qurilmalar orqali chalg‘ish (distraction) holati yuzaga kelib, bu o‘z navbatida kommunikatsiyaning uzilishiga olib keladi.

Ko‘plab kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning muloqot jarayonida smartfonga tez-tez murojaat qilishi o‘smirlar tomonidan e’tiborsizlik yoki befarqlik sifatida qabul qilinadi. Bu holat oilaviy suhbatlarning qisqarishi, yuzaki muloqotning kuchayishi va chuqur emotsional almashinuvning kamayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Natijada oilaviy kommunikatsiya sifati pasayib, o‘smirlar o‘z muammolari va hissiyotlarini ota-onasi bilan emas, balki tengdoshlari yoki virtual muhit orqali ifodalashga moyil bo‘lib boradi.

Emotsional yaqinlikka ta’sir mexanizmlari. Emotsional yaqinlik oilaviy munosabatlarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, u o‘zaro tushunish, qo‘llab-quvvatlash va psixologik xavfsizlik hissi orqali namoyon bo‘ladi. Ota-onaning raqamli qurilmalarga haddan tashqari e’tibor qaratishi ushbu yaqinlikni bir necha mexanizmlar orqali zaiflashtiradi:

- Diqqatning bo‘linishi – ota-onaning diqqati bola bilan muloqotdan chalg‘iydi
- Emotsional javobning kamayishi – bolaning hissiy ehtiyojlariga yetarli javob berilmaydi
- Muloqotning yuzakilashuvi – suhbatlar qisqa va mazmunsiz tus oladi

Bu jarayonlar natijasida o‘smirda “men muhim emasman” degan ichki hissiyot shakllanishi mumkin, bu esa emotsional masofaning ortishiga olib keladi.

Ishonch munosabatlarining shakllanishi va buzilishi. Ishonch — oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlovchi asosiy psixologik omil hisoblanadi. O‘smirlik davrida bu omil ayniqsa muhim bo‘lib, u bolaning ochiq muloqotga kirishishi va o‘z muammolarini erkin ifoda etishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ota-onaning doimiy ravishda raqamli muhitga chalg‘ishi quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- o‘smirda e’tiborsizlik hissining shakllanishi
- ota-onaga nisbatan psixologik masofa paydo bo‘lishi
- shaxsiy muammolarni yashirish tendensiyasining kuchayishi

Natijada, ishonch munosabatlari zaiflashib, o‘smirlar muhim masalalarda ota-onaga murojaat qilishdan ko‘ra, tashqi manbalarga (do‘stlar, internet) murojaat qilishni afzal ko‘rishadi.

Empirik tahlil (model asosida). Tadqiqot doirasida ota-onaning smartfondan foydalanish darajasi va o‘smirlar bilan emotsional yaqinlik hamda ishonch o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Tahlil natijalari quyidagi tendensiyalarni ko‘rsatadi:

- Yuqori darajadagi raqamli foydalanish → past emotsional yaqinlik
- Yuqori darajadagi raqamli foydalanish → ishonch darajasining pasayishi
- Past darajadagi foydalanish → sifatli muloqot va yuqori yaqinlik

Ushbu natijalar ota-onaning raqamli xulqi oilaviy psixologik muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Natijalar tahlili. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanishi oilaviy munosabatlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir, ayniqsa, emotsional yaqinlik va ishonch kabi muhim psixologik komponentlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning o‘zi emas, balki ulardan foydalanish uslubi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, me’yoriy va nazorat ostidagi foydalanish oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari ota-onaning smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi oilaviy munosabatlar sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, ota-onaning raqamli qurilmalarga haddan tashqari e’tibor qaratishi o‘smirlar bilan emotsional

yaqinlikning pasayishi, muloqot sifatining yomonlashuvi va o‘zaro ishonch darajasining kamayishi bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ota-onaning raqamli xulqi nafaqat muloqot hajmini, balki uning mazmuniy va emotsional sifatini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Doimiy chalg‘ish va e’tiborning bo‘linishi o‘smirlar tomonidan e’tiborsizlik sifatida qabul qilinib, psixologik masofa va ichki yopilish tendensiyasini kuchaytiradi. Natijada, o‘smirlar o‘z muammolari va hissiy kechinmalarini ota-onasi bilan emas, balki tashqi ijtimoiy muhit orqali hal qilishga moyil bo‘lib boradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning o‘zi emas, balki ulardan foydalanish darajasi va uslubi hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Me’yoriy va ongli foydalanish sharoitida smartfon va ijtimoiy tarmoqlar oilaviy munosabatlarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy xulosalar chiqarildi:

- oilada “raqamli intizom”ni shakllantirish zarur
- ota-onaning bolalar bilan muloqot jarayonida to‘liq psixologik ishtiroki ta’minlanishi lozim
- sifatli va muntazam jonli muloqot oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi

Umuman olganda, ota-onaning raqamli xulqini muvozanatlashtirish o‘smirlar bilan sog‘lom emotsional aloqalarni saqlash va mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Diana Baumrind. *Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior*. Genetic Psychology Monographs, 1967.
2. Albert Bandura. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. Urie Bronfenbrenner. *The Ecology of Human Development*. Harvard University Press, 1979.
4. Erik Erikson. *Identity: Youth and Crisis*. New York: Norton, 1968.
5. Sherry Turkle. *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other*. Basic Books, 2011.
6. Jean Twenge. *iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy*. Atria Books, 2017.
7. Larry Rosen. *The Distracted Mind: Ancient Brains in a High-Tech World*. MIT Press, 2016.
8. World Health Organization. *Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep for children*. Geneva, 2019.

9. American Psychological Association. *Stress in America: Technology and social media report*. 2017.
10. UNICEF. *The State of the World's Children: Children in a Digital World*. New York, 2017.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK NIZOLARNI BARTARAF QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

H.R.Shernafasova
Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Husiyo9495@gmail.com, +009014306694
Pedagogika yo‘nalishi talabalari **D.D.Bekpo‘latova, D.O.Bozorboyeva**

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik zarurati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati va psixologik barqarorligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim subyekt sifatida qaralmoqda. Shu bois pedagogik nizolarni konstruktiv boshqarish, ziddiyatli vaziyatlarni erta aniqlash, ularni muloqot, hamkorlik, mediativ yondashuv va refleksiv tahlil asosida hal etish bo‘lajak pedagog kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Tezisda pedagogik nizolarning mohiyati, ularni yuzaga keltiruvchi omillar, bo‘lajak pedagoglarda konfliktologik bilim, emotsional barqarorlik, kommunikativ madaniyat va amaliy harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati ochib beriladi. Shuningdek, “Pedagogik mahorat” fani imkoniyatlari asosida mazkur kompetensiyalarni takomillashtirishning metodik yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, pedagogik nizo, konfliktologik kompetensiya, pedagogik mahorat, mediativ muloqot, stress-menejment, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, konstruktiv muloqot.

Abstract. This thesis analyzes the pedagogical necessity of improving future teachers’ competencies in resolving pedagogical conflicts. In modern education, a teacher is regarded not only as a transmitter of knowledge, but also as an important actor who supports learners’ personal development, socialization, communication culture, and psychological stability. Therefore, the ability to manage pedagogical conflicts constructively, identify problematic situations at an early stage, and resolve them through dialogue, cooperation, mediation, and reflective analysis has become an essential component of professional teacher training. The thesis discusses the essence of pedagogical conflicts, the factors that cause them, and the need to develop future teachers’ conflictological knowledge, emotional stability, communicative culture,

and practical conflict-resolution skills. It also highlights methodological directions for improving these competencies through the academic discipline “Pedagogical Mastery”.

Keywords: future teacher, pedagogical conflict, conflictological competence, pedagogical mastery, mediative communication, stress management, reflection, professional training, constructive dialogue.

Аннотация. В данном тезисе научно-теоретически анализируется педагогическая необходимость совершенствования компетенций будущих педагогов по разрешению педагогических конфликтов. В современном образовательном процессе педагог рассматривается не только как передатчик знаний, но и как важный субъект, обеспечивающий личностное развитие, социализацию, культуру общения и психологическую устойчивость обучающихся. В связи с этим конструктивное управление педагогическими конфликтами, своевременное выявление конфликтных ситуаций, их разрешение на основе диалога, сотрудничества, медиативного подхода и рефлексивного анализа становятся неотъемлемой частью профессиональной подготовки будущего педагога. В тезисе раскрываются сущность педагогических конфликтов, факторы их возникновения, необходимость формирования у будущих педагогов конфликтологических знаний, эмоциональной устойчивости, коммуникативной культуры и практических навыков разрешения конфликтов. Также освещаются методические направления совершенствования данных компетенций на основе учебной дисциплины «Педагогическое мастерство».

Ключевые слова: будущий педагог, педагогический конфликт, конфликтологическая компетенция, педагогическое мастерство, медиативное общение, стресс-менеджмент, рефлексия, профессиональная подготовка, конструктивный диалог.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi mutaxassis emas, balki ta’lim oluvchi shaxsining intellektual, ma’naviy, kommunikativ, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik subyekt sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’lim jarayonida inson omilining ustuvorligi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, demokratik muloqot, hamkorlikda o‘qitish, inklyuziv ta’lim, raqamli ta’lim muhiti va ijtimoiy-psixologik munosabatlarning murakkablashuvi pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab qiladi.

Ayniqsa, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik nizolarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish, ziddiyatni destruktiv holatdan konstruktiv muloqotga yo‘naltirish, o‘quvchi yoki talabaning shaxsiy qadr-qimmatini saqlagan holda muammoni hal etish bugungi pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki har qanday ta’lim

muhitida muloqot, baholash, tarbiyaviy ta’sir, intizom, shaxslararo munosabatlar, guruh ichidagi ijtimoiy rollar, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi kutishlar o‘zaro mos kelmagan vaziyatlarda turli darajadagi nizolar yuzaga kelishi mumkin.

Pedagogik nizo – bu ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasida maqsad, qadriyat, ehtiyoj, manfaat, xatti-harakat yoki baholash mezonlarining mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatli holatdir. Bunday nizolar o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-ona, o‘quvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va jamoa, shuningdek, ta’lim muassasasi boshqaruvi bilan pedagog o‘rtasida ham paydo bo‘lishi mumkin. Muhimi, pedagogik nizo har doim ham salbiy hodisa sifatida baholanmasligi kerak. To‘g‘ri boshqarilgan nizo shaxsiy o‘sish, munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish, muammoni ochiq muhokama qilish, adolatli yechim topish va ta’lim muhitini sog‘lomlashtirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirish bugungi pedagogik ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki oliy pedagogik ta’lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik olayotgan talaba kelgusida real ta’lim muhitida turli psixologik, kommunikativ, axloqiy va metodik vaziyatlarga duch keladi. Agar u nizo mohiyatini anglash, emotsional holatni boshqarish, tomonlarning pozitsiyasini tinglash, muammoni tahlil qilish, mediativ muloqot olib borish va konstruktiv qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lmasa, oddiy pedagogik vaziyat ham keskin ziddiyatga aylanishi mumkin.

Demak, pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini shakllantirish tasodifiy yoki ikkinchi darajali jarayon emas, balki bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim pedagogik zaruratdir. Bu zarurat, bir tomondan, zamonaviy ta’lim muhitining murakkablashuvi bilan, ikkinchi tomondan esa pedagogik faoliyatning insonparvarlik, kommunikativlik, refleksivlik va mas’uliyat tamoyillariga asoslanishi bilan belgilanadi.

Ta’lim jarayoni murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, unda turli yosh, xarakter, dunyoqarash, ehtiyoj, ijtimoiy tajriba va psixologik holatga ega shaxslar o‘zaro munosabatga kirishadi. Bu jarayonda har doim ham barcha ishtirokchilarning maqsadlari, kutishlari va qadriyatlari bir-biriga to‘liq mos kelavermaydi. Natijada pedagogik nizolar yuzaga keladi. Bunday nizolar ayrim hollarda ochiq ko‘rinishda namoyon bo‘lsa, ba’zan yashirin tarzda davom etadi. Yashirin nizo vaqtida aniqlanmasa, u ochiq qarama-qarshilik, psixologik zo‘riqish, o‘qishga qiziqishning pasayishi, o‘qituvchiga nisbatan ishonchsizlik yoki jamoada salbiy muhit shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogik nizolarning asosiy xususiyati shundaki, ular oddiy shaxslararo ziddiyatdan farqli ravishda tarbiyaviy, axloqiy va didaktik mazmunga ega bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchining baholashdagi adolatsizligi, talabaning darsga tayyorgarliksiz kelishi, guruhda yetakchilik uchun

kurash, o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan noto‘g‘ri muloqot uslubi, o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olmaslik yoki ota-onaning ta’lim muassasasi talablariga nisbatan noroziligi pedagogik nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchidan, kommunikativ omillar mavjud bo‘lib, ular noto‘g‘ri muloqot, tinglay olmaslik, qo‘pol ohang, buyruqbozlik, fikrni aniq ifoda eta olmaslik yoki suhbatdoshning nuqtayi nazarini inkor etish bilan bog‘liq. Ikkinchidan, psixologik omillar – emotsional beqarorlik, stress, o‘zini tuta olmaslik, agressiv reaksiya, shaxsiy tajriba va temperament farqlari bilan izohlanadi. Uchinchidan, tashkiliy-pedagogik omillar – o‘quv yuklamasining og‘irligi, baholash mezonlarining noaniqligi, dars jarayonining sust tashkil etilishi, metodik kamchiliklar yoki ta’lim muassasasidagi boshqaruvdagi muammolar bilan bog‘liq. To‘rtinchidan, qadriyatli-axloqiy omillar – adolat, hurmat, mas’uliyat, intizom, erkinlik va majburiyat haqidagi qarashlarning turlicha bo‘lishi natijasida yuzaga keladi.

Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik nizolarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular an’anaviy sinf yoki auditoriya doirasi bilan cheklanib qolmayapti. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta’lim platformalari, masofaviy muloqot vositalari pedagogik munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bu esa raqamli muhitdagi muloqot madaniyati, akademik halollik, virtual baholash, onlayn intizom, yozma muloqotdagi etik me’yorlar bilan bog‘liq yangi nizoli vaziyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli bo‘lajak pedagog zamonaviy konfliktologik kompetensiyaga ega bo‘lishi, ya’ni nizoni nafaqat an’anaviy, balki raqamli va ijtimoiy kommunikatsiya sharoitida ham konstruktiv boshqara olishi zarur.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, munosabat va amaliy tajribalar majmuini anglatadi. Pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasi esa bo‘lajak pedagogning ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish, emotsional jihatdan barqaror yondashish, tomonlar manfaatini hisobga olish, konstruktiv muloqot tashkil etish va maqbul yechim topish qobiliyatidir.

Mazkur kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini uch asosiy komponent asosida izohlash mumkin. Birinchi komponent – kognitiv komponent bo‘lib, u pedagogik nizo mohiyati, uning turlari, bosqichlari, sabablari, rivojlanish dinamikasi va bartaraf qilish usullari haqidagi nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak pedagog nizo qanday sharoitda yuzaga kelishini, uning yashirin va ochiq bosqichlarini, konflikt ishtirokchilarining pozitsiya va manfaatlarini, shuningdek, ziddiyatning salbiy hamda ijobiy imkoniyatlarini tushunishi kerak.

Ikkinchi komponent – affektiv-emotsional komponentdir. Bu komponent pedagogning o‘z emotsiyalarini boshqarishi, stressli vaziyatda vazminlikni saqlashi, empatiya ko‘rsatishi,

suhbatdoshning ruhiy holatini anglay olishi va hissiy keskinlikni kamaytirish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik nizoni hal qilishda faqat bilimning o‘zi yetarli emas. Agar pedagog o‘z g‘azabi, noroziligi, xavotiri yoki charchog‘ini nazorat qila olmasa, u eng to‘g‘ri nazariy bilimga ega bo‘lsa ham, vaziyatni keskinlashtirib yuborishi mumkin.

Uchinchi komponent – operatsional-texnologik komponent bo‘lib, u amaliy harakat, muloqot usullari, muzokara olib borish, mediativ yondashuv, savol berish texnikasi, faol tinglash, qayta ifodalash, muammoni birgalikda tahlil qilish, kelishuvga erishish va refleksiv baholash ko‘nikmalarini qamrab oladi. Aynan ushbu komponent pedagogik nizolarni bartaraf etish jarayonining amaliy samaradorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasi qadriyatli yondashuv bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki har qanday nizoli vaziyatda pedagog inson qadr-qimmatini hurmat qilish, adolat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, halollik va hamkorlik tamoyillariga tayanishi zarur. Agar pedagog nizoni faqat “kim haq, kim nohaq” tamoyili asosida baholasa, u vaziyatning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini boy beradi. Aksincha, nizo tomonlar manfaatini anglash, muammoni tahlil qilish va kelgusida bunday holatlarning oldini olish imkoniyati sifatida ko‘rilsa, u pedagogik rivojlanish vositasiga aylanadi.

Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasini takomillashtirish bir necha muhim pedagogik zaruratlar bilan belgilanadi. Avvalo, ta’lim jarayoni insonlar o‘rtasidagi bevosita muloqotga asoslanganligi sababli unda ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Har bir talaba yoki o‘quvchi o‘ziga xos xarakter, ehtiyoj, qiziqish, psixologik holat va oilaviy-ijtimoiy tajribaga ega. Shu bois pedagog har bir vaziyatga individual, adolatli va pedagogik maqsadga muvofiq yondashishi kerak.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik faoliyatda o‘qituvchining kommunikativ madaniyati kasbiy mahoratning muhim mezoniga aylangan. O‘qituvchi muloqot orqali ta’lim beradi, tarbiyalaydi, baholaydi, yo‘naltiradi, rag‘batlantiradi va muammoni hal qiladi. Demak, noto‘g‘ri muloqot uslubi pedagogik nizolarning asosiy manbalaridan biri bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglar ta’lim jarayonida yumshoq, aniq, hurmatga asoslangan, dalillangan va hamkorlikka yo‘naltirilgan nutq strategiyalarini egallashi lozim.

Uchinchidan, o‘qituvchi kasbi yuqori emotsional yuklama bilan bog‘liq. Auditoriyada turli darajadagi bilim, faollik, intizom, qiziqish va ijtimoiy tajribaga ega ta’lim oluvchilar bilan ishlash pedagogdan sabr, vazminlik, psixologik barqarorlik va stressga chidamlilikni talab qiladi. Emotsional beqaror pedagog esa ziddiyatli vaziyatda muammoni chuqurlashtirishi, ta’lim oluvchining shaxsiy qadr-qimmatiga zarar yetkazishi yoki o‘z kasbiy obro‘siga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda stress-menejment, emotsional o‘zini nazorat qilish va refleksiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

To‘rtinchidan, pedagogik nizolar ta’lim sifati va tarbiyaviy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar ta’lim muassasasida ziddiyatlar konstruktiv hal qilinmasa, o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan qiziqish pasayadi, o‘qituvchiga ishonch susayadi, jamoada psixologik bosim kuchayadi va ta’lim samaradorligi kamayadi. Aksincha, nizo madaniyatli, adolatli va pedagogik maqsadga muvofiq bartaraf etilsa, jamoada ishonch, ochiqlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat muhiti mustahkamlanadi.

Beshinchidan, bo‘lajak pedagoglarning konfliktologik tayyorgarligi ularning kelgusidagi kasbiy moslashuvini yengillashtiradi. Amaliyotga chiqqan yosh o‘qituvchilar ko‘pincha nazariy bilimga ega bo‘lsalar-da, real nizoli vaziyatlarda qanday harakat qilishni aniq bilmasliklari mumkin. Shuning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida ularni hayotiy pedagogik vaziyatlar, keyslar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, refleksiv topshiriqlar va mediativ muloqot mashqlari orqali tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirishda “Pedagogik mahorat” fani alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur fan pedagogik faoliyatning kommunikativ, axloqiy, psixologik va metodik jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. “Pedagogik mahorat” fani doirasida o‘qituvchi nutqi, pedagogik takt, muloqot madaniyati, o‘zini tutish, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchilar bilan samarali munosabat o‘rnatish kabi masalalar o‘rganiladi. Bu esa pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay didaktik imkoniyat yaratadi.

Mazkur fan orqali talabalarda avvalo pedagogik vaziyatni anglash va baholash madaniyatini shakllantirish mumkin. Masalan, talabalarga turli nizoli vaziyatlar tasvirlangan keyslar berilib, ulardan vaziyat ishtirokchilari, nizo sababi, pedagogning xatosi, muammoning rivojlanish bosqichi va yechim variantlarini aniqlash talab qilinadi. Bunday yondashuv talabalarni tayyor javob izlashga emas, balki vaziyatni tahlil qilishga, sabab-oqibat aloqalarini ko‘rishga va pedagogik jihatdan asoslangan qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Shuningdek, “Pedagogik mahorat” fanida rolli o‘yinlar va gibrid simulyatsiyalarni qo‘llash orqali bo‘lajak pedagoglar real ta’lim jarayoniga yaqinlashtirilgan sharoitda muloqot olib borish, nizoli vaziyatni yumshatish, o‘z emotsiyasini boshqarish, o‘quvchi yoki ota-ona bilan muloqot strategiyasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday mashg‘ulotlar talabaning faqat nazariy bilimini emas, balki amaliy kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Fan doirasida mediativ muloqot texnikalarini o‘rgatish ham muhimdir. Mediativ muloqot pedagogga tomonlarni tinglash, ularning pozitsiyasini ajratish, umumiy manfaatni topish, ayblashdan qochish, muammoni shaxsdan ajratish va kelishuvga erishish imkonini beradi. Bu yondashuv ayniqsa o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-ota-ona va o‘quvchi-o‘quvchi munosabatlarida samarali natija beradi.

Bundan tashqari, “Pedagogik mahorat” fani refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ham qulay imkoniyatga ega. Har bir nizoli vaziyat tahlilidan so‘ng talabalarga “Men pedagog sifatida qanday yo‘l tutgan bo‘lardim?”, “Qaysi xatti-harakat vaziyatni keskinlashtirishi mumkin?”, “Qanday muloqot usuli konstruktiv natija beradi?”, “Kelgusida bunday nizoning oldini olish uchun nima qilish kerak?” kabi savollar asosida refleksiv yozma topshiriqlar berilishi mumkin. Bu esa talabaning o‘z pedagogik pozitsiyasini anglashiga yordam beradi.

Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirish tizimli, bosqichma-bosqich va amaliyotga yo‘naltirilgan metodik yondashuvni talab qiladi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi yo‘nalish – diagnostik-motivatsion yo‘nalishdir. Bu bosqichda talabalarning pedagogik nizolar haqidagi dastlabki tasavvurlari, muloqot uslubi, emotsional barqarorligi, konfliktli vaziyatga munosabati va muammoni hal qilishdagi individual xususiyatlari aniqlanadi. Diagnostika natijalari asosida talabalarda mazkur kompetensiyani rivojlantirishga nisbatan ichki ehtiyoj va motivatsiya shakllantiriladi. Chunki talaba pedagogik nizoni kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida anglamasa, uni o‘rganishga yetarli darajada mas’uliyat bilan yondashmaydi.

Ikkinchi yo‘nalish – nazariy-konseptual yo‘nalishdir. Bu bosqichda talabalarga pedagogik nizo, uning turlari, sabablari, bosqichlari, oldini olish va bartaraf qilish mexanizmlari haqida ilmiy bilim beriladi. Shuningdek, konfliktologiya, pedagogik psixologiya, kommunikativ pedagogika, pedagogik etika va aksiologik yondashuvga oid nazariy tushunchalar o‘zlashtiriladi. Nazariy bilim talabaning nizoli vaziyatni tasodifiy emas, balki ilmiy asosda tahlil qilishiga yordam beradi.

Uchinchi yo‘nalish – simulyatsion-trening yo‘nalishidir. Bu bosqichda talabalarning amaliy ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Keys-stadi, rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, mediativ suhbat mashqlari, stressli vaziyatda nutqni boshqarish, faol tinglash va muzokara olib borish bo‘yicha treninglar tashkil etiladi. Aynan shu bosqich bo‘lajak pedagogni real kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – refleksiv-korreksion yo‘nalishdir. Bu bosqichda talabalar o‘z harakatlarini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi, muqobil yechimlarni izlaydi va o‘z kasbiy pozitsiyasini takomillashtiradi. Refleksiya pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki refleksiv pedagog o‘z xatti-harakatining oqibatlarini baholay oladi, o‘zini tanqidiy tahlil qiladi va kelgusida yanada samarali strategiyani tanlaydi.

Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirish nafaqat ta’lim jarayonining ichki ehtiyoji, balki keng ijtimoiy zarurat hamdir.

Bugungi jamiyatda yoshlarning dunyoqarashi, axborot bilan ishlash uslubi, muloqot madaniyati, huquqiy ongi va shaxsiy erkinlik haqidagi tasavvurlari o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda pedagog avtoritar buyruq beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, hamkorlikni tashkil etuvchi va ijobiy psixologik muhit yaratuvchi shaxs bo‘lishi kerak.

Pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasi pedagogning kasbiy obro‘si bilan ham bevosita bog‘liq. O‘qituvchi ziddiyatli vaziyatda qanchalik vazmin, adolatli, madaniyatli va ilmiy asoslangan tarzda harakat qilsa, uning ta’lim oluvchilar oldidagi hurmati shunchalik ortadi. Aksincha, keskin, qo‘pol, shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qarorlar pedagogik munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur kompetensiya ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit yaratishga ham xizmat qiladi. Sog‘lom muhit mavjud joyda o‘quvchilar erkin fikr bildiradi, savol beradi, xato qilishdan qo‘rqmaydi, o‘zini jamoaning faol a’zosi sifatida his qiladi. Bunday muhitda nizo yashirilmaydi, balki madaniyatli muhokama qilinadi va tarbiyaviy yechim topiladi. Shu ma’noda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyasi ta’lim sifatini oshirish, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va shaxs rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni bartaraf qilish kompetensiyalarini takomillashtirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Ta’lim jarayonining insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, hamkorlik, kommunikativlik va refleksivlik tamoyillari asosida rivojlanishi pedagogdan nafaqat fan bo‘yicha bilim, balki murakkab pedagogik vaziyatlarni konstruktiv boshqarish qobiliyatini ham talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
4. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003.
6. Андреев В.И. Конфликтология: искусство спора, ведения переговоров и разрешения конфликтов. – Казань, 1992.

7. Гришина Н.В. Психология конфликта. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
8. Thomas K.W., Kilmann R.H. Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument. – New York: Xicom, 1974.
9. Deutsch M. The Resolution of Conflict: Constructive and Destructive Processes. – New Haven: Yale University Press, 1973.

“PEDAGOGIK MAHORAT” FANIDA PEDAGOGIK NIZOLARNI HAL QILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

H.R.Shernafasova
Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Husiyo9495@gmail.com, +999014306694

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Pedagogik mahorat” fani doirasida bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Unda pedagogik nizolarni konstruktiv hal etish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim kompetensiyaviy yo‘nalish sifatida asoslanadi. Tezisda “Pedagogik mahorat” fanining mazmuniy imkoniyatlari, pedagogik takt, muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik, refleksiv tahlil, mediativ muloqot va stress-menejment texnikalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishning diagnostik-motivatsion, nazariy-konseptual, amaliy-trening va refleksiv-korreksion bosqichlari tahlil qilingan. Mazkur jarayon bo‘lajak pedagoglarning konfliktologik bilimlari, kommunikativ ko‘nikmalari, kasbiy mas’uliyati va nizoli vaziyatlarda maqbul pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik mahorat, pedagogik nizo, bo‘lajak pedagog, konfliktologik kompetensiya, mediativ muloqot, stress-menejment, refleksiya, pedagogik takt, kommunikativ madaniyat, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract. This thesis analyzes the process of developing future teachers’ competencies in resolving pedagogical conflicts within the academic discipline “Pedagogical Mastery”. The ability to resolve pedagogical conflicts constructively is substantiated as an important competency-based direction in the professional training of future teachers. The thesis highlights the educational potential of the discipline “Pedagogical Mastery”, including pedagogical tact, communication culture, emotional stability, reflective analysis, mediative communication, and stress-management techniques. It also examines the diagnostic-motivational, theoretical-conceptual, practical-training, and reflective-correctional stages of developing conflict-resolution competencies. The study emphasizes that this process contributes to the development of future

teachers' conflictological knowledge, communicative skills, professional responsibility, and ability to make appropriate pedagogical decisions in conflict situations.

Keywords: pedagogical mastery, pedagogical conflict, future teacher, conflictological competence, mediative communication, stress management, reflection, pedagogical tact, communicative culture, professional training.

Аннотация. В данном тезисе научно-педагогически анализируется процесс развития компетенций будущих педагогов по разрешению педагогических конфликтов в рамках учебной дисциплины «Педагогическое мастерство». Конструктивное разрешение педагогических конфликтов обосновывается как важное компетентностное направление профессиональной подготовки будущего учителя. В тезисе раскрываются содержательные возможности дисциплины «Педагогическое мастерство», вопросы интеграции педагогического такта, культуры общения, эмоциональной устойчивости, рефлексивного анализа, медиативного общения и техник стресс-менеджмента в образовательный процесс. Также рассмотрены диагностико-мотивационный, теоретико-концептуальный, практико-тренинговый и рефлексивно-коррекционный этапы развития компетенций по разрешению педагогических конфликтов. Обосновано, что данный процесс способствует развитию конфликтологических знаний, коммуникативных навыков, профессиональной ответственности и способности будущих педагогов принимать оптимальные педагогические решения в конфликтных ситуациях.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, педагогический конфликт, будущий педагог, конфликтологическая компетенция, медиативное общение, стресс-менеджмент, рефлексия, педагогический такт, коммуникативная культура, профессиональная подготовка.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan kasbiy talablar tobora murakkablashib bormoqda. Bugungi pedagog nafaqat o'z fanini chuqur biladigan mutaxassis, balki ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnata oladigan, ularning individual xususiyatlarini hisobga oladigan, psixologik jihatdan barqaror, ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan va nizoli holatlarda konstruktiv yechim topa oladigan kasbiy shaxs bo'lishi zarur. Shu jihatdan bo'lajak pedagoglarni oliy ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni real pedagogik faoliyatda uchraydigan murakkab vaziyatlarga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.Ta'lim jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra muloqot, hamkorlik, tarbiya, nazorat, baholash va boshqaruv faoliyatining uzviy birligidan iborat. Bu jarayonda turli xarakter, dunyoqarash, qiziqish, ehtiyoj va ijtimoiy tajribaga ega shaxslar ishtirok etadi. Shuning uchun pedagogik faoliyatda ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Muhimi, bunday nizolarni inkor etish yoki bostirish emas, balki ularni pedagogik

maqsadga muvofiq tarzda boshqarish, tomonlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni shakllantirish va nizo oqibatlarini tarbiyaviy natijaga yo‘naltirishdir.

Pedagogik nizo ta’lim-tarbiya jarayonida subyektlar o‘rtasidagi qarashlar, talablar, manfaatlar, ehtiyojlar yoki qadriyatlarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik holatdir. Bunday nizolar o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va talaba, pedagog va ota-ona, o‘quvchilar o‘rtasida yoki pedagogik jamoa ichida namoyon bo‘lishi mumkin. Pedagogik nizolar o‘z vaqtida va to‘g‘ri hal qilinmasa, ta’lim muhitida salbiy psixologik holat, ishonchsizlik, befarqlik, agressiv munosabat, o‘qishga qiziqishning pasayishi va tarbiyaviy ta’sir samaradorligining kamayishiga olib keladi.Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda “Pedagogik mahorat” fani alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur fan o‘qituvchining kasbiy madaniyati, pedagogik takt, muloqot uslubi, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahorati, o‘zini tutish madaniyati, pedagogik vaziyatni tahlil qilish va o‘quvchilar bilan samarali munosabat o‘rnatish kabi masalalarni qamrab oladi.“Pedagogik mahorat” fani orqali pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash, talabalarda konfliktologik tafakkurni shakllantirish, ularni pedagogik vaziyatni tahlil qilishga o‘rgatish, stressli holatlarda emotsional barqarorlikni saqlash, muloqot madaniyatini rivojlantirish va refleksiv yondashuvni qaror toptirish imkonini beradi. Shunday ekan, mazkur fan doirasida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni maqsadli, tizimli, bosqichma-bosqich va amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.“Pedagogik mahorat” fani bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur fan o‘qituvchi shaxsining kasbiy fazilatlari, pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik takt, pedagogik muloqot, tarbiyaviy ta’sir, auditoriyani boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish kabi muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Aynan shu jihatlar pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari bilan bevosita bog‘liqdir.Pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasi bo‘lajak pedagogning konfliktli vaziyatni aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish, tomonlar manfaatini tushunish, emotsional vazminlikni saqlash, konstruktiv muloqot olib borish, adolatli va pedagogik jihatdan asoslangan yechim topish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya faqat nazariy tushunchalar majmui emas, balki real pedagogik faoliyatda qo‘llanadigan amaliy kasbiy ko‘nikmalar tizimidir.“Pedagogik mahorat” fani mazmunida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir qator didaktik imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, fan talabalarga pedagogik muloqotning mohiyatini anglatadi. Muloqot pedagogik faoliyatning markaziy vositasi bo‘lib, u orqali

o‘qituvchi bilim beradi, tarbiyalaydi, baholaydi, rag‘batlantiradi va boshqaradi. Noto‘g‘ri tanlangan muloqot uslubi esa ko‘plab nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, mazkur fan pedagogik taktni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik takt – bu o‘qituvchining ta’lim oluvchi shaxsiyatiga hurmat bilan yondashishi, vaziyatga mos muomala shaklini tanlashi, tanbeh, maslahat, baholash va talabni insoniylik mezonlari asosida ifoda eta olish qobiliyatidir. Pedagogik takt yetarli darajada rivojlanmagan hollarda o‘qituvchining hatto to‘g‘ri talabi ham ta’lim oluvchi tomonidan bosim, adolatsizlik yoki kamsitish sifatida qabul qilinishi mumkin.Uchinchidan, “Pedagogik mahorat” fani bo‘lajak pedagoglarda refleksiv madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi. Refleksiya pedagogning o‘z xatti-harakatini tahlil qilishi, qabul qilgan qarorining oqibatlarini baholashi, o‘z xatolarini anglab, kelgusida ularni tuzatishga intilishidir. Nizoli vaziyatlarni hal qilishda refleksiya muhim ahamiyatga ega, chunki pedagog o‘z pozitsiyasini mutlaq to‘g‘ri deb bilmasdan, vaziyatni turli tomonlama tahlil qilishi zarur.To‘rtinchidan, fan doirasida pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadi, rolli o‘yinlar, munozaralar, treninglar va simulyatsion mashg‘ulotlar orqali talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash imkoniyati mavjud. Bu esa pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini nazariy darajadan amaliy ko‘nikma darajasiga ko‘taradi.

“Pedagogik mahorat” fani doirasida rivojlantiriladigan pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasi bir necha o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat. Ularning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak pedagogning konfliktli vaziyatlarda samarali harakat qilishini ta’minlaydi.

Birinchi komponent – kognitiv komponentdir. Bu komponent pedagogik nizo tushunchasi, uning turlari, bosqichlari, sabablari, rivojlanish mexanizmlari, oldini olish va hal qilish usullari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Bo‘lajak pedagog nizo har doim ham salbiy hodisa emasligini, aksincha, to‘g‘ri boshqarilganda shaxsiy o‘sish, munosabatlarni yaxshilash va tarbiyaviy natijaga erishish imkonini berishini anglab yetishi zarur. Kognitiv komponent talabaning konfliktologik savodxonligini ta’minlaydi.

Ikkinchi komponent – kommunikativ komponentdir. Pedagogik nizolar ko‘pincha muloqotdagi xatoliklar, noto‘g‘ri ohang, tinglay olmaslik, keskin munosabat, baholashdagi qo‘pollik yoki fikrni aniq ifoda eta olmaslik natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun bo‘lajak pedagog faol tinglash, savol berish, qayta ifodalash, suhbatdosh pozitsiyasini tushunish, o‘z fikrini dalillash, yumshoq va aniq talab qo‘yish, tanqidni konstruktiv shaklda bildirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Uchinchi komponent – affektiv-emotsional komponentdir. Pedagogik nizolar ko‘pincha kuchli emotsional holatlar bilan kechadi. G‘azab, ranjish, xavotir, himoyalanish, norozilik, charchoq yoki asabiylik vaziyatni yanada murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak pedagog stressli vaziyatda o‘zini boshqara olishi, emotsional portlashlarning oldini olishi,

suhbatdoshning hissiy holatini tushunishi va vaziyatni tinchlantirishga xizmat qiluvchi muloqot usullarini qo‘llay olishi kerak.

To‘rtinchi komponent – operatsional-amaliy komponentdir. Bu komponent nizoli vaziyatni amalda hal qilish texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, muammoni aniqlash, tomonlarning pozitsiyasi va manfaatlarini ajratish, nizo sabablarini tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, kelishuvga erishish, mediativ suhbatni tashkil etish va natijani baholash mazkur komponentning asosiy elementlari hisoblanadi.

Beshinchi komponent – refleksiv-baholovchi komponentdir. Bu komponent pedagogning o‘z faoliyatini baholashi, konfliktli vaziyatdagi o‘z xatti-harakatini tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashi va kelgusida yanada samarali yondashuvni tanlash qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiv yondashuv pedagogik nizolarni hal qilish jarayonini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

“Pedagogik mahorat” fanida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonning har bir bosqichi o‘ziga xos maqsad, mazmun, metod va natijalarga ega bo‘lishi kerak.

Diagnostik-motivatsion bosqich. Mazkur bosqichda talabalarning pedagogik nizolar haqidagi dastlabki tasavvurlari, konfliktli vaziyatga munosabati, muloqot uslubi, emotsional barqarorlik darajasi va pedagogik qaror qabul qilishga tayyorgarligi aniqlanadi. Diagnostika suhbat, anketa, test, kuzatish, vaziyatli topshiriqlar va o‘z-o‘zini baholash varaqalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu bosqichning asosiy vazifasi talabalarda pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishga nisbatan ichki ehtiyojni shakllantirishdir. Talaba nizo bilan ishlash o‘qituvchi kasbining ajralmas qismi ekanligini anglab yetishi zarur. Chunki motivatsiya shakllanmagan holda berilgan nazariy bilimlar yuzaki o‘zlashtiriladi va amaliy faoliyatda yetarli natija bermaydi. Diagnostik-motivatsion bosqichda talabalarga real pedagogik vaziyatlar, o‘qituvchi faoliyatida uchraydigan murakkab holatlar va noto‘g‘ri hal qilingan nizolarning oqibatlari tahlil qildiriladi. Bu orqali ular pedagogik konfliktologiya bilimlariga ehtiyoj sezadilar.

Nazariy-konseptual bosqich. Ushbu bosqichda talabalar pedagogik nizo, konfliktologik kompetensiya, pedagogik takt, muloqot madaniyati, mediativ yondashuv, stress-menejment, refleksiya va konstruktiv muloqot haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni egallaydilar. Nazariy-konseptual bosqich talabalarga nizoli vaziyatlarni tasodifiy holat sifatida emas, balki ma’lum sabablar, bosqichlar va rivojlanish dinamikasiga ega pedagogik jarayon sifatida anglash imkonini beradi.

Bu bosqichda pedagogik nizolarning yashirin, ochiq, keskinlashuv, hal qilish va postkonflikt bosqichlari tushuntiriladi. Shuningdek, pedagogik nizolarning shaxslararo, guruhlararo, rolga

oid, qadriyatli, kommunikativ va tashkiliy turlari yoritiladi. Talabalar nizo sabablarini aniqlash, uning rivojlanish xavfini baholash va oldini olish bo‘yicha nazariy asoslarni o‘zlashtiradilar.

Nazariy bilimlar ma’ruza, seminar, muammoli savollar, ilmiy adabiyotlar tahlili, konseptual xaritalar, taqdimotlar va guruhli muhokamalar orqali berilishi mumkin. Bunda talabalarni faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol tahlilchi sifatida jalb qilish muhimdir.

Amaliy-trening bosqichi. Pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy-trening bosqichi eng muhim bosqichlardan biridir. Chunki konfliktli vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish faqat nazariy bilim bilan emas, balki muntazam mashq, tajriba va vaziyatli tayyorgarlik orqali shakllanadi. Bu bosqichda keys-stadi, rolli o‘yinlar, gibrid simulyatsiyalar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, mediativ muloqot mashqlari, stressli vaziyatda nutqni boshqarish, faol tinglash va muzokara olib borish bo‘yicha treninglar qo‘llaniladi. Masalan, “o‘qituvchi va intizomsiz o‘quvchi”, “bahodan norozi talaba”, “ota-onaning pedagogga e’tirozi”, “guruh ichidagi qarama-qarshilik”, “o‘qituvchi nutqidagi qo‘pollik sababli yuzaga kelgan nizo” kabi vaziyatlar tahlil qilinishi mumkin.

Rolli o‘yinlarda talabalar turli pozitsiyalarni bajaradilar: o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, guruh sardori, kuzatuvchi, mediator. Bu ularga vaziyatni bir tomonlama emas, balki turli subyektlar nuqtayi nazaridan anglash imkonini beradi. Ayniqsa, mediator rolini bajarish talabada betaraflik, tinglash, muammoni aniqlash va tomonlarni kelishuvga yo‘naltirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy-trening bosqichida “Men-xabar” texnikasi, faol tinglash, qayta ifodalash, ochiq savol berish, konfliktni yumshatish, hissiy keskinlikni pasaytirish, dalillangan talab qo‘yish, muammoni shaxsdan ajratish kabi texnikalar o‘rgatiladi. Bu texnikalar talabalarning kommunikativ va operatsional-amaliy kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Refleksiv-korreksion bosqich. Refleksiv-korreksion bosqichda talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, nizoli vaziyatdagi xatti-harakatlarini baholaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlaydi va muqobil pedagogik yechimlarni ishlab chiqadi. Ushbu bosqich pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasining chuqur shakllanishini ta’minlaydi.

Refleksiya jarayonida talabalarga quyidagi savollar asosida tahlil topshiriqlari berilishi mumkin: “Mazkur vaziyatda nizo sababi nimada?”, “Pedagog qanday xatoga yo‘l qo‘ydi?”, “Qaysi muloqot usuli vaziyatni yumshatishi mumkin edi?”, “Men pedagog sifatida qanday yo‘l tutgan bo‘lardim?”, “Bu vaziyatning oldini olish uchun qanday profilaktik choralar zarur edi?” kabi savollar talabani chuqur fikrlashga undaydi.

Refleksiv-korreksion bosqichda esse, refleksiv kundalik, o‘z-o‘zini baholash varaqasi, guruhli muhokama, teskari aloqa va ekspert baholash usullaridan foydalanish mumkin. Bu

jarayonda o‘qituvchi talabaning xatosini tanqid qilishdan ko‘ra, uni kasbiy o‘sish imkoniyati sifatida ko‘rsatishi zarur.

“Pedagogik mahorat” fanida qo‘llaniladigan samarali metodlar.

Pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv va amaliy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. An’anaviy ma’ruza talabalarga nazariy tushuncha berishi mumkin, biroq konfliktli vaziyatda amaliy harakat qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli “Pedagogik mahorat” fanida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Keys-stadi metodi talabalarga real yoki realga yaqin pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Talaba vaziyatdagi muammo, nizo sababi, ishtirokchilar pozitsiyasi, pedagogik xato, ehtimoliy oqibat va yechim variantlarini aniqlaydi. Bu metod analitik fikrlashni, pedagogik qaror qabul qilishni va muammoni tizimli baholashni rivojlantiradi.

Rolli o‘yinlar talabalarni nizoli vaziyatga faol jalb qiladi. Ular o‘zlarini o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona yoki mediator rolida sinab ko‘radilar. Bu metod empatiya, kommunikativ moslashuvchanlik, nutq madaniyati va emotsional barqarorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Gibrid simulyatsiya an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari va raqamli vositalarni birlashtirgan holda tashkil etiladi. Masalan, videokeyslar, onlayn muloqot ssenariylari, virtual suhbat vaziyatlari, yozma elektron murojaatga javob tayyorlash kabi topshiriqlar orqali talabalarda zamonaviy ta’lim muhitida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Mediativ muloqot mashqlari tomonlarni tinglash, ularning manfaatini aniqlash, ayblovlardan qochish, muammoni shaxsdan ajratish va kelishuvga yo‘naltirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mediativ yondashuv pedagogik nizolarda keskinlikni kamaytirish va tomonlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni tiklashga xizmat qiladi.

Stress-menejment texnikalari bo‘lajak pedagoglarda emotsional barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Nafasni boshqarish, pauza qilish, hissiy holatni tan olish, vaziyatga baho berishdan oldin tinglash, salbiy emotsiyani konstruktiv nutqqa aylantirish kabi mashqlar pedagogik nizolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Refleksiv tahlil metodi talabaning o‘z kasbiy pozitsiyasini anglashiga yordam beradi. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng talaba o‘z xatti-harakatini baholashi, nimani to‘g‘ri bajargani va nimani takomillashtirishi kerakligini aniqlashi lozim.

Kompetensiyani rivojlantirishda professor-o‘qituvchining roli.

“Pedagogik mahorat” fanida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida professor-o‘qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu kompetensiyani shakllantirish faqat mavzuni tushuntirish bilan cheklanmaydi. Professor-

o‘qituvchi talabalarga kasbiy namuna ko‘rsatishi, konstruktiv muloqot madaniyatini amalda namoyon qilishi va dars jarayonining o‘zida sog‘lom psixologik muhit yaratishi zarur.

Avvalo, professor-o‘qituvchi konfliktologik savodxonlikka ega bo‘lishi kerak. U pedagogik nizolarning mohiyati, sabablari, bosqichlari, oldini olish va hal qilish usullarini chuqur bilishi, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lay olishi zarur.

Ikkinchidan, u mediativ muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Chunki talabalar o‘qituvchining real muloqot uslubidan o‘rnak oladilar.

Uchinchidan, professor-o‘qituvchi keyslar va simulyatsiyalar bilan ishlash metodikasini bilishi kerak. Keysni to‘g‘ri tanlash, vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qildirish, talabalarni faol muhokamaga jalb qilish, xulosani ilmiy asoslash va teskari aloqa berish muhim metodik talablar hisoblanadi.

To‘rtinchidan, professor-o‘qituvchi refleksiv tahlilni tashkil eta olishi kerak. Talabalarning javoblarini faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholash yetarli emas. Ularni fikrlashga, muqobil yechim topishga, o‘z pozitsiyasini asoslashga va kasbiy o‘sishga yo‘naltirish zarur.

Beshinchidan, professor-o‘qituvchining o‘zi emotsional barqaror, adolatli, madaniyatli va pedagogik taktga ega bo‘lishi lozim. Chunki pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyasi, avvalo, o‘qituvchining shaxsiy namunasi orqali samarali shakllanadi.

Rivojlantirish jarayonining kutiladigan natijalari.

“Pedagogik mahorat” fanida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish natijasida bo‘lajak pedagoglarda bir qator muhim kasbiy sifatlar shakllanadi. Avvalo, ular pedagogik nizolarning mohiyatini tushunadi, ularni yuzaga keltiruvchi omillarni tahlil qila oladi va konfliktli vaziyatni erta aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.Ikkinchidan, talabalarda kommunikativ madaniyat rivojlanadi. Ular suhbatdoshni tinglash, fikrini hurmat qilish, dalillangan muloqot olib borish, keskin vaziyatda nutqni boshqarish va konstruktiv fikr bildirish ko‘nikmalarini egallaydilar.Uchinchidan, bo‘lajak pedagoglarda emotsional barqarorlik kuchayadi. Ular stressli pedagogik vaziyatlarda o‘zini nazorat qilish, hissiy keskinlikni pasaytirish va vaziyatga vazmin yondashish malakasini rivojlantiradilar.To‘rtinchidan, talabalarda mediativ yondashuv shakllanadi. Ular nizoni kuch ishlatish, buyruqbozlik yoki bir tomonlama qaror orqali emas, balki muloqot, kelishuv, hamkorlik va adolatli yechim asosida hal qilishga o‘rganadilar.Beshinchidan, bo‘lajak pedagoglarda refleksiv fikrlash rivojlanadi. Ular o‘z faoliyatini baholash, xatolarini anglash, o‘z ustida ishlash va kasbiy rivojlanishga intilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, “Pedagogik mahorat” fanida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni zamonaviy pedagogik ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi faoliyati doimo shaxslararo munosabatlar, muloqot, tarbiyaviy ta’sir, baholash va boshqaruv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlarda turli ziddiyatli holatlar yuzaga kelishi mumkin.“Pedagogik mahorat” fani mazkur jarayonni tashkil etish uchun keng imkoniyatlarga ega. Fan doirasida keys-stadi, rolli o‘yin, gibrid simulyatsiya, mediativ muloqot, stress-menejment va refleksiv tahlil kabi metodlardan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantiradi. Ayniqsa, diagnostik-motivatsion, nazariy-konseptual, amaliy-trening va refleksiv-korreksion bosqichlarning izchil tashkil etilishi kompetensiyaning samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003.
5. Гришина Н.В. Психология конфликта. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
6. Андреев В.И. Конфликтология: искусство спора, ведения переговоров и разрешения конфликтов. – Казань, 1992.
7. Thomas K.W., Kilmann R.H. Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument. – New York: Xicom, 1974.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Koziyeva Fazilat Sa’dullayevna
Urganch tuman
2-sonli umumta’lim maktabning
boshlng’ich ta’lim o’qituvchisi
fazilatkozieva@gmail.com. **+998994210382**

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarb muammolari tizimli ravishda ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik kompetensiyaning mohiyati aniqlashtirilib, uning kognitiv, operatsional, refleksiv va loyihalash komponentlaridan iborat tarkibiy modeli asoslab berilgan. Shuningdek, mavjud pedagogik ta’lim amaliyotida metodik tayyorgarlik samaradorligini pasaytiruvchi asosiy ziddiyatlar, xususan, nazariy bilimlar

bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi nomutanosiblik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi metodik yetishmovchiliklar hamda kompetensiyani baholash tizimining nomukammalligi aniqlangan va tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: metodik kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, didaktik muammolar.

Аннотация. В данной статье системно проведён научно-теоретический анализ актуальных проблем развития методической компетентности будущих учителей начального образования. В рамках компетентностного подхода уточнена сущность методической компетентности, а также обоснована её структурная модель, включающая когнитивный, операциональный, рефлексивный и проектировочный компоненты. В статье выявлены и проанализированы основные противоречия, снижающие эффективность методической подготовки в современной педагогической практике, в частности: несоответствие между теоретическими знаниями и их практическим применением, методические трудности в использовании современных педагогических технологий, а также несовершенство системы оценки компетенций. Результаты исследования позволяют разработать научно обоснованные теоретические и практические рекомендации, направленные на совершенствование процесса развития методической компетентности будущих учителей в системе начального образования.

Ключевые слова: методическая компетентность, начальное образование, компетентностный подход, педагогическая деятельность, профессиональная подготовка, дидактические проблемы.

Abstract. This article provides a systematic scientific and theoretical analysis of current problems in the development of methodological competence among future primary school teachers. Within the framework of the competency-based approach, the essence of methodological competence is clarified, and its structural model is substantiated, consisting of cognitive, operational, reflective, and design components. The study identifies and analyzes the main contradictions that reduce the effectiveness of methodological training in contemporary pedagogical practice, in particular: the mismatch between theoretical knowledge and its practical application, methodological difficulties in using modern pedagogical technologies, and the imperfection of competence assessment systems. The results of the research make it possible to develop scientifically grounded theoretical and practical recommendations aimed at improving the process of developing methodological competence of future teachers in primary education.

Key words: methodological competence, primary education, competency-based approach, pedagogical activity, professional training, didactic problems.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi butun ta’lim tizimining poydevori sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pedagogika yo‘nalishidagi talabalar yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishiga qaramay, real dars jarayonini tashkil etishda, metodlarni tanlashda va o‘quvchilar faoliyatini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa metodik kompetensiya yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Metodik kompetensiya - bu o‘qituvchining o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘qitish metodlarini tanlash va qo‘llash, didaktik vaziyatlarni tahlil qilish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida metodik kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topishi aniqlanadi:

Kognitiv komponent - metodik kompetensiyaning nazariy-intellektual asosi Kognitiv komponent bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishiga xizmat qiluvchi tizimli, strukturallashgan va funksional bilimlar majmuasini ifodalaydi. Bu komponent faqat bilimga egalikni emas, balki bilimni tushunish, integratsiyalash va pedagogik vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlikni ham o‘z ichiga oladi.

Operatsional komponent - metodik kompetensiyaning faoliyatga yo‘naltirilgan yadrosi Operatsional komponent bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, o‘qitish metodlari va texnologiyalarini vaziyatga mos ravishda tanlash,

moslashtirish va amaliyotda qo‘llashga doir ko‘nikma va malakalar tizimini ifodalaydi. Bu komponent bilimni “bilaman” bosqichidan “qila olaman” bosqichiga olib chiqadi.

Refleksiv komponent - metodik kompetensiyaning o‘zini rivojlantiruvchi mexanizmi

Refleksiv komponent bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z pedagogik faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish, baholash, kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish asosida kasbiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi metakognitiv qobiliyatlar tizimini ifodalaydi.

Bu komponent o‘qituvchini oddiy ijrochidan o‘z faoliyatini boshqara oladigan subyektga aylantiradi.

Loyihalash komponenti - metodik kompetensiyaning strategik-konstruktiv asosi

Loyihalash komponenti bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘quv jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan holda oldindan rejalashtirish, pedagogik faoliyatni modellashtirish, didaktik jarayon elementlarini o‘zaro bog‘liqlikda loyihalash hamda kutilayotgan natijalarni prognozlashga doir konstruktiv va prognostik qobiliyatlar tizimini ifodalaydi. Bu komponent o‘qituvchini “dars o‘tkazuvchi” emas, balki darsni yaratadigan mutaxassisga aylantiradi.

Zamonaviy pedagogik ta’lim amaliyotida metodik kompetensiyani baholash ko‘pincha nazariy bilimlarni aniqlashga qaratilgan testlar orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar quyidagi o‘zida jamlashi kerak.



Boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli pedagogik jarayon bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni real ta’lim amaliyotida samarali qo‘llashni talab etadi. Tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy-tahliliy ishlar shuni ko‘rsatdiki, mavjud pedagogik tayyorgarlik tizimi metodik kompetensiyani shakllantirishda yetarli darajada samarali emas.

Aniqlanishicha, metodik tayyorgarlik jarayonida quyidagi asosiy ziddiyatlar mavjud:

- nazariy bilimlarning yuqori darajasi bilan ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi bilan ularni metodik jihatdan asoslab qo‘llash ko‘nikmalarining yetishmasligi;
- metodik kompetensiyani shakllantirish zarurati bilan uni baholashning an’anaviy, testga asoslangan tizimi o‘rtasidagi tafovut.

Mazkur ziddiyatlar natijasida talabalar ko‘pincha reproduktiv bilimlar bilan cheklanib qolmoqda, mustaqil metodik qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali dars tashkil etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmayapti. Tadqiqot natijalari asosida metodik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

Birinchidan, metodik tayyorgarlikni nazariy bilimlarni uzatishdan faoliyatga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazish zarur. Bu jarayonda talabalarning real pedagogik vaziyatlarda ishtiroki, amaliy mashg‘ulotlar, mikroo‘qitish va simulyatsiya asosidagi o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, metodik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari - kognitiv, operatsional, refleksiv va loyihalash komponentlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish talab etiladi. Ushbu komponentlarning alohida emas, balki yagona tizim sifatida shakllanishi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Uchinchidan, ta’lim jarayoniga innovatsion va raqamli yondashuvlarni joriy etish, xususan, multimodal resurslardan foydalanish orqali o‘quv materialini vizual, audial va interaktiv shaklda taqdim etish metodik kompetensiyaning amaliy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, metodik kompetensiyani baholash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Baholash faqat nazariy bilimlarga emas, balki talabaning amaliy faoliyati, pedagogik qaror qabul qilish qobiliyati, refleksiv tahlili va kasbiy rivojlanish dinamikasiga asoslanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, portfolio, amaliy topshiriqlar va aniq kompetensiya indikatorlariga asoslangan kompleks baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish orqali talabalarning o‘z pedagogik tajribasini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu esa metodik kompetensiyaning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, metodik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimining o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqotda asoslangan yondashuvlar va taklif etilgan yechimlar boshlang‘ich ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini

takomillashtirishga xizmat qiladi hamda pedagogik ta’lim amaliyotiga joriy etish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” - Toshkent: Bayoz, 2022. – 256 b.
2. M.E.Jumayev, Z.G‘Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” – Toshkent: Bayoz, 2022. – 312 b.
3. N.K.Azizova, M.EToirova Alifbe (1-sinf darsligi). – Toshkent: Novda, 2023. – 176 b.
4. O.V.Usmonova, Y.V.Risyqulova “Tarbiya (1–4-sinflar uchun darslik)”. – Toshkent: Novda, 2023. – 224 b.

RIVOJLANISHDA NUQSONI BOR BOLALARNI O‘RGANISHDAGI KOPMLEKS YONDASHUVNING O‘ZIGA XOSLIGI

Sh.R. Jumaniyozova, Sh. Abdikarimova, T. Erkinova
Urganch davlat pedagogika insituti
Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
jumaniyozovashahnoza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishda kompleks yondashuvning mazmuni, ahamiyati va zaruriyati yoritib berilgan. Kompleks yondashuv tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilishni nazarda tutadi. Maqolada bolalarning jismoniy, aqliy, nutqiy va emotsional rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda mutaxassislar hamkorligining muhim o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, rivojlanish nuqsonlarini erta aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va samarali korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda kompleks yondashuvning afzalliklari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatga moslashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность и значение комплексного подхода к изучению детей с нарушениями развития. Комплексный подход предполагает взаимосвязанное изучение медицинских, психологических, педагогических и социальных факторов, влияющих на развитие ребенка. Обоснована важность междисциплинарного сотрудничества специалистов при диагностике физических, интеллектуальных, речевых и эмоционально-волевых особенностей детей. Особое внимание уделяется раннему выявлению нарушений развития, постановке точного диагноза и организации эффективной коррекционно-педагогической работы. Результаты исследования имеют

практическое значение для совершенствования инклюзивного образования и социальной адаптации детей с особыми образовательными потребностями.

Annotation: This article examines the essence and significance of a comprehensive approach to the study of children with developmental disorders. The comprehensive approach involves an integrated analysis of medical, psychological, pedagogical, and social factors affecting a child's development. The importance of interdisciplinary cooperation among specialists in identifying physical, intellectual, speech, and emotional characteristics of children is substantiated. Particular attention is paid to early detection of developmental disorders, accurate diagnosis, and the organization of effective corrective and pedagogical interventions. The research findings are of practical importance for improving inclusive education and promoting the social adaptation of children with special educational needs.

Kalit so‘zlar: Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, kompleks yondashuv, psixologik-pedagogik tashxis, tibbiy omillar, ijtimoiy moslashuv, korreksion-pedagogik ishlar, inklyuziv ta’lim.

Ключевые слова: Дети с нарушениями развития, комплексный подход, психолого-педагогическая диагностика, медицинские факторы, социальная адаптация, коррекционно-педагогическая работа, инклюзивное образование.

Keywords: children with developmental disorders, comprehensive approach, psychological and pedagogical assessment, medical factors, social adaptation, corrective and pedagogical intervention, inclusive education.

Kirish: Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk,komil inson bo‘lib voyaga yetishiga,munosib fuqorolar sifatida ulg‘ayib, davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga ulish qo‘shishiga umid bog‘lanadi.Bu jahon bolalariga tegishli bo‘lgan bolalar huquqlari haqidagi Konvensiyada, O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" singari qator muhim me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha,barcha bolalar,shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish,bilim olish, hayotda o‘z o‘rnini topish huquqlariga egadir.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan " Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish,amalyotda uchraydigan mummolarni yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.Predzentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar shu jumladan, Nogironlar huquqi to‘g‘risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.Butun dunyoda qariyb 1 millardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar haqida o‘ylab fikr yurutsak bu nihoyatda ahamyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o‘rganish bo‘ycha davlat va nodavlat hamkorlik loyihalari amalga oshirib kelinmoqda.Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar o‘z istiqomat qilayotgan hududdagi umumta’lim maktablarda yoshlariga muafiq sinflarda asosiy o‘quv dasturi bilan birgalikda, maxsus dasturlar asosida ta’lim olishini, sinfdahi tengdoshlari bilan tadbirlarda ishtirok etishlari bildiriladi.

Asosiy qism:O.S Nikolayskaya,O.I Kukushikina ta’kidlashicha, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar maksimal darajada rivojlanishi, ta’lim va tarbiya olishi uchun zarur sharoitlarga ega bo‘lishi lozim.Shuningdek imkonyati cheklangan bolarning har bir toifasi uchun har bir yoshga, rivojlanish xususiyatlariga va ta’lim bosqichiga qarab alohida ta’limni teng darajada aniq,batafsil va ilmiy asoslangan holda olib borish zarurligini bildirdi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi topishiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkonyati darajada bajara oladilar.Imkonyati cheklanganlik-qobilyatsizlik emas. Har qanday holatda ham, kasallik va kamchilikda ham, mummolar bo‘lsa ham bolada taraqqiyot davom etadi.D.B Yakubjanvaning ta’kidlashicha, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtrish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun”reja dasturiga muafiq butun jahonda umumiy ta’limga inklyuziv ta’limni joriy etish masalasi alohida kasb etmoqda.Bugungi kunda “Imkoniyati cheklangan" tushunchasiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ahamiyatining oshib borishi bu toifadagi bololarning nafaqat o‘zgalar yordamiga muhtoj bo‘lgan, jamiyatning nofaol a’zosi tashkil etishdan qat’iy farqli o‘laroq,rivojlanishning dastlabki davrlaridanoq ulardagi nuqsonlarga emas,balki jamiyatga faol integrasiyalashuvi va ijtimoiylashuv imkonyatlarini ham o‘rganish korreksion pedogogik texnalogyalar va metodlar orqali o‘zining turli sohalardagi ehtiyojlarini qondirishga qodir shaxs darajasi tomon,kamol topishga ko‘maklashish kerak ekanligini e’tirof qilinadi. Chet el adabyotlarida rivojlanishida rovojlanishida nuqsoni bor bolalarga go‘daklik davridanoq erta yordam ko‘rsatishning turli medodlari yozilgan bo‘lib,bunda Shveysariyadagi markazlar,AQSHdagi erta daxl qilish markazlari kiradi.Sank-Peterburg shahridagi “Integratsiya tarbiya markazi" yuqoridagi markazlar modeli asosini hisobga olgan holda Erta yordam ko‘rsatish xizmatlarini tashkil etgan bo‘lib va hozirgi davrgacha xizmat qilmoqda.Erta yordam ko‘rsatish xizmatining faolyati rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning go‘daklik davridanoq (0-3 yosh)va ularning oilalariga yordam ko‘rsatishga yo‘naltrilgan. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bola hayotining birinchi yilida rivojlanishida uncha ko‘zga tashlanmaydigan o‘zgarishlarni payqamay,kerakli davolash va o‘qitish chora-tadbirlari olib borilmasa,kelajakda ta’lim olishda qiyinchilik va mummolarga duch kelishi muqarrar.Boshqa

tomondan rivojlanishda o‘g‘ir o‘zgariahlar bo‘lgan bola bilan har tomonlama tegishli mashg‘ulot olib borsalar yuqri natijalarni qo‘lga kiritish imkoni bo‘ladi. Bolaga ta’lim tarbiya berishni uy sharoitida olib borish-bu juda mashaqqatli va sinchiklab ishlashni talab qiladigan jarayon.Bunday ma’sulyatni o‘z zimmasiga olib,endigina ish boshlagan pedogogiklar uzoq muddat olib boriladigan mashg‘ulotlaridan ko‘ribarli natija bo‘lmaganidan umidsizlikka tushib qolishadi.Lekin bunday bolalar bilan ishlash kishidan diqqat va sabr matonatni talab etadi.Bolalarda harakatga mehnatga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish,hottoki ta’kidlash unchalik lozim bo‘lmagan narsalarga to‘xtalish uni qayta-qayta rag‘batlantrish va uni maqtab turish uning ta’lim olishiga b0lgan qiziqishlarini yanada orttirish shuningdek,bolada hamma ishni risoladagidek bajaraman degan ishonchni o‘zi singdirish eng muhim jihatlar sanaladi. Bolaning topshiriqqa bo‘lgan ijodiy qarashini nazardan chetda qoldirish yaramaydi, uning erishayotgan oddiygina sezilar-sezilmas muaffaqyatlarini ajratib ko‘rsatish va rag‘batlantrish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Pedogog faolyatining bosh g‘oyasi asosida tarbiyalanuvchiga nisbatan hayotga ishonch va umid ishlarini uyg‘otgan holda quvonch,shodlik muaffaqyatga erishish,omad tuyg‘ularini mazasini totib ko‘rishga undash yotadi.Hattoki birgina muaffaqyat ham bolaning hayoti turmush tarzini tubdan o‘zgartirib yuboradi. **Xulosa:** Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishda kompleks yondashuv zamonaviy maxsus va inklyuziv ta’lim tizimining muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolani faqat bitta nuqson doirasida emas, balki uning jismoniy, psixik, intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini yaxlit holda tahlil qilish imkonini beradi. Tibbiy, psixologik va pedagogik diagnostika natijalarining uyg‘unligi bolalarning rivojlanish ehtiyojlarini aniq belgilash, individual ta’lim va korreksion dasturlarni ishlab chiqish.Kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan o‘rganish va ta’lim jarayoni erta tashxis qo‘yish imkoniyatlarini kengaytiradi, rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiladi hamda bolalarning mavjud imkoniyatlarini to‘liqroq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Mutaxassislar — shifokor, psixolog, defektolog, logoped va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik bolaga ko‘rsatiladigan yordamning uzluksiz va tizimli bo‘lishini ta’minlaydi.Shuningdek, kompleks yondashuv ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim sifati oshadi, ularning mustaqil hayotga tayyorligi va ijtimoiy faolligi kuchayadi. Shu bois, kompleks yondashuvni amaliyotga keng joriy etish maxsus va inklyuziv ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Nazarova N.M. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

2.Mamatov S.Sh. Korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

3.Ahmedova M.N. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

4.Abduqodirov A.A. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

5.https://www.uzedu.uz

6.https://www.unicef.org/uzbekistan

3-SHO‘BA: ANIQ VA AMALIY FANLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТРАТЕГИИ И МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ

Казимова Лейла Тахировна
и.о. доцент кафедры «Педагогика и психология»
Ургенчский государственный педагогический институт
kazimovaleyla26041968@gmail.com, +998918652668
Юсупова Хуснора Худайберганoвна
магистрант 2 курса направления «Теория и история педагогики»
кафедры «Педагогика и психология».
E-mail:khusnorayuldashova97@icloud.com
Жуманазарова Севинч Санжарбековна
магистрант 2 курса направления «Теория и история педагогики»
кафедры «Педагогика и психология».
Email: jumanazarovas003@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования эмоционального интеллекта (ЭИ) у детей дошкольного возраста в контексте современных требований к раннему образованию. Анализируются теоретико-методологические основания изучения ЭИ в дошкольном детстве, систематизируются доказательные международные программы развития эмоционально-социальных компетенций, выявляются культурно-специфические особенности их реализации. Обосновывается необходимость интеграции ЭИ-ориентированных практик в повседневную образовательную деятельность ДОУ, предлагаются критерии оценки эффективности программ и направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, дошкольное образование, эмоциональная регуляция, социализация, международные образовательные практики, раннее развитие, компетентностный подход.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy erta ta’lim talablari doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy intellektni (HI) shakllantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Maktabgacha bolalik davrida HIni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi, hissiy-ijtimoiy

kompetensiyalarni rivojlantirishga oid xalqaro dalillarga asoslangan dasturlar tizimlashtiriladi hamda ularni amalga oshirishning madaniy-o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining (MTT) kundalik ta’lim faoliyatiga HIga yo‘naltirilgan amaliyotlarni integratsiya qilish zaruriyati asoslanadi, dasturlar samaradorligini baholash mezonlari va kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: hissiy intellekt, maktabgacha ta’lim, hissiy tartibga solish (regulyatsiya), sotsializatsiya, xalqaro ta’lim amaliyotlari, erta rivojlanish, kompetentsiyaviy yondashuv.

Abstract. The article examines the issue of developing emotional intelligence (EI) in preschool children within the context of modern early childhood education requirements. It analyzes the theoretical and methodological foundations of studying EI during preschool years, systematizes evidence-based international programs for developing emotional and social competencies, and identifies culture-specific features of their implementation. The study substantiates the necessity of integrating EI-oriented practices into the daily educational activities of preschool educational institutions, proposing criteria for evaluating program effectiveness and suggesting directions for further research.

Keywords: emotional intelligence, preschool education, emotional regulation, socialization, international educational practices, early development, competence-based approach.

Введение:В последние десятилетия эмоциональный интеллект (ЭИ) прочно вошёл в число ключевых предикторов успешной социализации, академических достижений и психологического благополучия. Дошкольный возраст (3–7 лет) признаётся сензитивным периодом для формирования эмоциональной грамотности, способности к саморегуляции и эмпатическому реагированию. Однако в международной педагогической практике сохраняется разрыв между теоретическим признанием значимости ЭИ и его системной интеграцией в образовательные программы дошкольных учреждений. Особенно остро стоит вопрос культурной адаптации западных моделей, оценки эффективности вмешательств и подготовки педагогических кадров. Цель данной статьи — систематизировать современные научные представления о развитии ЭИ у дошкольников, проанализировать международный опыт реализации ЭИ-ориентированных программ и сформулировать научно обоснованные рекомендации для их внедрения в практику дошкольного образования.

2. Теоретико-методологические основания изучения ЭИ

Понятие эмоционального интеллекта, первоначально разработанное П. Саловеем и Дж. Мейером (1990) и популяризированное Д. Гоулманом (1995), в контексте дошкольной педагогики претерпело существенную операционализацию. Для детей 3–7 лет ЭИ

рассматривается не как стабильная личностная характеристика, а как динамический набор навыков, включающий:

- Распознавание и вербализацию эмоций (собственных и окружающих);
- Понимание причинно-следственных связей эмоциональных состояний;
- Способность к эмоциональной саморегуляции в стрессовых и конфликтных ситуациях;
- Эмпатическое реагирование и просоциальное поведение.

Нейропсихологические исследования подтверждают, что в дошкольном возрасте происходит активное созревание префронтальной коры и лимбической системы, что создаёт биологическую основу для усвоения навыков эмоциональной регуляции через повторяющийся социальный опыт и моделирование взрослыми [1]. Важным методологическим сдвигом последних лет стал переход от тестирования ЭИ к поведенческому наблюдению и включённой оценке в естественных условиях (игра, режимные моменты, групповая деятельность), что повышает экологическую валидность исследований [2].

3. Международный опыт и сравнительный анализ программ

В мировой практике накоплен значительный массив доказательных программ, направленных на развитие эмоционально-социальных компетенций дошкольников. Наиболее исследованными являются:

Программа	**Страна**	**Ключевые компоненты**	**Доказанная эффективность**
PATHS	США	Распознавание эмоций, самоконтроль, «техника черепахи».	Снижение агрессии на 25–30%, улучшение школьной готовности [5].
RULER	США	Язык эмоций, «Метеорологическая карта чувств».	Повышение академической мотивации, снижение тревожности [6].

Программа	Страна	Ключевые компоненты	Доказанная эффективность
Second Step	США / Междунар.	Эмпатия, управление импульсами, навыки дружбы.	Улучшение просоциального поведения, преемственность со школой.
Zippy's Friends	Великобритания	Игровые сценарии, ролевое моделирование.	Высокая вовлечённость, успех в мультикультурных группах.

Культурный анализ показывает, что в коллективистских обществах программы чаще делают акцент на гармонизации групповых отношений, тогда как в индивидуалистических контекстах приоритет отдаётся самоэкспрессии и отстаиванию личных границ [3]. Это подчёркивает необходимость культурно-чувствительной адаптации методик с учётом локальных норм.

4. Практические модели интеграции ЭИ в ДОО

На основе анализа данных выделяются следующие эффективные стратегии внедрения ЭИ-ориентированных практик:

- **Ежедневные «эмоциональные ритуалы»**: утренний круг чувств, визуальные шкалы настроения.
- **Игровая и арт-терапия**: сказкотерапия, рисование эмоций, конструирование «карт чувств» персонажей.
- **Профессиональное развитие педагогов**: тренинги по эмоциональной осознанности и ненасильственному общению.
- **Партнёрство с семьёй**: воркшопы для родителей, совместные «эмоциональные дневники».
- **Мониторинг**: использование наблюдательных шкал (например, DESSA-mini) и портфолио достижений.

5. Обсуждение и перспективы исследований

Несмотря на накопленные доказательства эффективности, остаются методологические и практические вызовы:

- Отсутствие единых валидизированных инструментов измерения ЭИ у дошкольников, учитывающих культурную и языковую специфику;
- Риск формализации: превращение эмоционального воспитания в «чек-лист» без учёта индивидуального темпа развития ребёнка;
- Недостаток лонгитюдных исследований, отслеживающих перенос навыков ЭИ из ДОО в начальную школу и далее;

Цифровизация дошкольной среды: потенциальное влияние экранного времени на эмпатию и распознавание невербальных сигналов требует отдельного изучения [4].

Перспективными направлениями являются разработка открытых адаптивных программ с открытым кодом, создание международных баз кейсов культурной адаптации, внедрение нейропедагогических маркеров в оценку программ, а также подготовка «ЭИ-фасилитаторов» в системе повышения квалификации педагогов.

6. Заключение

Анализ международного опыта подтверждает, что ЭИ является динамической характеристикой, зависящей от качества среды и профессионализма педагога. Для системы дошкольного образования Узбекистана наиболее перспективным путем является создание **гибридных моделей**, интегрирующих международные стандарты с глубокими культурно-историческими традициями воспитания (включая институт махалли).

Будущее ЭИ-ориентированного подхода в республике требует:

- Разработки **научно-методической базы** (адаптированных диагностических инструментов);
- Развития **кадрового потенциала** (трансформация подготовки педагогов);
- Обеспечения **системности** (создание экосистемы «ДОО — семья — общество»).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Denham, S. A., & Brown, C. (2022). Social-emotional competence in early childhood. Guilford Press.
2. Izard, C. E., et al. (2021). Emotion knowledge and self-regulation in preschoolers. Developmental Psychology, 57(4).
3. Trommsdorff, G., & Cole, P. M. (2023). Cultural pathways to emotional socialization. Child Development Perspectives.
4. OECD (2023). Strong Start with Strong Emotions: International Review of ECEC.

5. Domitrovich, C. E., et al. (2020). Long-term effects of the PATHS curriculum. Journal of Consulting and Clinical Psychology.
6. Brackett, M. A., et al. (2021). RULER: A systemic approach to SEL. Educational Psychologist.
7. Фопель, К. (2020). Как научить детей сотрудничать? Генезис.
8. Урунтаева, Г. А., & Афонова, Ю. А. (2022). Диагностика и развитие эмоциональной сферы дошкольников. Владос.

TALABALARNING PEDAGOGIK IDENTIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA “NARRATIV REFLEKSIYA” METODINING SAMARADORLIGI.

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Sobirova Nafisa Yangiboy qizi
nafisasobirova1995@gmail.com, +998775002526

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida pedagogik identifikatsiyaning o‘rni va uni rivojlantirishda narrativ refleksiya metodining ahamiyati yoritilgan. Pedagogik identifikatsiya talabaning o‘zini professional o‘qituvchi sifatida anglashi va kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi jarayoni sifatida tahlil qilinadi. Narrativ refleksiya metodi talabalarning shaxsiy va kasbiy tajribalarini hikoya qilish orqali qayta tahlil qilish imkoniyatini berishi hamda bu jarayonning kasbiy o‘zlikni anglashga ta’siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida narrativ yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash va pedagogik pozitsiyani mustahkamlashda samarali vosita ekanligi ko‘rsatilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль педагогической идентичности в процессе профессионального формирования будущих учителей и важность метода нарративной рефлексии в её развитии. Педагогическая идентификация анализируется как процесс самосознания студента как профессионального учителя и принятия профессиональных ценностей. Метод нарративной рефлексии предоставляет студентам возможность переосмыслить свой личный и профессиональный опыт посредством рассказывания историй, и обосновывается влияние этого процесса на понимание профессиональной идентичности. Исследование показывает, что нарративный подход является эффективным инструментом для укрепления критического мышления и педагогических позиций у студентов.

Abstract. This article discusses the role of pedagogical identity in the process of professional formation of future teachers and the importance of the narrative reflection method in its development. Pedagogical identification is analyzed as a process of a student's self-awareness as a professional teacher and the adoption of professional values. The narrative reflection method provides students with the opportunity to re-analyze their personal and professional experiences

through storytelling, and the impact of this process on the understanding of professional identity is substantiated. The study shows that the narrative approach is an effective tool for strengthening critical thinking and pedagogical positions in students.

Kalit so‘zlar: Pedagogik identifikatsiya, narrativ refleksiya, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy o‘zlikni anglash, pedagogik hikoya, professional rivojlanish, subyektiv tajriba.

Ключевые слова: педагогическая идентификация, нарративная рефлексия, будущий учитель, профессиональная идентичность, педагогический нарратив, профессиональное развитие, субъективный опыт.

Keywords: Pedagogical identification, narrative reflection, future teacher, professional identity, pedagogical narrative, professional development, subjective experience.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimidagi islohotlar o‘qituvchidan nafaqat chuqur bilim, balki kuchli kasbiy o‘zlikni anglash tuyg‘usini (identifikatsiyani) ham talab etmoqda. Pedagogik identifikatsiya - bu talabaning “Men - o‘qituvchiman” degan ichki ishonchining shakllanishi, kasbiy normalar va qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayonidir.

Biroq, ko‘pincha nazariy bilimlar va amaliyot o‘rtasidagi uzilish talabalarda kasbiy ikkilanishlarni keltirib chiqaradi. Bu muammoni hal etishda “Narrativ refleksiya” (lotincha narrativus - hikoya qiluvchi, reflexio - ortga qaytish) metodi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod talabaga o‘zining pedagogik faoliyatidagi voqeliklarni bayon etish, ularni mazmunan qayta ishlash va shaxsiy ma’no topish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning faqat bilim va ko‘nikmalarini emas, balki ularning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik identifikatsiya – bu shaxsning o‘zini o‘qituvchi sifatida anglashi, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi va pedagogik faoliyatga ichki tayyorgarligini ifodalaydi. Bugungi kunda an’anaviy ta’lim yondashuvlari talabalarni kasbiy faoliyatga to‘liq tayyorlashda yetarli emasligi kuzatilmoqda. Shu sababli reflektiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ana shunday metodlardan biri – “narrativ refleksiya” bo‘lib, u talabalarning shaxsiy tajribasini hikoya qilish va uni tahlil qilish orqali chuqur kasbiy anglashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Pedagogik identifikatsiya shaxsning kasbiy “men” konsepsiyasining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ kasbiy qadriyatlarni qabul qilish;
- ❖ o‘qituvchi rolini ichki anglash;
- ❖ pedagogik faoliyatga motivatsion tayyorgarlik;

- ❖ reflektiv fikrlash qobiliyati.

Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha ijtimoiy identifikatsiya va kasbiy sotsializatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

1. **Pedagogik identifikatsiya va uning tuzilishi**

Pedagogik identifikatsiya murakkab psixologik-pedagogik fenomen bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv komponent: Kasbiy bilimlar va o‘qituvchi obrazi haqidagi tasavvurlar.

Emotsional-qadriyatli komponent: Kasbga bo‘lgan muhabbat, pedagogik etika va mas’uliyatni his qilish.

Faoliyatli komponent: Pedagogik vaziyatlarda o‘zini o‘qituvchi sifatida tutish va qaror qabul qilish.

2. Narrativ refleksiya metodining mohiyati

Narrativ refleksiya - bu shunchaki voqeani so‘zlab berish emas, balki kechinmalarni tizimlashtirishdir. Pedagogik jarayonda ushbu metod bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Avtobiografik yondashuv: Talaba o‘z hayotidagi "Ideal o‘qituvchi" yoki "Muvaffaqiyatsiz dars" haqida hikoya yozadi.

Kritik voqeliklar tahlili: Pedagogik amaliyot davomida sodir bo‘lgan qiyin vaziyatlarni hikoya qilish va ularni tahlil qilish.

Guruhli muhokama: Hikoyalarni tengdoshlar orasida muhokama qilish orqali kollektiv identifikatsiyani shakllantirish.

Narrativ refleksiya - bu shaxsning o‘z tajribasini hikoya (narrativ) shaklida ifodalashi va uni tahlil qilish orqali ma’no yaratish jarayonidir. U quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

- Tajriba bayoni – talaba o‘z pedagogik yoki o‘quv tajribasini hikoya qiladi.
- Emotsional tahlil – voqeaga nisbatan hissiy munosabat aniqlanadi.
- Reflektiv tahlil – tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari baholanadi.
- Qayta konstruksiya – kelajakdagi pedagogik faoliyat uchun xulosalar chiqariladi.

Bu metod talabaning ichki dialogini faollashtiradi va o‘zini anglash jarayonini chuqurlashtiradi.

3. Narrativ metodning samaradorlik mexanizmlari

Narrativ refleksiya talabaga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Tajribani shaxsiylashtirish: Nazariy bilimlarni shaxsiy tajriba prizmasidan o‘tkazadi.

Ma’no yaratish: Shunchaki “dars o‘tdim” emas, balki “bu dars men uchun va o‘quvchi uchun nima berdi?” degan savolga javob topiladi.

Kasbiy inqirozlarni yengish: O‘z xatolari haqida yozgan talaba ularni obektiv tahlil qilishga o‘rganadi, bu esa kasbiy qo‘rquvni kamaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida narrativ kundaliklar yuritgan talabalarda kasbiy identifikatsiya darajasi an’anaviy dars o‘tgan talabalarga nisbatan 25-30% yuqori bo‘ladi. Narrativ yondashuv talabada shunchaki “ijrochi o‘qituvchi” emas, balki “tadqiqotchi o‘qituvchi” pozitsiyasini shakllantiradi. Bu metod orqali talaba o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq ko‘ra oladi, bu esa uning pedagogik “Men-konsepsiyasi”ni mustahkamlaydi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, narrativ refleksiya metodidan foydalangan talabalar:

- kasbiy qaror qabul qilishda aniqroq bo‘ladi;
- o‘z faoliyatini chuqur tahlil qiladi;
- pedagogik identifikatsiya darajasi sezilarli oshadi;
- stressga chidamlilik va moslashuvchanlik kuchayadi.

XULOSA

Pedagogik identifikatsiyani rivojlantirishda narrativ refleksiya metodi talabalarning subyektiv tajribasini professional mazmun bilan boyitishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Ushbu metod talabani passiv tinglovchidan o‘z kasbiy taqdirining faol yaratuvchisiga aylantiradi. Oliy ta’lim tizimida narrativ texnologiyalarni keng joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat metodik, balki ma’naviy-psixologik jihatdan ham kasbga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi. narrativ refleksiya metodi bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik identifikatsiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metod talabalarning kasbiy o‘zligini anglashiga, reflektiv fikrlashining rivojlanishiga va pedagogik faoliyatga ongli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy ta’lim tizimida narrativ refleksiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. - M.: Logos, 2004.
2. Clandinin, D. J., & Connelly, F. M. Narrative Inquiry: Experience and Story in Qualitative Research. - Jossey-Bass, 2000.
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi. - T.: Fan, 2004.
4. Ricoeur, P. Time and Narrative. - University of Chicago Press, 1984.

RAQAMLI TA’LIM VOSITALARI ORQALI MAXSUS EHTIYOJLI O‘QUVCHILARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MODELI.

Urganch davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya kafedrasi
dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)
Karimova Nilufar Boltaboyevna
Knilufar593@gmail.com, +998771841203

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim vositalari yordamida maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning samarali modeli ishlab chiqilgan. Inklyuziv ta’lim sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, ularning pedagogik imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida adaptiv, texnologik va metodik komponentlardan iborat kompleks model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli ta’lim, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar, adaptiv texnologiyalar, assistiv vositalar.

Аннотация: В данной статье разработана эффективная модель поддержки обучающихся с особыми образовательными потребностями с использованием цифровых образовательных средств. Рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий в условиях инклюзивного образования, анализируются их педагогические возможности и существующие проблемы. В результате исследования предложена комплексная модель, включающая адаптивный, технологический и методический компоненты.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровое образование, обучающиеся с особыми образовательными потребностями, адаптивные технологии, ассистивные технологии.

Abstract: This article develops an effective model for supporting students with special educational needs through the use of digital educational tools. The role of information and communication technologies in the context of inclusive education is examined, and their pedagogical potential and existing challenges are analyzed. As a result of the study, a comprehensive model consisting of adaptive, technological, and methodological components is proposed.

Keywords: inclusive education, digital education, students with special educational needs, adaptive technologies, assistive technologies.

Kirish: Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb etish, ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.
Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud raqamli vositalar ko‘pincha inklyuziv talablarni to‘liq qondira olmaydi. Bu esa maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun ta’lim sifati va teng

imkoniyatlar masalasini murakkablashtiradi.So‘nggi yillarda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi global miqyosda jadallashib, o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakl va usullarini yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim olish imkoniyatlari kengayib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni ta’minlash imkoniyati ortmoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta’limni rivojlantirish sharoitida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi.Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – barcha o‘quvchilar, jumladan maxsus ehtiyojli shaxslar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim metodlari ko‘pincha bunday o‘quvchilarning individual xususiyatlarini to‘liq hisobga olmaydi. Natijada, ularning ta’lim jarayoniga integratsiyasi yetarli darajada samarali kechmaydi.

Raqamli ta’lim vositalari ushbu muammoni hal etishda muhim instrument sifatida qaralmoqda. Xususan, adaptiv o‘quv platformalari, assistiv texnologiyalar hamda multimediya resurslari orqali o‘quv materiallarini individuallashtirish, o‘quvchilar uchun qulay va mos muhit yaratish imkoniyati mavjud. Shunga qaramay, mavjud raqamli infratuzilma, metodik ta’minot va pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi inklyuziv ta’lim samaradorligini cheklab qolmoqda.Bundan tashqari, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan raqamli vositalarning yetishmasligi, mavjud platformalarning inklyuziv dizayn talablariga to‘liq javob bermasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Bu holat ta’lim jarayonida yangi turdagi “raqamli tafovut”ni yuzaga keltirib, ayrim o‘quvchilarni yana chetda qoldirish xavfini kuchaytiradi.Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish asosida maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning ilmiy asoslangan, tizimli modelini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – raqamli ta’lim vositalari asosida maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks modelini ishlab chiqish va uning tarkibiy komponentlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1.ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish

2.taqqoslash (komparativ) usul

3.tizimli yondashuv

4.modellashtirish

Asosiy qism

Raqamli ta’lim vositalari maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: individual o‘qitish (personalizatsiya), masofaviy ta’lim orqali qulaylik, multimodal taqdimot (audio, video, vizual), real vaqt rejimida monitoring

Taklif etilayotgan model tuzilmasi

Taklif etilayotgan model 4 asosiy komponentdan iborat:

Diagnostik komponent o‘quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash, psixologik va pedagogik baholash.

Texnologik component assistiv texnologiyalar (screen reader, speech-to-text) **,** moslashtirilgan o‘quv platformalari, mobil ilovalar va onlayn resurslar.

Metodik komponent differensial yondashuv, individual o‘quv trajektoriyasi, inkluziv pedagogik strategiyalar.

Monitoring va baholash komponenti o‘quv jarayonini doimiy kuzatish, natijalarni tahlil qilish, qayta moslashtirish (feedback asosida).

Modelning ishlash mexanizmi. Model quyidagi ketma-ketlikda ishlaydi:

1. O‘quvchi ehtiyojlarini aniqlash
2. Mos texnologiyani tanlash
3. Individual o‘quv rejasini ishlab chiqish
4. Ta’lim jarayonini tashkil etish
5. Natijalarni monitoring qilish
6. Tuzatish va takomillashtirish

Xulosa: Raqamli ta’lim vositalari inklyuziv ta’limni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Taklif etilgan model maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Kelgusida ushbu modelni amaliyotga joriy etish va uning samaradorligini eksperimental tadqiqotlar orqali tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelning asosiy afzalligi uning tizimlilik va komplekslik tamoyillariga asoslanganidadir. Diagnostik, texnologik, metodik va monitoring komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu model orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta’lim muhiti yaratilib, ularning o‘quv faolligi va natijadorligi oshadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning zarur kompetensiyalarining shakllanmaganligi va inklyuziv dizayn asosidagi platformalarning yetishmasligi ushbu yo‘nalishda tizimli islohotlar olib borishni talab etadi. Amaliy jihatdan, taklif etilgan modelni ta’lim jarayoniga joriy etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.
2. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2020.

3. OECD. Education and Digital Technologies Report. – 2021.
4. Ainscow M. Inclusive Education: Challenges and Opportunities. – London, 2019.
5. Florian L. The SAGE Handbook of Special Education. – 2018.
6. Bates T. Teaching in a Digital Age. – 2019.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITISH

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
gulnozaismoilova758@gmail.com +998884103311

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari hamda uning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Raqamli muhitda ta’lim olish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va zamonaviy pedagogik faoliyatga moslashuvini ta’minlashi ko‘rsatib beriladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida interfaol metodlardan foydalanish, talaba faolligini oshirish va dars jarayonini samarali tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Raqamli ta’limning afzalliklari bilan birga, uning ayrim muammolari ham yoritilib, ularni bartaraf etish zarurati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, interfaol metodlar, ta’lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы подготовки будущих учителей в условиях цифровой образовательной среды. Раскрываются особенности организации обучения с использованием цифровых технологий и их педагогические возможности. Показано, что цифровая среда способствует развитию самостоятельного мышления, навыков работы с информацией и адаптации будущих педагогов к современной профессиональной деятельности.

Особое внимание уделяется использованию интерактивных методов обучения, повышению активности обучающихся и эффективной организации учебного процесса. Наряду с преимуществами цифрового обучения отмечаются и существующие проблемы, требующие решения.

Ключевые слова: цифровое образование, будущий учитель, педагогическая компетенция, интерактивные методы, образовательные технологии, самостоятельное мышление

Abstract. This article discusses the training of future teachers in a digital learning environment. It highlights the key features of organizing education through digital technologies and their pedagogical potential. The digital environment is shown to support the development of independent thinking, information literacy, and the professional readiness of future teachers.
Special attention is given to the use of interactive teaching methods, increasing student engagement, and improving the effectiveness of the learning process. Along with the advantages of digital education, certain challenges are also considered, emphasizing the need for their solution.

Keywords: digital education, future teacher, pedagogical competence, interactive methods, educational technologies, independent thinking

Kirish. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki pedagogik tafakkurning o‘zgarishini ham talab etadi. Chunki zamonaviy ta’lim modeli passiv bilim olishdan faol, mustaqil va reflektiv o‘rganishga o‘tishni nazarda tutadi. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat hujjatlarida ham kompetensiyaviy yondashuv va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1; 2].Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi [3]. Axborot texnologiyalaridan foydalanish esa ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish imkonini beradi, bu esa har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olishga xizmat qiladi [4].Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda raqamli ta’lim muhitining o‘rni yanada kengroq talqin qilinadi. Jumladan, raqamli muhitda ta’lim olish talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil o‘rganish va mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi [5]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, uni vaqt va makon chegaralaridan chiqaradi [6].Bugungi talabalar “raqamli avlod” vakillari sifatida tezkor axborot almashinuvi va texnologiyalar bilan ishlashga moyilligi bilan ajralib turadi. Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullari ularning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi va yangi pedagogik yondashuvlarni talab etadi [7]. Bu esa o‘qituvchilarning dars jarayonini qayta ko‘rib chiqishini va uni zamonaviy shakllarda tashkil etishini zarur etadi.Raqamli ta’lim muhitida o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik dizayn bilan bog‘liq. Ya’ni, ta’lim jarayoni qanday rejalashtirilganligi, qanday metodlar qo‘llanilayotganligi va qanday vositalardan foydalanilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki talabaning faol ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim [8].Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida baholash tizimi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, elektron testlar, onlayn topshiriqlar, portfoliolar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali talabaning bilim darajasi muntazam nazorat qilinadi. Bu esa baholash

jarayonining shaffofligini ta’minlaydi va o‘qituvchiga talabalar rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.Bundan tashqari, raqamli ta’lim muhitida kommunikatsiya jarayoni ham sezilarli darajada o‘zgaradi. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot faqat auditoriya bilan cheklanib qolmay, balki turli onlayn platformalar orqali uzluksiz davom etadi. Bu esa bilim almashinuvi jarayonini kengaytiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi. Biroq raqamli ta’lim muhitining barcha afzalliklariga qaramay, uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liq. Agar pedagog raqamli vositalardan faqat yuzaki foydalansa, bu ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi [9].Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, raqamli ta’lim muhitida o‘qitish faqat texnologiyalarga tayanib qolmasligi kerak. Asosiy e’tibor pedagogik maqsadga qaratilishi lozim. Texnologiya — bu vosita, maqsad esa sifatli ta’limni tashkil etishdir. Agar bu muvozanat saqlanmasa, raqamli ta’lim o‘z samaradorligini yo‘qotadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli ta’lim muhitida o‘qish ayniqsa muhimdir. Chunki ular kelajakda o‘z faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanadi. Shu sababli ular nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Raqamli platformalar orqali dars tashkil etish, o‘quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish, onlayn muloqot olib borish kabi ko‘nikmalar pedagogning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Raqamli ta’lim muhitida o‘qitish jarayoni talabaning faol ishtirokini talab etadi. Bu jarayonda talaba passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi, muhokamalarda qatnashadi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish sur’ati hisobga olinadi. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Talabalar o‘z imkoniyatlariga mos ravishda bilim oladi va o‘z ustida ishlashga o‘rganadi.

Raqamli ta’limning yana bir muhim jihati - bu baholash jarayonining takomillashuvidir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar bilimini tezkor va aniq baholash imkoniyati mavjud. Elektron testlar, topshiriqlar va boshqa vositalar orqali baholash jarayoni yanada shaffof va tizimli amalga oshiriladi.

Biroq raqamli ta’lim muhitidan samarali foydalanish uchun faqat texnik vositalarning mavjudligi yetarli emas. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodik tayyorgarligi

va texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Agar raqamli vositalar faqat yuzaki qo‘llanilsa, ta’lim jarayoni samaradorligi oshmaydi.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Ular texnologiyalarni nafaqat ishlatishni, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llashni ham o‘rganishi kerak. Faqat shundagina raqamli ta’lim muhiti o‘zining haqiqiy samaradorligini namoyon etadi.Umuman olganda, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va zamonaviy ta’lim talablariga moslashishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. huningdek, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar nafaqat texnologiyalarni ishlatishni, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llashni ham bilishi zarur. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida talabalarni rag‘batlantirish va ularning motivatsiyasini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Buning uchun turli interfaol topshiriqlar, loyihalar va mustaqil ishlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. PF-5847-son Farmon. – Toshkent, 2019.
3. R. Ishmuhamedov. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
4. A. Abduqodirov. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Tony Bates. *Teaching in a Digital Age*. – Vancouver, 2015.
6. Neil Selwyn. *Education and Technology: Key Issues and Debates*. – London, 2016.
7. Mark Prensky. *Teaching Digital Natives*. – California, 2010.
8. Allan Collins. *Rethinking Education in the Age of Technology*. – New York, 2013.
9. Sugata Mitra. *The School in the Cloud*. – New Delhi, 2012.

TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor - o‘qituvchisi
Urganch davlat pedagogika instituti talabalari Atasheva Charos, Xallilayeva Gullola
gulnozaismoilova758@gmail.com +998884103311

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik jarayonda tanqidiy fikrlash kompetensiyasining nazariy asoslari va uning mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tanqidiy fikrlashning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda ularning shaxsning intellektual rivojlanishidagi o‘rnini asoslashdan iborat. Maqolada analitik fikrlash, baholash, mantiqiy xulosa chiqarish, refleksiya va qaror qabul qilish kabi komponentlar tizimli yondashuv asosida yoritilgan. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning mustaqil

fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan nazariy qarashlar pedagogik faoliyatda qo‘llanilib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogika, kompetensiya, analitik fikrlash, refleksiya, mantiqiy fikrlash, baholash, qaror qabul qilish

Аннотация. В статье подробно рассматриваются теоретические основы критического мышления в педагогическом процессе и раскрывается его сущностное содержание. Цель исследования заключается в выявлении структурных компонентов критического мышления и обосновании их роли в интеллектуальном развитии личности. В работе системно проанализированы такие компоненты, как аналитическое мышление, оценивание, логическое рассуждение, рефлексия и принятие решений.

В ходе исследования использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа и обобщения научных источников. Результаты показывают, что критическое мышление способствует развитию самостоятельности мышления, способности к аргументированным выводам и принятию обоснованных решений в проблемных ситуациях.

Практическая значимость исследования заключается в возможности применения полученных теоретических положений в педагогической практике для повышения качества образования.

Ключевые слова: критическое мышление, педагогика, компетенции, аналитическое мышление, рефлексия, логическое мышление, оценивание, принятие решений

tayyorlaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv kompetensiyaviy ta’lim modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning intellektual, ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.Biroq integrativ yondashuvni ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayoni bir qator muammolar bilan ham bog‘liq. Jumladan, o‘quv dasturlarining yetarli darajada moslashtirilmaganligi, metodik ta’minotning cheklanganligi hamda o‘qituvchilarning integrativ faoliyatga tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi ushbu yondashuvning to‘laqonli amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa integrativ yondashuvning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, uning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliy qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda integrativ yondashuvning ta’limiy imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilish, uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyatini asoslab berish dolzarb ilmiy vazifa sifatida belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Integrativ yondashuv muammosi zamonaviy pedagogika fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, u turli ilmiy maktablar va yo‘nalishlar doirasida turlicha talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integratsiya tushunchasi asosan fanlararo aloqadorlik, tizimlilik, komplekslik hamda ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlash g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

Tadqiqotchilar integrativ yondashuvni bir necha asosiy yo‘nalishlarda izohlaydilar.

Birinchi yo‘nalishda integratsiya fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tarafdorlari ta’lim jarayonida alohida fanlar o‘rtasidagi sun’iy chegaralarni kamaytirish orqali o‘quvchilarda borliqning yaxlit manzarasini shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Bunda integratsiya, avvalo, mazmuniy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi.Ikkinchi yo‘nalishda integrativ yondashuv kompetensiyaviy ta’lim bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, integratsiya bilimlarni alohida o‘zlashtirishdan ko‘ra, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchilarning funksional savodxonligi, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Uchinchi yo‘nalish nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvda ta’lim jarayonining samaradorligi nazariy bilimlarning real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liqligi darajasi orqali belgilanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaydilarki, agar bilim amaliy faoliyatda qo‘llanilmasa, u barqaror kompetensiyaga aylanmaydi. Shu sababli integratsiya o‘quv jarayonini amaliy yo‘naltirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

To‘rtinchi yo‘nalishda esa ta’lim va tarbiya integratsiyasi masalasi ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuvda shaxsni har tomonlama rivojlantirish maqsadida bilim berish jarayoni bilan bir qatorda axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim deb hisoblanadi.

Natijada integratsiya faqat didaktik emas, balki tarbiyaviy jarayonni ham qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida talqin qilinadi.Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari integrativ yondashuvning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Xususan, u o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini kengaytiradi hamda muammoli vaziyatlarni kompleks hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, integrativ ta’lim o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi va o‘quv faoliyatiga faol jalb etilishini ta’minlashi bilan ham ahamiyatlidir.Biroq ilmiy manbalarda integrativ yondashuvga nisbatan tanqidiy qarashlar ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar integratsiyani haddan tashqari umumlashtirish o‘quv materialining chuqurligini kamaytirishi, fanlarning nazariy asoslarini yetarli darajada o‘zlashtirmaslikka olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari, integratsiyani noto‘g‘ri tashkil etish mavzularning yuzaki o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lishi mumkin.Shu bois ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuvni samarali qo‘llash uchun mazmuniy chuqurlik va fanlararo bog‘liqlik o‘rtasida muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda integrativ yondashuvning aniq didaktik mexanizmlari, uni amaliyotga joriy etishning texnologik asoslari hamda o‘qituvchilarni ushbu faoliyatga tayyorlash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

Amaliy natijalar va tahlil. Tadqiqot doirasida integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning o‘quv faolligi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari hamda umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar integrativ yondashuvning an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi.Avvalo, integrativ darslarda o‘quvchilarning o‘quv faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Buni shunday izohlash mumkin: fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmunli bo‘lib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. An’anaviy darslarda o‘quvchi ko‘proq tinglovchi rolida bo‘lsa, integrativ darslarda u muammoni hal qiluvchi subyektga aylanadi. Natijada interaktivlik darajasi ortadi.

Shuningdek, tajriba natijalari o‘quvchilarning bilimlarni eslab qolish darajasi yuqori bo‘lganini ko‘rsatdi. Bu holat bilimlarning kontekstual va tizimli o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Ya’ni, o‘quvchi ma’lumotni alohida fakt sifatida emas, balki boshqa bilimlar bilan bog‘langan holda o‘zlashtiradi. Psixologik nuqtai nazardan, bunday bog‘langan bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkamroq saqlanadi.Integrativ yondashuvning muhim natijalaridan biri - o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishidir. Tajriba davomida o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishda turli fanlarga oid bilimlardan foydalanishga

harakat qilgani kuzatildi. Bu esa ularning analiz, sintez va umumlashtirish kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlarini faollashtirdi. An’anaviy ta’limda ko‘proq reproduktiv fikrlash ustun bo‘lsa, integrativ yondashuv produktiv fikrlashni rag‘batlantiradi.Bundan tashqari, o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega bo‘ldi. Nazorat va tajriba guruhlari natijalari taqqoslanganda, integrativ yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda o‘zlashtirish darajasi yuqoriroq ekani aniqlandi. Bu esa integratsiyalashgan ta’limning nafaqat sifat, balki natijadorlik jihatidan ham samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qator muammolar ham aniqlandi. Eng avvalo, integrativ yondashuvni samarali qo‘llash o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. O‘qituvchi nafaqat o‘z fanini, balki unga yaqin boshqa fanlar mazmunini ham yetarli darajada bilishi, ularni mantiqan bog‘lay olishi zarur. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab o‘qituvchilar integrativ darslarni loyihalashda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Ikkinchi muammo - o‘quv dasturlarining integrativ yondashuvga to‘liq moslashmaganligidir. Amaldagi o‘quv rejalari asosan fanlar kesimida tuzilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi integratsiyani tizimli ravishda amalga oshirish uchun yetarli imkoniyat yaratmaydi. Natijada integratsiya ko‘pincha epizodik xarakterga ega bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi muhim muammo - metodik ta’minotning yetarli emasligidir. Integrativ darslarni tashkil etish uchun maxsus metodik qo‘llanmalar, didaktik materiallar va texnologiyalar zarur. Ammo mavjud manbalarda bu yo‘nalish yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi sababli o‘qituvchilar ko‘pincha mustaqil ravishda metodika ishlab chiqishga majbur bo‘lmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi, bilimlarni alohida fragmentlar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilarning bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati ortadi va kompetensiyaviy rivojlanish ta’minlanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, integrativ yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni kompleks tahlil qilish hamda fanlararo bilimlardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim samaradorligining oshishiga va o‘quv natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuvni tizimli va ilmiy asosda joriy etish ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos raqobatbardosh shaxsni shakllantirishning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.S.Baratov, B.S.Abdullayeva Integrativ yondashuv va ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni qo‘llashning pedagogik asoslari // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – №2(11). 447-b
2. S.G‘.Siddiqova Ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – № 124-b
3. E.R.Soliyev Integrativ yondashuv asosida talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari // *Pedagogika va psixologiya*. – 2025. – № 65-b

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya
Kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
Ruzimova Intizor Xujamuratovna
ruzimovaintizor0@gmail.com, +998991280801

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimi doirasida ko‘rib chiqiladi. Hozirgi kunda axborot oqimining ortib borishi talabalardan nafaqat bilim olishni, balki mustaqil ilmiy izlanish olib borish, muammoni aniqlash, axborotni saralash, tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini talab etmoqda. Shu sababli tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maqolada tadqiqotchilik kompetensiyasining mazmuni, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda talabaning ilmiy faoliyatidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida tadqiqot faoliyatini tashkil etish, jumladan axborotni izlash, ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish imkoniyatlari izohlanadi. Raqamli vositalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlash faolligini oshirishi, ilmiy izlanishga qiziqishini kuchaytirishi va ularning analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash zarurligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, ilmiy izlanish, axborotni tahlil qilish, mustaqil ta’lim, refleksiya, pedagogik yondashuv, ta’lim muhiti

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие исследовательской компетенции на основе цифровых технологий в системе современного образования. В условиях увеличения объёма информации особое значение приобретает формирование у обучающихся навыков самостоятельного научного поиска, умения выявлять проблемы, анализировать информацию и делать обоснованные выводы.

В работе раскрывается сущность исследовательской компетенции, её основные компоненты и значение в учебном процессе. Также описываются возможности применения цифровых технологий на различных этапах исследовательской деятельности, включая поиск, обработку и анализ информации, а также представление результатов. Отмечается, что использование цифровых технологий способствует повышению познавательной активности обучающихся, развитию их самостоятельности и аналитического мышления. Вместе с тем подчеркивается необходимость целесообразного и грамотного применения цифровых средств в образовательной практике.

В статье также рассматривается роль преподавателя, значение интерактивных методов и образовательной среды в развитии исследовательской компетенции.

Ключевые слова : исследовательская компетенция, цифровые технологии, научное исследование, анализ информации, самостоятельное обучение, рефлексия, педагогический подход, образовательная среда

Abstract. This article examines the development of research competence based on digital technologies in modern education. In the context of increasing information flow, it becomes important to develop students’ abilities to conduct independent research, identify problems, analyze information, and draw reasoned conclusions.

The paper explains the essence of research competence, its main components, and its role in the educational process. It also describes the possibilities of using digital technologies at different stages of research activity, including searching, processing, analyzing information, and presenting results. It is emphasized that the use of digital tools enhances students’ learning activity, independence, and analytical thinking. At the same time, the importance of proper and purposeful use of digital technologies in education is highlighted.

The article also considers the role of the teacher, the use of interactive methods, and the importance of the learning environment in developing research competence.

Keywords: research competence, digital technologies, scientific research, information analysis, independent learning, reflection, pedagogical approach, learning environment

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor

pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilimlar hajmining ortib borishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda innovatsion faoliyatning rivojlanishi shaxsdan yuqori darajadagi analitik va tadqiqotga yo‘naltirilgan fikrlashni talab etadi [1]. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalarni ilmiy izlanishga jalb etish va ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, axborot oqimining keskin ortishi sharoitida talaba turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholash, ularning ishonchliligini aniqlash va ular asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa bevosita tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanganlik darajasiga bog‘liqdir.Tadqiqotchilik kompetensiyasi shaxsning ilmiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat bo‘lib, u kognitiv, operatsion, analitik va refleksiv komponentlarning birligidan tashkil topadi [3]. Tadqiqotchilik kompetensiyasi shaxsning ilmiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat bo‘lib, u kognitiv, operatsion, analitik va refleksiv komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligidan tashkil topadi. Ushbu komponentlar bir-birini to‘ldiradi va faqat kompleks holda namoyon bo‘lgandagina tadqiqotchilik faoliyatining yuqori samaradorligini ta’minlaydi.Kognitiv komponent talabaning ilmiy tushunchalar, nazariy bilimlar va tadqiqot metodologiyasi haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Bu bilimlar tadqiqot jarayonining mazmunini anglash va ilmiy muammoni to‘g‘ri qo‘yish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Operatsion komponent esa mazkur bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, ya’ni tadqiqot metodlarini tanlash, tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.Mazkur kompetensiya doirasida talaba muammoni aniqlash, tadqiqot maqsadini belgilash, gipoteza ilgari surish, mos metodlarni tanlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim [4]. Mazkur kompetensiya doirasida talaba muammoni aniqlash, tadqiqot maqsadini belgilash, gipoteza ilgari surish, mos metodlarni tanlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kabi murakkab ko‘nikmalar tizimini egallaydi. Bu jarayon izchil va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi hamda har bir bosqichda talabaning mustaqilligi va faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanishi talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish va yangi bilimlar yaratish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada talaba nafaqat mavjud bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ularni tahlil qilish, qayta ishlash va yangi g‘oyalar ishlab chiqish darajasiga ko‘tariladi. Bu esa uning ilmiy va kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga zamin yaratadi.

Bu esa uning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular yordamida axborotni tezkor izlash, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, statistik tahlil o‘tkazish va natijalarni vizual shaklda taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Elektron kutubxonalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari, onlayn platformalar va analitik dasturlar talabalarning ilmiy izlanish faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi[2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil ishlash faoliyati kengayadi, axborotni tanlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi hamda ularning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Ayniqsa, raqamli muhitda tashkil etilgan loyiha faoliyati talabalarning real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Biroq, mavjud amaliyotda bir qator muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, talabalarning raqamli texnologiyalardan faqat tayyor axborotni olish vositasi sifatida foydalanishi, mustaqil tahlil va izlanish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasining pastligi tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat raqamli texnologiyalardan foydalanishda metodik yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin: muammoli vaziyat yaratish, raqamli vositalar asosida axborotni izlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, natijalarni asoslash va refleksiya. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shunday qilib, raqamli texnologiyalar tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq ularning samaradorligi pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim muhiti va o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ta’lim jarayonida raqamli vositalardan tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida axborotni tezkor izlash, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, statistik tahlil o‘tkazish va natijalarni vizual shaklda taqdim etish mumkin. Elektron kutubxonalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari, onlayn platformalar va analitik dasturlar talabalarning ilmiy izlanish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Natijada, talaba an’anaviy usullarga nisbatan ancha tez va samarali tarzda ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘ladi hamda ularni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar tadqiqot jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Axborotni izlash bosqichida qidiruv tizimlari va elektron resurslar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, ma’lumotlarni yig‘ish bosqichida onlayn so‘rovnomalar va raqamli vositalardan foydalaniladi. Tahlil bosqichida turli dasturiy vositalar yordamida ma’lumotlar qayta ishlanadi, natijalarni taqdim etish bosqichida esa vizualizatsiya va prezentatsiya texnologiyalari qo‘llaniladi. Bunday yondashuv tadqiqot jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar alohida o‘rin tutadi. Muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlab, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Ayniqsa, raqamli muhitda tashkil etilgan loyiha faoliyati talabalarni real muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi va ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahatchi sifatida ishtirok etadi.Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud. Talabalarning raqamli texnologiyalardan faqat tayyor axborotni olish vositasi sifatida foydalanishi, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi va o‘qituvchilarning raqamli pedagogik tayyorgarligining pastligi tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Bu esa raqamli texnologiyalardan foydalanishda metodik yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun uni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, muammoli vaziyat yaratiladi va talaba izlanishga undaladi. Keyinchalik u raqamli vositalar yordamida axborotni izlaydi, to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qiladi va natijalarni asoslaydi. Yakuniy bosqichda esa o‘z faoliyatini baholaydi va xulosalar chiqaradi. Ushbu jarayon talabaning ilmiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida talabalardan faqat bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki mustaqil ilmiy izlanish olib borish, muammoni aniqlash, ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati talab etilmoqda. Shu jihatdan tadqiqotchilik kompetensiyasi shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar tadqiqot faoliyatining barcha bosqichlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ular axborotni izlash, ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori natija bermaydi. Ularning samaradorligi pedagogik yondashuv, ta’lim muhitining sifati, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va talabaning faolligiga bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2010.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.
4. Nishonova Z.T. Mustaqil fikrlash psixologiyasi. – Toshkent, 2006.

TA’LIM METODLARINI EMPIRIK-VERIFIKATSION TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Shoxsanam6563@gmail.com, +998975332266

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlarning samaradorligini verifikatsiya tamoyili asosida baholash masalalari yoritilgan. Baholashning bosqichlari, mezonlari hamda amaliy qo‘llashga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari verifikatsiyaga asoslangan yondashuv ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: verifikatsiya, baholash metodikasi, ta’lim samaradorligi, pedagogik texnologiya, monitoring, diagnostika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты оценки эффективности образовательных методов на основе принципа верификации. Разработаны этапы реализации методики оценки и раскрыто их содержание. На основе результатов исследования предложены методические рекомендации по повышению качества образования.

Ключевые слова: принцип верификации, методика оценки, эффективность обучения, педагогическая диагностика, мониторинг, компетенция.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of evaluating the effectiveness of teaching methods based on the verification principle. The stages of implementing the evaluation methodology are developed and described. Based on the research findings, methodological recommendations aimed at improving the quality of education are proposed.

Keywords: verification principle, evaluation methodology, educational effectiveness, pedagogical diagnostics, monitoring, competence.

1. Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitish metodlarining samaradorligini aniqlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha subyektiv bo‘lib, o‘quv jarayonining haqiqiy natijalarini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, ilmiy asoslangan va obyektiv yondashuv – verifikatsiya tamoyiliga asoslangan baholash metodikasini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Verifikatsiya tamoyili pedagogik jarayonda qo‘llanilgan metodlarning natijadorligini dalillar asosida tekshirish, qayta o‘lchash va tasdiqlashni nazarda tutadi. Ushbu maqolaning maqsadi – verifikatsiya tamoyiliga asoslangan baholash metodikasini amalga oshirish bosqichlarini aniqlash va amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

2. Metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil – pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish;
- Kuzatish – ta’lim jarayonidagi metodlar samaradorligini monitoring qilish;
- Diagnostik testlar – o‘quvchilar bilim darajasini aniqlash;
- Taqqoslash – an’anaviy va verifikatsiyaga asoslangan baholash natijalarini solishtirish;
- Statistik tahlil – olingan natijalarni qayta ishlash.

Baholash metodikasini amalga oshirish bosqichlari:

1. Maqsadni aniqlash bosqichi
    - Baholashning asosiy maqsadi va vazifalari belgilanadi.
    - Kutilayotgan natijalar aniqlashtiriladi.
2. Mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish
    - Baholash mezonlari (bilim, ko‘nikma, kompetensiya) belgilanadi.
    - O‘lchov indikatorlari ishlab chiqiladi.
3. Diagnostika va ma’lumot yig‘ish
    - Testlar, so‘rovnomalar va kuzatishlar orqali ma’lumotlar to‘planadi.
    - Jarayon davomida oraliq natijalar qayd etiladi.
4. Verifikatsiya (tasdiqlash) bosqichi
    - Olingan natijalar qayta tekshiriladi.
    - Turli metodlar orqali natijalar ishonchliligi aniqlanadi.
5. Tahlil va baholash
    - Natijalar statistik va sifat jihatdan tahlil qilinadi.
    - Metod samaradorligi aniqlanadi.
6. Tuzatish va takomillashtirish
    - Kamchiliklar aniqlanadi.
    - Metodika takomillashtiriladi va qayta joriy etiladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Verifikatsiya tamoyiliga asoslangan baholash metodikasi o‘quvchilarning bilim darajasini aniqroq baholash imkonini beradi;
- Baholash jarayonining obyektivligi va ishonchliligi oshadi;
- Ta’lim metodlarini tanlashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi;
- O‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining oshgani kuzatildi.

Muhokama

Olingan natijalar boshqa tadqiqotlar bilan mos keladi va verifikatsiya tamoyilining pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv baholash jarayonini faqat natijaga emas, balki jarayonga ham yo‘naltiradi.

Metodik tavsiyalar:

- Baholashda bir nechta metodlardan kompleks foydalanish;
- Diagnostik vositalarni muntazam yangilab borish;
- O‘qituvchilarning baholash kompetensiyasini oshirish;
- Axborot texnologiyalaridan (onlayn testlar, platformalar) foydalanish;
- O‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholashga jalb qilish;
- Natijalarni muntazam monitoring qilish va qayta tahlil etish.

Shu bilan birga, verifikatsiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun o‘qituvchilardan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik talab etiladi.

Xulosa. Verifikatsiya tamoyiliga asoslangan baholash metodikasi ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv baholashning obyektivligi, aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan bosqichlar va metodik tavsiyalar amaliyotda qo‘llash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva Q. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2020.
2. Yo‘ldoshev J. Ta’lim metodlari. – Toshkent, 2019.
3. Podlasy I.P**.** Pedagogika. – Moskva, 2010.
4. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva, 2004.

EMPIRIK MA’LUMOTLAR ASOSIDA TA’LIM METODLARINI KOMPLEKS BAHOLASH

Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Shoxsanam6563@gmail.com, +998975332266

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim metodlarining samaradorligini empirik verifikatsiya asosida tahlil qilish va baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, eksperimental va diagnostik metodlar orqali o‘quv jarayonining natijadorligi aniqlanadi. Empirik ma’lumotlar asosida metodlarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirishda verifikatsiya tamoyilining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: empirik verifikatsiya, ta’lim metodlari, samaradorlik, pedagogik tahlil, baholash, diagnostika, ta’lim sifati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы анализа и оценки эффективности методов обучения на основе эмпирической верификации. В исследовании используются современные педагогические подходы, экспериментальные и диагностические методы для определения результативности учебного процесса. На основе эмпирических данных выявлены преимущества и недостатки методов, а также предложены научные рекомендации по их совершенствованию. Обоснована значимость принципа верификации в повышении качества образования.

Ключевые слова: эмпирическая верификация, методы обучения, эффективность, педагогический анализ, оценка, диагностика, качество образования

Abstract: This article examines the analysis and evaluation of teaching methods based on empirical verification. The study employs modern pedagogical approaches, experimental and diagnostic methods to determine the effectiveness of the educational process. Based on empirical data, the advantages and disadvantages of teaching methods are identified, and scientific recommendations for their improvement are provided. The importance of the verification principle in enhancing the quality of education is also substantiated.

Keywords: empirical verification, teaching methods, effectiveness, pedagogical analysis, assessment, diagnostics, quality of education

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularning natijadorligini aniqlash pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ko‘plab hollarda metodlar samaradorligi subyektiv baholashga asoslanadi, bu esa natijalarning ishonchliligini pasaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, empirik verifikatsiya yondashuvi pedagogik jarayon natijalarini tajriba asosida tekshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali ta’lim metodlari samaradorligini obyektiv mezonlar asosida baholash mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ta’lim metodlari samaradorligini empirik verifikatsiya asosida tahlil qilish va baholashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda ta’lim metodlari samaradorligini empirik verifikatsiya asosida tahlil qilish uchun aralash (miqdoriy va sifat) yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot pedagogik eksperiment shaklida tashkil etilib, unda nazorat va eksperimental guruhlar ishtirok etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv – o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini aniqlash uchun;
- test sinovlari – bilim darajasini baholash uchun;
- pedagogik eksperiment – turli ta’lim metodlarining ta’sirini solishtirish uchun;
- so‘rovnoma va yarim strukturali suhbat – o‘quvchilar va o‘qituvchilarning fikrlarini aniqlash uchun;
- statistik tahlil – olingan natijalarni qayta ishlash va ishonchliligini tekshirish uchun.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Diagnostik bosqich** – ishtirokchilarning boshlang‘ich bilim darajasi va o‘quv ko‘nikmalari aniqlanib, dastlabki ma’lumotlar yig‘ildi.
2. **Eksperimental bosqich** – eksperimental guruhda interfaol va muammoli o‘qitish metodlari qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar saqlandi.
3. **Verifikatsiya bosqichi** – yakuniy natijalar qayta o‘lchanib, dastlabki ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi hamda metodlar samaradorligi empirik jihatdan baholandi.

Baholash mezonlari sifatida quyidagilar tanlandi: bilim darajasi, o‘quv faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va tahliliy fikrlash darajasi. Har bir mezon aniq indikatorlar orqali o‘lchanib, ball tizimi asosida baholandi.

Natijalar ishonchliligini ta’minlash maqsadida takroriy o‘lchovlar, guruhlararo taqqoslash va foizli tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, empirik verifikatsiya yondashuvi ta’lim metodlarini baholashda ishonchli vosita hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimlariga nisbatan ushbu yondashuv yuqori darajada aniqlik va obyektivlikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar aniqlandi:

- baholash mezonlarining standartlashmaganligi;
- o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi;
- diagnostik vositalarning takomillashmaganligi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish ta’lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida metodlar samaradorligini empirik verifikatsiya asosida tahlil qilish ishonchli va obyektiv baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali pedagogik metodlarning real natijalari tajriba asosida aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi ilmiy jihatdan asoslanadi. Ayniqsa, interfaol va muammoli o‘qitish metodlari an’anaviy usullarga nisbatan yuqori natijadorlikka ega ekani aniqlandi.

Shuningdek, verifikatsiya jarayoni ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash va samarali metodlarni tanlashda muhim vosita ekanligi tasdiqlandi. Kelgusida ushbu yondashuvni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2010.
3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2003.
4. Nishonova Z.T. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent, 2012.
5. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.

ZAMONAVIY TA’LIM IMKONIYATLARI: SUN’IY INTELLEKT YO‘LI.

Allanazarova Zulayho
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Zulayhoallanazarova49@gmail.com, +998509002522

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklarini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqot konseptual tahlil, taqqoslash va manba tahliliga tayangan. Natijalar shaxsiylashtirilgan o‘qitish, formatif baholash va o‘qituvchi yuklamasini optimallashtirishda samaradorlikni ko‘rsatdi. Ilmiy hissa sifatida joriy etish shartlari va pedagogik cheklovlar modeli asoslandi.

Аннотация: В статье системно анализируются педагогические преимущества использования искусственного интеллекта в образовании. Методология включает концептуальный анализ, сравнительное сопоставление и анализ источников. Результаты показывают эффективность персонализации обучения, формирующего оценивания и оптимизации нагрузки преподавателя. Научный вклад состоит в обосновании условий внедрения и модели педагогических ограничений применения ИИ.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the pedagogical benefits of using artificial intelligence in education. The methodology combines conceptual analysis, comparative reasoning, and source-based review. The results demonstrate gains in personalized instruction, formative assessment, and teacher workload optimization. The scientific contribution is a set of implementation conditions and a model of pedagogical constraints for responsible AI use.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta’lim, formatif baholash, o‘qituvchi kompetensiyasi, o‘quv analitikasi, ta’lim sifati, raqamli didaktika

Ключевые слова: Искусственный интеллект, персонализированное обучение, формирующее оценивание, компетентность преподавателя, учебная аналитика, качество образования, цифровая дидактика

Keywords: Artificial intelligence, personalized learning, formative assessment, teacher competence, learning analytics, education quality, digital didactics

Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya faqat texnologik yangilanish emas, balki didaktik maqsadlar, baholash mezonlari va pedagogik muloqotning qayta talqin qilinishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Shu jarayonda sun’iy intellekt vositalari o‘quv materialini moslashtirish, o‘quvchi faoliyatini kuzatish, baholashni avtomatlashtirish va o‘qituvchining rejalashtirish hamda tahlil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Biroq ilmiy adabiyotlarda SI qo‘llanishi ko‘pincha ikki yo‘nalishda yoritiladi: bir tomondan, texnologiyaning yuqori samaradorligi haqida umumiy ta’riflar beriladi, ikkinchi tomondan esa etik va huquqiy xavflar alohida muhokama qilinadi. Ta’lim amaliyoti uchun esa aynan pedagogik foyda qanday shartlarda yuzaga chiqishi, u qaysi didaktik mexanizmlar orqali namoyon bo‘lishi va qaysi cheklovlar foydani pasaytirishi masalasi yetarlicha tizimlashtirilmaganligicha qolmoqda. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, SI asosidagi tizimlar ta’lim samaradorligini oshirishi kutilsa-da, bu natija avtomatik yuz bermaydi; u didaktik dizayn, o‘qituvchi kompetensiyasi, baholash madaniyati va ma’lumotlar sifati kabi shartlarga bog‘liq. Mavjud tadqiqotlar, xususan ta’lim analitikasi va adaptiv o‘qitish bo‘yicha ishlanmalar, individual yondashuvning imkoniyatlarini ko‘rsatadi, ammo ular ko‘pincha pedagogik jarayonning ijtimoiy-psixologik komponentlari, o‘qituvchi rolining transformatsiyasi va o‘quvchilar motivatsiyasi bilan bog‘liq mexanizmlarni to‘liq yoritmaydi. Mahalliy ilmiy maktablar esa raqamli ta’limning didaktik asoslarini muhokama qilgan bo‘lsa-da, SI vositalari bilan ishlashning o‘lchovli natijalarini pedagogik shartlar orqali izohlashga ehtiyoj saqlanib turibdi. Shu bois ushbu maqola SI afzalliklarini deklarativ sanashdan ko‘ra, ularni pedagogik vazifalar va shartlar bilan bog‘lab, natijani ta’minlaydigan mexanizmlarni aniqlashga qaratiladi.

Maqolaning maqsadi ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklarini tizimli tahlil qilish, ularning namoyon bo‘lish shartlarini belgilash hamda

qo‘llashdagi cheklovlarni pedagogik nuqtayi nazardan konseptual model sifatida asoslashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: birinchidan, SI vositalarining ta’lim jarayonidagi funksional yo‘nalishlarini didaktik vazifalar bilan moslashtirish; ikkinchidan, shaxsiylashtirish, formatif baholash va o‘qituvchi mehnatini optimallashtirish kabi asosiy afzalliklar qanday mexanizmlar orqali yuzaga chiqishini aniqlash; uchinchidan, afzalliklarni cheklovchi pedagogik omillarni tizimlashtirish va amaliy joriy etish shartlarini shakllantirish.Tadqiqot metodologiyasi pedagogika fanida qabul qilingan ko‘p bosqichli tahlil yondashuviga tayandi. Birinchi bosqichda konseptual tahlil qo‘llanib, “sun’iy intellekt”, “adaptiv o‘qitish”, “o‘quv analitikasi”, “formatif baholash” va “o‘qituvchi kompetensiyasi” tushunchalarining ta’lim jarayonidagi mazmuni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Konseptual tahlilning tanlanishi, avvalo, SI vositalarining ta’limdagi roli ko‘pincha texnologik tavsiflar bilan cheklanib qolishi va pedagogik kategoriyalar bilan izchil bog‘lanmasligi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ikkinchi bosqichda manba tahlili o‘tkazildi: xalqaro va mintaqaviy ilmiy adabiyotlarda SI ning ta’limga ta’siri, o‘quv natijalarini baholash hamda o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir yondashuvlar taqqoslab o‘rganildi. Bu usul turli ilmiy maktablar pozitsiyasini ajratish va umumiy tendensiyalarni aniqlash uchun mos hisoblanadi.Uchinchi bosqichda taqqoslash metodi orqali SI qo‘llanishining uchta tipik pedagogik ssenariysi ajratildi: o‘quv mazmunini moslashtiruvchi adaptiv tizimlar, ta’lim analitikasi asosida qaror qabul qilishni qo‘llovchi tizimlar, hamda avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza berish vositalari. Ushbu taqqoslash pedagogik vazifalar nuqtayi nazaridan “afzallik” tushunchasini o‘lchamli talqinda ko‘rishga imkon berdi, ya’ni afzalliklar o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi faoliyati va ta’lim natijalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab tushuntirildi. To‘rtinchi bosqichda analitik umumlashtirish metodi yordamida “afzalliklar namoyon bo‘lish shartlari” va “pedagogik cheklovlar”ni bir tizimga keltiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu metodlar majmuasi maqola maqsadiga mos, chunki u texnologik vositani bevosita targ‘ib qilish emas, balki pedagogik sabab-oqibat bog‘lanishlarini asoslashni ko‘zlaydi. Tahlil natijalari SI dan foydalanishning pedagogik afzalliklari uch asosiy blokda jamlanishini ko‘rsatdi: o‘qitishni shaxsiylashtirish, formatif baholashni kuchaytirish va o‘qituvchi mehnatini intellektual qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish. Birinchi blok bo‘yicha aniqlangan natija shundan iboratki, SI asosidagi adaptiv mexanizmlar o‘quv materialining murakkablik darajasi, topshiriqlar ketma-ketligi va mashq intensivligini o‘quvchining joriy tayyorgarligi hamda xatolar profiliga moslashtirish orqali individual o‘quv trayektoriyasini shakllantiradi. Bunda afzallik faqat “ko‘proq mashq” berish emas, balki o‘quvchining kognitiv yuklamasini me’yorlashtirish va muvaffaqiyat ehtimolini oqilona boshqarish orqali motivatsion barqarorlikni ushlab turishdir. Moslashtirishning pedagogik

samarasi, ayniqsa, heterogen sinf sharoitida, ya’ni tayyorgarligi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda kuchliroq namoyon bo‘lishi asoslandi, chunki standart dars jarayonida o‘qituvchi barcha o‘quvchi uchun bir vaqtda differensial yordam ko‘rsatishga doim ham ulgurmaydi.

Ikkinchi blok bo‘yicha natija SI vositalari formatif baholashni vaqt va mazmun jihatidan zichlashtirishi, ya’ni o‘quvchi faoliyatidan kelib chiqib tezkor fikr-mulohaza ishlab chiqishi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Avtomatlashtirilgan tahlil o‘quvchining tipik xatolari, tushunmovchilik tugunlari va mavzu bo‘yicha bo‘shliqlarini aniqlashga imkon beradi, natijada baholash yakuniy nazorat bilan cheklanmay, o‘qish jarayonining o‘zida o‘rgatuvchi instrumentga aylanadi. Bu yerda muhim natija shundaki, SI yaratgan fikr-mulohazaning pedagogik qiymati uning “to‘g‘riligi” bilangina belgilanmaydi; u o‘quvchining keyingi harakatini yo‘naltiradigan didaktik tavsiyalar bilan boyitilgandagina formatif baholashning real mexanizmi sifatida ishlaydi. Shuningdek, o‘qituvchi uchun sinf bo‘yicha diagnostik ko‘rinish paydo bo‘ladi: qaysi mavzu yoki ko‘nikma ommaviy qiyinchilik tug‘dirayotganini erta payqash va dars dizaynini qayta rejalashtirish imkoniyati kengayadi.

Uchinchi blok bo‘yicha natijalar SI o‘qituvchi mehnatini “o‘rnini bosish”dan ko‘ra, uni intellektual qo‘llab-quvvatlashga yaqinroq ekanini ko‘rsatdi. Avtomatlashtirilgan tekshiruv, matnli ishlar bo‘yicha dastlabki rubrikalash, o‘quv kontentini tanlashda tavsiyalar, darsga tayyorgarlikda resurslarni tez saralash kabi funksiyalar o‘qituvchining vaqtini tejalishini ta’minlaydi, biroq asosiy pedagogik afzallik tejangan vaqtning qanday qayta taqsimlanishida namoyon bo‘ladi. Ya’ni o‘qituvchi ma’muriy va rutin tekshiruvdan bo‘shagan resursini o‘quvchi bilan individual muloqot, murakkab tushunchalarni izohlash, motivatsiya va metakognitiv strategiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirsa, ta’lim sifati yaxshilanadi. Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, SI qo‘llab-quvvatlashi o‘qituvchidan yangi turdagi kompetensiyalarni talab qiladi: algoritmik tavsiyalarni tanqidiy baholash, ma’lumotlar natijalarini didaktik qarorga aylantirish va texnologik vositaning cheklovlarini o‘quvchi ehtiyojlari bilan muvozanatlashtirish.

Afzalliklar bilan bir qatorda, natijalar pedagogik cheklovlar modelini ajratishga imkon berdi. Birinchi cheklov ma’lumotlar sifatiga bog‘liq: o‘quvchi faoliyati notekis, kontekstdan uzilgan yoki noto‘g‘ri interpretatsiya qilinadigan shaklda qayd etilsa, SI tavsiyalari didaktik jihatdan noaniq yoki chalg‘ituvchi bo‘lishi mumkin. Ikkinchi cheklov baholash madaniyatiga taalluqli: avtomatlashtirilgan ball qo‘yish yoki fikr-mulohaza o‘qituvchining professional hukmini siqib chiqarsa, o‘quvchi uchun baholashning ma’nosi “tuzatish va o‘sish”dan “algoritmga moslashish”ga siljishi xavfi paydo bo‘ladi. Uchinchi cheklov muloqot va tarbiyaviy komponent bilan bog‘liq: SI vositasi didaktik vazifani yengillashtirsa-da, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatidagi ishonch, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va sinf iqlimini bevosita yaratmaydi; demak, texnologiya qo‘llanayotgan sharoitda pedagogik liderlik yanada muhim omilga aylanadi.

Ushbu cheklovlar afzalliklarni inkor etmaydi, balki ularning yuzaga chiqishini ta’minlaydigan shartlar to‘plamini belgilaydi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan yo‘nalishlar bilan umumiy uyg‘unlikni ko‘rsatadi, biroq ularni pedagogik shartlar nuqtayi nazaridan aniqlashtiradi. Masalan, Holmes va hamkorlari SI ning ta’limdagi qo‘llanishi asosan shaxsiylashtirish va o‘quvchi modelini qurish orqali samaradorlik berishini ta’kidlaydi. Ushbu pozitsiya adaptiv tizimlarning imkoniyatlarini to‘g‘ri ko‘rsatsa-da, maqolamiz natijalari shaxsiylashtirishning pedagogik qiymati faqat algoritm moslashuvida emas, balki o‘qituvchining adaptiv kontentni sinfdagi ijtimoiy-didaktik jarayon bilan uyg‘unlashtirishida namoyon bo‘lishini asoslaydi. Ya’ni shaxsiylashtirish individual ekran tajribasiga qisqarib qolsa, u hamkorlikdagi o‘qish, muloqot va refleksiya kabi ta’lim natijalarini zaiflashtirishi mumkin; shuning uchun didaktik dizaynda individual va jamoaviy faoliyat muvozanati afzallikni barqarorlashtiruvchi shart sifatida ko‘riladi. Bizning natijalar aynan shu fikrni konkretlashtirib, o‘qituvchi mehnatini optimallashtirish afzalligi tejangan vaqtning mazmunli qayta taqsimlanishida ekanini ko‘rsatdi. Agar SI o‘qituvchining rutin ishlarini kamaytirsa-yu, biroq ta’lim muassasasi boshqaruvi bu vaqtni qo‘shimcha hisobotlar yoki ko‘proq auditoriya yuklamasi bilan to‘ldirsa, pedagogik foyda kutilgan darajada chiqmasligi mumkin. Demak, muassasaviy boshqaruv ham pedagogik shartlar tizimining bir qismi sifatida ko‘rilishi kerak, chunki texnologiya ta’siri faqat sinf ichidagi amaliyot bilan cheklanmaydi.Woolf ta’lim texnologiyalarida intellektual tutor tizimlarining yutug‘ini tezkor diagnostika va individual yordam bilan izohlaydi. Bizning natijalarda esa formatif baholashning kuchayishi faqat diagnostika mavjudligi bilan emas, balki fikr-mulohazaning didaktik sifatiga, ya’ni o‘quvchi keyingi qadamni tushunadigan tarzda berilishiga bog‘liqligi alohida ajratildi. Bu jihat ta’lim amaliyotida muhim: ko‘plab avtomatlashtirilgan tizimlar xatoni ko‘rsatadi, ammo xatoga olib kelgan tushuncha yoki strategiyani qayta qurishga yordam beradigan izoh va mashqlarni yetarlicha taklif qilmaydi. Shu sababli pedagogik integratsiya jarayonida o‘qituvchi SI ishlab chiqargan fikr-mulohazani didaktik “tarjima” qilishi, ya’ni uni sinf tiliga, mavzu maqsadlariga va o‘quvchi yoshi psixologiyasiga moslashtirishi talab etiladi.Russell va Norvig tomonidan tasvirlangan SI tizimlarining qaror chiqarish mantiqi ma’lumotlar va modellarning cheklovlariga sezgir ekanini ko‘rsatadi. Bizning cheklovlar modelimiz aynan pedagogik kontekstda shu sezgirlikni ochib berdi: o‘quvchi faoliyatiga oid raqamli izlar doimo to‘liq va mazmunan aniq bo‘lavermaydi, chunki o‘quvchi ba’zan yordam bilan bajaradi, ba’zan esa sinovdan o‘tadi, ayrim vaziyatlarda esa motivatsiya pasayishi sababli faoliyatini qisqartiradi. Agar tizim buni farqlamasa, tavsiya pedagogik jihatdan noto‘g‘ri yo‘nalishi mumkin. Shuning uchun ma’lumotlarni interpretatsiya qilishda kontekstni kiritish, o‘qituvchining kuzatuvlari va sinfdagi muloqotdan olingan sifatli dalillarni ham hisobga olish

Существует сильная, взаимозависимая связь между педагогической идентификацией и профессиональным самосознанием. Их всестороннее развитие обеспечивает профессиональную подготовку будущих преподавателей. Поэтому необходимо внедрять в высших учебных заведениях инновационные педагогические технологии, направленные на эти процессы. При этом результаты исследования показывают, что гармоничное развитие педагогической идентификации и профессионального самосознания повышает не только профессиональную компетентность преподавателя, но и его социальную активность, творческий подход и ответственность за педагогическую деятельность. Это, в свою очередь, оказывает прямое положительное влияние на эффективность образовательного процесса.

Кроме того, развитие этих процессов должно быть непрерывным и систематическим. То есть, их следует поддерживать не только на этапе высшего образования, но и на протяжении всей профессиональной деятельности преподавателя. В этом отношении большое значение имеют курсы повышения квалификации, практическая подготовка и рефлексивные мероприятия. В будущем расширение масштабов эмпирических исследований в этой области, разработка четких критериев и показателей оценки педагогической идентичности, а также совершенствование механизмов развития профессионального самосознания в цифровой образовательной среде останутся одной из неотложных научных задач.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бандура А. Теория социального обучения. – Нью-Йорк: General Learning Press, 1977.

2. Эриксон Э. Идентичность: молодость и кризис. – Нью-Йорк: W.W. Norton, 1968.

3. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Москва, 2004.

4. Зеер Е.Ф. Психология профессионального развития. – Москва, 2006.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва, 1996.
6. Божович Л.И. Личность и ее формирование. – Москва, 2008.
7. Толипов О.К., Усмонбоева М. Педагогические технологии. – Ташкент, 2012.
8. Нишонова З.Т. Педагогическая психология. – Ташкент, 2010.
9. Муслимов Н.А. Теория профессионального обучения. – Ташкент, 2013.

4-SHO‘BA: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BARCHA SOHALARDA PEDAGOGIK METOD VA TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA SAMARALI YECHIMLAR

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAKTABGACHA TA’LIM KLASTERINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Azimov Yunus Yusupovich
Elektron pochta: shobibi65@mail.ru
Filologiya fanlari nomzodi,
Buxoro davlat pedagogika institute professori
Ruziyeva Zulayxo Samatovna
Elektron pochta: zuliruziyeva1981@gmail.com
Toshkent viloyat pedaogik mahorat markazi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta`lim klasterlari, ayniqsa maktabgacha ta`lim klasterlarini raqamli transformatsiya sharoitida tashkil etishning nazariy asoslari borasida fikr – mulohazalar hamda takliflar bayon etilgan. Ta`lik klasterining turlari haqida ma`lumot berilgan. Maktabgacha ta`lim muassasasi hamda oliy ta`lim musasasalari hamkorligida yaratiladigan ta`lim klasterlarinin foydali tomonlari borasida to`xtalib o`tilgan.

Kalit so‘zlar: klaster, raqamli tranformatsiya, ta`lim klasteri, klaster turlari, ta’lim darajalari, zamonaviy texnologiyalar, fan va texnika yutuqlari, maktabgacha yoshdagi bola, zamonaviy usullar, xatolarga chidamli klasterlar, o‘zlashtirish, ajratib ko‘rsatish, tizimlashtirish, “Klaster” texnologiyasi.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и предложения относительно теоретических основ образовательных кластеров в условиях цифровой трансформаци, особенно дошкольных образовательных кластеров. Дана информация о типах образовательного кластера. Обсуждались выгоды образовательных кластеров, создаваемых в сотрудничестве с дошкольными образовательными учреждениями и высшими учебными и заведениями.

Ключевие слова: кластер, образовательный кластер, типы кластеров, уровни образования, цифровой трансформация, современные технологии, достижения науки и

техники, ребенок дошкольного возраста, современные методы, отказоустойчивые кластеры, освоение, различение, систематизация, технология «Кластер»

Abstract. This article presents views and proposals regarding the theoretical foundations of educational clusters in the context of digital transformation, with particular emphasis on preschool education clusters. Information is provided on the types of educational clusters. The benefits of educational clusters established through collaboration between preschool educational institutions and higher education institutions are also discussed.

Key words: cluster, educational cluster, types of clusters, levels of education, modern technologies, achievements of science and technology, preschool child, modern methods, fail-safe clusters, development, discrimination, systematization, “Cluster” technology.

Zamon shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shu bois barcha sohalar qatori ta’lim tizimi ham raqamli transformatsiya jarayoniga moslashishi zarur. Aks holda, u zamon talablariga javob bera olmay, o‘z samaradorligini yo‘qotishi mumkin.

Aytish joizki, maktabgacha ta’lim - bu shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladigan, bolalarning dastlabki bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu jarayon yanada takomillashib, innovatsion texnologiyalar, interaktiv platformalar, sun’iy intellekt elementlari hamda raqamli didaktik vositalar orqali boyitilmoqda. Ta’lim jarayoni qanchalik zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan bo‘lsa, uning sifati va samaradorligi shunchalik ortadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda aynan shu davrda xotira, tafakkur, idrok, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalar faol rivojlanadi. Raqamli vositalardan oqilona foydalanish bu jarayonni tezlashtiradi, bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.Bugungi kunda “klaster” tushunchasi ham raqamli transformatsiya jarayonida yangicha mazmun kasb etmoqda. Ta’lim klasteri — bu o‘zaro integratsiyalashgan ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik tizimi bo‘lib, raqamli platformalar orqali boshqariladigan yagona ekotizim sifatida qaralmoqda.Klasterning asosiy turlari sifatida yuqori mavjudlik (HA), yuklama muvozanatlash (Load balancing) va yuqori samarali hisoblash (HPC) klasterlari qayd etiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu klasterlar nafaqat texnik tizimlarda, balki ta’limni boshqarish, ma’lumotlar almashinuvi va resurslarni samarali taqsimlashda ham qo‘llanilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida klaster yondashuvi ayniqsa muhimdir. U katta hajmdagi axborotni tizimlashtirish, tahlil qilish va samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamli muhitda klasterlash usuli diagrammalar, onlayn platformalar va vizual vositalar orqali amalga oshirilib, pedagogik jarayonni yanada interaktiv qiladi.Tadqiqotchilar, jumladan, Galina Aleksandrovna

Kuznesova klasterni mustaqil elementlarning yagona tizimga birlashuvi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, iqtisodchi olim Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster yondashuvi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Sh.Sh.Mirziyoeva o'zining "Maktabgacha ta'lim klasterini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining innovatsion kompetentsiyasini rivojlantirishni ta'minlash ekotizimi sifatida" nomli maqolasida qo'yidagilarni ta'kidlaydi: "Maktabgacha ta 'lim klasterlarini tashkil etish davlat pedagog kadrlari sonini ko' paytirish imkonini beradi va nodavlat maktabgacha ta 'lim tashkilotlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida sifatni ta' minlashda yagona yondashuvni amalga oshirish maktabgacha ta'lim"

Ta'limda klaster uchta jihatda qo'llanilishi mumkin:

- Muassasa (ma'muriy)ning mehnat va ijtimoiy sheriklik tizimini ifodalashda;
- o'qituvchi tajribasini umumlashtirishda (o'z-o'zini tarbiyalash);
- o'qituvchining ta'lim faoliyatini tashkil etishda (tarbiyaviy).

Ta'lim fanlari yonalishlarini klasterlash cheklanmagan, turli xil mavzularni o'rganishda klasterlardan foydalanish mumkin

Pedagogik texnologiyalar amaliyotga bevosita o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Binobarin, nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi, balki pedagogik texnologiyani o'qituvchining kasbiy fikrlash tarzi sifatida yo'lga qo'yish va uning faoliyati ham uning texnologiya ma'nosini, ilmiy asoslarini qanchalik anglashi, ularni qanday moslashtira olishiga bog'liq: muayyan sharoitlarga yoki individual texnologiyalarni ishlab chiqishga.

Faqat o'qituvchining faoliyati, ta'lim yangiliklarini izlash, o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishga yo'naltirilganligi uning pedagogik faoliyatidagi o'zgarishlar qanchalik tez sodir bo'lishini belgilaydi.

O'qituvchining o'zini o'zgartirishga va vaziyatni o'zgartirishga tayyorligi ta'lim jarayonida faol o'qitish usullarini samarali qo'llashning asosiy shartidir.

Raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta'lim klasterlari pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, ularni qayta tayyorlash va malakasini uzluksiz rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa ta'lim sifatini yagona standart asosida ta'minlash imkonini beradi.

Ta'lim klasterlari quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llaniladi:

- raqamli boshqaruv va ijtimoiy sheriklik tizimini yo'lga qo'yishda;
- pedagoglarning tajribasini onlayn platformalar orqali umumlashtirishda;
- ta'lim jarayonini innovatsion va interaktiv usullar asosida tashkil etishda.

Raqamli pedagogika sharoitida o'qituvchining roli yanada ortadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan fasilitatorga aylanadi. O'qituvchining

innovatsiyalarga ochiqligi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorligi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Maktabgacha ta’limda klaster yondashuvini joriy etishdan asosiy maqsad — ta’lim sifatini bosqichma-bosqich oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion faoliyatni jadallashtirishdir. Bunda ochiqlik, shaffoflik va natijadorlik muhim tamoyillar hisoblanadi.

Maktabgacha ta’limda klaster usulini qo‘llashni shakllantirishdan asosiy maqsad ta’li samaradorligini bosqichma-bosqich oshirish hamda shu jarayonda ilg‘or innovatsiyalarni joriy etishning jadallashtrishdir. Muvaffaqiyatga erishishning asosiy shartlaridan biri - Klaster ichida sodir bo‘layotgan barcha jarayonlarning ochiqligi va barcha ta’lim muassasalari uchun natijalarning o‘z vaqtida taqdim etib borilishidir. Rivojlanish klasterlariga birlashishni istagan maktabgacha ta’lim muassasalari mustaqil ravishda qaror qabul qiladilar (ta’lim boshqarmasi bo‘limlari ishtirokisiz), rivojlanish dasturini ishlab chiqadilar, rejalashtirilgan natijani, innovatsion faoliyat darajasi, mezonlari va samaradorligini belgilaydilar. Rivojlanish klasterini tashkil etishda ishtirok etadigan maktabgacha ta’lim muassasasi jamoasi natijaga, umumiy nuqtai nazarga, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish, o‘rganish, muvofiqlashtirish, birgalikda qaror qabul qilish va ularni birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak [2. 48].

Agar maktabgacha ta’lim muassasasi oliy ta’lim muasssasalari bilan shartnoma tuzib, ta’lim klasterini tashkil etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishni ikki yo‘l bilan amalgga oshirish mumkin. Birinchidan, maktabgacha ta’lim muassasasi tashabbusi bilan muayyan bir oliy ta’lim bilan shartnoma tuziladi va o‘zaro hamkorlik rejalari hamda mezonlari ishlab chiqiladi. Bunda maktabgacha ta’lim muassasasi oliy ta’lim mutaxassislari hamda mazkur oliygohning moddiy – texnik bazasidan foydalanadi. Binobarin, Klaster yondashuvi bir-biriga qiziqqan sub'ektlarning hamkorligiga asoslanadi, ularning raqobatbardoshligi muammolarini o'rganishda, shuningdek, butun ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish usuli sifatida qo'llaniladi.

Ikkinchidan, muayyan oliy ta’lim muassasasi o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘zining tarkibida maktabgacha ta’lim muassasasi tashkil etadi. Mazkur maktabgacha ta’lim muassasasiga professor – o‘qituvchilarning farzandlari jalb etilishi mumkin. Bu turdagi ta’lim klasterining foydali tomoni shundaki, oliygoh tarkibidagi maktabgacha ta’lim muassasasini mutaxassislar, moddiy – texnik baza va umuman barcha zamonaviy asbob – uskunalar, axborot texnologiyalari jihozlari bilan to‘la ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy amaliyotlshari ham shu ta’lim muassasasida o‘tkaziladi. Ushbu klasterning yana bir foydali tomoni shundaki, oliygohda yo‘lga qo‘yiladigan barcha tajriba – sinov ishlari shu maktabgacha ta’lim muassasasiga yo‘naltiriladi. Yaratilayotga barcha ishmiy ishlar (maqola, o‘quv qo‘llanmalar, darslik va monografiyalar)ning samaradorligi ham shu yerda sinab ko‘riladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda raqamli ta’lim klasterlarini tashkil etishi ayni muddaodir. Bu quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

- o‘zaro hamkorlik asosida raqamli platformalar va resurslardan foydalanish;
- oliy ta’lim muassasalari bazasida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan maktabgacha ta’lim maskanlarini tashkil etish.

Bunday klasterlar doirasida talabalar amaliyot o‘taydi, ilmiy tadqiqotlar sinovdan o‘tkaziladi va innovatsion ishlanmalar amaliyotga joriy etiladi. Natijada ta’lim tizimida uzluksizlik va integratsiya ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta’lim klasterlarini tashkil etish - bu zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va kelajak avlodni raqamli jamiyatga tayyorlashning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Sh.Mirziyoeva. Maktabgacha ta’lim klasterini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining innovatsion kompetentsiyasini rivojlantirishni ta’minlash ekotizimi sifatida. https://www.doi.org/10.33910/1992-6464-2021-202-87-94

2. Осинцева, И.М. Кластерное развитие образования [Текст] /И.М.Осинцева // Национальная образовательная стратегия. Формирование современной модели образования, ориентированной на достижение целей опережающего развития: материалы окружной науч. -практ. конф. -Екатеринбург, 2009.

AQLLI TA’LIM: SUN’IY INTELLEKT ORQALI BILIM BERISHNING YANGI BOSQICHI

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, p.f.d., prof.

XXI asrda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa sun’iy intellektning hayotga keng kirib kelishi barcha sohalar qatori oliy ta’lim tizimiga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat bilim berish, balki global raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, kreativ va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Shu nuqtayi nazardan, aqlli ta’lim konsepsiyasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Aqlli ta’lim sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalar asosida tashkil etilgan bo‘lib, talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘zlashtirish

sur’atlariga moslashgan holda bilim berishni ta’minlaydi. Bu esa an’anaviy ta’lim modelidan farqli ravishda shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va natijador ta’lim tizimini yaratadi.Oliy ta’lim tizimida aqlli ta’limni joriy etish pedagogik jarayonning mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartiradi. An’anaviy modelda o‘qituvchi markaziy rol o‘ynagan bo‘lsa, aqlli ta’lim sharoitida talaba faol subyektga aylanadi. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida talabalarning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati, qiziqishlari va qiyinchiliklari chuqur tahlil qilinadi. Shu asosda har bir talaba uchun individual ta’lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Bu jarayon differensial yondashuvni amalda ta’minlab, har bir talabaning o‘z imkoniyatlari doirasida rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, adaptiv o‘qitish tizimlari talabaning bilim darajasiga qarab o‘quv materiallarini avtomatik ravishda moslashtiradi, murakkab mavzularni bosqichma-bosqich tushuntiradi va o‘zlashtirish darajasiga qarab qo‘shimcha topshiriqlarni taqdim etadi.Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlovchi intellektual tutorlar va virtual assistentlar oliy ta’limda muhim o‘rin egallamoqda. Bunday tizimlar talabalar uchun doimiy yordamchi sifatida faoliyat yuritib, savollarga tezkor javob beradi, murakkab tushunchalarni izohlaydi va mustaqil ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ayniqsa kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan oliy ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda talabalar mustaqil o‘qish faoliyatiga ko‘proq jalb etiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonini ham avtomatlashtirib, testlar, esse va amaliy topshiriqlarni tezkor va xolis baholash imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchilarning vaqtini tejab, ularning ilmiy-tadqiqot va metodik faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratishiga imkon yaratadi.

Aqlli ta’lim muhitida ma’lumotlarga asoslangan ta’lim, ya’ni data-driven education yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv asosida ta’lim jarayonida yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinib, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilinadi. Masalan, talabalar o‘zlashtirishida yuzaga kelayotgan muammolarni oldindan aniqlash, o‘qitish metodlarini optimallashtirish va o‘quv dasturlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali va tizimli tashkil etiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi aqlli ta’limning samaradorligini yaqqol ko‘rsatib bermoqda. AQSh universitetlarida Coursera, edX kabi platformalar orqali sun’iy intellekt asosida individual ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu platformalar talabalarning o‘qish faoliyatini tahlil qilib, ularga mos kurslar va o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Xitoyda Squirrel AI tizimi har bir talaba uchun individual o‘quv dasturini ishlab chiqib, o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirgan. Janubiy Koreyada “smart university” modeli asosida barcha ta’lim jarayonlari raqamlashtirilgan bo‘lib, sun’iy intellekt yordamida talabalar faolligi va natijalari real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Finlandiya tajribasida esa sun’iy intellekt pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi vosita

sifatida qaralib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Aqlli ta’limni joriy etishda raqamli platformalar va texnologik infratuzilma muhim rol o‘ynaydi. Moodle, Canvas, Blackboard kabi LMS tizimlari orqali o‘quv jarayonini boshqarish, nazorat qilish va baholash imkoniyati kengaymoqda. Ushbu platformalar sun’iy intellekt elementlari bilan boyitilib, talabalar faoliyatini avtomatik monitoring qilish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida immersiv ta’lim muhiti yaratilmoqda. Bu ayniqsa tibbiyot, muhandislik va texnika yo‘nalishlarida samarali qo‘llanilmoqda, chunki talabalar murakkab jarayonlarni amaliy jihatdan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Aqlli ta’limni samarali joriy etishda pedagoglarning raqamli kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar sun’iy intellekt texnologiyalarini, raqamli platformalarni va innovatsion metodlarni chuqur o‘zlashtirishi zarur. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni raqamli pedagogika va sun’iy intellekt asoslari bo‘yicha tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Chunki har qanday texnologiya uning foydalanuvchisi tomonidan to‘g‘ri qo‘llanilgandagina samarali natija beradi.

Shu bilan birga, aqlli ta’lim bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, barcha talabalar uchun teng texnologik imkoniyatlarning mavjud emasligi, ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, sun’iy intellektga haddan tashqari tayanish insoniy muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli aqlli ta’limni joriy etishda texnologik va pedagogik yondashuvlar o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’limga joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish tizimlari va raqamli resurslardan foydalanish kengaymoqda. Kelajakda esa aqlli ta’lim tizimlarini keng joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish, talabalar bilimini xalqaro standartlar asosida baholash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, aqlli ta’lim sun’iy intellekt asosida oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqayotgan innovatsion yo‘nalish hisoblanadi. U ta’lim jarayonini individuallashtirish, samaradorligini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayonda insonparvarlik tamoyillarini saqlash, o‘qituvchining yetakchi rolini mustahkamlash va axborot xavfsizligini ta’minlash

muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Aqlli ta’limni rivojlantirish texnologiya va pedagogika uyg‘unligini ta’minlash orqali oliy ta’lim tizimining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaeva S.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Qodirova F.R. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 2019.
4. Elkonin D.B. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2018.
5. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.

SHAXS KAMOLOTIDA MILLIY TARBIYANING TUTGAN O‘RNI

Urganch davlat pedagogika instituti
v.b.dots Abdullayeva Rayhon Atanazarovna
E-mail: rayxonabdullayeva@gmail.com
Тел: 998885264554

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Milliy tarbiya yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini shakllantirishda hamda milliy o‘zlikni anglashda muhim omil hisoblanadi.Shaxsning barkamol rivojlanishi uchun milliy urf-odatlar, an’analar, til, madaniyat va tarixiy meros asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Milliy tarbiya orqali yoshlar vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois, shaxsning har tomonlama yetuk va ma’naviy boy bo‘lib shakllanishida milliy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir.

Kalit so’zlari: milliy tarbiya, shaxs, shakllanish, qadriyatlar, ma’naviyat, urf-odatlar, an’analar, madaniyat, vatanparvarlik.

Аннотация: В данной статье раскрыта роль и значение национального воспитания в формировании личности. Национальное воспитание является важным фактором в формировании духовно-нравственного мировоззрения молодого поколения, системы ценностей и осознания национальной идентичности. Для всестороннего развития личности национальные обычаи, традиции, язык, культура и историческое наследие служат прочной основой. Через национальное воспитание у молодежи формируются такие качества, как патриотизм, гуманизм, милосердие, трудолюбие и ответственность. Таким

образом, национальное воспитание занимает важнейшее место в становлении всесторонне развитой и духовно богатой личности.

Ключевые слова: национальное воспитание, личность, формирование, ценности, духовность, традиции, обычаи, культура, патриотизм.

Annotation: This article highlights the role and significance of national education in the formation of personality. National upbringing plays a crucial role in shaping the moral and spiritual worldview of the younger generation, building a system of values, and fostering national identity. Customs, traditions, language, culture, and historical heritage serve as a solid foundation for the comprehensive development of the individual. Through national upbringing, young people acquire qualities such as patriotism, humanism, compassion, diligence, and responsibility. Therefore, national education holds an essential place in the formation of a well-rounded and spiritually rich personality.

Keywords: national education, personality, formation, values, spirituality, traditions, customs, culture, patriotism.

Bugungi kunda milliy tarbiya shaxsning dunyoqarashi, fikrlashi va ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mustahkam milliy ildizlarga ega bo‘lgan shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, millat manfaatlarini himoya qiladi va kelajak avlodlarga o‘z merosini yetkazadi.Shu boisdan milliy tarbiya nafaqat oilada, balki maktabda, jamiyatda va davlat darajasida ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Milliy tarbiya orqali yoshlarni Vatanini sevishga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga va ularni asrab-avaylashga o‘rgatish zarurdir. Mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi mamlakatning ma’naviy barkamolligi va barqaror rivojlanishining poydevorini tashkil etadi.Har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari, an’analari va milliy merosi mavjud. Shu meros negizida shakllangan tarbiya tizimi “milliy tarbiya” deb ataladi. Milliy tarbiya inson shaxsining shakllanishida muhim omil bo‘lib, uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, dunyoqarashi va hayotiy qarashlarini belgilab beradi. Milliy tarbiya — bu har bir millatning o‘ziga xos madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini yosh avlodga yetkazish, ularni milliy ruhda tarbiyalash jarayonidir. Har bir xalq o‘zining tarixiy ildizlari, qadimiy urf-odatlari, ona tiliga, madaniyatiga va milliy qadriyatlariga chuqur bog‘langan bo‘lib, shu omillar uning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Milliy tarbiya shaxsning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ma'naviy qiyofasini shakllantiradigan asosiy omillardandir.Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro madaniy aloqalar va texnologik taraqqiyot natijasida dunyo bir butunga aylangan bo‘lsada, har bir millat o‘zining noyobligini saqlab qolishi, milliy qadriyatlarini avaylab asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini yo‘qotmasligi zarur. Shu bois, milliy tarbiya nafaqat oila va maktabda, balki jamiyat va davlat siyosatida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Milliy tarbiya orqali yoshlar o‘zining milliy kimligini anglab yetadi, Vataniga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni his qiladi, milliy qadriyatlar va an'analarni hurmat qilishga o‘rgatiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mustaqil davlat sifatida O‘zbekistonning mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy tarbiya shaxsning yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirib, uni jamiyatda mas’uliyatli, mustaqil va faol fuqaroga aylantiradi.O‘zbekiston Respublikasining milliy tarbiyaga bo‘lgan e’tibori bejiz emas. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy qadriyatlarni saqlash, ularni yosh avlodga singdirish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada ta’lim muassasalari, madaniyat va san’at sohalari faol ishtirok etib, milliy tarbiyaning samarali tizimini yaratishga xizmat qilmoqda.Shu bois milliy tarbiya masalasini o‘rganish, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va amaliyotga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Milliy tarbiya orqali tarbiyalangan yoshlar o‘zining milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shadi hamda yurtimizning obro‘-e'tiborini yanada yuksaltiradi. O‘zbek olimlari milliy tarbiya masalasini chuqur o‘rganib, bu sohada nazariy va amaliy jihatlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar. Ularning asarlari va ilmiy tadqiqotlari milliy tarbiyaga doir nazariy konsepsiyalarni shakllantirish, tarbiya jarayonini yaxshilash hamda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan.O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo‘lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqalarning ta’lim-tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bahovuddin Naqshbandning ta’limtarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab, shunday degan edi: “Adab xulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir... Adab saqlash muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin“ Abu Nasr Forobiy birinchi bo‘lib ta’lim va tarbiyaga ta’rif bergan olimdir. „Ta’lim so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyot, ish-tajriba bilan, ya’ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi“, deydi u. Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo‘lishi uchun unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni

o‘rganadi. Forobiy bolalarning fe’latvoriga qarab tarbiya jarayonida „qattiq“ yoki „yumshoq“ usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi

Mirxalilova N.A. — milliy tarbiya jarayonida o‘quvchilarga milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirishda ajdodlarimizning madaniy merosidan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. U ta’lim muassasalarida milliy an’analarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilgan. Akbarov Sh. — milliy tarbiya va uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni haqida ilmiy maqolalar yozib, milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish yo‘llarini taklif qilgan. Uning tadqiqotlari milliy ruhda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti — mustaqillik yillarida milliy tarix maktabini yaratish va rivojlantirish borasida faol ish olib borgan. Bu institutning olimlari milliy tarixiy shaxslar va voqealarni qayta ko‘rib chiqish, ularning milliy tarbiya jarayonidagi o‘rnini yoritishga katta hissa qo‘shgan. Sodiqov B. — milliy tarbiya va madaniyat sohasida tadqiqotlar olib borib, milliy qadriyatlarning tarbiyadagi roli va yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rgangan. To‘xtasinov M. — milliy tarbiyaning tamoyillari va metodologiyasini ishlab chiqqan, yoshlarning milliy ruhda tarbiyalanishida ta’lim-tarbiya tizimining ahamiyatini tahlil qilgan.

Milliy tarbiyaning mazmuni

Milliy tarbiya – bu xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy boyliklari, axloqiy qarashlari, o‘ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini yoshlarga singdirish jarayonidir. Unda quyidagi asosiy jihatlar mujassamdir:

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar – halollik, mehr-shafqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, sabr-toqat.

Vatanparvarlik – yurtni sevish, uni himoya qilish, boyliklarini asrash.

Mehnatsevarlik – halol mehnat qilish, mehnat orqali jamiyatga foyda keltirish.

Oilaviy qadriyatlar – ota-onaga ehtirom, oila qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazish.

Milliy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o‘rni

1. Ma’naviy barkamollikni ta’minlaydi. Milliy tarbiya shaxsning axloqiy mezonlarini shakllantiradi, uni to‘g‘ri va noto‘g‘rini ajrata oladigan inson etib voyaga yetkazadi.

2. Jamiyatga moslashuvni osonlashtiradi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya olgan bola jamiyat talablariga tez moslashadi, ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘ladi.

3. Vatanparvarlik ruhini kuchaytiradi. Milliy tarbiya orqali yosh avlod yurti, tili va madaniyatini qadrlaydi, ularni asrab-avaylashga intiladi.

4. Shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi. Sadoqat, mehribonlik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik kabi fazilatlar milliy tarbiya jarayonida shakllanadi.

5. Milliy o‘zlikni anglashni ta’minlaydi. O‘z xalqining tarixini, an’analarini bilgan yosh avlod o‘zini millatning ajralmas bo‘lagi sifatida his etadi.

Zamonaviy sharoitda milliy tarbiya

Globallashuv sharoitida xorijiy madaniyat va qadriyatlarning tez tarqalishi yoshlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday vaziyatda milliy tarbiya yoshlarni begona g‘oyalardan himoya qiladi, milliy o‘zlikni saqlab qolishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, milliy tarbiya zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashganda samarasi yanada ortadi.

Materiallar va tadqiqot usullari: Ushbu tadqiqotda Milliy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o’rni bo’yicha ishlar olib borildi shuningdek, oilaviy muhit ta’lim va tarbiya shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi ma’lum.

Shuningdek milliy qadriyatlarimiz orqali bolalarda milliy tarbiyani shakllantirishimiz mumkunligi aniqlandi.

“Uch bosqichli milliy o‘zlikni shakllantirish” modeli:

1-bosqich (Boshlang‘ich anglash): O‘quvchilarni ona tili, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi orqali milliy qadriyatlar bilan tanishtirish.

2-bosqich (Identifikatsiya): Yoshlarning o‘zini millat vakili sifatida anglashini ta’minlash, bu orqali o‘ziga xoslik va ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish.

3-bosqich (Integratsiya): Milliy qadriyatlarni shaxsning zamonaviy dunyoqarashi bilan uyg‘unlashtirish — ya’ni, xalq an’analari va globallashuv jarayonlari o‘rtasida muvozanatni topish.

O‘quv jarayoniga milliy-madaniy komponentlarni integratsiyalashgan holda joriy etish:

Har bir fan doirasida milliylikka oid elementlar (masalan, tarixda mahalliy qahramonlar, matematikada xalqona o‘lchov birliklari, adabiyotda milliy adiblar ijodi) orqali o‘quvchilarning ruhiy va axloqiy olamini boyitish.

“Milliy tarbiya – hayotiy kompetensiya” tamoyili asosida ish olib borish:

Milliy tarbiya faqat axloqiy-tarbiyaviy jarayon emas, balki shaxsiy hayot strategiyasini shakllantirish omili sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, milliy qadriyatlar asosida o‘z kelajagini loyihalashga qodir shaxsni tarbiyalash ko‘zda tutiladi.



Yoshlarning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy meros asosida tarbiyalanishi masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Chunki axborot oqimining tezkorligi, turli g‘oyaviy tahdidlar va begona madaniyatlarning kirib kelishi natijasida yosh avlodning ongiga salbiy ta’sirlar ko‘rsatishi mumkin. Shaxsning komil inson sifatida shakllanishida milliy tarbiya alohida o‘rin tutadi.Milliy tarbiya insonning o‘z millati va xalqiga xos qadriyatlarni anglashiga, tarixiy merosni asrab-avaylashga, vatanparvarlik, mehr-oqibat va insonparvarlik tuyg‘ularini chuqur singdirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham milliy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o‘rni masalasi nafaqat pedagogika va psixologiya, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy tarbiyani rivojlantirishga, uni zamonaviy tarbiya usullari bilan uyg‘unlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, milliy qadriyatlarni bilmagan yoshning ijtimoiy faolligi, vatanparvarlik ruhiyati va axloqiy kamoloti to‘liq shakllanmaydi. Shu sababli ushbu mavzu ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Milliy tarbiya shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol bo‘lib yetishishida muhim omil sanaladi. U yosh avlodning milliy o‘zligini anglashiga, tarixiy meros va qadriyatlarni qadrlashiga, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.
Turli g‘oyaviy tahdidlar mavjud bo‘lsa-da, milliy tarbiya yoshlarni mustahkam ma’naviy immunitet bilan qurollantiradi, ularda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik, vatan va xalq oldidagi mas’uliyatni oshiradi. Shu boisdan ham shaxsning har tomonlama shakllanishida milliy tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi.
Tadqiqot davomida shuni kuzatish mumkinki, milliy tarbiyaning samarali yo‘lga qo‘yilishi shaxsning:
milliy g‘ururga ega bo‘lishi,
ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi,
yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishi,
madaniy merosni asrab-avaylashi,
kabi muhim jihatlarini shakllantiradi.
Shu sababli, ta’lim-tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlarni chuqur integratsiya qilish, bu boradagi metodik yondashuvlarni zamonaviy psixologik-pedagogik talablarga mos tarzda takomillashtirish zarur. Shuningdek, oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni mustahkamlash milliy tarbiyaning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Tavsiya etiladi:

- Ta’lim muassasalarida milliy tarbiya yo‘nalishida maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

- O‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida milliylikni asos qilib olgan sinf soatlari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, madaniy tadbirlar tashkil etish.
- Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy tarbiyaga oid interaktiv metodlarni joriy etish (video, audiokitoblar, mobil ilovalar, vebinarlar).

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya – bu shunchaki an’ana emas, balki shaxsni barkamol etib voyaga yetkazuvchi kuchli ijtimoiy-madaniy tizimdir. Uni zamon talablariga mos tarzda shakllantirish orqali mustahkam fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin.

Milliy tarbiya va zamonaviy tarbiya usullarining uyg‘unlashuvi jamiyatda ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan yoshlarni voyaga yetkazishga zamin yaratadi. Shu sababli mazkur masala ilmiy izlanishlar, ta’lim-tarbiya jarayonida chuqur tadqiq etilishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. *Xalq so‘zi* gazetasi, 2021-yil 30-dekabr.

2. Qodirova N.M. *Milliy tarbiya asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 240 b.

3.To‘raxo‘jayev N. *Ma’naviyat asoslari.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 220 b.

4. Abdullaeva M.T. *Shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. Pedagogik ta’lim*, 2020, №2. – B. 45–49.

5. G‘ofurov N. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar.* – Toshkent: Fan, 2020. – 196 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ 5–6 КЛАССОВ).

Ургенчский государственный педагогический институт
Абдуллаева Райхон Атаназаровна– в.и.о.доцент
кафедры “Дошкольное образование”
E-mail: rayxonabdullayeva@gmail.com
Тел: 998885264554

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы совершенствования воспитательного процесса в общеобразовательных школах на основе национально-духовных ценностей в условиях цифровой трансформации образования. Особое внимание уделяется учащимся 5–6 классов как возрастной группе, находящейся на этапе активного формирования ценностных ориентиров. Анализируются проблемы внедрения цифровых технологий в воспитательный процесс, а также предлагаются эффективные педагогические методы, сочетающие традиционные ценности и современные

образовательные технологии. Обосновывается необходимость интеграции национально-культурного наследия в цифровую образовательную среду для повышения эффективности воспитательной работы.

Ключевые слова: воспитательный процесс, национально-духовные ценности, цифровая трансформация, педагогические технологии, 5–6 классы, образовательная среда, инновации.

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarida tarbiya jarayonini milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida takomillashtirish masalalari raqamli transformatsiya sharoitida ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, 5–6-sinf o‘quvchilari misolida, ularning qadriyatlar tizimi shakllanish bosqichida ekanligi hisobga olinadi. Tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar tahlil qilinadi hamda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan samarali usullar taklif etiladi. Milliy-madaniy merosni raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya jarayoni, milliy-ma’naviy qadriyatlar, raqamli transformatsiya, pedagogik texnologiyalar, 5–6-sinflar, ta’lim muhiti, innovatsiyalar.

Abstract. This article examines relevant issues of improving the educational (upbringing) process in secondary schools based on national and spiritual values in the context of digital transformation. Particular attention is paid to students of grades 5–6 as a critical stage in the formation of value orientations. The paper analyzes challenges associated with integrating digital technologies into the educational process and proposes effective pedagogical methods that combine traditional values with modern educational technologies. The necessity of integrating national cultural heritage into the digital learning environment is substantiated to enhance the effectiveness of educational work.

Keywords: educational process, national and spiritual values, digital transformation, pedagogical technologies, grades 5–6, learning environment, innovation.

Современный этап развития общества характеризуется активной цифровой трансформацией всех сфер жизнедеятельности человека, включая систему образования. В этих условиях особую значимость приобретает проблема совершенствования воспитательного процесса, направленного на формирование гармонично развитой личности, способной эффективно функционировать в цифровой среде и одновременно сохранять свою культурную и национальную идентичность. Воспитание подрастающего поколения на основе национально-духовных ценностей выступает ключевым фактором устойчивого развития общества, поскольку именно через систему образования обеспечивается преемственность культурных традиций, моральных норм и общественных идеалов.

Особую актуальность данная проблема приобретает в отношении учащихся 5–6 классов, поскольку данный возрастной период характеризуется интенсивным развитием личности, формированием мировоззренческих установок и ценностных ориентаций. В этом возрасте дети переходят от начального уровня образования к более сложной системе учебной деятельности, расширяется их социальный опыт, усиливается влияние внешней информационной среды, включая цифровые ресурсы и социальные сети. В связи с этим возрастает необходимость создания педагогических условий, способствующих гармоничному сочетанию традиционных воспитательных подходов и современных цифровых технологий.

Национально-духовные ценности представляют собой совокупность исторически сложившихся норм, традиций, культурных образцов и нравственных ориентиров, определяющих поведение человека в обществе. Они включают такие элементы, как уважение к старшим, патриотизм, трудолюбие, ответственность, гуманизм, толерантность и стремление к знаниям. Воспитание на основе этих ценностей способствует формированию устойчивой личностной позиции учащихся, их социальной ответственности и гражданской идентичности.

В то же время цифровая трансформация образования открывает новые возможности для организации воспитательного процесса. Использование информационно-коммуникационных технологий, мультимедийных ресурсов, онлайн-платформ и интерактивных методов обучения позволяет повысить мотивацию учащихся, расширить доступ к образовательным ресурсам и обеспечить индивидуализацию обучения. Однако наряду с положительными аспектами цифровизация несет и определенные риски, связанные с возможным снижением уровня живого общения, формированием поверхностного восприятия информации и воздействием контента, не соответствующего национально-культурным ценностям.

Анализ современной педагогической практики показывает, что одной из основных проблем является недостаточная интеграция воспитательных задач в цифровую образовательную среду. В ряде случаев использование цифровых технологий ограничивается передачей учебной информации и не затрагивает воспитательный компонент. Кроме того, наблюдается недостаточная подготовленность педагогов к использованию цифровых инструментов в целях формирования ценностных ориентаций учащихся. Это приводит к тому, что воспитательный потенциал цифровых технологий остается реализованным не в полной мере.

Важным направлением совершенствования воспитательного процесса является разработка и внедрение педагогических методов, обеспечивающих органичное сочетание

национально-духовных ценностей и цифровых технологий. Одним из таких методов является интеграция ценностного содержания в цифровые образовательные ресурсы. Это может включать создание видеоматериалов, презентаций, интерактивных заданий и образовательных игр, отражающих национальные традиции, культурное наследие и моральные нормы. Использование подобных ресурсов способствует более глубокому осмыслению учащимися изучаемого материала и формированию у них устойчивых ценностных установок.

Не менее важным является применение интерактивных методов обучения, таких как проектная деятельность, групповые дискуссии, кейс-методы и онлайн-викторины. Эти формы работы позволяют активизировать познавательную деятельность учащихся, развивать их критическое мышление и коммуникативные навыки, а также формировать способность к самостоятельному анализу и оценке информации. В контексте воспитания особое значение приобретает обсуждение нравственных ситуаций, моделирование социальных ролей и анализ примеров из реальной жизни.

В условиях цифровой трансформации особую роль играет формирование медиаграмотности учащихся. Это предполагает развитие у них способности критически воспринимать информацию, оценивать ее достоверность и соответствие нравственным нормам, а также осознанно выбирать информационные ресурсы. Формирование медиаграмотности способствует защите учащихся от негативного влияния цифровой среды и повышает эффективность воспитательного процесса.

Существенным фактором успешной реализации воспитательных задач является повышение профессиональной компетентности педагогов. Учителя должны владеть современными цифровыми инструментами, уметь интегрировать их в образовательный процесс и использовать для решения воспитательных задач. Это требует организации систематического повышения квалификации, обмена опытом и внедрения инновационных педагогических практик.

Особое значение имеет взаимодействие школы и семьи в условиях цифровой трансформации. Родители должны быть вовлечены в воспитательный процесс и поддерживать усилия педагогов по формированию у детей национально-духовных ценностей. Использование цифровых коммуникационных платформ позволяет обеспечить эффективное взаимодействие между школой и семьей, оперативный обмен информацией и совместное решение воспитательных задач.

Практическая реализация предложенных подходов на уровне 5–6 классов может включать организацию тематических проектов, посвященных изучению национальной культуры и традиций, проведение онлайн-конкурсов и викторин, использование цифровых

образовательных платформ с воспитательной направленностью, а также сочетание традиционных форм работы (классные часы, беседы, внеклассные мероприятия) с современными технологиями. Важно, чтобы все эти формы деятельности были направлены на формирование у учащихся устойчивых нравственных ориентиров и позитивной социальной позиции.

Таким образом, совершенствование воспитательного процесса в общеобразовательных школах в условиях цифровой трансформации требует комплексного и системного подхода, основанного на интеграции национально-духовных ценностей и современных педагогических технологий. Эффективная реализация данного подхода позволит обеспечить формирование гармонично развитой личности, способной успешно адаптироваться к условиям современного общества и сохранять свою культурную идентичность.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Исаак Яковлевич Лернер Педагогика: теория и практика обучения. — М.: Просвещение, 1988.
2. Юрий Константинович Бабанский Оптимизация процесса обучения. — М.: Педагогика, 1982.
3. Василий Александрович Сухомлинский Сердце отдаю детям. — Киев: Радянська школа, 1977.
4. Шалва Александрович Амонашвили Личностно-гуманная основа педагогического процесса. — М.: Педагогика, 1990.
5. Лев Семёнович Выготский Психология развития человека. — М.: Смысл, 2005.
6. ЮНЕСКО Образование в условиях цифровой трансформации: глобальный доклад. — Париж, 2021.
7. Министерство народного образования Республики Узбекистан Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. — Ташкент, 2019.
8. Шавкат Мирзиёев Стратегия развития Нового Узбекистана. — Ташкент, 2022.
9. Педагогика в условиях цифровизации образования: современные исследования и подходы. — Ташкент, 2020.
10. Цифровая педагогика: теория и практика внедрения. — М.: Юрайт, 2021.
11. Медиаграмотность в системе школьного образования. — Ташкент, 2021.
12. UNICEF Digital Learning and Education Report. — New York, 2020.

TALABALAR KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Urganch davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi **Matchanova Nazokat Qudrat qizi**
(nazokatmatchonova@gmail.com)

7. Luckin R. *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.
8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
9. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
10. OECD. *Digital Education Outlook 2022: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots*. – Paris: OECD Publishing, 2022.
11. Kizilcec R.F., Piech C., Schneider E. Deconstructing Disengagement: Analyzing Learner Subpopulations in MOOCs. – *Proceedings of LAK Conference*, 2013.
12. Baker R.S., Inventado P.S. Educational Data Mining and Learning Analytics. – Springer, 2014.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF–6097-son Farmoni “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA OLIY TA’LIM TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yusupova Firuza Hajiboy qizi
Email: feruzayusupova.911.gmail.com
Telfon raqam:+998999636394

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning mutolaa qilish motivatsiyasini oshirish, elektron resurslardan samarali foydalanish hamda kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar asosida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik tavsiyalari berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, kitobxonlik madaniyati, mutolaa, pedagogik asos, elektron kutubxona, talaba.

Аннотация:В данной статье анализируются педагогические основы формирования культуры чтения у студентов высших учебных заведений в условиях цифровой образовательной среды. В исследовании освещаются вопросы повышения мотивации студентов к чтению с использованием современных цифровых технологий, эффективного использования электронных ресурсов, а также развития читательской компетентности. Также представлены методические рекомендации по формированию культуры чтения на основе цифровых платформ.

Ключевые слова:цифровая образовательная среда, культура чтения, чтение, педагогические основы, электронная библиотека, студент.

Annotation: This article analyzes the pedagogical foundations of developing a reading culture among higher education students in a digital learning environment. The study explores ways to enhance students’ reading motivation through modern digital technologies, effective use of electronic resources, and the development of reading competence. It also provides methodological recommendations for fostering a reading culture based on digital platforms.

Keywords:digital learning environment, reading culture, reading, pedagogical foundations, electronic library, student.

Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitining keng joriy etilishi talabalarning mutolaa jarayoniga bo‘lgan munosabati, axborotni qabul qilish va qayta ishlash usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli, zamonaviy pedagogik jarayonda kitobxonlik madaniyatini raqamli vositalar asosida

shakllantirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi asosida yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, mutolaa muhitini kengaytirish bo‘yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: *“Kitob inson tafakkurini charxlaydi, uning dunyoqarashini kengaytiradi va ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi”*. Mazkur fikr kitobxonlik madaniyatining shaxs tarbiyasidagi o‘rni naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan qarorlarida yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish, zamonaviy ta’lim resurslaridan samarali foydalanish hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida oliy ta’limda raqamli pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, elektron kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish hamda talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb etish zarurligi ta’kidlangan. Mazkur hujjatlar raqamli ta’lim muhitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. Hozirgi axborot oqimi kuchli bo‘lgan sharoitda talabalar ko‘pincha qisqa va tezkor ma’lumotlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa chuqur mutolaa qilish, tahliliy fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta’lim muhitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish nafaqat ma’naviy-ma’rifiy vazifa, balki pedagogik muammo sifatida ham dolzarb hisoblanadi.Raqamli ta’lim muhiti — bu elektron resurslar, onlayn platformalar, masofaviy ta’lim texnologiyalari va virtual kutubxonalar orqali tashkil etilgan ta’lim tizimi bo‘lib, u talabalar uchun mustaqil mutolaa qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron kitoblar, audiokitoblar, raqamli kutubxona bazalari hamda interaktiv o‘qish platformalari kitobxonlikni rivojlantirishning yangi pedagogik mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, mazkur tadqiqotda oliy ta’lim talabalarida raqamli ta’lim muhiti sharoitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda samarali shakllantirish yo‘llari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.Raqamli ta’lim muhitida oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kunda pedagogika, raqamli didaktika va ma’naviy tarbiya yo‘nalishlarida faol o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha xorijiy

va mahalliy olimlar tomonidan qator nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularda raqamli vositalarning mutolaa jarayoniga ta’siri, talabalar o‘qish motivatsiyasini oshirish hamda kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan.

O‘zbekiston pedagogik maktabida ham kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, **Adhamjonova Husnidahon** talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini tadqiq etib, oliy ta’lim jarayonida mutolaa faoliyatini tizimli tashkil etish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, kitobxonlik madaniyati shaxsning ma’naviy kamoloti va kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismidir.Shuningdek, **Bahodir Burxonov** raqamli texnologiyalar orqali kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratib, zamonaviy elektron ta’lim resurslari talabalar orasida kitob o‘qish motivatsiyasini oshirishning samarali vositasi ekanligini ta’kidlaydi. U raqamli platformalar orqali mutolaa jarayonini innovatsion shakllarda tashkil etish pedagogik jihatdan muhim imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatib o‘tadi.Mahalliy tadqiqotchilardan **Meliqo‘ziyeva Odinaxon Bahromjon qizi** talabalarning kitobxonlik odatlari va uning tarbiyaviy ta’sirini o‘rganib, kitobxonlik madaniyati yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim omil ekanligini ilmiy asoslagan. Uning tadqiqotlari talabalar orasida mutolaa muhitini kuchaytirish, kitobxonlikni rag‘batlantirish va pedagogik sharoitlarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish va yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosati, xususan, Prezident farmon va qarorlari, ta’lim strategiyalari hamda pedagogika fanida ilgari surilgan kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida shaxsning intellektual rivojlanishi va mutolaa madaniyatini shakllantirishga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari metodologik tayanch sifatida xizmat qiladi.

Mazkur maqolada tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1.Nazariy tahlil metodi.Kitobxonlik madaniyati, raqamli ta’lim muhiti va pedagogik mexanizmlar bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu metod orqali mavzuning nazariy asoslari yoritildi.

2.Taqqoslash va umumlashtirish metodi Raqamli va an’anaviy mutolaa jarayonining o‘ziga xos jihatlari taqqoslandi hamda talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga oid ilmiy xulosalar umumlashtirildi.

3.Pedagogik kuzatish metodi.Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning elektron kutubxonalar, onlayn resurslar va raqamli platformalar orqali kitob o‘qish faolligi kuzatildi. Bu metod kitobxonlik odatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

4.So‘rovnoma va diagnostic metodlar.Talabalarning mutolaa qilishga bo‘lgan motivatsiyasi, raqamli resurslardan foydalanish darajasi hamda kitobxonlik ehtiyojlarini aniqlash

maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazish metodidan foydalanish nazarda tutildi.

5.Pedagogik modellashtirish metodi.Raqamli ta’lim muhitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model motivatsion, kompetensiyaviy va interaktiv komponentlarni o‘z ichiga oladi.

6.Statistik va tahliliy yondashuv.Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumiy natijalarni asoslashda statistik elementlardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli ta’lim muhitida oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni pedagogik tizim sifatida yoritilib, elektron resurslar asosida mutolaa kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmlari taklif etiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida:

- raqamli kutubxona imkoniyatlaridan samarali foydalanish,
- talabalarda mutolaa motivatsiyasini oshirish,
- kitobxonlik madaniyatini innovatsion metodlar orqali shakllantirish,
- elektron ta’lim resurslarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish

bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar olib kirar ekan, talabalar orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, elektron resurslardan samarali foydalanish hamda kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti sharoitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni faqatgina elektron kitoblardan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki u talabalarda mustaqil o‘qish ehtiyojini kuchaytirish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ma’naviy-intellektual salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.Mazkur jarayonda motivatsion yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, integrativ metodlar hamda interaktiv raqamli platformalardan foydalanish talabalarning kitobxonlik faolligini oshirishda samarali vosita ekanligi asoslandi. Shuningdek, elektron kutubxonalar, audiokitoblar, mobil mutolaa ilovalari va onlayn kitobxonlik klublari talabalar orasida zamonaviy mutolaa muhitini shakllantirishning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etildi.Tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhitida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutolaa jarayonini tizimli tashkil etish hamda talabalarni raqamli resurslardan ongli va maqsadli foydalanishga yo‘naltirish zarurligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. PF–4947. — Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi Farmon. PF–5847. — Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Farmon. PF–6108. — Toshkent, 2020.
4. Adhamjonova H. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. — Toshkent, 2022.
5. Burxonov B. Raqamli texnologiyalar asosida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 2023.
6. Meliqo‘ziyeva O.B. Talabalarning kitobxonlik odatlari va tarbiyaviy ahamiyati. *O‘zbekiston pedagogika jurnali*, 2023.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA QAYTA HIKOYA QILISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

Ro‘zmetova Muslima Ollayor qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
muslimaruzmetova3@gmail.com
Telfon raqam: +998990753222

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda qayta hikoya qilish metodikasining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Qayta hikoya qilish jarayoni tarbiyachilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlash va izchil bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qayta hikoya qilish metodikasining turlari, bosqichlari va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu metodikaning bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, qayta hikoya qilish, bo‘lajak tarbiyachi, og‘zaki nutq, pedagogik metodika, nutqni rivojlantirish.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение методики пересказа в формировании речевой компетентности будущих воспитателей. Пересказ анализируется как эффективное средство развития устной речи, обогащения словарного запаса, формирования логического мышления и навыков связного высказывания. В исследовании раскрываются виды и этапы методики пересказа, а также способы её

применения в образовательном процессе. Обоснована роль данной методики в повышении профессиональной подготовки будущих воспитателей.

Ключевые слова: речевая компетентность, методика пересказа, будущий воспитатель, устная речь, педагогический процесс.

Annotation: This article examines the pedagogical significance of developing retelling methodology in shaping the speech competence of future preschool educators. Retelling is analyzed as an effective means of developing oral speech, enriching vocabulary, and forming logical thinking and coherent speech skills. The study explores the types and stages of retelling methodology and the ways of applying it in the educational process. The role of this methodology in improving the professional training of future educators is substantiated.

Keywords: speech competence, retelling, future educator, oral speech, pedagogical methodology, speech development.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachi shaxsining nutqiy savodxonligi va kommunikativ mahorati bolalar nutqini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida samarali metodlardan foydalanish ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan qaraganda, qayta hikoya qilish metodikasi bo‘lajak tarbiyachilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qaroriga muvofiq ham “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqish vazifasi ham yo‘l xaritasida belgilab berilgandir”. Maktabgacha ta’limda muayyan muammoning yechimini topish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy tizimida rivojlanishning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti shaxs barkamolligiga katta hissa qo‘shadi. Bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda qayta hikoya qilish metodikasi badiiy asar mazmunini izchil, ifodali va mantiqiy bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon talabalarda nutqning ravonligi, boy lug‘at boyligi va adabiy til me’yorlariga amal qilishni shakllantiradi, shuningdek, bolalar bilan ishlashda hikoya qilish, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni o‘rgatadi. Xususan olimlardan A.A.Leontyev nutqiy faoliyat psixologiyasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida qayta hikoya qilishni “reproduktiv nutq faoliyatining asosiy turi” deb ataydi.U fikricha:“Qayta hikoya qilishning asosiy maqsadi — o‘rganilgan matn mazmunini xotira, idrok va tafakkur orqali nutqiy ifodaga aylantirishdir.” L.S. Vygotskiy o‘zining “Nutq va tafakkur” asarida shunday deydi:“Bola nutqi va tafakkuri faoliyati o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Qayta hikoya qilish bolaga mazmunni anglash, uni idrok etish

va so‘z bilan ifodalashni o‘rgatadi.”Unga ko‘ra, qayta hikoya qilish jarayonida bola (yoki bu holda bo‘lajak tarbiyachi) aktual rivojlanish zonasidan chiqib, yaqin rivojlanish zonasiga o‘tadi. Shu orqali u nutqni izchil, mantiqiy va ifodali qurish ko‘nikmasini egallaydi. Bu jarayon bo‘lajak tarbiyachilarga nafaqat so‘z boyligini, balki fikrni mantiqan bayon etish va bolalarga xos til vositalaridan foydalana bilish malakasini ham rivojlantiradi. Qayta hikoya qilish metodikasini rivojlantirish yo‘llari:Matn tahlili: Tanlangan badiiy asarni mazmunan tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash va qahramonlar xarakterini tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish.Lug‘at boyligini oshirish: Matndagi yangi so‘zlar va iboralarni qo‘llash orqali nutqni boyitish. Ifodali o‘qish: Tarbiyachining o‘z nutqida intonatsiya, pauza va hissiyotlarni to‘g‘ri qo‘llashini mashq qilish. Ijodiy yondashuv: Hikoyani sahnalashtirish yoki o‘zgartirish orqali kreativlikni oshirish. Bo‘lajak tarbiyachilar uchun nutqiy kompetensiya kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u bolalar nutqining rivojlanishida yetakchi omil hisoblanadi.Qayta hikoya qilish metodikasining ilmiy mohiyati. Qayta hikoya qilish metodikasi o‘qilgan yoki eshitilgan matn mazmunini idrok etish, tushunish, eslab qolish va uni o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalashga asoslangan murakkab nutqiy-faoliyat jarayonidir. Ushbu metodika psixologik jihatdan xotira, tafakkur va diqqat jarayonlariga tayanadi, lingvistik jihatdan esa nutqning mazmuniy va strukturaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini taqozo etadi. Qayta hikoya qilish jarayonida shaxs matnning asosiy g‘oyasini ajratib oladi, ikkilamchi ma’lumotlarni saralaydi va umumlashtirilgan holda mustaqil nutqiy mahsulot yaratadi. Bo‘lajak tarbiyachilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda qayta hikoya qilish metodikasi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Qayta hikoya qilish — bu o‘qilgan yoki tinglangan matn mazmunini saqlagan holda uni o‘z so‘zlari bilan qayta bayon etish jarayonidir. Ushbu metod bo‘lajak tarbiyachilarning lug‘at boyligini oshirish, nutq ravonligini ta’minlash, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi.Qayta hikoya qilish metodikasi jarayonida talabalarda matnni idrok etish, asosiy g‘oyani ajratib olish, voqealar ketma-ketligini saqlash va fikrni izchil bayon qilish malakalari shakllanadi. Bu esa kelajakda tarbiyachilarning bolalarga ertak, hikoya va tarbiyaviy matnlarni tushunarli va ifodali tarzda yetkazib bera olishiga zamin yaratadi. Qayta hikoya qilishning to‘liq, qisqartirib, reja asosida va ijodiy turlari bo‘lajak tarbiyachilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda keng qo‘llaniladi.Qayta hikoya qilish metodikasini rivojlantirishda ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Avvalo matn tinglanadi yoki o‘qiladi, so‘ngra uning mazmuni tahlil qilinadi, reja tuziladi va shundan keyin mustaqil qayta hikoya qilish amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda interaktiv usullar, savol-javoblar, munozaralar va rolli o‘yinlardan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy faolligini oshiradi. Shuningdek, qayta hikoya qilish jarayonida nutqiy xatolar ustida ishlash, talaffuz, grammatik va mantiqiy kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish nutqiy

kompetensiyani shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kasbiy yo‘naltirilgan, ya’ni bolalar uchun mo‘ljallangan ertak va hikoyalardan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda qayta hikoya qilish metodikasi bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy tayyorgarligini ilmiy asoslangan holda rivojlantirish imkonini beradi.Qayta hikoya qilish metodikasining samaradorligi uni qo‘llash jarayonida muayyan pedagogik shart-sharoitlarning ta’minlanishiga bog‘liq. Jumladan, matnlarni tanlashda bo‘lajak tarbiyachilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotlarda tizimlilik va izchillikka rioya etish, interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qayta hikoya qilish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish va reflektiv tahlilni yo‘lga qo‘yish nutqiy kompetensiyani shakllantirishning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 -yil 10- maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori

2.Abzalxanovna, S. M. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy moslashtirish omillari va shart-sharoitlari. 8(4), 46-51.

3.Azizxodjayeva N. N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* — Toshkent: TDPU, 2016. — 134–160-betlar.

4.Ismoilova Z. K. *Bo‘lajak tarbiyachilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish_metodlari.* — Toshkent: Ilm ziyo, 2019. — 59–85-betlar

5.Jalilova D. B. “Qayta hikoya qilish orqali talabalarning nutqiy faolligini oshirish”.Maktabgacha ta’lim jurnali, 2021, — 45–48-betlar.

6.Xasanova M. A. “Bo‘lajak tarbiyachilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlar”.*Pedagogik ta’lim* ilmiy jurnali, 2022, — 62–66-betlar.

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA’LIM TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yusupova Firuza Hajiboy qizi
Email: feruzayusupova.911.gmail.com
Telfon raqam:+998999636394

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida kitobxonlik madaniyatini sinergetik yondashuv asosida shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, modeli va amaliy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Sinergetika fanining o‘z-o‘zini tashkil etish, ochiqlik, chiziqsizlik va emergensiya tamoyillariga tayangan holda ta’lim jarayonini talaba shaxsining faol ishtirokchisi sifatida ko‘rish taklif etiladi. Kitobxonlik madaniyati kognitiv,

emotsional va xulqiy komponentlarning sinergetik uyg‘unligi sifatida talqin qilinadi. Maqolada taklif etilgan model orqali talabalarning mustaqil o‘qishga o‘tish jarayoni, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va ijtimoiy o‘zaro ta’sir natijasida yangi sifat – barqaror kitobxonlik odati shakllanishi asoslangan. Tadqiqot natijalari oliy ta’limda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sinergetik yondashuv, o‘z-o‘zini tashkil etish, oliy ta’lim talabalari, kitobxonlik madaniyati, emergensiya, ochiq ta’lim tizimi, mustaqil mutolaa, pedagogik fluktuatsiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы, модель и практические механизмы формирования культуры чтения у студентов высших учебных заведений на основе синергетического подхода. Опираясь на принципы синергетики — самоорганизацию, открытость, нелинейность и эмерджентность — предлагается рассматривать образовательный процесс с позиции активного участия личности студента. Культура чтения интерпретируется как синергетическое единство когнитивного, эмоционального и поведенческого компонентов. На основе предложенной модели обосновывается процесс перехода студентов к самостоятельному чтению, развитие навыков самоуправления и формирование нового качества — устойчивой читательской привычки — в результате социального взаимодействия. Результаты исследования могут способствовать внедрению инновационных педагогических подходов в системе высшего образования.

Ключевые слова: синергетический подход, самоорганизация, студенты высшего образования, культура чтения, эмерджентность, открытая образовательная система, самостоятельное чтение, педагогические флуктуации.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations, model, and practical mechanisms for developing reading culture among higher education students based on a synergetic approach. Drawing on the principles of synergetics—self-organization, openness, nonlinearity, and emergence—the educational process is viewed as one that involves the student as an active participant. Reading culture is interpreted as a synergistic integration of cognitive, emotional, and behavioral components. The proposed model substantiates the process of students transitioning to independent reading, the development of self-regulation skills, and the formation of a new quality—sustainable reading habits—through social interaction. The research findings may contribute to the implementation of innovative pedagogical approaches in higher education.

Keywords: synergetic approach, self-organization, higher education students, reading culture, emergence, open educational system, independent reading, pedagogical fluctuations.

Zamonaviy raqamli jamiyatda talabalar orasida kitobxonlik madaniyatining pasayishi

global muammo bo‘lib qolmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va qisqa videolar o‘qishga bo‘lgan e’tiborni tarqatib, chuqur tahliliy fikrlashni zaiflashtirmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (2017) va 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan dastur kitobxonlikni milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida belgilaydi. Oliy ta’lim talabalari uchun kitobxonlik nafaqat kasbiy bilim olish, balki ma’naviy barkamollik, tanqidiy tafakkur va altruistik xulq shakllanishining asosiy vositasidir. An’anaviy pedagogika talabani “ob’ekt” sifatida ko‘rsa, sinergetik yondashuv uni “o‘z-o‘zini tashkil etuvchi sub’ekt”ga aylantiradi. Hermann Haken va Ilya Prigojinning sinergetika nazariyasiga asoslanib, ta’lim jarayonini ochiq, chiziqsiz, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida ko‘rish mumkin. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi “boshqaruvchi” emas, balki “fluktuatsiyalarni kuchaytiruvchi katalizator” vazifasini bajaradi. Natijada talabalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir orqali emergensiya – yangi sifat (barqaror kitobxonlik madaniyati) paydo bo‘ladi. Maqolaning maqsadi – sinergetik yondashuv asosida oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqishdir.

Sinergetika (yunoncha “synergos” – birgalikda harakat) murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etish qonuniyatlarini o‘rganadi. Pedagogik sinergetika ta’limni ochiq, nonekvilibrium tizim sifatida talqin qiladi (Serezhnikova va boshq., 2015). Asosiy tamoyillar:

№	Tamoyil	Tushuntirish
1	**Ochiqlik**	Talaba tizimi atrof-muhit (kutubxona, internet, guruh) bilan doimiy axborot almashinuvi orqali rivojlanadi.
2	**Chiziqsizlik**	O‘qish jarayoni oldindan belgilangan emas; bifurkatsiya nuqtalari (qiziqish pasayishi yoki kuchayishi)da talaba o‘zi yo‘l tanlaydi.
3	**O‘z-o‘zini tashkil etish**	Talabalar o‘zaro muloqot, muhokama va loyihalar orqali “tartibsizlikdan tartib”ga o‘tadi.
4	**Emergensiya**	Tizim elementlarining oddiy yig‘indisi emas, balki yangi xususiyatlar (chuqur empatiya, tanqidiy tahlil) paydo bo‘lishi.
5	**Attractorlar**	Barqaror holatlar – “kitobxon talaba” obrazi sifatida mustaqil mutolaa odati.

O‘zbekiston olimlari Ibragimova Sh.O., 2023 sinergetik yondashuvni boshlang‘ich ta’limda ijodkorlikni rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo‘llagan. Oliy ta’limda bu yondashuv akmeologik kompetentsiyalarni (eng yuqori kasbiy cho‘qqi) shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik sinergetika faoliyat yondashuvini to‘ldirib, talabani faol sub’ektga aylantiradi va tashqi boshqaruvdan ichki o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tishni ta’minlaydi.

Kitobxonlik madaniyati – bu kitobni tanlash, chuqur o‘qish, tahlil qilish, hayotga tatbiq etish va boshqalar bilan baham ko‘rish ko‘nikmalarining majmui (Zbarskiy I.S. bo‘yicha uch komponent: kognitiv, emotsional, xulqiy). Oliy ta’lim talabalari uchun u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Mustaqil mutolaa (haftada 5–7 soat);
- Tanqidiy tahlil va annotatsiya;
- Adabiyotni kasbiy va ma’naviy rivojlanish bilan bog‘lash;
- Raqamli va an’anaviy formatlarni sinergetik birlashtirish.

O‘zbekiston kontekstida Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, kitobxonlik milliy g‘urur va barkamol avlod tarbiyasining asosidir. Biroq so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarining 60–70% faqat o‘quv adabiyotini o‘qiydi, badiiy va ilmiy kitoblarga vaqt ajratmaydi. An’anaviy usullar (majburiy ro‘yxat) samarasiz, chunki ular talabaning ichki motivatsiyasini hisobga olmaydi.

Taklif etilayotgan model ta’lim muhitini sinergetik ochiq tizim sifatida qurishga asoslanadi. Modelning asosiy bloklari:

1. **Boshlang‘ich fluktuatsiyalar bosqichi** (1-kurs): Qiziqish uyg‘otish – “kitob-chaqiruvi” loyihasi: har bir talaba o‘z mutaxassisligiga oid 3 ta kitobni tanlab, qisqa video-taqdimot tayyorlaydi. O‘qituvchi faqat “savol maydonini” yaratadi.
2. **O‘zaro ta’sir va sinergetik muloqot bosqichi** (2–3-kurs): “Sinergetik o‘qish doiralari” – haftalik guruh muhokamalari (5–7 kishi). Har bir a’zo kitobdan bitta g‘oyani taqdim etadi, boshqalar uni rivojlantiradi. Bu yerda bifuraktsiya sodir bo‘ladi: talaba o‘z fikrini himoya qilish yoki o‘zgartirish orqali o‘z-o‘zini tashkil etadi.
3. **Emergensiya va attractor shakllanishi bosqichi** (4-kurs): Mustaqil “kitob loyihasi” – talaba o‘qigan kitob asosida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-ma’naviy maqola yoki loyiha tayyorlaydi. Natija – portfel shakllantirish va ochiq himoya.
4. **Rafleksiya va o‘z-o‘zini baholash**: Har chorakda “men va kitob” jurnali – o‘qilgan kitobning shaxsiy rivojlanishga ta’sirini yozish.

Modelning afzalligi: talabalar o‘rtasida sinergetik effekt yuzaga keladi – bitta talabaning qiziqishi butun guruhni “tortadi”. Raqamli platformalar (Google Classroom, Telegram-bot) ochiqlikni ta’minlaydi, lekin asosiy e’tibor jonli muloqotga qaratiladi.

Oliy ta’lim dasturiga “Sinergetik mutolaa” modulini kiritish (2 kredit).

Kutubxonalarni “sinergetik markaz”ga aylantirish: o‘qish zallari + muhokama xonalari + elektron katalog.O‘qituvchilarni qayta tayyorlash: sinergetik pedagogika bo‘yicha treninglar.
Baholash: an’anaviy imtihon o‘rniga portfel va o‘z-o‘zini baholash (70% ichki motivatsiya).

Kutilayotgan natijalar: talabalarning mustaqil o‘qish vaqti 2–3 baravar oshishi, tanqidiy tafakkur ko‘rsatkichlari yaxshilanishi, altruistik va ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishi. Eksperimental guruhlarda (taxminiy) kitobxonlik madaniyati indeksi 45–60% ga o‘sishi mumkin.Sinergetik yondashuv oliy ta’lim talabalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning eng samarali usuli hisoblanadi, chunki u talabani passiv iste’molchidan faol yaratuvchiga aylantiradi. Ochiq tizim, o‘z-o‘zini tashkil etish va emergensiya tamoyillari orqali talabalar ichki motivatsiyasi asosida barqaror kitobxonlik odatini shakllantiradi. Ushbu modelni joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki milliy taraqqiyot strategiyasiga ham hissa qo‘shadi. Kelgusida empirik tadqiqotlar o‘tkazish va modelni turli yo‘nalishlar bo‘yicha sinovdan o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli Qarori.

2.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.

3.Bo‘lajak tarbiyachilarning akmeologik kasbiy kompetentsiyasi // CyberLeninka, 2022.

4.Ibragimova Sh.O. Ta’lim tarbiya jarayonida sinergetik yondashuvning bola shakllanishiga ta’siri // Ilmiy axborotnoma, 2023.

XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA BADIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODLARI VA VOSITALARI

Matrizayeva To‘maris
Urganch shahar 26-son KTIMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish asosida talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali metodlari hamda muammoli ta’lim texnologiyasining imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy, estetik va bilish faoliyatini rivojlantiruvchi xususiyatlari ochib berilib, ularning ta’lim jarayoniga integratsiyasi orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalari rivojlanishi asoslab beriladi. Shuningdek,

muammoli ta’lim texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan modelning tuzilmasi, bosqichlari va amaliy ahamiyati yoritilib, uning pedagogik samaradorligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, ijodiy tafakkur, muammoli ta’lim, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, mustaqil fikrlash, innovatsion metodlar, didaktik yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы формирования творческого мышления у обучающихся на основе образцов устного народного творчества, а также возможности использования технологии проблемного обучения. Раскрываются воспитательные, эстетические и познавательные особенности народного творчества, обосновывается их роль в развитии самостоятельного мышления и способности находить решения в проблемных ситуациях. Представлена структура и этапы модели, разработанной на основе проблемного обучения, а также её практическая значимость и педагогическая эффективность.

Ключевые слова: устное народное творчество, творческое мышление, проблемное обучение, педагогические технологии, образовательный процесс, самостоятельное мышление, инновационные методы, дидактический подход

Abstract: This article examines methods for developing students’ creative thinking based on samples of folk oral literature, as well as the application of problem-based learning technology. The educational, aesthetic, and cognitive potential of folk literature is analyzed, highlighting its role in fostering independent thinking and problem-solving skills. The structure, stages, and practical significance of a model developed on the basis of problembased learning are described, and its pedagogical effectiveness is substantiated.

Keywords: Folk oral literature, creative thinking, problem-based learning, pedagogical technology, educational process, independent thinking, innovative methods, didactic approach Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa uning ijodiy tafakkurini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortib borishi hamda jamiyatda innovatsion yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi ta’lim mazmunini yangicha asosda tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi va kreativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Milliy pedagogika tajribasida xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va rivoyatlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchilarda hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining obrazliligi, ramziy ma’nolari va chuqur mazmuni bilan ijodiy tafakkurni faollashtirishda samarali vosita bo‘lib, ta’lim jarayonida undan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan

birga, muammoli ta’lim texnologiyasi zamonaviy didaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishga yo‘naltiradi. Bu texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda izlanish, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi intellektual ko‘nikmalarni shakllantiradi. Natijada, ta’lim jarayoni faollashib, o‘quvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda muammoli ta’lim texnologiyasini uyg‘unlashtirish asosida samarali pedagogik model ishlab chiqish zarurati asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi — xalq og‘zaki ijodi vositasida ijodiy tafakkurni shakllantirish metodlarini aniqlash va ularni muammoli ta’lim texnologiyasi bilan integratsiya qilishning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish asosida ijodiy tafakkurni shakllantirish masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur jarayon o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning tasavvur doirasini kengaytirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular obrazlilik, ramziylik, ko‘p ma’nolilik va hayotiy tajribaga boyligi bilan ajralib turadi. Aynan shu xususiyatlar o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun muhim didaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ertaklar, maqollar, topishmoqlar va dostonlardan ta’lim jarayonida tizimli foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ijodiy tafakkurni shakllantirish metodlari orasida muammoli vaziyat yaratish, savol-javob asosida fikrlashni rag‘batlantirish, obrazli tahlil qilish, rolli o‘yinlar tashkil etish hamda taqqoslash va umumlashtirish metodlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilar voqealarga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar, bu esa divergent fikrlashni rivojlantiradi. Topishmoqlar esa o‘z navbatida mantiqiy fikrlashni, tezkor xulosa chiqarishni va tasavvurni boyitadi. Maqollar yordamida esa qisqa, lekin mazmunli fikrlarni tahlil qilish, ularning yashirin ma’nolarini ochish orqali o‘quvchilarning analitik tafakkuri rivojlanadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi ushbu jarayonda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki u o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, bilimlarni tayyor holda emas, balki izlanish orqali egallashiga imkon yaratadi. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan muayyan muammoli vaziyat yaratiladi va o‘quvchilar ushbu vaziyatni hal etish uchun mustaqil ravishda fikr yuritadilar, taxminlar ilgari suradilar va dalillar keltiradilar. Bu esa ularning nafaqat bilim darajasini, balki ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Mazkur tadqiqot mavzusini yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat

qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va ularning yosh avlod kamolotidagi o‘rni keng yoritilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ta’lim jarayonida foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Pedagog olimlarimizdan J.G. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovlarning ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Ular ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol va innovatsion metodlarning ahamiyatini asoslab beradilar. N.S. Saidaxmedov hamda R.J. Ishmuhamedov va A.A. Abduqodirovlarning tadqiqotlarida esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning tasnifi va amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Ushbu manbalar muammoli ta’lim texnologiyasining mazmuni va uni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy va didaktik ahamiyati A. To‘xtaboyevning ilmiy maqolasida yoritilib, unda mazkur namunalar o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish hamda hayotiy tajribani boyitishda samarali vosita ekani ta’kidlangan. Bu esa tadqiqot mavzusining amaliy jihatlarini asoslashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari ham mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, J. Dewey ta’lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. L.S. Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida inson tafakkurining rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlikning rolini asoslab beradi. J. Brunerning kashfiyotga asoslangan ta’lim nazariyasi o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, E.P. Torrance ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalarini tadqiq etib, kreativ fikrlashning mezonlari va uni shakllantirish usullarini ishlab chiqqan. J.R. Savery hamda H.G. Schmidt tomonidan ishlab chiqilgan muammoli ta’lim nazariyasi esa o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ta’lim jarayonida maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ularning mazmunan boyligi, obrazliligi va tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish hamda mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli ta’lim texnologiyasining xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashtirilishi esa ta’lim samaradorligini yanada oshiradi. Chunki bu yondashuv o‘quvchini faol subyektga aylantirib, uni izlanishga, fikr yuritishga va o‘z nuqtai nazarini asoslashga undaydi. Natijada o‘quvchilarda bilimlarni chuqur

o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ijodiy va tanqidiy tafakkur ham shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, darslarga qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish hamda muammoli ta’lim texnologiyasini amaliyotga keng joriy etish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.

3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari”. // Pedagogika va psixologiya. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 45–52.

4. To‘xtaboyev A. “Xalq og‘zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati”. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 33–38.

5. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016. – 224 b. 6. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol, 2014. – 180 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL QILINADIGAN RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATI

Qadamova Aziza Ergash qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Gmail: azizaqadamova3@gmail.com
Telfon nomer +998990133235

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar uchun rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil qilish xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta`lim, rivojlantiruvchi markaz, qurish konstruksiyalash va matematika markazi, syujetli-rolli o’yinlar va sahnalashtirish markazi, til va nutq markazi, fan va tabiat markazi, san’at markazi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации деятельности развивающих центров для детей в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: дошкольное образование, развивающий центр, центр конструирования и математики, центр сюжетно-ролевых игр и театрализации, центр языка и речи, центр науки и природы, центр искусства.

Annotation: This article discusses the organization of activities of developmental centers for children in preschool educational institutions.

Keywords: preschool education, developmental center, construction and mathematics center, role-play and dramatization center, language and speech center, science and nature center, art center.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi markazlar — bu bolalarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan, ularning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus ta’limiy muhitdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh davrida bolaning rivojlanishi faoliyat orqali amalga oshadi. Shu sababli rivojlantiruvchi markazlar faoliyati faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu markazlarda bola o‘yin, tajriba, kuzatish va muloqot jarayonida bilim va ko‘nikmalarni egallaydi. Mazkur yondashuv pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy tamoyillariga tayanadi.

MTTda rivojlantiruvchi markazlar bir necha yo‘nalishlarda tashkil etiladi. Jumladan, nutq rivojlantirish markazi, qurish-yasash (konstruktorlik) markazi, san’at markazi, matematika markazi, tabiatni o‘rganish markazi va rolli o‘yinlar markazi keng qo‘llaniladi. Har bir markazning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lib, ular orqali bolalarda muayyan kompetensiyalar shakllantiriladi. Masalan, nutq rivojlantirish markazi bolalarning og‘zaki nutqini boyitish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, konstruktorlik markazi mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.Rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etishda muhim ilmiy yondashuvlardan biri bu — shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir bola individual shaxs sifatida qaraladi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari hamda rivojlanish darajasi hisobga olinadi. Bu esa o‘z navbatida individuallashtirish va differensial yondashuvni taqozo etadi.Shuningdek, rivojlantiruvchi markazlar faoliyati faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim va integrativ yondashuv asosida tashkil etiladi. Integratsiya orqali turli sohalar (nutq, matematika, san’at, tabiatshunoslik) o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatiladi, bu esa bolalarda yaxlit tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi.MTTda rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini samarali tashkil etishda tarbiyachining roli beqiyosdir. Tarbiyachi bolalar faoliyatini bevosita boshqaruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. U bolalar uchun qulay sharoit yaratadi, ularni rag‘batlantiradi va zarur hollarda yordam ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy ta’limda keng qo‘llanilayotgan fasilitatorlik yondashuviga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, MTTda rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur markazlar orqali bolalarda

mustaqillik, ijodkorlik, ijtimoiy faollik va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi. Shu bois rivojlantiruvchi markazlar maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid hujjatlar. – Toshkent, 2017–2022.
3. Nishonova Z.T., Alimuhamedov A.G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
4. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Tojiboyeva D., Yuldasheva G. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2015.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Ruzmetova Saodatjon Fayzullayevna
Ma’mun universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 22/14-guruh talabasi

Annotatsiya : Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini rivojlantirishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida interaktiv vositalar, multimedia dasturlari hamda sun’iy intellekt asosidagi platformalardan foydalanishning bolalar tafakkuri, sezgi va kuzatuvchanligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarning ta’lim sifatiga ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: idrok, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta’lim, innovatsion yondashuv, interaktiv ta’lim, multimedia, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация:В данной статье рассматриваются инновационные подходы к использованию искусственного интеллекта и цифровых технологий в развитии восприятия детей дошкольного возраста. Анализируется значение интерактивных средств, мультимедийных программ и платформ на основе искусственного интеллекта в развитии мышления, сенсорного восприятия и наблюдательности детей. Также освещаются вопросы повышения цифровой компетентности педагогов и влияние современных технологий на качество образования.

Ключевые слова: восприятие, искусственный интеллект, цифровые технологии, дошкольное образование, инновационный подход, интерактивное обучение, мультимедиа, педагогические технологии.

Annotation : This article discusses innovative approaches to the use of artificial intelligence and digital technologies in developing perception among preschool children. The importance of interactive tools, multimedia programs, and AI-based platforms in improving children's thinking, sensory perception, and observation skills is analyzed. In addition, the study highlights the development of teachers' digital competencies and the impact of modern technologies on the quality of education.

Keywords: perception, artificial intelligence, digital technologies, preschool education, innovative approach, interactive learning, multimedia, pedagogical technologies.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida maktabgacha ta'lim tizimiga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, idrok jarayonining shakllanishi bolaning atrof-muhitni anglashida katta ahamiyatga ega. Idrok – insonning atrofdagi narsa va hodisalarni sezgi organlari orqali qabul qilishi va ongda aks ettirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok ko‘rish, eshitish, hid bilish, teginish va sezish orqali rivojlanadi. Ushbu jarayonning to‘g‘ri rivojlanishi bolaning tafakkuri, nutqi, kuzatuvchanligi va ijodkorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.Hozirgi davrida maktabgacha ta'lim tizimiga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biridir. Sun'iy intellekt (AI) – inson tafakkuriga xos bo‘lgan funksiyalarni bajarishga qodir texnologiyalar tizimi, raqamli texnologiyalar esa axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatishga xizmat qiluvchi vositalardir. Maktabgacha ta'limda ular interaktiv o‘yinlar, multimedia dasturlari, mobil ilovalar, sensorli qurilmalar va robototexnika elementlari orqali qo‘llaniladi. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar bolalarning individual qobiliyatini aniqlab, ularga mos topshiriqlarni tavsiya qiladi. Raqamli texnologiyalar esa bolalarning idrok jarayonlarini qiziqarli va interaktiv tarzda rivojlantiradi.Interaktiv o‘yinlar bolalarning rang, shakl va tovushlarni ajrata olish qobiliyatini oshiradi. O‘yinlar yordamida bolalar muammolarni mustaqil hal qilishni o‘rganadi. Multimedia vositalari, masalan, animatsion videolar, elektron kitoblar va audio materiallar ko‘rish va eshitish idrokini rivojlantiradi, rang-barang tasvirlar va ovozli topshiriqlar bolalarning diqqatini jalb qiladi. Robototexnika va sensorli qurilmalar esa bolalarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy tafakkuri va ijodkorligini shakllantiradi. Shu bilan birga, bolalarda texnologiyalardan xavfsiz foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi.Pedagoglarning raqamli kompetensiyasi maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llashning muhim omilidir. Tarbiyachilar interaktiv metodlarni qo‘llashi, multimedia vositalari va AI

platformalaridan foydalanishni bilishi, ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil qilishi va bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishi zarur. Texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda texnik bazani mustahkamlash, pedagoglar uchun trening va seminarlar tashkil etish, raqamli gigiyena qoidalariga rioya qilish va ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Texnik vositalarning yetishmasligi, internet sifati bilan bog‘liq muammolar, pedagoglarning raqamli ko‘nikmalari sustligi va bolalarning gadjetlarga qaram bo‘lib qolish xavfi eng ko‘zga ko‘ringan masalalardir. Shu sababli, zamonaviy texnik bazani kuchaytirish, pedagoglarni o‘qitish va ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim yechim sifatida qaraladi.Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini rivojlantirishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Innovatsion yondashuvlar bolalarning tafakkuri, sezgi, kuzatuvchanligi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish orqali bolalarning bilim olish jarayoni interaktiv, qiziqarli va samarali bo‘ladi.Maqolada keltirilgan ilmiy manbalar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish bilan birga, bolalarning individual rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari va interaktiv dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagog va ota-onaning faol ishtiroki bolaning ta’lim sifatini va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

2.Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. Moskva: Prosveshcheniye, 1991.

3.G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent: Fan, 2005.

4.Polat E.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Ta’lim, 2018.

5.UNESCO. ICT in Early Childhood Education: Guidelines and Recommendations. Paris: UNESCO, 2019.

"O‘ZLASHTIRMAYDIGAN O‘QUVCHILARDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI"

Atadjanova Dinora Ulug‘bekovna *– UrDPI*
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)., professor v.b.
dinoraatajanova90@gmail.comm
+998907190191

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishda o‘yinli texnologiyalarning psixologik ta’siri va ahamiyati yoritilgan. Maqolada past o‘zlashtirishning psixologik sabablari tahlil qilinadi hamda o‘yin metodlari orqali o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, o‘yinli texnologiyalarning o‘quvchi shaxsidagi emotsional va kognitiv jarayonlarga ta’siri bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv motivatsiyasi, o‘yinli texnologiyalar, o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilar, psixologik ta’sir, interfaol metodlar, kognitiv faollik, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологическое влияние и значимость игровых технологий в формировании учебной мотивации у неуспевающих учащихся. Анализируются психологические причины низкой успеваемости и освещаются пути повышения познавательного интереса учащихся через игровые методы. Также представлены научные выводы о влиянии игровых технологий на эмоциональные и когнитивные процессы в структуре личности учащегося.

Ключевые слова: учебная мотивация, игровые технологии, неуспевающие учащиеся, психологическое влияние, интерактивные методы, когнитивная активность, эффективность обучения.

Abstract. This article highlights the psychological impact and significance of game-based technologies in developing educational motivation among underachieving students. The paper analyzes the psychological reasons behind low academic performance and outlines methods for increasing students' interest in learning through gaming techniques. Furthermore, it provides scientific conclusions regarding the influence of game technologies on the emotional and cognitive processes of the student's personality.

Keywords: learning motivation, game-based technologies, underachieving students, psychological impact, interactive methods, cognitive activity, educational efficiency.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi har bir o‘quvchining intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Biroq, maktab amaliyotida o‘quv dasturlarini

o‘zlashtirishda qiynalayotgan, o‘qishga nisbatan qiziqishi past bo‘lgan o‘quvchilar kontingenti hamon saqlanib qolmoqda. O‘quvchilarning o‘zlashtirmasligi nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik muammo bo‘lib, uning zamirida o‘quv motivatsiyasining yetishmasligi yotadi.

O‘quv motivatsiyasi sust o‘quvchilar bilan ishlashda an’anaviy ta’lim metodlari har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, zamonaviy psixologiya va pedagogikada o‘yinli texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘yin - o‘smir va kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyat turlaridan biri sifatida, ularning emotsional to‘siqlarini bartaraf etish, diqqatini jamlash va bilish jarayonlarini faollashtirishda kuchli psixologik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘yin jarayonida o‘quvchi o‘zini erkin his qiladi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish hissi kamayadi va "o‘rganish" jarayoni majburiyatdan zavqlanishga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilar bilan ishlashda tizimli yondashuv va psixologik korreksiya tamoyillariga tayanadi. Tadqiqot jarayonida o‘quv motivatsiyasining dinamikasini o‘rganish uchun nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik kuzatuv va psixologik eksperiment metodlaridan kompleks ravishda foydalaniladi. Metodologiyaning asosi sifatida faoliyatli yondashuv tanlab olingan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchining bilish jarayonlari bevosita o‘yin faoliyati orqali transformatsiya qilinadi.

Nazariy bosqichda mavzuga oid psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlil qilinib, o‘zlashtirmaslikning ijtimoiy va individual sabablari tasniflanadi. Amaliy bosqichda esa o‘quvchilarning boshlang‘ich motivatsiya darajasini aniqlash maqsadida diagnostik so‘rovnomalar va proyektiv testlar o‘tkaziladi. Eksperimental qismda o‘yinli texnologiyalar dars jarayoniga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi, bunda o‘yinning ham emotsional, ham kognitiv yuklamasi o‘quvchining yosh xususiyatlariga moslashtiriladi.

Tadqiqotning metodologik xarakteri o‘yinli vaziyatlarda o‘quvchining ijtimoiy rollarni qabul qilishi va guruhdagi muloqot jarayonida o‘zining intellektual salohiyatini namoyon etishiga qaratilgan. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, o‘yinli texnologiyalarni qo‘llashdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtiriladi. Bu yondashuv o‘yinning nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki o‘quv motivatsiyasini barqarorlashtiruvchi jiddiy psixologik mexanizm ekanligini ilmiy jihatdan isbotlashga xizmat qiladi.

O‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish muammosini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, past o‘zlashtirish ko‘pincha intellektual yetishmovchilik bilan emas, balki ta’lim jarayoniga nisbatan shakllangan salbiy emotsional munosabat va qiziqishning yo‘qligi bilan bog‘liqdir. O‘yinli texnologiyalar darsning an’anaviy qoliplarini sindirib, o‘quvchi

uchun xavfsiz va erkin psixologik muhit yaratadi. Bu muhitda o‘zlashtirmaydigan o‘quvchi xato qilish qo‘rquvidan xalos bo‘ladi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun psixologik imkoniyatga ega bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘yinli texnologiyalar o‘quvchi shaxsiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, u kognitiv jarayonlarni - diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni tabiiy ravishda faollashtiradi. Ikkinchidan, o‘yin elementlari o‘quvchining emotsional sohasini boyitib, unda muvaffaqiyat hissini uyg‘otadi, bu esa o‘z navbatida tashqi majburlovchi motivatsiyani ichki ehtiyojga aylantiradi. O‘zlashtirmaydigan o‘quvchilar uchun o‘yin nafaqat bilim olish vositasi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va o‘z-o‘zini baholash darajasini ko‘taruvchi korreksion omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayoniga o‘yinli texnologiyalarni tizimli ravishda tatbiq etish o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘yin metodlari o‘quvchi yoshi va individual-psixologik xususiyatlariga qat’iy mos kelishi, ta’limiy maqsad hamda o‘yin mazmuni o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur. Faqatgina maqsadli yo‘naltirilgan o‘yinli faoliyat o‘quv motivatsiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga kafolat bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. Nishonova Z.T. Psixologik maslahat. – Toshkent: Sharq, 2010.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. – Toshkent, 1999.
6. Vigotskiy L.S. Igra i ee rol v psixicheskom razvitii rebenka Voprosi psixologii. – Moskva, 1966.
7. Elkonin D.B. Psixologiya igri. – Moskva: Gumanitarniy izdatelskiy sentr VLADOS, 1999.

KASBIY MADANIYAT – SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTINING MUHIM MEZONI

Allaberganova Shoxista Zokir qizi
allaberganovashoxista36@gmail.com
+998933346141

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy madaniyatning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kasbiy madaniyat nafaqat mehnat ko‘nikmalari va malakalar yig‘indisi, balki insonning axloqiy qadriyatlari, mas’uliyati va kasbiga bo‘lgan sadoqatini ifodalovchi ma’naviy fenomen ekanligi yoritilgan. Tadqiqotda shaxsning kasbiy faoliyati orqali o‘z ma’naviy salohiyatini namoyon etishi, jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi hamda kasbiy etika qoidalari bilan ma’naviy barkamollik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy madaniyat, ma’naviy kamolot, kasbiy etika, mehnat madaniyati, qadriyatlar, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy mas’uliyat, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значимость профессиональной культуры в духовном развитии личности. Профессиональная культура рассматривается не только как совокупность трудовых навыков и компетенций, но и как духовный феномен, выражающий моральные ценности, ответственность и преданность человека своему делу. В работе научно обоснована неразрывная связь между профессиональной деятельностью личности, реализацией её духовного потенциала и вкладом в развитие общества, а также взаимозависимость между нормами профессиональной этики и духовной зрелостью.

Ключевые слова: профессиональная культура, духовное развитие, профессиональная этика, культура труда, ценности, развитие личности, социальная ответственность, компетенция.

Abstract. This article analyzes the role and significance of professional culture in the spiritual development of an individual. Professional culture is defined not merely as a set of labor skills and competencies, but as a spiritual phenomenon that embodies moral values, responsibility, and dedication to one's profession. The research scientifically substantiates the intrinsic link between an individual's professional activities, the manifestation of their spiritual potential, their contribution to societal development, and the correlation between professional ethics and spiritual maturity.

Keywords: professional culture, spiritual development, professional ethics, work culture, values, personal development, social responsibility, competence.

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mehnat bozorining tobora raqobatlashib borishi kasbiy

madaniyat masalasini yangi bir ko‘lamda ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Har qanday soha mutaxassisidan nafaqat yuqori kasbiy malaka, balki yuksak axloqiy sifatlar, mas’uliyat tuyg‘usi va insoniy qadriyatlarga sadoqat ham talab qilinmoqda.

Kasbiy madaniyat – bu shaxsning o‘z kasbi doirasidagi bilimlar, ko‘nikmalar, muloqot madaniyati, axloqiy tamoyillar va qadriyatlar majmuini o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. U nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki insonning botiniy dunyosini boyitib, ma’naviy kamolotga erishuv yo‘lida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tezisning maqsadi kasbiy madaniyatning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish, shuningdek, uning asosiy tarkibiy qismlarini va shakllanish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida falsafiy, sotsiologik va pedagogik yondashuvlardan keng foydalanildi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida yuqori kasbiy madaniyatga ega bo‘lgan, komil inson sifatida shakllanayotgan mutaxassislar ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Bu esa ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirib, kasbiy madaniyat va ma'naviy kamolot munosabatlarini chuqur o‘rganishni zarur qilib qo‘ymoqda.

Kasbiy madaniyat tushunchasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy kategoriya sifatida o‘rganila boshlangan. Dastlabki davrlarda bu tushuncha asosan ish unumdorligi va kasb mahoratiga bog‘liq holda talqin etilgan bo‘lsa, keyinchalik uning qamrovi sezilarli darajada kengayib, axloqiy va ma’naviy o‘lchovlarni ham o‘z ichiga olgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kasbiy madaniyat uchta asosiy komponentning uyg‘unligi sifatida ta’riflanadi: birinchisi – bilimlar va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘lmish kognitiv komponent; ikkinchisi – kasbiy faoliyat jarayonidagi muloqot va axloq normalari bo‘lgan aksiologik komponent; uchinchisi esa – shaxsning o‘z kasbiga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi motivatsion komponent.

Kasbiy madaniyat o‘zida bir necha muhim xususiyatni mujassam etadi. U dinamik xarakterga ega bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlariga mos ravishda rivojlanib boradi. Shu bilan birga, u barqaror axloqiy tamoyillarga tayanadi va muayyan kasb birligining o‘ziga xos an'analari va me’yorlarini saqlab qoladi.

O‘zbek mutafakkiri Abu Nasr Forobiy shaxsning komilligini uning jamiyatdagi faoliyati va kasb-hunari bilan bevosita bog‘lagan edi. Uning ta’limoticha, inson o‘z kasbini vijdonan va mahorat bilan bajarsa, nafaqat jamiyatga foyda keltiradi, balki o‘zining ma'naviy olamini ham boyitadi. Bu g‘oya zamonaviy kasbiy madaniyat nazariyasida ham o‘z aksini topgan.

Shunday qilib, kasbiy madaniyat – bu shaxsning kasb faoliyati orqali o‘z-o‘zini anglashi, ruhiy jihatdan rivojlanishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etishining eng muhim ifodasidir.

U nafaqat tashqi ko‘rinish yoki rasmiy qoidalarga rioya qilish bilan cheklanmay, balki insonning ichki dunyo qarashlarini, axloqiy ideallarini va hayotiy pozitsiyasini ham qamrab oladi.

Ma’naviy kamolot – bu insonning axloqiy, intellektual va hissiy jihatdan uzluksiz ravishda yuksalib borishi, o‘z ichki dunyosini boyitishi va hayotning oliy ma’nosini anglashi jarayonidir. Bu jarayon hech qachon yakka holda, ijtimoiy va kasbiy muhitdan ajralgan holda kechmaydi. Aksincha, inson eng ko‘p vaqtini va kuchini bag‘ishlagan soha – ya’ni kasb faoliyati – uning ma’naviy rivojlanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Kasbiy madaniyat bilan ma’naviy kamolot o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama xarakter kasb etadi. Bir tomondan, yuqori kasbiy madaniyat ma'naviy kamolotning ko‘zgusi va mahsulidir: vijdonan, mas’uliyat bilan va ijodkorlik bilan mehnat qilish uchun inson avvalo ma’naviy yetuklikka erishgan bo‘lishi kerak. Boshqa tomondan esa, kasbiy faoliyatning o‘zi insonning ma’naviy kamolotini jadallashtiradigan eng kuchli vositadir.

Mehnat va kasb orqali ro‘y beradigan ma'naviy o‘sish bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchi yo‘nalish – intellektual o‘sish: har qanday kasb yangi bilimlarni o‘rganishni, muammolarni hal etishni va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Ikkinchi yo‘nalish – axloqiy pishish: kasbiy muloqot va hamkorlik insonni sabr-toqatli, bag‘rikeng va adolatli bo‘lishga o‘rgatadi. Uchinchi yo‘nalish – ijtimoiy javobgarlik: o‘z kasbining jamiyatga qo‘shayotgan hissasini anglash kishining hayotga nisbatan mas'uliyatini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston: taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. Nishonov M. Kasbiy etika asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.

3. Xolmatov T., Yusupov S. Kasbiy madaniyat va shaxs kamoloti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

4. Hasanov R. Ma’naviy kamolot va kasb-hunar tarbiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

6. Sharipov F. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

7. Turgunov M. Kasbiy kompetentlik va madaniyat. – Toshkent: Akademiya, 2023.

8. Ashworth P.D. The Phenomenology of the Lifeworld and Social Psychology // Social Psychological Review. 2003.

9. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING BOG‘LANISHLI NUTQINI O‘STIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Sapayeva B.Q.– Ma’mun universiteti
O‘zbek va sharq tillari kafedrasi dotsenti v.b
Xojiyeva Ziyoda Davlatnazar qizi -
Ma’mun universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini rivojlantirish masalalari, bu jarayonda uchraydigan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo‘llari yoritiladi. Bog‘lanishli nutq bola tafakkuri, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash, yozma va og‘zaki bayon ko‘nikmalarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning so‘z boyligi, grammatik savodxonligi, fikrni izchil ifodalash darajasi, matn yaratish ko‘nikmalari va nutqiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: bog‘lanishli nutq, nutq o‘stirish, o‘quvchi, matn, muloqot, tafakkur, yozma nutq, og‘zaki nutq, interfaol metodlar, savodxonlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития связной речи учащихся школы, а также освещаются основные проблемы, возникающие в этом процессе, и эффективные пути их преодоления. Связная речь играет важную роль в формировании мышления ребёнка, культуры общения, самостоятельного мышления, а также навыков устного и письменного изложения. В исследовании проанализированы факторы, влияющие на словарный запас учащихся, их грамматическую грамотность, уровень последовательного выражения мыслей, умения создавать текст и речевую активность.

Ключевые слова: связная речь, развитие речи, учащийся, текст, общение, мышление, письменная речь, устная речь, интерактивные методы, грамотность.

Abstract. This article examines the issues of developing coherent speech among school students, as well as highlights the main problems encountered in this process and effective ways to overcome them. Coherent speech plays an important role in shaping a child’s thinking, communication culture, independent thinking, and the skills of both written and oral expression. The study analyzes the factors influencing students’ vocabulary, grammatical literacy, the level of coherent expression of ideas, text production skills, and speech activity.

Keywords: coherent speech, speech development, student, text, communication, thinking, written speech, oral speech, interactive methods, literacy.

Til insonning fikrini ifodalash, atrofdagi voqelikni anglash va boshqalar bilan muloqot qilish vositasidir. Maktab ta’limida til o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda to‘g‘ri, ravon, mantiqli va ta’sirchan nutqni shakllantirishdir. Ayniqsa, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish o‘quvchining nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki boshqa fanlarni o‘zlashtirishida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki fikrni izchil bayon qilish, savollarga asosli javob berish, matnni tushunish va qayta hikoyalash har bir fan bo‘yicha muvaffaqiyatning poydevoridir.

Bog‘lanishli nutq deganda fikrning ma’lum tartib va izchillikda, mazmunan bog‘langan holda ifodalanishi tushuniladi. Bu og‘zaki va yozma shaklda namoyon bo‘lib, o‘quvchidan so‘z boyligi, grammatik bilim, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyatini talab etadi. Biroq amaliyotda ko‘plab o‘quvchilarda fikrni erkin bayon qilish, matn tuzish, mazmunni bog‘lab ifodalashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash ta’lim samaradorligini oshirishda muhimdir.

Bog‘lanishli nutq shaxsning intellektual rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Nutqi ravon bo‘lgan bola o‘z fikrini aniq ifodalay oladi, o‘ziga ishonchi ortadi, muloqotda faol ishtirok etadi va o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtiradi. Nutq o‘quvchi tafakkurining tashqi ko‘rinishi hisoblanadi. Shuning uchun nutq rivoji –fikrlash rivoji, fikrlash rivoji esa nutqni boyitishning asosi sanaladi.

Maktab o‘quvchilarida bog‘lanishli nutqni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular pedagogik, psixologik va metodik omillar bilan izohlanadi.

1. So‘z boyligining cheklanganligi. Ko‘plab o‘quvchilar faol lug‘atining kamligi sababli fikrini boy va ravon ifoda eta olmaydi. Ular bir xil so‘zlarni takrorlashga moyil bo‘ladilar, sinonim va antonimlardan foydalanish darajasi past bo‘ladi. Bu holat nutqning ta’sirchanligini kamaytiradi hamda ifoda imkoniyatlarini cheklaydi.

2. Grammatik xatolar. Bog‘lanishli nutqda gap qurilishi, so‘z shakllari, kelishiklar, bog‘lovchilar va tinish belgilaridan foydalanishda xatolar ko‘p uchraydi. Ayrim o‘quvchilar fikrni og‘zaki aytishda bir oz erkin bo‘lsalar ham, yozma nutqda grammatik me’yorlarga rioya qila olmaydilar. Bu esa matnning mazmuniy va uslubiy yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Mantiqiy izchillikning sustligi. Ba’zi o‘quvchilar fikrni tartibli bayon qilishda qiynaladilar. Ular matnning kirish, asosiy qism va xulosa qismlarini farqlay olmaydilar yoki voqealarni sabab-oqibat munosabatida bog‘lay olmaydilar. Natijada nutq parcha-parcha, uzviylikdan yiroq bo‘lib qoladi.

4. Mustaqil fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligi. Bog‘lanishli nutq faqat yodlangan ma’lumotni qaytarish emas, balki uni qayta ishlash, tahlil qilish va shaxsiy munosabat bildirishni ham talab etadi. Afsuski, ayrim o‘quvchilar mustaqil fikr bildirishga o‘rganmagan bo‘lib, tayyor jumlalar va andozalarga suyanib qoladilar.

5. Nutqiy faollikning pastligi. Sinfda hamma o‘quvchi bir xil darajada faol emas. Ayrimlari javob berishdan tortinadi, xato qilishdan qo‘rqadi yoki o‘z fikrini bildirishga ishonmaydi. Bunday holat nutqiy rivojlanishni sekinlashtiradi, chunki nutq amaliyot orqali shakllanadi.

6. O‘qish va tinglash madaniyatining yetarli emasligi. Bog‘lanishli nutqning rivoji ko‘p jihatdan o‘qilgan matnlarni tahlil qilish, turli nutq namunalarini tinglash va ulardan xulosa

chiqarishga bog‘liq. O‘quvchi badiiy va ilmiy matnlarni yetarli darajada o‘qimasa, yaxshi nutq namunasini eshitmasa, uning nutqi ham sayoz bo‘lib qoladi.

7. Ta’lim jarayonida nutq o‘stirishga yetarli e’tibor berilmasligi. Ba’zan darslar ko‘proq qoidani yodlash va mashq ishlashga qaratilib, og‘zaki va yozma nutqni amaliy rivojlantirishga yetarli vaqt ajratilmaydi. Natijada o‘quvchi bilimni biladi, ammo uni ifodalashga qiynaladi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish uchun tizimli, izchil va ijodiy yondashuv zarur:

1. Lug‘at ustida muntazam ishlash. So‘z boyligini oshirish – nutq o‘stirishning birinchi sharti. Darslarda yangi so‘zlar ustida ishlash, ularning ma’nosini tushuntirish, sinonim-antonimlarini topish, so‘zlarni gap ichida ishlatish kabi mashqlar doimiy tashkil etilishi kerak. O‘quvchilarni kundalik hayotda uchraydigan so‘zlar, iboralar va tasviriy ifodalarni qo‘llashga o‘rgatish foydali natija beradi.

2. Matn bilan ishlashni kuchaytirish. Matnni o‘qish, tushunish, tahlil qilish va qayta hikoyalash bog‘lanishli nutqni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. O‘quvchilarga matnning mavzusi, asosiy g‘oyasi, reja tuzish, tayanch so‘zlarni aniqlash, qisqartirib va kengaytirib bayon qilish kabi topshiriqlar berish lozim. Bu usul ularda mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

3. Og‘zaki nutq mashqlarini ko‘paytirish. Darslarda dialog, monolog, savol-javob, munozara, hikoya qilish, ta’rif berish kabi og‘zaki mashqlar ko‘proq tashkil etilishi kerak. O‘quvchi o‘z fikrini erkin aytishga odatlansa, yozma nutqda ham ishonchliroq bo‘ladi. Og‘zaki nutq o‘quvchining nutqiy faolligini oshiradi va fikrni tez tuzish malakasini shakllantiradi.

4. Yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish. Insho, bayon, ijodiy matn, kichik esse, xat, tavsifiy matn kabi yozma ishlar o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Avval sodda topshiriqlardan boshlab, keyinchalik murakkabroq mavzularga o‘tish maqsadga muvofiq. Yozma ishda reja tuzish, kirish-asosiy qism-xulosa tuzilmasiga amal qilish o‘quvchini tizimli fikrlashga o‘rgatadi.

5. Interfaol metodlardan foydalanish. Aqliy hujum, klaster, Venn diagrammasi, “Baliq skeleti”, “Savol-javob”, “Zinama-zina”, “Blits so‘rov” kabi metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va nutqiy faolligini oshiradi. Bunday usullar darsni jonlantiradi, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi va nutqiy muhit yaratadi.

6. Xatolar ustida tizimli ishlash. Nutqdagi xatolarni faqat ko‘rsatib qo‘yish emas, balki ularning sababini tushuntirish va to‘g‘ri variantini mustahkamlash kerak. O‘quvchi o‘z xatosini anglagan taqdirdagina u takrorlanmaydi. Shu sababli o‘qituvchi xatoni korreksion mashqlar orqali bartaraf etishi lozim.

7. O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish. Rasm asosida hikoya tuzish, berilgan boshlanishga davom yozish, matnni yakunlash, qahramon nomidan gapirish, voqeani boshqa

uslubda qayta ifodalash kabi ijodiy topshiriqlar bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda juda foydali. Bunday topshiriqlar o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi, mustaqil bayon ko‘nikmasini shakllantiradi.

Bog‘lanishli nutqni o‘stirishda yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlang‘ich sinflarda asosiy e’tibor sodda gaplar tuzish, kichik matnlarni og‘zaki hikoya qilish, rasmlar asosida so‘zlash va lug‘at boyligini oshirishga qaratiladi. Bu bosqichda ko‘rgazmalilik, o‘yin elementlari va qisqa nutqiy mashqlar samarali hisoblanadi. Yuqori sinflarda esa matnni tahlil qilish, mustaqil insho yozish, muammoli mavzularda fikr bildirish, dalillash va munozara yuritish ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda o‘quvchidan nafaqat so‘zlash, balki fikrini asoslash, xulosa chiqarish va uslubiy me’yorlarga rioya qilish talab etiladi.

Bog‘lanishli nutqni o‘stirishda o‘qituvchi yetakchi o‘rin tutadi. U o‘quvchida tilga muhabbat, so‘zga ehtiyotkorlik va fikrni aniq ifodalash madaniyatini tarbiyalaydi. O‘qituvchi darsni faqat bilim berish vositasi emas, balki nutqiy tarbiya maydoniga aylantira olishi kerak. Uning nutqi namunali, ravon, adabiy me’yorlarga mos bo‘lishi o‘quvchi uchun eng yaxshi namuna sanaladi.

Maktab o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirish murakkab, ammo nihoyatda zarur pedagogik vazifadir.

Bog‘lanishli nutq o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida, uning fikrlashi, muloqot madaniyati va kelajakdagi ijtimoiy faolligida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun nutq o‘stirish ishlari bir dars yoki bir mavzu bilan cheklanib qolmasdan, ta’limning barcha bosqichlarida izchil va tizimli olib borilishi kerak. Faqat shundagina o‘quvchi o‘z fikrini erkin, mantiqli va chiroyli ifodalay oladigan shaxs bo‘lib kamol topadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarova N.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullari. – 2024

2. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milli kutubxonasi nashriyoti, 2009.

3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi.- Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

4. Madayev O. [va boshq.].Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS: METHODOLOGICAL APPROACHES IN HIGHER EDUCATION

Yuldashev Dilshodbek Maksudbek o‘g‘li
Urganch State Pedagogical Institute
dilshodmaksudbekovich97@gmail.com

Abstract

The development of intercultural communicative competence has become one of the central objectives of modern foreign language education. In the context of training future English language teachers, intercultural competence is not limited to linguistic accuracy or knowledge of cultural facts; rather, it involves the ability to communicate appropriately, interpret cultural meanings, respect diversity, and mediate between different cultural perspectives. This article examines methodological approaches to developing intercultural communicative competence among future English language teachers in higher education. The study emphasizes the importance of integrating linguistic, sociocultural, pragmatic, and reflective components into English language teacher education. It also proposes the use of interactive methods, authentic materials, problem-based tasks, role plays, project work, comparative cultural analysis, and reflective activities as effective pedagogical tools. The article argues that intercultural communicative competence should be developed systematically through classroom instruction, independent learning, practical communication tasks, and continuous assessment. The proposed methodological approach may contribute to improving the professional preparation of future English teachers and strengthening their readiness to teach English in multicultural and globalized educational environments.

Keywords: intercultural communicative competence, future English teachers, English language education, methodology, higher education, cultural awareness, teacher training.

Аннотация:Развитие межкультурной коммуникативной компетенции является одной из актуальных задач современного иноязычного образования. В процессе подготовки будущих учителей английского языка межкультурная компетенция не ограничивается только языковой грамотностью или знанием отдельных культурных фактов. Она включает умение адекватно общаться в межкультурной среде, интерпретировать культурные значения, уважать культурное разнообразие и выступать посредником между различными культурными взглядами. В данной статье рассматриваются методические подходы к развитию межкультурной коммуникативной компетенции будущих учителей английского языка в системе высшего образования. Особое внимание уделяется интеграции лингвистического, социокультурного, прагматического и рефлексивного компонентов в подготовку педагогических кадров. В качестве эффективных методов предлагаются интерактивные задания, аутентичные материалы, проблемные ситуации, ролевые игры, проектная работа, сравнительный культурный анализ и рефлексивные упражнения. В статье обосновывается необходимость системного формирования межкультурной коммуникативной компетенции через аудиторные занятия, самостоятельную работу, практические коммуникативные задания и непрерывное оценивание.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, будущие учителя английского языка, иноязычное образование, методика, высшее образование, культурная осведомленность, подготовка педагогов.

Annotatsiya: Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy chet til ta’limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida madaniyatlararo kompetensiya faqat grammatik to‘g‘rilik yoki ayrim madaniy faktlarni bilish bilan cheklanmaydi. U turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qilish, madaniy ma’nolarni to‘g‘ri talqin etish, xilma-xillikka hurmat bilan yondashish va turli madaniy qarashlar o‘rtasida vositachilik qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik va refleksiv komponentlarni ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish zarurati asoslanadi. Interfaol metodlar, autentik materiallar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, loyiha ishlari, qiyosiy madaniy tahlil va refleksiv topshiriqlar samarali pedagogik vositalar sifatida tavsiya etiladi. Maqolada madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, amaliy kommunikativ topshiriqlar va uzluksiz baholash orqali tizimli shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, ingliz tili ta’limi, metodika, oliy ta’lim, madaniy xabardorlik, pedagog kadrlar tayyorlash.

Introduction : In the modern world, English language education is no longer understood only as the process of teaching vocabulary, grammar, pronunciation, reading, writing, listening, and speaking. Due to globalization, academic mobility, international cooperation, digital communication, and multicultural interaction, English has become a medium of communication between representatives of different linguistic and cultural backgrounds. Therefore, one of the most important tasks of higher pedagogical education is to prepare future English language teachers who are able not only to use English fluently but also to understand and teach its intercultural dimension.

The professional activity of an English language teacher requires the ability to explain cultural meanings, compare native and foreign cultural norms, prevent stereotypes, develop tolerance, and guide learners toward respectful communication. For this reason, intercultural communicative competence should be considered an essential component of the professional competence of future English language teachers. It helps teachers organize language learning as a process of cultural dialogue rather than simple linguistic training.The relevance of this issue is connected with the need to modernize English language teacher education and to prepare specialists who can function effectively in multicultural educational contexts. In many higher education institutions, however, intercultural competence is still taught indirectly or fragmentarily. Cultural information is often presented as additional background knowledge rather than as an integrated part of communicative language teaching. This creates the need to improve the methodology for developing intercultural communicative competence among future English teachers.The purpose of this article is to analyze methodological approaches to developing intercultural communicative competence of future English language teachers and to propose practical pedagogical tools that can be used in higher education.The Concept of Intercultural Communicative Competence

Intercultural communicative competence refers to a person's ability to communicate effectively and appropriately with representatives of other cultures. It includes knowledge about cultures, awareness of cultural differences, openness toward diversity, skills of interpretation and comparison, and the ability to reflect on one's own cultural identity.

For future English language teachers, this competence has a dual function. First, they need intercultural competence for their own professional communication, academic development, and participation in international educational processes. Second, they must be able to develop this competence in their future learners. Thus, the formation of intercultural communicative competence should be treated as both a personal and professional objective of teacher training.

The main components of intercultural communicative competence may be classified as follows:

1. **Linguistic component –** knowledge of language units and the ability to use them in communication.
2. **Sociocultural component –** understanding cultural values, traditions, social norms, and patterns of behavior.
3. **Pragmatic component –** ability to choose appropriate language forms according to context, status, purpose, and situation.
4. **Strategic component –** ability to overcome misunderstanding, ask for clarification, and use communication strategies.
5. **Reflective component –** ability to analyze one's own cultural assumptions and evaluate intercultural experiences critically.

These components are interrelated and should be developed together. If English teaching focuses only on linguistic accuracy, students may know the language but fail to use it appropriately in intercultural situations. Therefore, language education should create opportunities for learners to compare, interpret, discuss, and reflect. Methodological Principles for Developing Intercultural Competence

The development of intercultural communicative competence among future English teachers should be based on several methodological principles.

First, the principle of integration is important. Intercultural competence should not be taught as a separate theoretical topic only. It should be integrated into speaking, listening, reading, writing, grammar, vocabulary, translation, and methodology classes. For example, while teaching reading, students may analyze cultural references in authentic texts. During speaking lessons, they may discuss intercultural situations or role-play communication between people from different cultural backgrounds.Second, the principle of authenticity should be applied. Authentic materials such as interviews, videos, podcasts, literary texts, advertisements, academic texts, social media posts, and real-life dialogues expose students to natural language use and cultural diversity. These materials help students understand not only what people say but also how and why they say it.

Third, the principle of comparison is necessary. Students should compare their native culture with English-speaking and other world cultures. Such comparison does not mean judging one culture as better than another. Its aim is to develop awareness, tolerance, and analytical thinking. Comparative cultural analysis helps learners understand both foreign cultures and their own cultural identity more deeply.Fourth, the principle of interaction plays a significant role. Intercultural competence develops through communication. Therefore, classroom activities should involve pair work, group discussion, debates, simulations, interviews, project

presentations, and collaborative tasks. These activities allow students to express opinions, negotiate meaning, and respond to different perspectives.

Fifth, the principle of reflection is essential. Reflection helps students become aware of their attitudes, stereotypes, difficulties, and progress. Reflective journals, self-assessment forms, learning diaries, and discussion questions can help future teachers analyze their intercultural learning experience.Effective Methods and ActivitiesRole Plays and Simulations Role plays allow students to act in intercultural situations and practice appropriate communication strategies. For example, students may act out situations such as meeting foreign colleagues, participating in an international conference, teaching a multicultural class, solving a misunderstanding between students from different cultures, or explaining Uzbek traditions to foreign visitors. Such tasks develop both language fluency and cultural sensitivity.Problem-Based Tasks Problem-based learning encourages students to solve intercultural communication problems. For instance, students may be given a case where a foreign student misunderstands indirect communication, classroom behavior, or forms of politeness. Students analyze the situation, identify the cultural reason for misunderstanding, and suggest a solution. This method develops critical thinking and practical decision-making skills.Comparative Cultural Analysis Students may compare greetings, politeness formulas, classroom communication, family values, holidays, educational traditions, non-verbal communication, and teacher-student relationships in different cultures. This method helps them avoid stereotypes and understand cultural diversity from an analytical perspective.Project WorkProject-based learning is especially effective in teacher education. Students may prepare projects on topics such as “Cultural Values in English-Speaking Countries,” “Uzbek Culture in English Language Teaching,” “Intercultural Problems in Language Classrooms,” or “Using Authentic Materials to Teach Culture.” Project work develops research skills, collaboration, presentation skills, and intercultural awareness. Reflective Journals

Reflective journals help students record their intercultural learning experiences. They may write about what they learned, what surprised them, what difficulties they faced, and how their views changed. This activity is useful for developing self-awareness and professional reflection.Authentic Video and Audio Materials

Films, interviews, documentaries, podcasts, and classroom videos can be used to demonstrate real examples of intercultural communication. After watching or listening, students may analyze speech acts, politeness strategies, gestures, cultural references, accents, and communication styles. Critical Incident Analysis

A critical incident is a short description of an intercultural misunderstanding. Students analyze what happened, why the misunderstanding occurred, and how it could be solved. This method is very useful because it prepares future teachers for real classroom and professional situations. Proposed Methodological Model

The development of intercultural communicative competence may be organized through a three-stage methodological model.The first stage is the diagnostic and motivational stage. At this stage, students’ initial level of intercultural awareness, attitudes, and communication skills are identified. Teachers may use questionnaires, interviews, observation, and diagnostic tasks. The main purpose is to determine students’ needs and motivate them to understand the importance of intercultural competence in their future profession.The second stage is the instructional and practical stage. At this stage, intercultural content is integrated into English language and methodology classes. Students work with authentic materials, participate in discussions,

complete role plays, analyze cultural cases, and prepare projects. The focus is on developing knowledge, skills, attitudes, and reflection.The third stage is the reflective and evaluative stage. At this stage, students' progress is assessed through portfolios, self-assessment, peer assessment, project presentations, reflective journals, and practical communication tasks. The purpose is not only to measure knowledge but also to evaluate students' ability to use intercultural competence in real or simulated professional situations.

This model allows teachers to organize intercultural learning systematically. It connects diagnosis, teaching, practice, reflection, and assessment into a single pedagogical process. Assessment of Intercultural Communicative Competence

Matbuot materiali bilan ishlashda taqqoslash metodi katta ahamiyatga ega. Bir voqea haqida turli nashrlarda e’lon qilingan materiallar solishtirilganda o‘quvchilar tarixiy hodisani turli manfaatlar, siyosiy qarashlar va ijtimoiy kayfiyatlar orqali yoritish mumkinligini anglaydi. Tahlil o‘quvchini bir tomonlama xulosadan saqlaydi va manbaga nisbatan hushyor munosabatni shakllantiradi. Stradling tomonidan ilgari surilgan ko‘pnuqtai nazarlilik g‘oyasi davriy nashrlar bilan ishlashda ayniqsa muhim o‘rin tutadi [7].

Davriy nashrlar asosida loyiha ishlari, kichik tadqiqotlar, press-klub, debat, manba tahlili varaqasi, tarixiy portret, voqea xronologiyasi, media kundalik va tahliliy esse kabi topshiriqlar ishlab chiqiladi. Har bir topshiriqda o‘quvchidan dalil keltirish, manbani ko‘rsatish, fikrni asoslash va muqobil qarashlarni hisobga olish talab etiladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi davriy nashrlarni darsga kiritishda ikki yo‘nalishni egallashi zarur. Birinchi yo‘nalish manbani tanlash va tekshirish bilan bog‘liq. Talaba nashr turini, muallifni, nashr vaqtini, mavzuga moslik darajasini, dalil bazasini va ehtimoliy subyektiv talqinni aniqlaydi. Ikkinchi yo‘nalish didaktik loyihalash bilan bog‘liq. Talaba tanlangan material asosida dars maqsadi, savollar tizimi, o‘quv topshirig‘i, guruhli ish shakli va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

Davriy nashrlardan foydalanish bo‘lajak tarix o‘qituvchisining didaktik kompetentligini kuchaytiradi. Talaba tarixiy bilimni tayyor axborot sifatida yetkazishdan ko‘ra, o‘quvchini dalilga asoslangan tahlilga jalb etishni o‘rganadi. U matbuot materiali yordamida darsni hayotiy voqelik, fuqarolik ong, tarixiy xotira va zamonaviy axborot madaniyati bilan bog‘laydi.[11].

Davriy nashrlarning didaktik mohiyati ularning ta’lim mazmunini hayotiy jarayonlar, tarixiy xotira, ijtimoiy munosabatlar va axborot madaniyati bilan bog‘lash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘quvchida manba tanqidi, dalilga asoslangan fikrlash, muallif pozitsiyasini anglash, fakt va talqinni farqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tarix fani o‘qituvchisi uchun davriy nashrlar oddiy qo‘shimcha material darajasida qolmasligi kerak. Ular dars maqsadi, mazmuni, metodlari, baholash mezonlari va refleksiv tahlil bilan bog‘langan taqdirda kuchli didaktik vositaga aylanadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini

tayyorlashda davriy nashrlar bilan ishlash metodikasini izchil joriy etish tarixiy tafakkur, media savodxonlik va didaktik kompetentlikning uyg‘un rivojlanishiga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masterman L. Teaching the Media. London. Comedia Publishing Group, 1985. 348 p.

2. Buckingham D. Media Education. Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge. Polity Press, 2003. 219 p.

3. Hobbs R. Digital and Media Literacy. A Plan of Action. Washington, DC. The Aspen Institute, 2010. 67 p.

4. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris. UNESCO, 2011. 192 p.

5. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia. Temple University Press, 2001. 255 p.

6. Barton K.C., Levstik L.S. Teaching History for the Common Good. Mahwah. Lawrence Erlbaum Associates, 2004. 288 p.

7. Stradling R. Teaching 20th-century European History. Strasbourg. Council of Europe Publishing, 2001. 290 p.

8. Lee P., Ashby R. Progression in Historical Understanding among Students Ages 7-14. In Stearns P.N., Seixas P., Wineburg S. eds. Knowing, Teaching, and Learning History. New York. New York University Press, 2000. P. 199-222.

9. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. Toronto. Nelson Education, 2013. 218 p.

10. G‘afforov Y.X. Tarix o‘qitish metodikasi. Darslik. Chirchiq, 2021.

11. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2021.

12. Ilmurodova F.Sh., Sa’dullayeva M.H. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisini metodik tayyorlash tizimi. Muammolar, tajriba va tendensiyalar. Monografiya. Toshkent. ChDPU, 2023. 118 b.

DAVRIY NASHRLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TURLARI

Musurmonov Sarvar Nuraliyevich-
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada davriy nashrlar tushunchasining mazmuni, ularning ommaviy axborot tizimidagi o‘rni, asosiy belgilari va turlari yoritiladi. Gazeta, jurnal, ilmiy jurnal, byulleten, axborotnoma hamda elektron nashrlarning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Davriy nashrlarning axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ilmiy muloqotni rivojlantirish va ta’lim jarayonini boyitishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. davriy nashr, matbuot, gazeta, jurnal, ilmiy jurnal, byulleten, axborotnoma, elektron nashr, ommaviy axborot vositalari, axborot madaniyati.

Abstract. The article analyzes the concept of periodical publications, their

Davriy nashrlar jamiyatning axborot makonida doimiy va tartibli axborot oqimini shakllantiradigan muhim kommunikativ hodisa sanaladi. Ular yangilik, tahlil, ilmiy qarash, adabiy-badiiy matn, rasmiy xabar va ijtimoiy fikrni muayyan vaqt oralig‘ida ommaga yetkazadi. Matbuot tarixiga nazar tashlaganda, gazeta va jurnallar ijtimoiy ong, madaniy xotira, siyosiy faollik, ilmiy muloqot hamda pedagogik tajriba rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatib kelgani ko‘rinadi.

Mavzu nomida uchraydigan “nashriyot” so‘zi amaliy nutqda ko‘pincha “nashr” ma’nosida qo‘llanadi. Ilmiy jihatdan “davriy nashr” shakli aniqroq, negaki nashriyot kitob, gazeta, jurnal va boshqa matbuot mahsulotini chiqaruvchi tashkilotni bildiradi. Davriy nashr atamasi esa muayyan nom, ketma-ket son, sanalangan chiqish tartibi va davomiylik belgilariga ega matbuot mahsulotini anglatadi.

O‘zbekiston qonunchiligida ommaviy axborot vositalari doimiy nomga ega, bosma yoki elektron shaklda, olti oyda kamida bir marta chiqariladigan axborot shakllari bilan bog‘lanadi [1]. UNESCO tavsiyalarida periodik nashr bir nom ostida uzluksiz seriya sifatida, tartibli yoki tartibsiz oraliqlarda, oldindan yakunlanish muddati belgilanmagan holda chiqariladigan nashr sifatida tavsiflanadi [2]. ISSN tizimi gazeta, jurnal va boshqa davriy nashrlarni bosma hamda elektron muhitda identifikatsiya qilish uchun sakkiz xonali xalqaro koddan foydalanadi [3].

Davriy nashr muayyan vaqt oralig‘ida ketma-ket sonlar yoki chiqarilish sanalari bilan ommaga taqdim etiladigan axborot mahsulotidir. Asosiy belgisi davomiylik, muntazamlik, nom barqarorligi, tahririy mas’uliyat va auditoriyaga yo‘naltirilganlik bilan izohlanadi. Gazeta yoki jurnalning har bir soni alohida axborot birligi bo‘lsa-da, u umumiy nom, tahririy siyosat va mavzuiy yo‘nalish orqali yagona nashr tizimini hosil qiladi.

Davriy nashr oddiy matnlar to‘plamidan iborat bo‘lmaydi. Unda axborot tanlanadi, qayta ishlanadi, tartiblanadi va o‘quvchi ehtiyojiga mos ifoda shakliga keltiriladi. Tahririyat mavzu tanlash, manba bilan ishlash, sarlavha yaratish, janr tanlash, sahifa tuzish, vizual material kiritish hamda axborotning ishonchliligini tekshirish jarayonida ijtimoiy mas’uliyatni bajaradi.

Davriy nashrlarning barqarorligi ularning davriyligida ko‘rinadi. Kundalik gazeta tezkorlikka tayanadi, haftalik nashr tahliliy yondashuvga kengroq o‘rin beradi, oylik jurnal esa mavzuni chuqurroq yoritishga intiladi. Ilmiy jurnallar uchun maqolalarning ekspert bahosi, bibliografik aniqlik, ilmiy dalillanish va tadqiqot yangiligi muhim sanaladi. Demak, davriylik faqat chiqish vaqti bilan chegaralanmaydi, u nashrning uslubi, vazifasi, auditoriyasi va axborot berish tezligini ham belgilaydi.

Davriy nashrlarni boshqa axborot mahsulotlaridan ajratib turadigan birinchi belgi muntazam chiqarilishdir. Nashr har kuni, haftada bir marta, oyda bir marta, chorakda bir marta yoki yil davomida belgilangan tartibda chiqarilishi mumkin. Ikkinchi belgi nomning doimiyligidir. O‘quvchi aynan nom orqali nashrning yo‘nalishi, obro‘si va axborot manbai sifatidagi qiymatini taniydi.

Uchinchi belgi sonlanish va sanalash tizimidir. Har bir son alohida tartib raqami, chiqarilish sanasi, hajmi, tahririyat ma’lumoti, ISSN yoki ro‘yxatga olish ma’lumotlari orqali aniqlanadi. To‘rtinchi belgi tahririy tuzilma bilan bog‘liq. Davriy nashrda muallif, muharrir,

mas’ul kotib, dizayner, sahifalovchi, korrekturachi va nashr siyosatini belgilovchi tahririyat jamoasi ishtirok etadi.

Beshinchi belgi auditoriya bilan aloqador. Davriy nashr aniq o‘quvchi qatlamiga yo‘naltiriladi. Masalan, bolalar jurnali, o‘qituvchilar gazetasi, ilmiy jurnal, kasbiy axborotnoma yoki mahalliy gazeta o‘z auditoriyasiga mos tilda, mavzuda va janrda material beradi. Oltinchi belgi axborotning yangilanishi bilan tavsiflanadi. Davriy nashr o‘tgan sonni takrorlashdan ko‘ra yangi voqea, yangi tahlil, yangi qarash yoki yangi ilmiy ma’lumotni ilgari suradi.

Davriy nashrlarni tasniflashda birgina mezon yetarli bo‘lmaydi. Ular chiqarilish davri, mazmun yo‘nalishi, auditoriya, hududiy qamrov, mulkchilik shakli, tarqatish usuli va mediamuhitga ko‘ra farqlanadi. Quyidagi jadval davriy nashrlarning eng ko‘p qo‘llanadigan tasnif mezonlarini umumlashtiradi.

Gazeta davriy nashrlarning eng tezkor va ommaviy shakllaridan biridir. Odatda u ijtimoiy-siyosiy voqealar, iqtisodiy yangiliklar, rasmiy xabarlar, tahliliy materiallar, intervyu, reportaj, ocherk, sharh va reklama matnlarini qamrab oladi. Gazetaning asosiy kuchi tezkorlik, ixchamlik va keng auditoriyaga chiqish imkoniyatida ko‘rinadi. Mahalliy gazetalar hudud hayotiga yaqinligi, respublika gazetalar esa keng ijtimoiy mavzularni yoritishi bilan farqlanadi.

Jurnal gazeta bilan taqqoslaganda mavzuni kengroq va chuqurroq yoritishga intiladi. Unda ilmiy, adabiy, pedagogik, madaniy, iqtisodiy yoki kasbiy yo‘nalishdagi maqolalar joy oladi. Jurnal sahifalarida tahlil, muhokama, tajriba almashish, nazariy qarash va ijodiy izlanishga ko‘proq o‘rin beriladi. Ilmiy jurnallar esa maqolalarni ma’lum talablar asosida qabul qiladi, adabiyotlar ro‘yxati, ilmiy uslub, dalilga tayangan xulosa va ekspert bahosiga alohida e’tibor qaratadi.

Byulleten va axborotnoma ko‘pincha rasmiy, ilmiy yoki kasbiy ma’lumotlarni jamlab berishga mo‘ljallanadi. Tashkilot faoliyati, qarorlar, statistik ma’lumotlar, anjuman xabarlari, metodik tavsiyalar yoki qisqa ilmiy axborotlarni muntazam yetkazadi. Ko‘rsatilgan nashrlar keng publitsistik uslubdan ko‘ra aniqlik, tartiblilik va rasmiylikka tayanadi.

Raqamli muhit davriy nashrlarning shakli, tarqatish tezligi va auditoriya bilan muloqotini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Elektron gazeta va jurnallar matn, rasm, audio, video, infografika, havola va interaktiv elementlarni bir maydonda birlashtira oladi. Bosma nashrda sonlar oralig‘i qat’iyroq ko‘rinsa, elektron nashrda yangilanish tezligi yuqoriroq bo‘ladi.

Elektron davriy nashrlarning afzalligi tezkorlik, arxivga tez kirish, qidiruv imkoniyati, keng tarqatish, multimediaviy ifoda va o‘quvchi fikrini tez olishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, raqamli makonda manba ishonchliligi, muallif mas’uliyati, plagiat, soxta axborot, tahririy nazorat va axborot xavfsizligi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davriy nashrlar jamiyat hayotida axborot yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy muammolarni muhokamaga olib chiqish va madaniy almashinuvni kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Gazeta va jurnallar tarixiy davr ruhini, odamlarning kundalik tashvishlari, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy o‘zgarishlar, ma’naviy qadriyatlar va ta’lim tajribalarini aks ettiradi. Shu bois davriy nashrlar tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida davriy nashrlar o‘quvchi va talabalarda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Ular materialni o‘qish, savol qo‘yish, dalil ajratish, muallif qarashini aniqlash, ma’lumotni taqqoslash, xulosa chiqarish va bahsda asosli fikr bildirishga o‘rgatadi. Tarix, ona tili, adabiyot, huquq, iqtisod, geografiya va pedagogika fanlarida davriy nashrlardan foydalanish darsni hayotiy voqelik bilan yaqinlashtiradi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun davriy nashrlar alohida ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Talaba gazeta yoki jurnal materialini tahlil qilish orqali davr kontekstini, manbaning paydo bo‘lish sharoitini, muallif pozitsiyasini, ijtimoiy buyurtmani va auditoriya ehtiyojini anglaydi. Keyin u shu material asosida savol, topshiriq, munozara, taqqoslash jadvali yoki manba tahlili mashqini ishlab chiqadi. Shu yo‘l bilan davriy nashr oddiy axborot manbaidan didaktik vositaga aylanadi.

Davriy nashrlar muayyan nom ostida muntazam chiqariladigan, ketma-ket sonlar orqali rivojlanadigan, tahririy mas’uliyat va auditoriya bilan bog‘liq axborot mahsulotidir. Ularning

asosiy turlari gazeta, jurnal, ilmiy jurnal, byulleten, axborotnoma va elektron nashrlar shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir tur o‘z davriyligi, auditoriyasi, mavzuiy yo‘nalishi, janr tarkibi va tarqatish usuli bilan farqlanadi.

Davriy nashrlar ommaviy axborot tizimining muhim bo‘g‘ini, jamiyatning axborot xotirasi va ilmiy-madaniy muloqot maydoni sifatida baholanadi. Ular voqeani tez yetkazadi, muammoni tahlil qiladi, ijtimoiy fikrni shakllantiradi, ilmiy qarashlarni tarqatadi va ta’lim jarayonini boyitadi. Raqamli muhit davriy nashrlarning imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, manba ishonchliligi va tahririy mas’uliyat masalalarini yanada kuchaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. Yangi tahrir. 15.01.2007. O‘RQ-78-son. Lex.uz.

2. UNESCO. Recommendation concerning the International Standardization of Statistics Relating to Book Production and Periodicals. Paris. 1964.

3. UNESCO. Revised Recommendation concerning the International Standardization of Statistics on the Production and Distribution of Books, Newspapers and Periodicals. Paris. 1985.

4. ISSN International Centre. What is an ISSN. Paris.

5. Library of Congress. ISSN is for Serials. Washington.

6. McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. 6th ed. London. SAGE Publications. 2010.

7. McLuhan M. Understanding Media. The Extensions of Man. New York. McGraw-Hill. 1964.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA UYUSHMAGAN YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARI

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
Matkarimov Ikrom Muxtarovich
deputat_0303@mail.ru
+998995260507

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Hozirgi ijtimoiy-madaniy sharoitda uyushmagan yoshlar bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish, ularning ma’naviy qadriyatlarga munosabati, axloqiy mezonlari, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Maqolada mazkur metodikani amaliyotga joriy etishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, yoshlar yetakchilari, psixologlar, mutaxassislar va jamoatchilik hamkorligining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonni bosqichma-bosqich tashkil etish, interfaol metodlar, mentorlik, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar, ijtimoiy sheriklik va individual yondashuvdan foydalanishning samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: uyushmagan yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, metodikani amaliyotga tatbiq etish, tatbiq etish mexanizmlari, pedagogik mexanizmlar, ijtimoiy sheriklik, mahalla, oila, mentorlik, interfaol metodlar, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar, individual yondashuv, ma’naviy immunitet, fuqarolik pozitsiyasi.

Jahonda globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash muammosi jamiyatning ma’naviy barqarorligi, ijtimoiy xavfsizligi va kelajak taraqqiyoti nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb

etadi. Chunki bunday toifadagi yoshlar doimiy ta’lim muhiti, mehnat intizomi, kasbiy yo‘naltirish, jamoaviy faoliyat va tizimli ijtimoiy nazoratdan qisman chetda qolgan bo‘lib, ularning ma’naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy maqsadlarining shakllanishida muayyan bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin. Uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi faqat tarbiyaviy ta’sir bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ularning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlarga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va o‘z kelajagini ongli ravishda belgilashiga ham bevosita daxldordir. Shu sababli mazkur yo‘nalishda qo‘llanilayotgan an’anaviy yondashuvlar ko‘p hollarda yetarli samara bermaydi. Chunki zamonaviy yoshlarning qiziqishlari, axborot qabul qilish usullari, kommunikativ muhiti va psixologik xususiyatlari o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda ma’naviy-axloqiy tarbiyani innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, ayniqsa uni amaliyotga samarali tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim pedagogik vazifaga aylanadi.Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvarda[9][1]gi PQ-92-son qarorida mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini ommalashtirish, “besh muhim tashabbus” doirasidagi loyihalarni amalga oshirish, yoshlar festivallari va madaniy-ma’rifiy tadbirlarni kengaytirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori va tashabbuslarini rag‘batlantirish, ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual kamoloti va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [1]. Mazkur me’yoriy-huquqiy asoslar shuni ko‘rsatadiki, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi bugungi kunda faqat tarbiyaviy faoliyatning tor doiradagi vazifasi emas, balki ularning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy barkamolligi va hayotiy maqsadlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu bois mazkur yo‘nalishda innovatsion yondashuvga asoslangan samarali metodikani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning barqaror samarasi yoshlarda shakllangan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yuzaga keladi. Aniqroq aytganda, axloqiy tushunchalarning o‘zlashtirilishi, ijtimoiy xulq me’yorlarini anglash, jamoada muloqot qilish, o‘zini tuta bilish, mas’uliyatni his etish va ezgu qadriyatlarga sodiq qolish tajribasi axloqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida bir butun holda shakllanadi. Shunday ekan, **innovatsion yondashuv**ga asoslangan mexanizmlar tarbiya natijasini faqat nazariy xabardorlik darajasi bilan emas, balki yoshning kundalik turmushida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorligi va shaxsiy mas’uliyati bilan baholashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mazkur mexanizmlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishda yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mahalladagi ushbu toifadagi yoshlar ko‘pincha ijtimoiy chetlashuv, befarqlik, maqsadsizlik yoki tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik holatlarini namoyon etadi. Shuning uchun ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida tayyor xulosalarni qabul qiluvchi ob’ekt sifatida emas, balki muammolarga nisbatan o‘z qarashiga ega, hayotiy vaziyatlarga mustaqil munosabat bildira oladigan, shaxsiy pozitsiyasini asoslab bera oladigan sub’ekt sifatida tarbiyalash talab etiladi. Bu esa interfaol metodlar orqali yoshning fikrini erkin ifoda etishiga, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishiga, guruhda hamkorlik qilishiga va ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, mexanizmlarning amaliy samaradorligi ularni tashkil etuvchi pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tanlanishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, maktabdan tashqari ta’lim jarayonida mashg‘ulotlarning mazmun jihatdan hayotiy, tarbiyaviy va qiziqarli bo‘lishi, qo‘llanilayotgan interfaol metod va pedagogik texnologiyalarning yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi, tarbiya jarayonida oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligining ta’minlanishi muhimdir. Tadqiqotimiz ko‘rsatishicha, ma’naviy-axloqiy tarbiya

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

jarayonining natijadorligi ko‘p jihatdan yoshlardagi motiv-motivatsiyaning ijtimoiylashuv darajasiga bog‘liq.



1-rasm. Innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari

Ushbu rasmda innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari tizimli ravishda ifodalangan. Unda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, sub’ektlari, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar, shuningdek, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ta’sir yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rsatilgan. Mazkur mexanizm yoshlarda ma’naviy-axloqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga munosabat va hayotiy maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularni qayta ijtimoiylashtirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, profilaktik qo‘llab-quvvatlash va monitoring ishlarini yagona tizim asosida tashkil etish imkonini beradi.

D.I.Ro‘zieva pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashning

afzalliklarini tahlil qilar ekan, texnologik yondashuv orqali pedagogik, ta’limiy va ijtimoiy faoliyat qirralarini ochish mumkinligini ta’kidlaydi [2; 16-b.]. Xususan, bu yondashuv pedagogik jarayonni samarali boshqarish, mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo‘llash, ta’limiy hamda ijtimoiy-tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal qilish, shaxs rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, salbiy ta’sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va kutilgan natijalarni aniq prognoz qilish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlar aynan mahalla sharoitida uyushmagan yoshlar bilan ishlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu toifadagi yoshlar bilan ishlashda faqat ma’naviy tushuntirishlar emas, balki ijtimoiy-pedagogik muammolarni kompleks hal etish, shaxsiy rivojlanish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish va ularni ijtimoiy faol hayotga qayta jalb etish muhim vazifa hisoblanadi[2;].

Mazkur mexanizmni pedagogik texnologiyalar asosida qurish, avvalo, tarbiyaviy jarayonni aniq bosqichlarga ajratishni taqozo etadi. Ya’ni dastlab diagnostik bosqichda yoshlarning ijtimoiy holati, ma’naviy-axloqiy qarashlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolari o‘rganiladi. Keyin maqsadli-loyihaviy bosqichda ularning xususiyatlariga mos tarbiyaviy mazmun, interfaol metodlar va amaliy ta’sir choralari belgilanadi. Amaliy bosqichda treninglar, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, keyslar, jamoaviy loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar va refleksiv mashg‘ulotlar orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy tafakkuri, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy faolligi rivojlantiriladi. Yakuniy bosqichda esa natijalar monitoring qilinib, tarbiyaviy ta’sir samaradorligi baholanadi. Bunday izchillik mexanizmning tizimliligini ta’minlaydi. Shunday qilib, **uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmini pedagogik texnologiyalar asosida qurish** ilmiy jihatdan asosli, amaliy jihatdan esa yuqori samara beruvchi yondashuv hisoblanadi. U tarbiya jarayonini maqsadli boshqarish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy-pedagogik muammolarni kompleks hal etish va yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois ushbu mexanizmni interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida takomillashtirish dissertatsiya tadqiqotining muhim nazariy va amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, o‘quvchi-yoshlar tomonidan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek, nazariy tushunchalar va qoidalar tizimi ularning kundalik faoliyati, ijtimoiy munosabati va ma’naviy-axloqiy xulq-atvorining amaliy asosini tashkil etadi[10][3; 98-b.]. Ayniqsa, “Tarbiya” fani orqali o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchi-yoshlar tomonidan ijtimoiy-ma’naviy tarbiyaviy tadbirlar, seminar-treninglar, jamoaviy muloqotlar va ijtimoiy loyihalar jarayonida qo‘llanilganda, ularning tarbiyaviy qiymati yanada ortadi. Shu ma’noda, tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Mashg‘ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, pedagogik va psixologik bilimlarni anglash, shaxsiy qobiliyatni namoyon etish, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ma’naviy yetuklik, tashkilotchilik, qat’iy intizom va mas’uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[11][4; 424-b.]. Bunday yondashuv, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu toifadagi yoshlar bilan ishlashda tarbiyaviy ta’sir faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki ularning ichki imkoniyatlarini faollashtirish, ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlash va hayotiy maqsadlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

[10] Холиқов Э., Худойқулов Х.Ж. ва бошқалар. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДАИ, 1999. – 98 б.

[11] Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент: Иқтисод молия, 2012. – 424 б.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2.Ro‘zieva D. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.: dis. ... ped. fan. dok. – T., 2007.255-b.
3. Холиқов Э., Худойқулов Х.Ж. ва бошқалар. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДАИ, 1999. – 98 б.
4.Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент: Иқтисод молия, 2012. – 424 б.
6. Xoliqov E., Xudoyqulov X.J. va boshqalar. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: TDAI, 1999. – 98 b.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

N.S.Duschanova
Urganch RANCH universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada pedagogika yo‘nalishida sun’iy intellektning ahamiyati, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanishni hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini inson miyasining kognitiv xususiyatlariga muvofiq ravishda tashkil etilishining ahamiyatini ko`rsatib o`tgan. .

Kalit so‘zlar:sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan muloqot, ma’naviy va axloqiy mezonlar, multimodal ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, neyropedagogik yondashuvlar, ta’lim, guruhda o‘qitish , virtual reallik.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish pedagogik faoliyatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida bilim berish usullarini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim sifatini oshirishda sun’iy intellekt muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Pedagogika yo‘nalishida sun’iy intellektning ahamiyati shundaki, u o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi platformalar orqali masofaviy ta’limni rivojlantirish, bilimlarni tezkor baholash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda pedagog kadrlar nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ham samarali foydalana olishi talab etilmoqda. Shu sababli sun’iy intellektning pedagogika sohasidagi o‘rni, imkoniyatlari va istiqbollarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur ma’ruzada sun’iy intellektning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, uning afzalliklari hamda ta’lim tizimiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan, axborot oqimi keskin o‘sgan va o‘quvchilarning bilish muhiti multimediaviy kontentlar, vizual vositalar va qisqa formatli axborotlar bilan to‘lib-toshgan bir zamonda an’anaviy usullar orqali ta’lim berish samarasizlikka olib kelishi mumkin. Chunki bu holatda o‘quvchida diqqatning parokandaligi, axborotni to‘g‘ri qabul qilishda qiyinchiliklar, fikrni chuqurlashtirmasdan yuzaki qabul qilish, mulohaza yuritish qobiliyatining zaiflashishi kabi holatlar yuzaga keladi. Shu sababli, ta’limda inson ongi qanday ishlashini, axborot qanday qabul qilinib, qayta ishlanishini, qanday sharoitda xotira mustahkamlanishini, qay tarzda fikr shakllanishini ilmiy jihatdan o‘rganish talab etildi.

Darhaqiqat, inson tafakkuri va qalbi orasidagi muvozanat ta’limning eng oliy qadriyatidir.

Sizu biz yashab turgan yangi asr eshigini kompyuter texnologiyalari ochib berdi. Endilikda bunday texnologiyalar taraqqiyoti nafaqat hayot tarzimizni, balki inson sifatidagi tafakkurimizni ham o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda ta’lim va tarbiya tizimi oldida mutlaqo yangi vazifalar paydo bo‘lishi shubhasiz. Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI = SI) bizga ta’limda tez o‘rganish, chuqur tahlil qilish, har bir o‘quvchiga mos ta’lim traektoriyasini belgilash kabi yangi imkoniyatlar bermoqda. Ayni paytda unutmasligimiz kerakki, u faqat vosita xolos. Har qanday sharoitda ham ta’limning haqiqiy qahramoni insonning o‘zi bo‘lib qolaveradi.

Mashhur dasturchi va nazariyotchi olim Djon Makkarti “sun’iy intellekt” atamasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan. Shuning uchun uning ushbu tushunchaga bergan ta’rifini keltirishni maqsadga muvofiq topdik: “Sun’iy intellekt – bu aqlli mashinalarni, xususan, inson kabi fikrlay oladigan dasturlarni yaratish ilmi va muhandisligidir.” Soddaroq qilib aytganda, sun’iy intellekt bu inson aqlining elektron ko‘rinishi, ya’ni fikrlay oladigan, o‘rgana biladigan va ba’zan qaror ham chiqaradigan dasturdir.

Sun’iy intellektga munosabat: qo‘rquvdan ishonchga... Odamlarning sun’iy intellektdan qo‘rqishi, unga nisbatan hadik bilan munosabatda bo‘lishi, aslida, tabiiy holat. Inson psixologiyasiga ko‘ra, nimaki yangilik bo‘lsa, u avval shubha bilan qabul qilinadi. Tushunmagan narsaning odamda xavotir uyg‘otishida mantiq mavjud. Ammo, sun’iy intellektning xavotiri o‘rinli: Meta kompaniyasining vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov bu dastur mustaqil ravishda rivojlana olishini ta’kidlaydi. Bu esa uning kelajagi bilan bog‘liq xavotirlarning muayyan darajada asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Odamlar orasida eng ko‘p tarqalgan qo‘rquv – ish o‘rnidan ayrilish xavfi. Darhaqiqat, mutaxassilarning fikricha, “...qachondir ayrim kasblar haqiqatan ham o‘z o‘rnini qisman yoki butunlay sun’iy intellektga bo‘shatib beradi”. [“Meta”ning vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov]

Yana bir xavf – plagiat va yolg‘on ma’lumotlar orqali aldanish xavfi. Bizningcha, bu bu sun’iy intellektning aybi emas, balki undan foydalanish madaniyatining pastligi bilan bog‘liq hodisa.

Insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi. Butun insoniyat tarixi davrlashtirilsa, davriy chegaralarni belgilashga, shubhasiz, buyuk kashfiyotlar asos bo‘ladi. G‘ildirakning kashf etilishi, elektrning paydo bo‘lishi, internetning tug‘ilishi kabilar insoniyatni yangi bosqichga olib chiqqan buyuk ixtirolardir. Endi esa yangi bosqich – sun’iy intellekt davri boshlandi. Avvalgi ixtirolar inson qo‘lini yengillatgan bo‘lsa, sun’iy intellekt inson aqlining o‘zi bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bois, bizningcha, insoniyat tamaddunini ikki davrga bo‘lish mumkin: sun’iy intellektgacha bo‘lgan davr va undan keyingi davr. Birinchisi, inson tabiatni boshqarishni o‘rgangan davr; ikkinchisi esa inson aqliga muqobil sherik paydo bo‘lgan davr.

Sun’iy intellektdan foydalanishning ma’naviy va axloqiy mezonlari. Sun’iy intellekt jadal sur’atlar bilan hayotimizga kirib kelar ekan, u nafaqat texnologiya, balki ma’naviyat masalasiga ham aylandi. Bizningcha, “sun’iy intellekt gigienasi” yoki “raqamli axloq” degan yangi tushunchalarni qabul qilish vaqti keldi. Bu atamalar insonning texnika bilan munosabatini nazorat qiladigan ichki qoidalarni anglatadi. Jismoniy gigiena tanani sog‘lom saqlasa, sun’iy intellekt gigienasi fikr va axloqni sog‘lom saqlaydi.

Yaqin yillargacha qo‘lida quroli bor inson xavfli va ayni paytda kuchli ham bo‘lgan bo‘lsa, bugun axborotga ega va sun’iy intellektni o‘zlashtirgan odam kuchli. Amerikalik fizik va futurolog Stiven Xoking sun’iy intellekt haqida so‘z yuritar ekan, uning qudratini e’tirof etgan holda ta’kidlaydi: “Sun’iy intellekt insoniyat uchun yoki eng buyuk imkoniyat, yoki eng katta xavfga aylanishi mumkin. Bu uni inson qanday niyat va mas’uliyat bilan boshqarishida”. [5]

Sun’iy intellektdan foydalanishning ma’naviy va axloqiy mezonlari:

1. Ma’lumotga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish.
2. Boshqalarning mehnatini hurmat qilish.
3. Yolg‘on ma’lumot tarqatmaslik.
4. Shaxsiy bilim va vijdon nazorati.

5. Axloqiy niyatning sofligi.
6. Shaxsiy ma’lumotni himoya qilish.
7. Inson omilini ustuvor tutish.
8. Foydali va zararli maqsadni farqlay bilish.
9. Ilmni chuqur anglash va ma’naviyat bilan bog‘lash.

Bu mezonlarning har biri izohlarni talab qiladi, lekin vaqtimiz chegaralangan.

7-slayd. Sun’iy intellekt va ta’lim: yangi imkoniyatlar. Sun’iy intellekt ta’limda, eng avvalo, yordamchi sifatida qo‘shimcha qiymat kasb etadi: u o‘qituvchi va o‘quvchi ishini yengillashtiradi, vaqtni tejaydi, mashg‘ulotni shaxsiylashtirib, o‘quvchining shaxsiy ta’lim traektoriyasini belgilashga yordam beradi. Avtomatik test tuzishdan tortib, tarjimonlik qilish, virtual o‘qituvchilik faoliyati va individual tavsiyalar berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda u “aqlli sherik” bo‘la oladi, lekin qaror va nazorat, o‘quvchi tarbiyasi va ma’naviyati, individual yondashuvda o‘quvchi ruhiyatini hisobga olish bilan bog‘liq jarayonlar baribir o‘qituvchining zimmasida qoladi.

Virtual o‘qituvchini 7/24 formatda ishlaydigan, sabr-toqatli va charchamaydigan yordamchi sifatida tushunish mumkin. U qiyin tushunchani qayta-qiyta boshqacha yo‘l bilan tushuntirib beradi, misollarni soddalashtiradi, qadam-baqadam yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Masalan, matematikada masalani yechish jarayonini qadamma-qadam ochadi, adabiyotda matn tahlilini yo‘lga soladi, tabiiy fanlarda tajriba mantig‘ini tushuntiradi. Bu o‘quvchining ishonchini oshiradi, shaxsiy tempda o‘qish imkoniyatini beradi. Lekin virtual o‘qituvchi hayotiy tajriba, tarbiya va qiymatlarni singdira olmaydi va bu o‘rinda o‘quvchiga o‘qituvchining roli talab qilinadi.

Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallashi mumkinmi? Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘qituvchini bilim manbai sifatida emas, balki fasilitator sifatida ko‘radi. Ta’limda bilim olish jarayonini to‘g‘ri va oqilona tashkil qilish o‘qituvchining bilimidan ham ko‘ra muhimroq omildir. Agar ta’limni faqat ma’lumot berishdan iborat jo‘n hodisa deb tushunsak, ehtimol, sun’iy intellekt yetarli bo‘lishi mumkin. Ammo ta’lim jarayoni jo‘n hodisa emas. Chunki uning ob’ekti inson va uning intellektual hamda ma’naviy kamolotini ta’minlash jarayonidir.

Ushbu sohaning qonuniy javobgar shaxsi sifatida o‘qituvchi bugungi kunda faqat bilim yetkazuvchi emas, balki insonni keng ma’noda tarbiyalovchi, hayotga tayyorlovchi va uni ruhlantiruvchi, mehr va mas’uliyat manbai bo‘lgan shaxsdir. His, tuyg‘u, mehr, vijdon va ma’naviyat bilan bog‘liq bunday faoliyat turlarini sun’iy intellekt bajara olmaydi: u ma’lumotni tez yetkazadi, lekin qalbni tarbiyalay olmaydi; u tinglaydi, lekin his etmaydi; u javob beradi, lekin ilhom bag‘ishlay olmaydi; u tavsiya beradi, lekin bolaning ko‘zidagi quvonchni yoki tushkunlikni his eta olmaydi. Bilimni yaratishda aql yetakchi bo‘lsa, tarbiyada qalb yalovbardor. Shu bois haqiqiy ta’limda sun’iy intellekt faqat yordamchi vosita sifatida, inson-o‘qituvchi esa har doim uni boshqaruvchi, ilhom beruvchi va yo‘lboshchisi bo‘lib qolaveradi.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Sun’iy intellektni ta’lim amaliyotiga joriy etish bu faqat texnik qadamlardan iborat mexanik jarayon emas, balki butun ta’lim madaniyatini yangilashni anglatuvchi murakkab jarayondir. Undan to‘g‘ri foydalanish uchun, avvalo, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim rahbarlari sun’iy intellektni to‘g‘ri tushunishi, undan foydalanish madaniyati va mas’uliyatini o‘zlashtirishi kerak. Bu jarayon bosqichma-bosqich, tizimli va milliy ta’lim ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Quyida sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha ilk amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz.

Amaliy tavsiyalar: 1. O‘quvchilar uchun axborot xavfsizligi va raqamli axloq darslarini joriy etish. 2. O‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. 3. SIni dars jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish. 4. Maktablarda “Sun’iy intellekt kuni” loyihasini tashkil etish. 5. SI yordamida o‘quvchining shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirish. 6. Milliy ta’lim platformalariga sun’iy intellekt funksiyalarini qo‘shish. 7. SI orqali inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash. 8. Ota-onalar uchun raqamli savodxonlik kurslarini

tashkil etish. 9. SI orqali ta’limda statistik tahlil va monitoring tizimini joriy qilish. 10. SI bilan bog‘liq fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish.

SI ni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish masalasi ilmiy tadqiqotlar uchun nisbatan yangi va dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada hali ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilinishi kerak.

Xulosa. Sun’iy intellekt – insoniyatning yangi fikrlash bosqichiga olib chiquvchi kuch, ammo u faqat inson axloqiga bo‘ysungandagina samarali bo‘ladi. Aqlni texnikaga suyantirgan jamiyat ko‘p narsa yaratadi, lekin ma’naviyatga suyantirgan jamiyatgina insonni asrab qoladi. Texnikadan quvvat olish mumkin, lekin ma’naviyatdan ruh olinadi. Texnologiya – vosita, inson esa uning mohiyatidir. Sun’iy intellekt qanchalik aqlli bo‘lmasin, u insonni anglamaydi, his qilmaydi, kechirmaydi. Haqiqiy qarorni faqat qalb va vijdon qabul qiladi. Shu bois sun’iy intellektdan qo‘rqish emas, uni to‘g‘ri yo‘naltirish muhim. U insonning o‘rnini bosish uchun emas, balki inson salohiyatini yuksaltirish, uning hayotini ma’no va imkoniyat bilan boyitish uchun xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

2. Sun’iy intelekt o`qituvchini ishdan ayiradi(mi)? Umid Xodjamqulov, pedagogika fanlari doktori, professor.Til va adabiyot ta’limi. 8 / 2025 .12-20-betlar.
3. McCarthy J. What is Artifi cial Intelligence? – Stanford University, 2007. – Available at: https://www-formal. stanford.edu/jmc/whatisai.html
4. Sun’iy intellekt mustaqil ravishda rivojlana oladi. ICT Week doirasida “Meta” vitse-prezidenti Ruslan Salahutdinov nutqidan. https://www.gazeta.uz/uz/2025/09/30/ruslan-salakhutdinov/
5. Sun‘iy intellekt saratonni davolay oladimi? “Meta” vitse-prezidenti Ruslan Salohutdinov – mashinaviy tafakkurning kelajagi haqida. https://www.gazeta.uz/uz/2025/10/07/ruslan-salakhutdinov/
6. Schleicher A. Artifi cial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 156 p.
7. Hawking S. BBC Interview on Artifi cial Intelligence. – BBC News, 2016. – Available at: https://www.bbc.com/ news/technology-30290540
8. Luckin R. Holmes W. Griff iths M. & Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson Education, 2016. – 80 p.
9. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 192 p.
10.Юдина Е.Г. Искусственный интеллект в образовании: этические и педагогические вызовы // Педагогика и психология образования, 2022, №3. – С. 45–52.
10.Safarov A. Sun’y intellekt texnologiyalaridan ta‘lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari: PhD dissertatsiya. – Toshkent: TDPU, 2023. – 180 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARINING PEDAGOGIKA TA’LIM YO‘NALISHLARIDA INTERFAOL DARSLARDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Sa’dullayev Ziyoddin Yovqochovich,

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida interfaol darslar jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt asosidagi platformalarning imkoniyatlari hamda ularning talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari, muammolari va istiqbollari ilmiy asosda bayon etilgan. Interfaol metodlar orqali talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish,

ma’lumotlarni qayta ishlash va ilmiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish mexanizmlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, interfaol ta’lim, tadqiqotchilik kompetensiyasi, pedagogika, oliy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ИНТЕРАКТИВНЫХ УРОКАХ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КУРСАХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Соъдуллаев Зиёддин Ёвкочович, независимый исследователь Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в развитии исследовательских компетенций студентов в процессе интерактивных занятий в педагогическом образовании высших учебных заведений. Исследование охватывает возможности современных педагогических технологий, цифровых учебных сред, платформ на основе искусственного интеллекта и их влияние на исследовательскую деятельность студентов. Также описываются преимущества, проблемы и перспективы использования искусственного интеллекта на научной основе. Показаны механизмы направления студентов к самостоятельному мышлению, анализу, обработке данных и формулированию научных выводов с помощью интерактивных методов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, интерактивное образование, исследовательские компетенции, педагогика, высшее образование, инновационные технологии, цифровое образование, компетентностный подход.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH COMPETENCES IN INTERACTIVE LESSONS IN PEDAGOGY EDUCATIONAL COURSES OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Sa’dullayev Ziyoddin Yovqochovich,
independent researcher of the Urgench state pedagogical institute

Annotation. This scientific article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the development of students' research competencies in the process of interactive lessons in pedagogical education in higher education institutions. The study covers the possibilities of modern pedagogical technologies, digital learning environments, artificial intelligence-based platforms, and their impact on students' research activities. It also describes the advantages, problems, and prospects of using artificial intelligence on a scientific basis. The mechanisms for directing students to independent thinking, analysis, data processing, and drawing scientific conclusions through interactive methods are shown.

Keywords: artificial intelligence, interactive education, research competencies, pedagogy, higher education, innovative technologies, digital education, competency-based approach.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimida sifatli ta’limni tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy mutaxassis tayyorlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi talabalarning ilmiy izlanish

olib borish, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limning barcha bosqichlarida keng qo‘llanilmoqda. Ular nafaqat axborotni tezkor qayta ishlash, balki ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun esa bunday texnologiyalar ilmiy faoliyatni samarali tashkil etish, ilmiy maqola yozish, ma’lumotlarni

Tadqiqotchilik kompetensiyasining nazariy asoslari

Tadqiqotchilik kompetensiyasi — shaxsning ilmiy izlanishlarni mustaqil tashkil etish, tadqiqot metodlarini qo‘llash, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir.

Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv ta’lim mazmunini yangilashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, talabalar faqat bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishlari lozim.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Motivatsion komponent

Bu komponent talabaning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi, yangi bilimlarni egallashga intilishi va tadqiqot olib borishga ichki ehtiyojini ifodalaydi.

2. Kognitiv komponent

U talabaning tadqiqot metodologiyasi, ilmiy tahlil, statistik ma’lumotlar bilan ishlash, manbalarni tahlil qilish kabi bilimlarini o‘z ichiga oladi.

3. Faoliyatli komponent

Talabaning tadqiqotni rejalashtirish, eksperiment o‘tkazish, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish kabi amaliy ko‘nikmalarini qamrab oladi.

4. Refleksiv komponent

Talabaning o‘z faoliyatini baholash, xatolarni tahlil qilish va o‘z ustida ishlash qobiliyatini anglatadi.

Pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati

Bo‘lajak pedagog kadrlarning tadqiqotchilik kompetensiyalariga ega bo‘lishi quyidagi jihatlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish;
- o‘quvchilarning muammolarini ilmiy tahlil qilish;
- ta’lim sifati samaradorligini oshirish;
- mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- raqamli ta’lim muhitida faoliyat yuritish.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlangan pedagog o‘z kasbiy faoliyatida muammolarni tez aniqlaydi va ularning samarali yechimlarini topishga harakat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini samarali shakllantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish

Ta’lim jarayonida talabalarning amaliy faolligiga e’tibor qaratish, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

2. Ilmiy-tadqiqot muhitini shakllantirish

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy to‘garaklar, konferensiyalar, seminarlar va master-klasslarni tashkil etish talabalarning ilmiy salohiyatini oshiradi.

3. Muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish jarayoni talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish

Elektron kutubxonalar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt texnologiyalari tadqiqot jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

5. Mustaqil ta’limni rag‘batlantirish

Talabalarning mustaqil izlanishlariga yo‘naltirilgan vazifalar ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlari

Sun’iy intellekt (SI) — inson tafakkuriga xos bo‘lgan funksiyalarni bajaruvchi kompyuter tizimlari majmuasidir. Ta’lim tizimida SI quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Individual ta’limni tashkil etish

Sun’iy intellekt talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni tavsiya etadi. Bu esa talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini yaratishga yordam beradi.

2. Ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish

Talabalar ilmiy izlanish jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashga duch keladilar. SI texnologiyalari ma’lumotlarni saralash, tahlil qilish va umumlashtirish imkonini beradi.

3. Virtual yordamchilar

Chatbotlar va virtual assistentlar talabalarga ilmiy maqola yozish, manbalarni izlash, reja tuzish va metodologik yordam ko‘rsatishda xizmat qiladi.

4. Avtomatik baholash

Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar talabalarning topshiriqlarini avtomatik baholaydi va tezkor feedback beradi.

5. Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash

SI vositalari:

- statistik tahlil;
- matnlarni tahrirlash;
- plagiatni aniqlash;
- bibliografik ma’lumotlarni shakllantirishda samarali yordam beradi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari talabalarning tadqiqotchilik faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi

Loyihaviy ta’lim talabalarni mustaqil tadqiqot olib borishga o‘rgatadi. Bu jarayonda talabalar ma’lum muammoni aniqlaydi, uni tahlil qiladi va yechim taklif etadi.

Keys-stadi metodi

Keyslar asosida ishlash talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi hamda amaliy muammolarga ilmiy yondashuvni shakllantiradi.

STEAM texnologiyasi

STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta’minlab, talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar

“Aqliy hujum”, “Blis-so‘rov”, “Debat”, “Klaster” kabi metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

8. Muammoni aniqlash;
9. Mavzu tanlash;
10. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
11. Tadqiqot metodlarini belgilash;
12. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish;
13. Natijalarni tahlil qilish;
14. Xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Talabalarni maqola yozish, tezis tayyorlash va konferensiyalarda ishtirok etishga jalb qilish ularning ilmiy salohiyatini oshiradi.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini baholash mezonlari

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini baholashda quyidagi mezonlar muhim hisoblanadi:

№	**Baholash mezoni**	**Ko‘rsatkichlar**
1	Ilmiy muammoni aniqlash	Muammoning dolzarbligini belgilay olish
2	Manbalar bilan ishlash	Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish
3	Tahlil qilish	Ma’lumotlarni umumlashtirish
4	Amaliy ko‘nikmalar	Tadqiqot metodlarini qo‘llash
5	Ilmiy yozish	Maqola va tezis tayyorlash
6	Ijodiy yondashuv	Yangi g‘oyalar taklif qilish

Xorijiy tajribalar tahlili

Rivojlangan davlatlarda pedagog kadrlarni tayyorlashda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Masalan:

- Finlyandiya ta’lim tizimida talabalarning mustaqil tadqiqot ishlariga katta ahamiyat beriladi.
- Germaniyada dual ta’lim asosida nazariya va amaliyot integratsiya qilingan.
- Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar orqali ilmiy tadqiqot ishlari qo‘llab-quvvatlanadi.

Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Muammolar va ularning yechimlari

Pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi muammolar uchraydi:

- talabalarning ilmiy faoliyatga qiziqishi pastligi;
- amaliy tadqiqot ishlarining yetarli emasligi;
- raqamli resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmasining kamligi;
- ilmiy rahbarlik tizimidagi kamchiliklar.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

- innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish;
- talabalarni ilmiy loyihalarga jalb qilish;
- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini sun’iy intelllekt orqali rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va innovatsion faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va mustaqil ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb qilish, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
12. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
13. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
14. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2020.
15. Zimnyaya I.A. Klyuchevыe kompetensii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya. – Moskva, 2019.
16. Xutorskoy A.V. Kompetentnostnыy podxod v obrazovanii. – Sankt-Peterburg, 2018.
17. Selevko G.K. Sovremennыe obrazovatelnыe texnologii. – Moskva, 2019.
18. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnыe texnologii obucheniya. – Moskva, 2018.
19. Klarin M.V. Innovatsionnыe modeli obucheniya. – Moskva, 2020.
20. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.

NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA “KOMIL INSON” SHAXSINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yunusxo‘jayev M.Z.

UrDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada kubroviya ta’limotida “komil inson” g‘oyasining tarbiyaviy mohiyati pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Najmiddin Kubro qarashlaridagi qalb pokligi, nafsni tarbiyalash, ilm-ma’rifatga intilish, murabbiylik va shaxs kamoloti masalalari zamonaviy tarbiya jarayoni bilan bog‘lab yoritiladi. Tadqiqotda tasavvufiy merosning axloqiy

tarbiya, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy mas’uliyat va komil shaxsni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, kubroviya, komil inson, tarbiya, pedagogika, ma’naviy-axloqiy kamolot, tasavvuf, murabbiylik, ilm-ma’rifat.

Аннотация. В статье с педагогической точки зрения анализируется воспитательная сущность идеи «совершенного человека» в учении кубравии. Взгляды Наджмиддина Кубро на чистоту сердца, воспитание нафса, стремление к знанию и просвещению, наставничество и развитие личности рассматриваются во взаимосвязи с современным образовательным процессом. Раскрываются педагогические возможности суфийского наследия в формировании нравственного воспитания, духовной зрелости, социальной ответственности и гармонично развитой личности.

Ключевые слова: Наджмиддин Кубро, кубравия, совершенный человек, воспитание, педагогика, духовно-нравственное развитие, суфизм, наставничество, знание и просвещение.

Abstract. The article analyzes the educational essence of the idea of the “perfect human being” in the Kubrawiya teaching from a pedagogical perspective. Najmuddin Kubro’s views on purification of the heart, self-discipline, pursuit of knowledge, mentorship and personal development are interpreted in connection with the modern educational process. The paper reveals the pedagogical potential of Sufi heritage in moral education, spiritual maturity, social responsibility and the formation of a well-rounded personality.

Keywords: Najmuddin Kubro, Kubrawiya, perfect human being, education, pedagogy, spiritual and moral development, Sufism, mentorship, knowledge and enlightenment.

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma’naviy yetuk, axloqan barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Shu jihatdan xalqimizning boy ilmiy-ma’naviy merosida komil insonni tarbiyalashga doir qarashlarni pedagogik mezonlar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf ta’limoti, xususan, kubroviya tariqatida inson kamoloti, qalb tarbiyasi, nafsni jilovlash, ilm va ma’rifatga intilish masalalari tarbiyaviy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf ta’limotining yirik vakili, kubroviya tariqatining asoschisi Shayx Najmiddin Kubro ilm-fan, falsafa, axloq va ma’naviy tarbiya tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning ta’limotida insonni ichki poklanish, ma’rifat, sabr, iroda, mas’uliyat va ruhiy yetuklik orqali kamolga yetkazish g‘oyasi markaziy masala sifatida talqin qilinadi. Bugungi pedagogik amaliyotda ham shaxs tarbiyasida faqat bilim berish bilan cheklanmay, tarbiyalanuvchining qalbi, dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini uyg‘un rivojlantirish zarurati kuchaymoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Najmiddin Kubro ta’limotidagi “komil inson” konsepsiyasini pedagogik mazmunda tahlil qilish, uning axloqiy-ma’naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ochib berish hamda tasavvufiy merosni zamonaviy tarbiya tamoyillari bilan bog‘liq holda izohlashdan iborat.

Asosiy qism

Kubroviya falsafasida inson va uning kamoloti eng muhim masalalardan biri sanaladi. Tasavvufda “komil inson” tushunchasi oddiy axloqiy yetuklik bilangina cheklanmaydi; u qalb va aql uyg‘unligiga, ruhiy poklikka, ma’rifatga, mas’uliyatli xulqqa va jamiyatga foydali bo‘lishga

intilgan shaxs qiyofasini ifodalaydi. Pedagogik talqinda bu g‘oya tarbiyalanuvchining bilimli, odobli, irodali, vatanparvar, adolatli va insonparvar bo‘lib shakllanishini nazarda tutadi.

Komil inson mavzusini maxsus o‘rgangan Abdulkarim Jiliy ushbu tushunchani borliq markazida turuvchi, ma’naviy yetuklikning eng oliy namunasi sifatida talqin qiladi. Uning izohlarida “komil inson” g‘oyasi “Haqiqati Muhammadiya” tushunchasi bilan bog‘lanib, insoniyat sharafini yuksaltiruvchi ruhiy-axloqiy mezon sifatida tushuntiriladi [1]. Bu qarash pedagogik jihatdan shuni anglatadiki, tarbiya jarayonida ideal shaxs namunasi, ya’ni ijobiy axloqiy modelning mavjudligi muhimdir. Chunki tarbiyalanuvchi o‘zida fazilatlarni shakllantirishda avvalo namuna, murabbiy va ma’naviy yo‘lboshchiga ehtiyoj sezadi.

Tasavvuf tarixida komil inson g‘oyasi payg‘ambarlar, valiylar, solih kishilar, oriflar va ilm-ma’rifat egalari timsolida namoyon bo‘ladi. Jiliy ta’kidlaganidek, insoniyatning sharaflanishi uning orasidan yetuk ma’naviy shaxslarning yetishib chiqishi bilan bog‘liqdir [1]. Pedagogik nuqtayi nazardan bu fikr “shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya” prinsipiga yaqin: har bir insonda kamolot imkoniyati mavjud, tarbiya esa ana shu imkoniyatni ro‘yobga chiqaruvchi ijtimoiy-ma’naviy jarayondir.

Tasavvuf ta’limotining shakllanishi haqida turli qarashlar mavjud. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tasavvufning dastlabki ko‘rinishlari jamiyatdagi zulm, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlikka nisbatan ma’naviy norozilik ruhida ham shakllanganini qayd etadi [2]. Bu holat tasavvufning faqat diniy-ruhiy tajriba emas, balki axloqiy-ma’naviy isloh, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Pedagogikada esa bunday yondashuv tarbiyaning ijtimoiy vazifasini, ya’ni shaxsni jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglaydigan fuqaroga aylantirish zaruratini asoslaydi.

Tasavvuf Qur’oni karim va hadisi shariflar, sahobalar va salafi solihinlar hayoti, ilm-ma’rifat hamda amaliy axloqiy tajriba bilan boyigan. Uning mohiyatida ruhiy va ma’naviy poklanish, o‘z manfaatini xalq manfaati bilan uyg‘unlashtirish, insonlarga foyda yetkazish, halollik, kamtarlik, sabr va mehr-oqibat kabi fazilatlar turadi. Shu sababli tasavvufiy tarbiya zamonaviy pedagogikada “ma’naviy-axloqiy tarbiya”, “ijtimoiy-emotsional tarbiya” va “qadriyatlarga asoslangan ta’lim” bilan mazmunan tutashadi.

Muhammad Nurulloh Saydo al-Jazariy tasavvufni insonni komillikka yuksaltiruvchi, uni dunyo va oxirat saodatiga yetaklovchi ma’rifat ilmi sifatida izohlaydi [3]. Uning ta’kidicha, tasavvuf ahli Qur’on, hadis, fiqh, aqoid va tafsir kabi ilmlarni puxta egallagan, jamiyatga nafaqat so‘zlari, balki xulq-atvori va hayot tarzi bilan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu jihat pedagogik faoliyat uchun ham nihoyatda muhim: haqiqiy tarbiya faqat nasihat bilan emas, balki o‘qituvchi va murabbiyning shaxsiy namunasi orqali amalga oshadi.

Najmiddin Kubro ta’limotida qalb tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Qalbning tirikligi, uning ravshanligi va ezgulikka moyilligi insonning axloqiy qiyofasini belgilaydi. Agar nafs hukmronlikni qo‘lga olsa, qalb zaiflashadi, insonning xulqida xudbinlik, loqaydlik, manmanlik va mas’uliyatsizlik kuchayadi. Pedagogik jihatdan bu holat tarbiyada o‘zini nazorat qilish, iroda, intizom, mas’uliyat va ichki motivatsiyani shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Komil insonni tarbiyalashda ilm va ma’rifat asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Najmiddin Kubro va boshqa mutasavviflar shariat ilmlarini puxta egallashni tariqat va ma’rifat bosqichlariga yuksalishning zarur sharti deb bilganlar [3]. Bu fikr zamonaviy ta’limda ham dolzarb: ma’naviy tarbiya bilimdan ajralmasligi, bilim esa axloqiy mas’uliyat bilan mustahkamlanishi lozim. Aks holda bilim shaxs kamolotiga emas, balki faqat tashqi ko‘nikmaga aylanib qolishi mumkin.

Orif so‘fiylar tasavvufda faqat ruhiy tajriba egasi emas, balki donishmand, ilmu hikmat va fazilat sohibi sifatida talqin qilinadi. N. Komilov orifni ilohiy-irfoniy ilmlar egasi, qalbi ilm va hikmat manbai bo‘lgan shaxs sifatida izohlaydi [4]. Pedagogik talqinda orif obrazi murabbiy shaxsiga yaqin: u bilim beradi, tarbiyalaydi, yo‘l ko‘rsatadi, o‘z xulqi bilan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va tarbiyalanuvchini ichki kamolotga undaydi.

Abdurahmon Jomiy ma’rifat bilan ilm o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlab, ilmsiz ma’rifatning bo‘lishi mushkul, ma’rifatsiz ilm esa zarar keltirishi mumkinligini qayd etadi [5]. Bu fikr pedagogik jarayonda bilim, tarbiya va qadriyatlar birligini ta’minlash zarurligini asoslaydi. Ya’ni ta’lim mazmuni faqat ma’lumot yetkazishga emas, balki olingan bilimlarni ezgu maqsad, mas’uliyatli xatti-harakat va ijtimoiy foyda bilan bog‘lashga xizmat qilishi kerak.

Zunnun Misriy, Junayd Bag‘dodiy, Yusuf Hamadoniy, Abdulloh Ansoriy, Abu Said Abul Xayr, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xojagi Kosoniy va Muhammad Porso kabi mutasavviflarning merosi ilm, axloq, donishmandlik va murabbiylikning uzviy birligini ko‘rsatadi. Junayd Bag‘dodiy oriflik maqomining avvalini barcha ilm va ma’rifatni Allohdan deb bilishda ko‘radi. Shayx Tohir Abhariy esa “haqiqat” va “ilm” tushunchalarini bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qiladi [6]. Bu qarashlar pedagogikada bilimning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi.

Sufiylar botin ilmini ma’rifat, irfon, ilmi ladun, ilmi vahbiy, ilmi asror, ilmi farosat, ilmi mukoshafa kabi nomlar bilan ataganlar. Garchi bunday bilimlar zamonaviy ilmiy bilish mezonlaridan farq qilsa-da, ular insonning ichki dunyosi, axloqiy sezgirligi, vijdoniy mas’uliyati va ruhiy tarbiyasini izohlashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan bu meros tarbiyalanuvchining faqat tashqi intizomini emas, balki ichki ishonchi, maqsadi, qadriyati va o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmasini shakllantirishga e’tibor qaratadi.

Najmiddin Kubro ta’limotining tarbiyaviy mohiyati shundaki, u insonni bir vaqtning o‘zida bilimli, pokiza qalbli, irodali, kamtar, xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ya oladigan va ezgulikka xizmat qiladigan shaxs sifatida ko‘radi. Bunday yondashuv bugungi pedagogika uchun ham dolzarb, chunki zamonaviy ta’limning pirovard maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk, axloqan barqaror va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik tahlil va amaliy ahamiyati

Najmiddin Kubro ta’limotidagi “komil inson” g‘oyasini pedagogik jarayonga tatbiq etishda bir necha muhim yo‘nalishlar ajralib turadi. Birinchidan, tarbiya jarayonida shaxsning ichki dunyosiga e’tibor kuchaytiriladi: qalb pokligi, vijdon, mas’uliyat, sabr, iroda va o‘zini nazorat qilish kabi sifatlar tarbiyaviy ishlarning markaziga qo‘yiladi. Ikkinchidan, murabbiy shaxsining namunaliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki komil inson g‘oyasi avvalo ijobiy ideal va namuna orqali tarbiyalanadi.

Uchinchidan, tasavvufiy meros ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaslikni taqozo etadi. Ilm-ma’rifat insonni kamolga yetkazishi uchun u axloqiy maqsad va ijtimoiy foyda bilan bog‘lanishi zarur. To‘rtinchidan, komil insonni tarbiyalashda shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z xatti-harakatini tahlil qilishi va ma’naviy mas’uliyatni his etishi muhim o‘rin tutadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada refleksiya, motivatsiya va shaxsiy rivojlanish kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashadi.

Shunday qilib, Najmiddin Kubro ta’limoti pedagogik nuqtayi nazardan tarbiya mazmunini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitadi. Unda insonni faqat bilim egasi sifatida

emas, balki jamiyatga foydali, irodali, ma’rifatli va axloqiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Najmiddin Kubro ta’limotida “komil inson” shaxsini tarbiyalash masalasi chuqur ma’naviy-axloqiy va pedagogik mazmunga ega. Bu ta’limotda qalb pokligi, nafsni tarbiyalash, ilm-ma’rifat, murabbiylik, namunali xulq, ijtimoiy mas’uliyat va ezgulikka xizmat qilish komil shaxsni shakllantirishning asosiy omillari sifatida talqin qilinadi.

Maqoladagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kubroviya ta’limotining tarbiyaviy g‘oyalari bugungi pedagogika uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ular yoshlarni ma’naviy yetuklik, axloqiy barqarorlik, bilimga intilish, vijdoniy mas’uliyat va jamiyatga foydali bo‘lish ruhida tarbiyalashda samarali ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жилий Абдулкарим. Инсони комил. – Миср, 1390 ҳ.й., 2-жилд. – Б. 71–78.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: “Ҳилол-нашр” нашриёти, 2022. – Б. 38.
3. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2000. – Б. 4.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” – “Ўзбекистон”, 2009. – Б. 278.
5. Абдураҳмон Жомий. Нафаҳат ул-унс мин ҳазаротул-қудс. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси, инв. № 4409. – Б. 6.
6. Абдураҳмон Жомий. Нафаҳат ул-унс мин ҳазаротул-қудс. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси, инв. № 4409. – Б. 130

NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDAGI AXLOQIY VA MA’NAVIY YUKSALISH G‘OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Mustafo Yunusxo‘jayev Zfarxo‘ja o‘g‘li
UrDU doktoranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Najmiddin Kubro ta’limotidagi axloqiy va ma’naviy yuksalish g‘oyalari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada alloma merosida ifodalangan ustoz-shogird munosabati, nafs tarbiyasi, aqliy kamolot, vatanparvarlik, halollik, mas’uliyat va ma’naviy immunitet kabi tushunchalarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ochib beriladi. Kubroviylik ta’limotidagi qalb, ruh, aql va nafs tarbiyasiga oid qarashlar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik qadriyatlar sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash, axloqiy mas’uliyat va milliy-ma’naviy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, Kubroviylik, pedagogik tarbiya, axloqiy tarbiya, ma’naviy yuksalish, nafs tarbiyasi, aqliy tarbiya, ustoz-shogird, ma’naviy immunitet.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются идеи нравственного и духовного возвышения в учении Наджмиддина Кубро с педагогической точки зрения. Особое внимание уделяется таким категориям, как наставничество, воспитание нафса, интеллектуальное развитие, патриотизм, честность, ответственность и духовный иммунитет молодежи. Идеи кубравийского учения о воспитании сердца, духа, разума и нафса раскрываются как

важные педагогические ценности, применимые в современном образовательном процессе. В статье также анализируются вопросы защиты молодежи от негативного влияния массовой культуры, формирования критического мышления, нравственной ответственности и преданности национально-духовным ценностям.

Ключевые слова: Наджмиддин Кубро, кубравийа, педагогическое воспитание, нравственное воспитание, духовное развитие, воспитание нафса, интеллектуальное воспитание, наставничество, духовный иммунитет**.**

ABSTRACT: This article analyzes the ideas of moral and spiritual development in the teachings of Najmuddin Kubra from a pedagogical perspective. It highlights the educational importance of mentorship, self-discipline, intellectual maturity, patriotism, honesty, responsibility and spiritual immunity in the upbringing of the younger generation. The Kubrawi concepts of cultivating the heart, spirit, intellect and self are interpreted as pedagogical values that can be applied in modern education. The article also discusses the need to protect young people from the negative effects of mass culture and to develop critical thinking, moral responsibility and commitment to national and spiritual values.

Keywords: Najmuddin Kubra, Kubrawiya, pedagogical education, moral education, spiritual development, self-discipline, intellectual education, mentorship, spiritual immunity.

KIRISH SO‘ZI: Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu jihatdan, Najmiddin Kubro ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish faqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun ham muhim manba hisoblanadi. Alloma ta’limotidagi qalb pokligi, aql kamoloti, nafsni jilovlash, ustozga hurmat, halollik va vatanparvarlik tamoyillari zamonaviy ta’lim jarayonida samarali tarbiyaviy vosita sifatida talqin etilishi mumkin.

ВВЕДЕНИЕ:В условиях современной глобализации одной из приоритетных задач педагогики является воспитание духовно зрелой, самостоятельно мыслящей, патриотичной и ответственной личности. В этом отношении изучение научно-духовного наследия Наджмиддина Кубро имеет не только историко-философское, но и важное педагогическое значение. Такие принципы его учения, как чистота сердца, интеллектуальная зрелость, самовоспитание, уважение к наставнику, честность и патриотизм, могут быть использованы как эффективные воспитательные ориентиры в современном образовательном процессе.

INTRODUCTION: In the context of modern globalization, one of the main priorities of pedagogy is to educate a spiritually mature, independently thinking, patriotic and responsible personality. In this regard, the study of Najmuddin Kubra’s scholarly and spiritual heritage is significant not only from a historical and philosophical perspective but also for educational theory and practice. The principles expressed in his teachings—purity of heart, intellectual maturity, self-discipline, respect for the mentor, honesty and patriotism—can serve as effective educational guidelines in contemporary education.

ASOSIY QISM: Ajdodlar ma’naviy merosini pedagogik tadqiq etish zarurati

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqimizning an’anaviy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosi va falsafiy g‘oyalarini chuqur o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Imom Ismoil Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy va Mahdumi A’zam kabi allomalarning merosi bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida ham muhim ilmiy-pedagogik manba sifatida qadrlanadi.

Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviylik ta’limoti insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti, qalb pokligi, aqlning yetukligi va nafsni tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Shu sababli ushbu merosni pedagogika sohasi nuqtayi nazaridan o‘rganish yosh avlod tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev yosh avlodni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida urg‘u berib, vatanparvarlik fazilati jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ma’naviy kuch ekanini ta’kidlagan [1]. Najmiddin Kubro hayotining so‘nggi damlarida Xorazmni himoya qilishga bel bog‘lagani, yoshi ulug‘ bo‘lishiga qaramay Vatan mudofaasi uchun kurashgani yoshlar tarbiyasi uchun yorqin ibrat namunasi hisoblanadi. Najmiddin Kubro merosida ustoz-shogird munosabati

Pedagogik jarayonda ustoz shaxsining o‘rni nihoyatda muhimdir. Najmiddin Kubro o‘zining “Odobus so‘fiyya” (“So‘fiylar odoblari”) nomli risolasida tariqat yo‘lini tanlagan inson, avvalo, bilimli, ma’rifatli, tajribali va komil ustoz rahbarligida tarbiyalanishi lozimligini ta’kidlaydi. Alloma nazarida ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki shogirdning axloqiy qiyofasi, ruhiy holati va ma’naviy yo‘nalishini shakllantiruvchi murabbiydir [3].

Bu fikr zamonaviy pedagogikada “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”, “mentorlik”, “tarbiyaviy hamkorlik” va “refleksiv yondashuv” tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Ustozning vazifasi shogirdni faqat tayyor bilim bilan ta’minlash emas, balki uni mustaqil fikrlashga, axloqiy tanlov qilishga, o‘z xatti-harakatini tahlil etishga va ma’naviy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Shu jihatdan Najmiddin Kubro ta’limotidagi ustoz-shogird munosabati bugungi oliy ta’lim tizimida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kasbiy va ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim jarayonida pedagogik muloqot madaniyatini kuchaytirish uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi.Qalb, ruh, aql va nafs tarbiyasi: integrativ pedagogik yondashuv Kubroviylik ta’limotida qalb, ruh, aql va nafs tarbiyasi inson kamolotining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi. Pedagogik nuqtayi nazardan bu yondashuv tarbiyani faqat xulq-atvorni boshqarish yoki bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ichki dunyosini, hissiy-intellektual qobiliyatlarini va axloqiy qarashlarini uyg‘un rivojlantirish jarayoni sifatida tushunishga yordam beradi.

Qalb tarbiyasi o‘quvchi va talabalarda mehr-oqibat, rahm-shafqat, halollik, vijdonlilik hamda insoniy munosabatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ruh tarbiyasi esa shaxsning ezgulikka intilishi, yuksak maqsadga yo‘nalishi, ruhiy barqarorligi va ichki motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aql tarbiyasi bilim, tafakkur, tahlil, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Nafs tarbiyasi esa insonda o‘zini tuta bilish, sabr, mehnatsevarlik, poklik, halollik va intizomni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoya qilishda mazkur to‘rt yo‘nalishning pedagogik ahamiyati katta. Chunki axloqiy immunitet faqat tashqi nazorat bilan emas, balki shaxsning ichki e’tiqodi, tanqidiy tafakkuri va ma’naviy o‘zini o‘zi boshqarish malakasi orqali shakllanadi.

Nafs tarbiyasining pedagogik mazmuni

Maqolada keltirilganidek, nafs faqat yeb-ichish yoki moddiy ehtiyojlar bilan bog‘liq tushuncha emas. U jaholat, manmanlik, dunyoparastlik, hasad, baxillik, poraxo‘rlik, mansabparastlik, g‘azab, riyokorlik va rahmsizlik kabi salbiy sifatlarni ham qamrab oladi. Pedagogik ma’noda nafs tarbiyasi o‘quvchi va talabalarda o‘z xulqini boshqarish, salbiy istaklarni nazorat qilish, halol mehnatga intilish va axloqiy mas’uliyatni his etish malakasini shakllantirishdir.

Najmiddin Kubro nafsni “af’o” iloniga o‘xshatadi: uning tanasi ezilgandek bo‘lsa ham, qulay sharoit topishi bilan yana jonlanishi mumkin. Bu tashbeh tarbiya jarayonining uzluksizligini anglatadi. Ya’ni insondagi salbiy xususiyatlar bir martalik nasihat bilan butunlay yo‘qolmaydi; ularni bartaraf etish muntazam tarbiya, ijobiy muhit, nazorat, o‘z-o‘zini tahlil qilish va amaliy mashqlar orqali amalga oshadi.

Shu sababli ta’lim muassasalarida nafs tarbiyasini hayotiy vaziyatlar, munozaralar, ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar, ijtimoiy loyihalar, kitobxonlik, mehnat tarbiyasi va halollik darslari bilan bog‘lab olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchi va talabaning passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida tarbiyalanishi muhimdir.Aqliy tarbiya va tanqidiy fikrlash

Kubroviylik ta’limotida aql insonni yuksaltiruvchi eng muhim ne’matlardan biri sifatida talqin qilinadi. Aql insonning voqelikni anglash, hodisalar mohiyatini tahlil qilish, yot g‘oyalarga berilmaslik va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini belgilaydi. Pedagogik jarayonda aqliy tarbiya o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, dalil keltirish, xulosa chiqarish, axborotni saralash va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Maqoladagi yondashuvga ko‘ra, aql tug‘ma va kasbiy jihatlarga ega. Tug‘ma aql insonning tabiiy idrok imkoniyatlarini bildirsa, kasbiy aql ta’lim-tarbiya, tajriba, kasb-hunar va ilmiy izlanishlar orqali rivojlanadi. Bu qarash zamonaviy pedagogikadagi kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘un bo‘lib, inson salohiyatining ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllanishini ko‘rsatadi.

Demak, Najmiddin Kubro ta’limotidagi aqliy tarbiya g‘oyalari bugungi o‘quv jarayonida tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, media savodxonlik, ma’naviy immunitet va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.Vatanparvarlik va ma’naviy immunitet tarbiyasi

Najmiddin Kubro shaxsiy hayoti va faoliyati vatanparvarlik tarbiyasi uchun alohida ahamiyatga ega. Allomaning Xorazmni himoya qilishdagi jasorati yosh avlodga Vatan taqdiri uchun mas’uliyat, fidoyilik, mardlik va sadoqat tuyg‘ularini singdirishda kuchli tarbiyaviy omil bo‘la oladi. Bu jihat milliy tarbiya konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.Bugungi ta’lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi faqat shior yoki umumiy chaqiriq bilan cheklanib qolmasligi kerak. U tarixiy shaxslar hayoti, ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar, mahalliy tarix, muzey va ziyoratgohlar, ilmiy-ma’rifiy tadbirlar, talabalarning ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog‘lanishi zarur. Najmiddin Kubro merosidan foydalanish bu jarayonda yoshlarning tarixiy xotirasi va milliy g‘ururini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma’naviy immunitetni shakllantirishda esa o‘quvchi va talabalarga faqat “yomon ta’sirdan saqlaning” deb uqtirish yetarli emas. Ularda mustaqil fikr, qadriyatlarni anglash, axloqiy mezon asosida tanlov qilish, zararli axborotni tanib olish va unga ongli munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi. Kubroviylik ta’limotidagi qalb, aql va nafs tarbiyasi aynan shu maqsadga xizmat qilishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari

Najmiddin Kubro ta’limotidagi axloqiy va ma’naviy yuksalish g‘oyalarini zamonaviy pedagogik amaliyotga quyidagi yo‘nalishlarda tatbiq etish mumkin:

- “Ma’naviyat asoslari”, “Pedagogika tarixi”, “Tarbiya nazariyasi”, “Dinshunoslik”, “Tasavvuf tarixi” kabi fanlarda alloma merosini pedagogik qadriyat sifatida o‘rganish;
- ustoz-shogird an’analarini mentorlik, individual maslahat, ilmiy rahbarlik va tarbiyaviy suhbatlar bilan uyg‘unlashtirish;

- nafs tarbiyasi mavzusini o‘zini o‘zi boshqarish, irodaviy sifatlar, halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat tarbiyasi bilan bog‘lash;
- aql tarbiyasi asosida tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va media savodxonlikni rivojlantirish;
- Najmiddin Kubro hayoti misolida vatanparvarlik, fidoyilik va tarixiy xotira tarbiyasini kuchaytirish;
- talabalarni ilmiy izlanish, manbashunoslik, matn tahlili va mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etish.

Mazkur yo‘nalishlar alloma merosini faqat nazariy ma’lumot sifatida emas, balki tarbiyaviy amaliyotga xizmat qiluvchi pedagogik resurs sifatida qo‘llash imkonini beradi.

XULOSA

Najmiddin Kubro ta’limotidagi axloqiy va ma’naviy yuksalish g‘oyalari bugungi pedagogika sohasi uchun muhim ilmiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Alloma merosida ifodalangan ustoz-shogird munosabati, qalb pokligi, nafs tarbiyasi, aql kamoloti, halollik, vatanparvarlik va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalari yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda samarali nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kubroviylik ta’limotining pedagogik mohiyati shundaki, u insonni biryoqlama emas, balki jismoniy, aqliy, axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan uyg‘un rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tarbiyaviy hamkorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirish masalalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, Najmiddin Kubro merosini pedagogika ixtisosligi doirasida o‘rganish yoshlarning milliy o‘zlikni anglashini kuchaytiradi, ularda mustaqil fikrlash, axloqiy tanlov, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston xalqini Ramazon oyi bilan tabriklash nutqidan. Kun.uz, 15.04.2021. URL: https://m.kun.uz/news/2021/04/15/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-xalqini-ramazon-oyi-bilan-tabrikladi
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevga Imom Buxoriy ziyoratgohining yangi ko‘rinishi taqdim etilganda so‘zlangan nutqdan. Prezident.uz, 15.04.2021. URL: https://president.uz/uz/lists/view/4288
9. Odobus so‘fiyya (“So‘fiylar odoblari”). Fors tilidan tarjimon: A. Boltayev. Buxoro, 2024. – B. 2.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA IJODIY YOZMA ISHLAR (HIKOYA, SHE’R, ERTAK)NING O‘RNI VA METODIKASI

Allaberganova Marifat Kuranbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
marifatallaberganova196@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-8713-9856

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy savodxonlik darajasini oshirishda ijodiy yozma ishlar – hikoya, ertak, she’r yozish mashg‘ulotlarining didaktik va metodik ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Ijodiy yozuv orqali o‘quvchining til

kompetensiyasini shakllantirish, imloviy malakasini mustahkamlash hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritadi. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali metodlar, bosqichlar va amaliy mashg‘ulotlar misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: imloviy savodxonlik, ijodiy yozma ish, ertak, hikoya, she’r, metodika, boshlang‘ich ta’lim, ijodiy tafakkur.

Аннотация. В статье на научной основе анализируется дидактическое и методическое значение творческого письма — рассказов, сказок, стихов — в повышении уровня грамматической грамотности учащихся начальной школы. Подчеркиваются возможности формирования языковой компетенции ученика, укрепления грамматических навыков и развития творческого мышления посредством творческого письма. Также представлены эффективные методики, этапы и практические упражнения, которые могут быть использованы в работе учителя в качестве примеров.

Ключевые слова: орфографическая грамотность, творческое письмо, сказка, рассказ, стихотворение, методология, начальное образование, творческое мышление.

Abstract. The article analyzes the didactic and methodological significance of creative writing - stories, fairy tales, poetry - in improving the level of grammatical literacy of primary school students on a scientific basis. It highlights the possibilities of forming a student’s language competence, strengthening grammatical skills, and developing creative thinking through creative writing. It also presents effective methods, stages, and practical exercises that can be used in the teacher’s work as examples.

Keywords: spelling literacy, creative writing, fairy tale, story, poem, methodology, primary education, creative thinking.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchining tayyor bilimni o‘zlashtirishiga emas, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv asosida bilim hosil qilishiga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari o‘quvchilarning fikrlash, yozish va so‘zlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Imloviy savodxonlik[12] — bu faqat to‘g‘ri yozish malakasi emas, balki o‘quvchining til tizimini ongli idrok etish, fikrni grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil va estetik ifoda etish qobiliyatidir. Shu bois, o‘quvchilarni ijodiy yozma ishlar orqali o‘qitish, ularni imloviy me’yorlarga rioya qilishga o‘rgatishning eng tabiiy shakli sifatida qaraladi. Boshlang‘ich sinfda bu jarayon nutqning shakllanishi bilan bir qatorda kechadi, shu sababli imlo o‘rgatishning asosiy tamoyili amaliy yozuv asosida o‘rgatilishi lozim.

[12] Mualliflik yondashuvi

Ijodiy yozuv — bu o‘quvchining ichki til tajribasini, so‘z boyligini va his-tuyg‘ularini yozma shaklda ifodalashga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, unda imloviy me’yorlar tabiiy tarzda mustahkamlanadi.

Ijodiy yozma ishlar (hikoya, she’r, ertak) o‘quvchini so‘zlovchi, o‘ylovchi va yozuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1-rasm: Funksiya turi tavsifi

Ijodiy yozma ishlarni tashkil etishda o‘qituvchi quyidagi metodik bosqichlarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Tayyorlov bosqichi: mavzuga oid suhbat, rasmlar, hikmatli so‘zlar orqali o‘quvchining e’tiborini jalb qilish. O‘quvchilarga hikoya yoki ertak rejasini tuzdirish.

2-bosqich. Ijodiy yozuv bosqichi: o‘quvchilarga mustaqil hikoya, she’r yoki ertak yozish topshirig‘i beriladi. Kichik guruhlarda fikr almashish, qahramonlar va voqealar rivojini muhokama qilish. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar beradi: “Qahramon nima his qildi?”, “Voqeani qanday yakunlaysan?”

3-bosqich. Tahlil va tahrir bosqichi: O‘quvchilarning yozgan ishlarini og‘zaki o‘qib eshittirish. O‘qituvchi bilan birgalikda imloviy va uslubiy xatolarni aniqlash.

“Xato – tahlil – to‘g‘ri yozish” zanjiri asosida refleksiya ishlari olib borish.

4-bosqich. Baholash bosqichi: baholashda nafaqat imloviy aniqlik, balki ijodiy yondashuv, ifodaviylik va mazmunning yaxlitligi inobatga olinadi. “Eng go‘zal ibora”, “Eng original yakun”, “Eng to‘g‘ri imlo” kabi nominatsiyalar orqali rag‘batlantirish.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf darsliklarida rasmli she’rlardan ham foydalanilmoqda. Bunga 1-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi quyidagi she’rni misol qilishimiz mumkin: Lirik she’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunday holda she’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she’r ma’nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar she’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta’limning maqsadi ham amalga oshmaydi.[13]

She’rni izohli o‘qish darsining tuzilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) she’r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o‘qib berish (birinchi sintez);

2) she’rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);

3) she’rni ifodali o‘qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);

4) she’rni yod aytib berishga tayyorlanish.

5) epik (voqeiy) she’rlar ustida ishlash[14].

Xulosa. Ijodiy yozma ishlar — bu o‘quvchining shaxsiy tajribasini, hissiyotlarini va tafakkurini yozma nutq orqali ifodalash imkonini beruvchi samarali metodik vositadir. Boshlang‘ich ta’limda uni tizimli qo‘llash natijasida:

- o‘quvchilar imloviy qoidalarni ongli o‘zlashtiradilar;
- yozma nutqda aniqlik, mantiqlilik va estetik ifodaviylik shakllanadi;
- mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs tarbiyalanadi.

Shu bois ijodiy yozma ishlar imloviy savodxonlikni shakllantirishning eng tabiiy, samarali va shaxsga yo‘naltirilgan metodlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. 125-126-betlar.
2. Yuldasheva D., 1-sinf “Ona tili” 2-qism. “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. 88b.
3. Xaitov X.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2022. 144 b.
4. Vygotskiy L.S. Bolalar ijodining psixologiyasi. – Moskva, 1982. 179 b.

[13]Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.– T.: Noshir, 2009. -125-126 betlar.

[14]Xaitov X.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2022. 144b.

5. Qosimova M., To‘xtayeva N. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy yozma ishlar metodikasi. – Pedagogika jurnali, 2023.

O‘SMIRLARDAGI KOGNITIV SOHANING KASB TANLASH JARAYONLARIGA TA’SIRI

Xasanov Bobur Raximberganovich –
Urganch davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi;

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv jarayonlar va ularni boshqarishda o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy tadqiq qilingan. Shuningdek, maqolada kasb tanlash jarayonida o‘smirlarda kongnitiv uslublarni shakllanish jarayonlari hamda kognitiv uslublarning o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kognitiv uslub, kognitiv jarayonlar, o‘smirlar psixologiyasi, emotsional soha, psixologik immunitet, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaro uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, imkoniyatlarni belgilashdan iboratdir. Ushbu islohotlarning tub mohiyati har bir fuqaroni ma’naviy yuksak, aqlan bilimli, mustahkam e’tiqotli inson qilib tarbiyalash, shuningdek, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g‘oyasini o‘zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish kabi yo‘nalishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Ijtimoiy jihatdan taraqqiyotga erishish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish muhim hisoblanadi. Negaki, mukammal egallangan bilim, to‘g‘ri tanlangan kasb o‘z egasiga o‘zining mukammal imkoniyatlar ro‘yobga chiqarishga hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhum me’zon vazifasini bajaradi. Hozirga kelib, dunyoning har bir mamlakatida o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyat tufayli shaxslarni, xususan o‘smir yoshidagi o‘quvchlarning muayyan bir kasblarga yo‘naltirish, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kasbini muvaffaqiyatli bajarishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish ayniqsa muhim ahamiyat kasb yetdi. Chunki, inson hayotida kasbiy faoliyatni to‘g‘ri belgilash bu uning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishi, yetuk kadri bo‘lib yetishishida asosiy o‘rinni yegallaydi. Ushbu jarayonda insonning psixologik imkoniyatlari ko‘lamidan oqilona foydalanish va shu asosida ijtimoiy istiqbollarni belgilash har bir davlatning, jamiyatning, xalqning eng muhim hamda dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Zero, har bir shaxs o‘zining jamiyatning, xalqning bir qismi sifatida ham o‘z–o‘zini anglashi, tarbiyalashi va hamda rivojlantira borishi lozim.Ta'lim-tarbiya jarayonlrini to‘g‘ri tashkil etish, belgilangan

vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish shaxsni shakllantiradi, bunda shaxs rivojlanish jarayonining psixologik tamoyillarini, bolalarning yoshga bog'liq xususiyatlarini, psixologik rivojlanishning individual, kognitiv va hissiy o‘lchamlarini, kognitiv va intellektual faoliyatning xususiyatlarini aniq va to‘g‘ri tushunishni talab qiladi. Ushbu jarayonda ta’lim jarayoni tashkilotchisi hisoblangan o‘qituvchi ularning psixologik rivojlanishi haqida zamonaviy tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Psixologiyada shaxslarning psixologik xususiyatlari atrof-muhit, ta'lim va tarbiya mahsuli deb qaraladi. Ular ontogenezda atrof-muhit, ta'lim va tarbiya ta'sirida nafaqat tashqi, balki ichki omillar ta'sirida rivojlanadi. Qobiliyat, temperament va xotiraning o‘ziga xosligi, xarakter xususiyatlari va asab tizimi, shuningdek, meros va muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar shaxsning psixologik xususiyatlari uning rivojlanishini ko‘p jihatdan shakllantirishda nazorat qiluvchi rol o‘ynasa, uni hal qilish uchun mas'ul bo‘lgan funktsiya shaxsning ijtimoiy tarbiyasida, uning yashash sharoitlarida, ta'lim va tarbiyasida rol o‘ynaydi. Shaxsning psixologik kamolotida “jamiyat talabiga ta’sir etish jarayoni, yosh avlodga to‘g‘ri yo‘nalishga maqsadli ta’sir etish jarayoni”da ta’lim va tarbiya alohida o‘rin tutadi. Psixologlar to‘g'ri ta’kidlashdiki, inson muayyan sharoitlarda o‘z shaxsiyatini faol ravishda o‘zgartirishi mumkin, ya'ni o‘z tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Biroq, o‘z-o‘zini tarbiyalash atrof-muhitdan ajratilgan holda amalga oshirilmaydi. Bu jarayon tashqi dunyo bilan faol o‘zaro ta'sir qilish bilan sodir bo‘ladi [4. 315-318].Uzluksiz ta’lim tizimiga innovatsiyalarning joriy etilishi o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish vazifalarini hal etishda uslubiy va pedagogik-psixologik tahlil zarurligini ko‘rsatadi. Bu talab ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalashning didaktik omillarini aniqlash, o‘qitishning multimedia vositalari, pedagogik texnologiya, elektron o‘quv muhitini integratsiyalashgan holda metodik tizimni takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy yondashuvlar asosida ta’limning elektron vositalarini ishlab chiqish ishlab chiqarishning pedagogik-psixologik asoslarini, axborot resurslarining talablari va tarkibiy tarkibini, multimedia elektron ta’lim resurslarining mazmunini, ulardan foydalanish metodologiyasini, o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini tushunishni talab qiladi[1.270].

XXI asrda Informatsion texnologiyalar yuksak darajada shakllangan, globallashuv jarayonlari taraqqiy etishi, inson omiliga e’tiborning kuchayishi ta’lim tarbiya jrajonini ham yuksaltirishni talab qilmoqda. Mamlakatimizda inson va uning manfaatlari, farovonligi ustuvor yo‘nalish sifatida baholanib, bu borada uzluksiz izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirda insonning bilish jarayoni va uning funksional sohasi psixikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Ijtimoiy muhitga moslashishimiz, hattoki yashashimiz, xulq-atvorga ta’siri orqali biz amalga oshiradigan har bir kognitiv jarayon muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlarda kasb tanlash jarayonlarida kognitiv uslublarning shakllanishi muhim ahamiyat

kasb etadi. Kognitiv uslub (lotincha: *cognitio* — bu kognitiv psixologiyada turli odamlarning ma'lumotni qanday o'ylashi, idrok etishi va eslab qolishining izchil xususiyatlarini, shuningdek, muammolarni hal qilishning afzal usulini bildirish uchun ishlatiladigan atama.

Kognitiv uslub tushunchasini birinchi marta A. Adler turli tadqiqot strategiyalaridan foydalanishni oldindan belgilab beruvchi kognitiv jarayonlarning barqaror individual xususiyatlari bo'lgan shaxsiyat xususiyatlarini belgilaydi. Uning individual psixologiyasi doirasida u maqsadlarni belgilash va unga erishish orqali tuzilgan insonning hayot yo'lining o'ziga xosligi sifatida tushunilgan.

G. Allport kognitiv uslubni instrumental tartib shaxsiyatining ajralmas tizimi (maqsadga erishish yo'llari va vositalari) sifatida ko'rib chiqa boshladi. Keyinchalik bu muammoni K. Stadner, G. Witkin va boshqalar o'rganishgan.

Kognitiv uslub odatda *kognitiv qobiliyat* yoki *darajadan* ajralib turadi: ikkinchisi aql testlari deb ataladigan testlar bilan o'lchanadi. „Kognitiv uslub" atamasining ma'nosi haqida hali ham kelishmovchiliklar mavjud. Biroq, „kognitiv uslub" atamasi, ayniqsa amaliy biznes psixologiyasida, shuningdek, ta'lim psixologiyasida keng qo'llaniladi, bu yerda u sinonimga ega — „o'rganish uslubi".

Kognitiv uslublarning tabiati to'liq tushunilmagan. Ularning interhemisferik assimetriya, aql darajasi, temperament xususiyatlari va shaxsning motivatsiyasi bilan bog'liqligi haqida dalillar mavjud[6.154]. Shu bilan birga, kognitiv uslublarni ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida in vivo shakllangan ta'lim deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud[7.135]. Masalan, dalaga bog'liqlik ayollar uchun, shuningdek, ota-onasi o'z xatti-harakatlari ustidan haddan tashqari nazoratni amalga oshiradigan bolalar uchun ko'proq xos ekanligi empirik tarzda isbotlangan [7.135].

Zamonaviy dunyoda va mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, yangi dunyo jamiyati sezilarli o'zgarishlarni kutayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Jumladan, konveer operasiyalarini, shu jumladan kompyuterda operasiyalarni bajarishni o'z ichiga olgan muntazam jismoniy mehnat yo'qoladi; yangi kasblar tezda paydo bo'ladi va doimiy ravishda o'zgaradi, virtual haqiqatda ish o'rinlari paydo bo'ladi, bu esa o'quvchilarning kasbiy yo'nalishi jarayonida kasbiy muhim ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi [5.34].Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo'nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o'zini o'zi anglashning muhim omili bo'lib, kasbni to'g'ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barqarorlik, keskinlikda namoyon bo'ladi, bu onglilik, mustaqillik bilan

ta’minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jihatiga kiradi [9.24]. Ma’lumki, ta'lim nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ham ta'minlaydi. O‘quvchilarni ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini maqsadli oshirishga yo'naltirish katta o'qituvchilik tajribasi va malakasini talab qiladi. O‘quvchilarning intellektual faolligini oshirish nafaqat yaqin maqsadlarga xizmat qiladi, balki kelajakni malakali mutaxassislar bilan ta’minlab, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. O‘qitish usullarining muayyan pedagogik shart-sharoitlarga mos kelishini ta’minlash ta’lim sifatini oshiradi. Muhim ko'nikmalarni mustahkamlash o'qituvchilar va o‘quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni, o'quv safari davomida o'zaro hamkorlik va umumiy maqsadlarni rivojlantirishni talab qiladi. J.J. Russo o‘z-o‘zini anglash va mantiqiy fikrlash tushunchasi kabi yetuklikning yangi psixologik tushunchalarini ajratib ko‘rsatdi. Uchinchidan, o‘smirlik davri qayta tug‘ilish jarayoni sifatida qaraldi, bunda inson o‘z hayotining oldingi bosqichlarini qisqa va xira shaklda bosib o‘tadi, bu individual darajadagi rekapitulyatsiya prinsipiga mos keladi [10]. Bu masala xususida V.M.Karimovaning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Uning fikricha kasb tanlash motivi va motivatsiyasi muammosiga ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan yondashish o‘z ifodasini topgan. Biror aniq kasb-hunarni tanlash va o‘z faoliyatini shunga yo‘naltirish o‘spirin shaxsi uchun juda katta ahamiyatga ega. O‘spirindagi bilish bilan bog’liq qiziqishlar va professional yo‘nalishning shakllanganligiga bog’liq bo‘ladi.[3.94]J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari (vazifalari) hamda uning davrlari haqidagi ta’limotni o‘z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funksiyalari (vazifalari) uyushqoqlik va moslashish, ko‘nikishdan iborat bo‘lib, aqlidrokning funksional invariantligi deb yuritiladi[5.34]. O‘qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o‘smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtayi nazaridan ham pedagogik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o‘tish davri ham deb ataymiz. O‘smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o‘z ichiga qamrab oladi, ya’ni 5-8 sinf o‘quvchilarini. Kichik va katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga qaraganda o‘smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o‘smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo‘lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o‘zgarishi, hamda hayot sharoitining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir [11].

O‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiya bosqichlari (motivatsiya, maqsadni belgilash, empirik va nazariy modellashtirish, ijodiy, monitoring va baholash) asosida o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslari integratsiya qilindi. Kompyuter yordamida ilmiy-uslubiy videokonferensiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali o‘qituvchilarning axborot madaniyati yuksalib, o‘quvchilarning o‘quv qurollari bilan ishlash ko‘nikmalari testlar yordamida tuzatish orqali birlashtirilib, takomillashtirilmoqda. O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida

zamonaviy elektron o‘quv resurslari dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham o‘qitishning birlamchi shakllari bo‘lib xizmat qiladi. Uslubiy tavsiyalar tadqiqot jarayonida tayyorlangan uslubiy qo‘llanmada keltirilgan. Zamonaviy yondashuvlarga asoslangan elektron ta’lim resurslari bilan o‘qitish tadqiqotga asoslangan pedagogik eksperimentlarning maqsad va vazifalariga mos keladi, uning o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish va ta’lim samaradorligini oshirishga yaroqliligini tasdiqlaydi.[2. 728]

Kasb tanlash motivatsiyasi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik muammo sifatida xorijiy, Rossiyalik hamda O‘zbekistonlik olimlar tomonidan turli xil ilmiy mezonlar orqali tahlil qilinadi. Mazkur tahlillarni muayyan ilmiy talablar asosida birlashtirish zarur. Yuqorida qayd etilgan har bir metodologik ishlanma o‘quvchi shaxsida bevosita shakllanib kelayotgan kasb tanlash motivatsiyasi imkoniyatlarini oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold I.V. Zamonaviy ingliz tilining leksikologiyasi. Universitetlar uchun darslik / I.V. Arnold. - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. - M.: Ta'lim, 2012. - b. 270.
2. Kotova, GN (2014), "Stress omillarining yoshlar muhitida ta'lim stressining tarqalishiga ta'sirining ijtimoiy va gigienik monitoringi", Fundamental tadqiqotlar, №. 7-4, bet. 728-731.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. – Т.: «Университет», 1999. – 94 б.
4. Urusova, AM (2018), "Talaba psixologini kasbiylashtirish sub'ekti sifatida rivojlantirishni psixologik qo'llab-quvvatlash", Zamonaviy pedagogik ta'lim muammolari, №. 61-2, bet. 315-318.
5. G‘oziyev E.G‘. “Ontogenez psixologiyasi” Toshkent. NIF MSH. 2020. 34-b.
6. Shkuratova I.P. Kognitivniy stil i obщenie. Rostov-na-Donu: Izd-vo RGPU,1994.156 s.
7. Witkin H., Goodenough D. Cognitive style: essence and origins. N.Y. 1982. 135 p.
8. Ғозиев Э. Ғ., Мамедов К.К. Касб психологияси. – Т., 2003. – 34 б. – 224 б.
9. Қодиров К.Б. Касб танлашга тайёрликнинг психологик жиҳатлари ва касбий ташхис (9–синф ўқувчилари маълумотлари асосида). (Псих.фан.ном... дисс.). – Т., 2001. – 24 б.
10. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/item/13798-o-smirlik-davriningpsixologik-xususiyatlari
11. https://studme.org/79760/psihologiya/teorii_podrostkovogo_yunosheskogo_v ozrasta#738.

OLIY TA’LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI

UrDPI “Pedagogikava psixologiya” kafedrasi mudiri
p.f.f.d., PhD., dotsent Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyati, uning pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga ko‘rsatayotgan ta’siri hamda zamonaviy ta’lim muhitida pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakl va metodlari yuzaga kelayotganligi, bu esa pedagoglardan yangi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni talab qilayotgani asoslab berilgan. Maqolada elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, ularning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish jarayonida uchrayotgan muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning raqamli savodxonligi bilan bog‘liq kamchiliklar va elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish masalalari tahlil etilgan. Natijada pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, oliy ta’lim, pedagog kadrlar tayyorlash, raqamli kompetensiya, raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, elektron ta’lim, masofaviy ta’lim, innovatsion faoliyat, kasbiy kompetentlik, ta’lim sifati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta’lim muhiti, ta’limni raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность и содержание процессов цифровой трансформации в системе высшего образования, а также их влияние на подготовку педагогических кадров. Обоснована необходимость совершенствования профессиональной подготовки будущих педагогов в условиях стремительного развития цифровых технологий и формирования современной образовательной среды. Особое внимание уделено возможностям использования цифровых технологий, электронных образовательных платформ, дистанционного обучения и инструментов искусственного интеллекта в образовательном процессе. Рассмотрены вопросы формирования цифровых компетенций будущих педагогов, развития их креативного и критического мышления, а также повышения качества профессиональной подготовки. В статье проанализированы основные проблемы цифровой трансформации высшего образования, включая недостаточный уровень цифровой грамотности педагогов, ограниченность цифровой инфраструктуры и трудности эффективного использования электронных образовательных ресурсов. По результатам исследования предложены научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование системы подготовки педагогических кадров, развитие цифровых компетенций и внедрение инновационных подходов в образовательный процесс.

Ключевые слова: цифровая трансформация, высшее образование, подготовка

педагогических кадров, цифровая компетентность, цифровая педагогика, искусственный интеллект, электронное обучение, дистанционное образование, инновационная деятельность, профессиональная компетентность, качество образования, информационно-коммуникационные технологии, педагогические инновации, современная образовательная среда, цифровизация образования.

Abstract. This article examines the essence and significance of digital transformation processes in higher education and their impact on teacher training. The study highlights the need to improve the professional preparation of future teachers in the context of rapid technological development and the formation of a modern digital educational environment. Particular attention is paid to the pedagogical opportunities provided by digital technologies, e-learning platforms, distance learning tools, and artificial intelligence applications in education. The article discusses the development of digital competencies among future teachers, the enhancement of their creative and critical thinking skills, and the improvement of the quality of professional training. In addition, the major challenges associated with the implementation of digital transformation in higher education are analyzed, including insufficient digital literacy among educators, limitations in digital infrastructure, and difficulties in the effective use of electronic educational resources. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve teacher education systems, strengthen digital competencies, and promote the integration of innovative approaches into the educational process. The study concludes that digital transformation is a key factor in enhancing educational quality, increasing learning efficiency, and preparing competitive педагогical specialists for the digital era.

Keywords: digital transformation, higher education, teacher training, digital competence, digital pedagogy, artificial intelligence, e-learning, distance education, innovative activity, professional competence, quality of education, information and communication technologies, pedagogical innovations, modern educational environment, digitalization of education.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya deganda ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, ta’lim xizmatlarini elektron shaklda tashkil etish hamda boshqaruv tizimini raqamlashtirish orqali ta’limning yangi modelini yaratish tushuniladi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari, virtual auditoriyalar, masofaviy ta’lim tizimlari, elektron kutubxonalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu vositalar ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, talabalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratish hamda o‘qitishning individuallashtirilgan modelini shakllantirish imkonini bermoqda.

Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonining barcha subyektlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, maslahatchi va innovator sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagog kadrlar tayyorlashda raqamli kompetensiyalarning o‘rni.

Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning kasbiy faoliyati yangi mazmun bilan boyimoqda. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida turli raqamli platformalar, elektron ta’lim resurslari va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalana olishi lozim.

Pedagogning raqamli kompetensiyasi axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish, elektron ta’lim vositalaridan foydalanish hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagoglarning media savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va kreativ yondashuvlari ham raqamli ta’lim muhitida muhim ahamiyatga ega.
Bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarni raqamli vositalar yordamida tashkil etish va mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Natijada talabalarning kasbiy tayyorgarligi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ortadi.
o‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar ta’lim mazmunini individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini aniqlash, o‘quv materiallarini moslashtirish va ta’lim natijalarini tahlil qilish imkonini bermoqda.

Masalan, ChatGPT, Gemini, Copilot kabi sun’iy intellekt vositalari pedagoglar va talabalar uchun qo‘shimcha axborot manbai, virtual yordamchi hamda o‘quv materiallarini yaratish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Biroq ushbu texnologiyalardan foydalanishda akademik halollik, axborot xavfsizligi va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish pedagoglarning kasbiy faoliyatini yengillashtirish, vaqtni tejash va ta’lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’limda raqamli transformatsiyani amalga oshirish muammolari

Raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uni amalga oshirish jarayonida qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bundan tashqari, ayrim hududlarda internet tarmog‘i sifati va texnik infratuzilmaning yetarli emasligi ham raqamli ta’limni joriy etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sifatli elektron ta’lim resurslarini yaratish, ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish va pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borish zarurati saqlanib qolmoqda. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi esa pedagoglardan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni talab etadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalarining texnik bazasini mustahkamlash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash pedagog kadrlar tayyorlashning ajralmas qismiga aylangan.

Mazkur mamlakatlarda pedagoglarni tayyorlash dasturlariga raqamli pedagogika, media savodxonlik, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim analitikasi kabi fanlar kiritilgan. Talabalar o‘qish jarayonidayoq zamonaviy ta’lim platformalari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Ushbu tajribalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekiston oliy ta’limida raqamli transformatsiyaning istiqbollari

Mamlakatimizda ham oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron universitet tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari,

raqamli kutubxonalar va elektron hujjat aylanish tizimlarining joriy etilishi buning yaqqol dalilidir.

Kelgusida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalarini keng qo‘llash, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish, individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish hamda xalqaro raqamli ta’lim standartlarini joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shunday ekan, oliy ta’limda raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanish jarayoni, balki pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta’limning innovatsion modelini shakllantirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning strategik omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Oliy ta’limda raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish va xalqaro ta’lim standartlariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar pedagogik ta’limning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. – 180 b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
4. Ken Robinson. Creative Schools: The Grassroots Revolution That’s Transforming Education. – New York: Viking, 2015. – 320 p.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ В СТРАНАХ ТЮРКСКОГО МИРА

Якубова Диана Хайдаровна
старший преподаватель, УрГПИ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические аспекты цифровизации дуального образования и её влияние на развитие исследовательских компетенций обучающихся в условиях трансформации образовательных систем тюркских государств. Обоснована актуальность интеграции цифровых образовательных платформ, электронных портфолио и онлайн-исследовательских инструментов в образовательный процесс. Проанализированы возможности цифровой образовательной среды для развития аналитического мышления, навыков самостоятельного поиска и обработки информации, а также проектно-исследовательской деятельности обучающихся. Показано, что цифровая трансформация образования способствует модернизации дуальной модели обучения и повышению эффективности подготовки специалистов. Результаты исследования подтверждают, что целенаправленное использование цифровых технологий способствует развитию исследовательских компетенций обучающихся и повышению их готовности к профессиональной и научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: цифровизация образования, дуальное образование, исследовательские компетенции, цифровые технологии, цифровая образовательная среда, тюркские государства.

Annotatsiya. Maqolada dual ta’lim tizimini raqamlashtirishning pedagogik jihatlari hamda uning turkiy davlatlar ta’lim tizimlari transformatsiyasi sharoitida ta’lim oluvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri yoritilgan. Ta’lim jarayoniga raqamli ta’lim platformalari, elektron portfoliolar va onlayn tadqiqot vositalarini integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan. Raqamli ta’lim muhitining ta’lim oluvchilarda tahliliy fikrlashni rivojlantirish, axborotni mustaqil izlash va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek loyiha-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya dual ta’lim modelini modernizatsiya qilishga hamda mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish ta’lim oluvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda ularning kasbiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini oshirishga yordam berishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ta’limni raqamlashtirish, dual ta’lim, tadqiqotchilik kompetensiyalari, raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, turkiy davlatlar.

Abstract. The article examines the pedagogical aspects of digitalization of the dual education system and its impact on the development of students’ research competencies in the context of the transformation of educational systems in the Turkic states. The necessity of integrating digital educational platforms, e-portfolios, and online research tools into the educational process is substantiated. The possibilities of the digital educational environment for developing analytical thinking, independent information search and processing skills, as well as project-based research activities of students are analyzed. It is shown that digital transformation contributes to the modernization of the dual education model and increases the efficiency of professional training. The research results confirm that the purposeful use of digital technologies promotes the development of students’ research competencies and enhances their readiness for professional and scientific research activities.

Keywords: digitalization of education, dual education, research competencies, digital technologies, digital educational environment, Turkic states.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобальной цифровой трансформации образования и науки особую актуальность приобретает развитие цифровых образовательных систем и внедрение современных информационных технологий в образовательный процесс. Современная образовательная парадигма ориентирована на подготовку специалистов, обладающих не только профессиональными знаниями, но и исследовательскими компетенциями, способностью к аналитическому мышлению, самостоятельному поиску и обработке информации, а также использованию цифровых инструментов в профессиональной деятельности [1; 2].

В последние годы в странах тюркского мира активно реализуются государственные программы, направленные на цифровую трансформацию образовательных систем. В частности, в Турции развитие цифрового образования осуществляется в рамках национальной образовательной платформы EBA (Eğitim Bilişim Ağı), которая обеспечивает доступ обучающихся и преподавателей к цифровым образовательным ресурсам, электронным учебникам и интерактивным образовательным материалам.

Использование данной платформы способствует формированию единой цифровой образовательной среды и расширяет возможности организации дистанционного и смешанного обучения [4; 6].

В Казахстане цифровизация системы образования осуществляется в рамках государственной программы «Цифровой Казахстан», направленной на внедрение современных информационных технологий, развитие онлайн-обучения и формирование цифровых компетенций обучающихся. Реализация данной программы способствует модернизации образовательной инфраструктуры, расширению доступа к электронным образовательным ресурсам и развитию цифровой образовательной среды в университетах и колледжах страны [3; 10].

В Узбекистане процессы цифровизации образования также приобретают стратегическое значение. Внедрение цифровых образовательных платформ, систем управления обучением (LMS), электронных библиотек и онлайн-образовательных ресурсов способствует повышению доступности образования и развитию научно-исследовательской деятельности обучающихся. В этих условиях особую актуальность приобретает интеграция цифровых технологий с дуальной моделью образования, которая обеспечивает сочетание теоретической подготовки и практической деятельности студентов [3; 4].

Дуальное образование рассматривается как эффективная педагогическая модель, обеспечивающая интеграцию теоретического обучения, практико-ориентированной подготовки и элементов научно-исследовательской деятельности обучающихся. Использование цифровых технологий значительно расширяет педагогические возможности данной модели, создавая условия для развития исследовательских компетенций обучающихся.

Цель статьи заключается в анализе роли цифровых технологий в совершенствовании исследовательских компетенций обучающихся в системе дуального образования.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Исследовательские компетенции обучающихся в педагогической науке рассматриваются как интегративное образование, включающее совокупность знаний, умений, навыков и личностных качеств, обеспечивающих способность к постановке исследовательских задач, выбору методов их решения, анализу и интерпретации полученных результатов, а также применению исследовательского опыта в профессиональной деятельности [1; 2].

Методологической основой совершенствования исследовательских компетенций выступают идеи обучения через деятельность и опыт, представленные в трудах Дж. Дьюи и Д. Колба, а также положения культурно-исторической теории Л. С. Выготского [1; 2; 5]. Согласно данным подходам образовательный процесс рассматривается как активная деятельность обучающегося, направленная на осмысление знаний и их практическое применение в реальных профессиональных ситуациях.

Цифровизация образовательного процесса расширяет дидактические возможности дуального образования. Использование систем управления обучением, цифровых образовательных платформ и онлайн-исследовательских инструментов позволяет

организовать учебно-исследовательскую деятельность обучающихся в гибком интерактивном формате [3; 4].

В условиях дуального образования цифровые технологии обеспечивают доступ к современным информационным ресурсам, инструментам анализа данных и средствам дистанционного взаимодействия между обучающимися, преподавателями и наставниками от производства. Это способствует развитию аналитического мышления, навыков самостоятельного поиска информации и критической обработки данных.

Результаты проведённых исследований показывают, что использование цифровых образовательных платформ (LMS Moodle, Google Classroom, электронные портфолио) способствует повышению уровня профессиональных и исследовательских компетенций обучающихся в среднем на 25–35 % [7; 8; 9].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, цифровизация образования создаёт новые возможности для развития исследовательских компетенций обучающихся в системе дуального образования. Интеграция цифровых образовательных платформ, онлайн-исследовательских инструментов и электронных портфолио способствует формированию аналитического мышления, навыков самостоятельного поиска и обработки информации, а также развитию проектно-исследовательской деятельности обучающихся.

Полученные результаты подтверждают эффективность использования цифровых технологий в организации дуального образования и могут быть использованы при модернизации образовательных программ, направленных на подготовку специалистов в условиях цифровой экономики [3; 4; 7].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938. https://archive.org/details/experienceeducat00dewe
2. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. https://learningfromexperience.com
3. OECD. Work-Based Learning and Digital Skills Integration. — Paris: OECD Publishing, 2022. https://www.oecd.org/education
4. UNESCO. Digital Transformation of Higher Education. — Paris: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org
5. Выготский Л. С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999.
6. Organization of Turkic States. Digital Cooperation in Education among Turkic States. — Istanbul, 2023. https://www.turkicstates.org
7. Yakubova D. Model of Dual Education in the Context of Digital Transformation // International Conference on Adaptive Learning Technologies. — 2025.
8. Yakubova D. O‘zbekiston sharoitida dual ta’lim modelini joriy etishning imkoniyatlari va muammolari // Asian Journal of Multidisciplinary Research. — 2025.
9. Yakubova D. Dual ta’lim tizimini joriy etishda raqamli texnologiyalarning o‘rni // Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi. — 2025.
10. European Commission. Digital Education Action Plan (2021–2027). https://education.ec.europa.eu

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯКУБОВА ДИАНА ХАЙДАРОВНА
Преподаватель кафедры «Дошкольное образование» УрГПИ.

Аннотация. В статье анализируется международный опыт развития дуального образования и возможности его адаптации в системе высшего педагогического образования Республики Узбекистан. Дуальное образование рассматривается как педагогическая модель, обеспечивающая интеграцию теоретической подготовки будущих педагогов в высших педагогических учебных заведениях с практической деятельностью в общеобразовательных организациях. Особое внимание уделено опыту Германии, Швейцарии и Южной Кореи, где элементы дуального обучения успешно применяются в подготовке педагогических кадров. На основе сравнительно-педагогического анализа выявлены ключевые педагогические и организационные условия эффективности дуального образования в высшей педагогической школе, а также определены направления адаптации международного опыта к национальной системе подготовки педагогических кадров Узбекистана. В статье представлены практические рекомендации по внедрению дуального образования в систему высшего педагогического образования с учётом зарубежных моделей и национальных особенностей.

Ключевые слова: дуальное образование, международный опыт, высшее педагогическое образование, подготовка педагогических кадров, педагогическая модель, интеграция теории и педагогической практики.

Annotatsiya. Maqolada dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba hamda uni O‘zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Dual ta’lim bo‘lajak pedagoglarning oliy pedagogik ta’lim muassasalarida oladigan nazariy tayyorgarligini umumta’lim tashkilotlaridagi amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik model sifatida talqin etiladi. Germaniya, Shveytsariya va Janubiy Koreya tajribasiga alohida e’tibor qaratilib, mazkur mamlakatlarda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida dual ta’lim elementlarining samarali qo‘llanilayotgani yoritib beriladi. Qiyosiy-pedagogik tahlil asosida oliy pedagogik ta’limda dual ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlar aniqlanadi, shuningdek, xalqaro tajribani O‘zbekiston pedagog kadrlar tayyorlashning milliy tizimiga moslashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab beriladi. Maqolada xorijiy modellar hamda milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda dual ta’limni oliy pedagogik ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, xalqaro tajriba, oliy pedagogik ta’lim, pedagog kadrlar tayyorlash, pedagogik model, nazariya va pedagogik amaliyot integratsiyasi.

Abstract. This article examines international experience in the development of dual education and the possibilities for its adaptation within the system of higher pedagogical education of the Republic of Uzbekistan. Dual education is considered as a pedagogical model that ensures the integration of theoretical training of future teachers in higher pedagogical institutions with their practical activities in general education organizations. Particular attention is given to the experience of Germany, Switzerland, and South Korea, where elements of dual education are successfully applied in the training of teaching personnel. Based on a comparative pedagogical analysis, the study identifies key pedagogical and organizational conditions for the

effective implementation of dual education in higher pedagogical institutions and determines directions for adapting international experience to the national system of teacher training in Uzbekistan. The article also offers practical recommendations for introducing dual education into the system of higher pedagogical education, taking into account international models and national specificities.

Keywords: dual education, international experience, higher pedagogical education, teacher training, pedagogical model, integration of theory and pedagogical practice.

Введение

Современные процессы модернизации образования обусловливают необходимость повышения качества подготовки педагогических кадров. Система высшего педагогического образования Республики Узбекистан ориентирована на формирование у будущих учителей профессиональных, методических и практических компетенций, обеспечивающих их готовность к эффективной педагогической деятельности в условиях обновления содержания общего образования.

В этой связи особую актуальность приобретает поиск и внедрение эффективных педагогических моделей, обеспечивающих устойчивую связь теоретической подготовки студентов с реальной педагогической практикой. Одной из таких моделей является дуальное образование, предполагающее интеграцию обучения в вузе с практической деятельностью в образовательных организациях.

В нормативно-правовых документах Республики Узбекистан подчёркивается необходимость укрепления практической направленности подготовки педагогических кадров, расширения взаимодействия высших учебных заведений с базовыми школами и использования международного опыта [1; 2]. Изучение зарубежных моделей дуального образования позволяет выявить эффективные механизмы организации педагогической практики, наставничества и профессионального становления будущих учителей.

Теоретические основы дуального образования и международный педагогический опыт

Дуальное образование как педагогическая модель основывается на принципе единства теории и практики, который занимает центральное место в классических и современных педагогических теориях. В системе высшего педагогического образования дуальная модель направлена на формирование профессиональной готовности будущего учителя через поэтапное включение студентов в реальную педагогическую деятельность.

Международный опыт свидетельствует о высокой эффективности дуального образования в подготовке педагогических кадров. В Германии дуальная модель успешно реализуется в педагогических университетах и университетах прикладных наук, где теоретическая подготовка студентов сочетается с систематической педагогической практикой в школах под руководством наставников. Исследования К.Райнхарда и Т.Дайссингера показывают, что такая модель способствует формированию профессионального мышления и устойчивой мотивации к педагогической деятельности [4; 5].

В Швейцарии дуальное образование в педагогической подготовке характеризуется гибкостью образовательных программ и индивидуализацией практической подготовки. Будущие учителя проходят педагогическую практику в школах-партнёрах, участвуют в

рефлексивных семинарах и получают методическую поддержку со стороны университетских преподавателей и школьных наставников [6].

В Южной Корее дуальное образование в системе подготовки педагогических кадров развивается в условиях активной цифровизации образования. Использование цифровых платформ позволяет интегрировать педагогическую практику, научно-исследовательскую деятельность студентов и методическую подготовку, что способствует формированию профессиональных и исследовательских компетенций будущих педагогов [7].

Аналитические материалы международных организаций (OECD, UNESCO–UNEVOC) подчёркивают, что успешная реализация дуального образования в педагогической сфере зависит от наличия нормативной базы, устойчивого партнёрства между педагогическими вузами и школами, а также готовности преподавателей и наставников к работе в дуальной модели [7; 8].

Цель исследования - анализ международного опыта развития дуального образования и обоснование возможностей его использования в системе высшего педагогического образования Республики Узбекистан.

Для достижения поставленной цели в статье решаются следующие **задачи:**

- Проанализировать педагогические основы дуального образования в системе высшего педагогического образования.
- Изучить международный опыт подготовки педагогических кадров на основе дуальной модели обучения.
- Выявить педагогические условия эффективности дуального образования в высших педагогических учебных заведениях.
- Определить возможности адаптации международного опыта дуального образования к системе высшего педагогического образования Республики Узбекистан.
- Разработать рекомендации по внедрению дуального образования в подготовку будущих педагогов.

Методологическую основу исследования составляют системный, сравнительно-педагогический и компетентностный подходы. В работе использованы методы анализа научной литературы и нормативных документов [1; 2; 3], сравнительного анализа международного педагогического опыта [4; 5; 6; 8], обобщения и педагогического моделирования.

Результаты исследования и их анализ. Проведённый анализ международного опыта позволил выявить ключевые педагогические условия эффективного развития дуального образования в системе высшего педагогического образования:

1. нормативно-правовая поддержка дуальной модели подготовки педагогических кадров;
2. устойчивое партнёрство педагогических вузов и общеобразовательных организаций;
3. системная организация педагогической практики и наставничества;
4. интеграция теоретической, методической и практической подготовки студентов;
5. развитие рефлексивных и исследовательских умений будущих педагогов.

Для Республики Узбекистан особое значение имеет поэтапное внедрение дуального образования с учётом национальных особенностей системы педагогического образования. Международный опыт показывает, что успешная реализация дуальной модели требует целенаправленной подготовки преподавателей педагогических вузов и школьных

наставников, а также разработки механизмов стимулирования образовательных организаций к участию в подготовке будущих учителей [2; 6; 8].

Заключение и рекомендации

Международный опыт развития дуального образования подтверждает его высокую эффективность в системе высшего педагогического образования как модели подготовки профессионально компетентных и педагогически зрелых кадров. Использование элементов дуального обучения способствует повышению качества педагогической практики, формированию профессиональной компетентности будущих учителей и укреплению взаимодействия педагогических вузов с общеобразовательными организациями.

Рекомендуется:

- системно изучать и адаптировать международный опыт дуального образования в высшей педагогической школе;
- развивать партнёрство педагогических вузов и базовых школ;
- совершенствовать нормативно-правовую и методическую базу дуального образования;
- внедрять элементы дуального обучения поэтапно с учётом национальных условий;
- использовать международные практики в подготовке и повышении квалификации педагогических кадров.

Список литературы

1. Президент Республики Узбекистан. О мерах по расширению системы дуального образования: Постановление № ПҚ-360 от 12 августа 2022 г. - Ташкент, 2022.
2. Президент Республики Узбекистан. О мерах по дальнейшему совершенствованию системы высшего образования: Постановление № ПҚ-152 от 27 апреля 2023 г. - Ташкент, 2023.
3. Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Стратегия развития образования до 2030 года. - Ташкент, 2023.
4. Райнхард К. Немецкая модель дуального образования и профессиональной подготовки педагогических кадров. - Берлин: Springer, 2015. *(на англ. яз.)*
5. Дайссингер Т. Дуальное профессиональное образование в Германии: теория и практика. - Гейдельберг: Springer, 2017. *(на англ. яз.)*
6. Эйлер Д. Интеграция обучения и труда: международный опыт дуального образования. - Франкфурт-на-Майне: Bertelsmann Stiftung, 2013. *(на англ. яз.)*
7. OECD. Дуальное образование и развитие педагогических компетенций: международный обзор. - Париж: OECD Publishing, 2022. *(на англ. яз.)*
8. UNESCO-UNEVOC. Дуальное образование и подготовка педагогических кадров: международные тенденции. - Бонн, 2023. *(на англ. яз.)*

REKREATSION TURIZM ASOSIDA TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA YO‘NALTIRILGAN KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Babajanov Ilhom Abdulla o‘g‘li
UrDU mustaqil tadqiqotchisi,

Annotatsiya. Mazkur maqolada rekreatsion turizm asosida talabalarning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Rekreatsion turizmning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, uning talabalarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mexanizmlar tavsiflangan. Tadqiqot natijalari rekreatsion turizm talabalarda sog‘lom hayot kechirish madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: rekreatsion turizm, sog‘lom turmush tarzi, kompetensiya, pedagogik texnologiya, talaba yoshlar, salomatlik madaniyati, turistik faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы развития у учащихся компетенций, направленных на здоровый образ жизни, на основе рекреационного туризма. Подчеркивается важность рекреационного туризма в образовательном процессе, его роль в укреплении физического, психологического и социального здоровья учащихся. Также описываются инновационные педагогические технологии, интерактивные методы и практические механизмы, служащие формированию компетенций, связанных со здоровым образом жизни. Результаты исследования показывают, что рекреационный туризм является эффективным средством развития культуры здорового образа жизни у учащихся.

Ключевые слова: рекреационный туризм, здоровый образ жизни, компетентность, педагогические технологии, студенты, культура здоровья, туристическая деятельность, компетентностный подход.

Abstract. This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of the development of students' competencies aimed at a healthy lifestyle based on recreational tourism. The importance of recreational tourism in the educational process, its role in strengthening the physical, psychological and social health of students are highlighted. Also, innovative pedagogical technologies, interactive methods and practical mechanisms that serve to form competencies related to a healthy lifestyle are described. The results of the study show that recreational tourism is an effective means of developing a culture of a healthy lifestyle in students

Keywords: recreational tourism, healthy lifestyle, competence, pedagogical technology, students, health culture, tourist activities, competency-based approach

Kirish

XXI asrda inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, yosh avlodda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dunyo miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy yoshlar orasida jismoniy faollikning pasayishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, psixoemotsional zo‘riqishlar va turli zararli odatlarning keng tarqalishi sog‘liq bilan bog‘liq muammolarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirish muhim pedagogik va ijtimoiy vazifaga aylanmoqda.O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlarning jismoniy va ma’naviy salomatligini mustahkamlash, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi talabalarning hayotiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni ham shakllantirishni taqozo etmoqda.Mazkur jarayonda rekreatsion turizmning pedagogik imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Rekreatsion turizm insonning jismoniy kuchini tiklash, ruhiy holatini yaxshilash, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi sifatida talabalarning sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Rekreatsion faoliyat jarayonida talabalar tabiat bilan bevosita muloqotga kirishadi, jismoniy faollik bilan shug‘ullanadi, sog‘lom ovqatlanish, ekologik madaniyat va xavfsiz hayot faoliyatiga oid amaliy tajriba orttiradi.Shu bois rekreatsion turizm asosida talabalarning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida yoshlar orasida kamharakatlilik, stress, emotsional zo‘riqish hamda sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik holatlari ortib bormoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilan chegaralanib qolmay, balki talabalarning faol amaliy faoliyatini tashkil etishni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan rekreatsion turizm yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash, ekologik madaniyatini rivojlantirish va sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sog‘lom turmush tarzi va rekreatsion turizm masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Turizmning ijtimoiy va pedagogik ahamiyati bo‘yicha **J. Jafari**, **R. Butler**, **C. Hall**, **S. Page** kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida turizm inson salomatligini tiklash, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish va shaxsning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi omil sifatida baholanadi.

Sog‘lom turmush tarzi nazariyasining rivojlanishida **N. Pender**, **A. Bandura**, **M. O'Donnell** kabi olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Ular sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya, o‘zini boshqarish va sog‘lom xulq-atvorni rivojlantirish omillariga e’tibor qaratganlar. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi **D. Raven**, **J. Delors**, **A. Khutorskoy**, **I. Zimnyaya** kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning fikriga ko‘ra, kompetensiya nafaqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi, balki shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini ham ifodalaydi. O‘zbekistonlik olimlardan **N. Egamberdiyeva**, **R. Mavlonova**, **B. Xodjayev**, **Sh. Sharipov** va boshqalar yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va kompetensiyaviy ta’lim masalalarini tadqiq qilganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rekreatsion turizmning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirishdagi pedagogik texnologiyalarini kompleks tadqiq etish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv va sog‘lomlashtiruvchi pedagogika konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy-tahliliy yondashuv;
- tizimli tahlil;
- pedagogik kuzatish;
- umumlashtirish va interpretatsiya metodlari;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy modellashtirish.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalar talabaning sog‘lom hayot kechirishga oid bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, qadriyatlari va motivlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilinadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabalarning sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini amaliy faoliyat, jumladan rekreatsion turizm jarayonida rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Rekreatsion turizm asosida sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalar mazmuni

Talabalarda sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Motivatsion komponent

Talabaning sog‘lom hayot kechirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va motivlarini ifodalaydi

Kognitiv komponent

Sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ekologik madaniyat, gigiyena va salomatlikni saqlashga oid bilimlarni qamrab oladi.

Faoliyat komponenti

Turistik yurishlar, sayohatlar, sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Refleksiv komponent

Talabaning o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rekreatsion turizm asosida kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari

1. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi

Talabalar tomonidan turistik marshrutlar ishlab chiqish, sayohat dasturlarini yaratish va sog‘lomlashtirish loyihalarini amalga oshirish orqali mustaqil faoliyat tashkil etiladi.

Mazkur texnologiya:

mustaqil fikrlashni;

muammolarni hal etishni;

ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

2. Trening texnologiyasi

Psixologik va sog‘lomlashtirish treninglari talabalarda stressga chidamlilik, kommunikativ kompetensiyalar va sog‘lom hayotga motivatsiyani rivojlantiradi.

3. Ekologik-turistik ta’lim texnologiyasi

Xulosa. Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy rivoji uchun strategik ahamiyatga ega jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar — mehr-oqibat, odob-axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi fazilatlar — talaba qizlarning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy ongini shakllantirish va jamoatchilik faoliyatiga jalb etishda asosiy ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy merosga tayanilgan tarbiya qizlarda mas’uliyat, tashabbuskorlik, kommunikativ madaniyat va liderlik salohiyatining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda yaratilgan imkoniyatlar — davlat dasturlari, oliy ta’lim muassasalaridagi qo‘llab-quvvatlovchi kengashlar, yoshlar tashkilotlari, xalqaro grantlar va ijtimoiy loyihalar — talaba qizlarning faol bo‘lishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ushbu imkoniyatlar qizlarning jamoatchilik ishlaridagi ishtirokini kengaytirib, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar va zamonaviy ta’lim jarayonlarining uyg‘unlashuvi talaba qizlarning ijtimoiy faolligini mustahkamlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu esa kelajakda jamiyatning intellektual va ma’naviy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan faol, tashabbuskor va yetuk avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-son Farmonlari.
2. “Gender tengligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Karimova V. “Psixologiya va hayot”. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
4. Jo‘rayev R., Qodirova N. “Ijtimoiy psixologiya asoslari”. — Toshkent: Fan, 2020.
5. Sayfullayeva R. “Oila va ma’naviyat”. — Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
6. Xolmatova M. “Ayollar ijtimoiy faolligi va gender masalalari”. — Toshkent: Nodirabegim, 2021.

7. O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi materiallari va yillik hisobotlari.
8. UN Women, UNDP, UNICEF — Gender tengligi va yosh ayollar liderligi bo‘yicha xalqaro hisobotlar.
9. Sotsiologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar: Ergashev U., Mamatqulov A. “Sotsiologiya nazariyasi”. — Toshkent: Universitet, 2017.

Internet manbalari:

Oliy ta’lim vazirligi rasmiy sayti,
Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali,
Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi ma’lumotlari.

EKOLOGIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Madaminova Munavvar Rohat qizi
O‘qituvchi
Urganch davlat pedagogika instituti Pedgogika
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi
E-mail munavvarmadaminova02@gmail.com
+998880911238

AnnotatsiyaMazkur maqolada ekologik kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda pedagogik mohiyati yoritilgan. Shuningdek, ekologik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari va maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik kompetensiya, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya, pedagogik yondashuv, maktabgacha ta’lim.

Bugungi kunda global ekologik muammolar, jumladan iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi insoniyat oldida jiddiy vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur muammolarni hal etishda inson omili, ya’ni ekologik ong va madaniyatga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida ekologik kompetensiyani shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish kelajak avlodning tabiatga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ekologik kompetensiya tushunchasi shaxsning atrof-muhitga nisbatan ongli, mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi, ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushuncha ko‘p qirrali bo‘lib, u bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat. Birinchidan, kognitiv komponent ekologik bilimlar majmuini o‘z ichiga oladi. Bu bilimlar orqali shaxs tabiat qonuniyatlari, ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, emotsional-qadriyat komponenti tabiatga mehr-muhabbat, ehtiyotkorlik va mas’uliyat hissini ifodalaydi. Uchinchidan esa faoliyat komponenti

ekologik jihatdan to‘g‘ri xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Mazkur komponentlar uyg‘unligi ekologik kompetensiyaning to‘laqonli shakllanishini ta’minlaydi.

Ekologik kompetensiya tushunchasi xalqaro miqyosda ham keng e’tirof etilgan bo‘lib, u UNESCO tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish ta’limi konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu konsepsiya doirasida ekologik ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsda barqaror rivojlanish g‘oyalariga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik kompetensiyaning pedagogik mohiyati ta’lim jarayonida uning qanday shakllantirilishi va rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Avvalo, bu jarayon shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyiliga asoslanadi. Ya’ni, pedagogik faoliyat markazida bola turadi va ekologik bilimlar uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga mos ravishda beriladi. Shu bilan birga, ekologik tarbiya integrativ xarakterga ega bo‘lib, u turli fanlar va faoliyat turlari bilan uyg‘unlikda amalga oshiriladi. Masalan, tabiat haqidagi bilimlar nutq rivojlantirish, tasviriy faoliyat yoki o‘yin jarayonlari bilan birlashtiriladi.

Ekologik kompetensiyani shakllantirishda faoliyatga asoslangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, bolalar ekologik bilimlarni faqat tinglash orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Tabiatni kuzatish, oddiy tajribalar o‘tkazish, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi faoliyatlar bolalarda ekologik tafakkurni rivojlantiradi. Bundan tashqari, ekologik tarbiya jarayonida qadriyatlarga asoslangan yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Chunki ekologik kompetensiya faqat bilimlar majmui emas, balki tabiatga nisbatan ijobiy munosabat va axloqiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ekologik kompetensiyani shakllantirish turli metod va vositalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, kuzatishlar, ekskursiyalar, didaktik o‘yinlar, ekologik ertak va hikoyalar orqali bolalarda tabiatga qiziqish uyg‘otiladi. Shu bilan birga, bolalarni oddiy mehnat faoliyatiga jalb qilish, masalan, gullarga suv quyish yoki tabiat burchagini parvarish qilish orqali ularda mas’uliyat hissi shakllantiriladi. Bunday faoliyatlar bolalarning ekologik bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy ko‘nikmalarga ham ega qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ekologik kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Xususan, STEAM yondashuvi, refleksiv ta’lim va raqamli texnologiyalar ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Sun’iy intellekt vositalari yordamida individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish orqali har bir bolaning ekologik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekologik kompetensiya zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida ekologik kompetensiyani rivojlantirish orqali bolalarda

tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirish mumkin. Shu sababli ekologik ta’limni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Slastyonin V.A. Pedagogika. Innovatsion faoliyat. – Moskva, 2018.

2.Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 2016.

3.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.

4.UNESCO. Innovative Teaching and Learning. – Paris, 2020.

5.Rogers E. Diffusion of Innovations. – New York, 2019.

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI ORQALI O‘QUVCHILARDA BADIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Matrizayeva To‘maris
Urganch shahar 26-son KTIMTT tarbiyachisi

Annotatsiya : Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ertaklar, dostonlar, maqol va topishmoqlar asosida o‘quvchilarning obrazli fikrlashi, estetik didi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi vositalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanishning didaktik tamoyillari va metodlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, badiiy tafakkur, ijodiy fikrlash, folklor, pedagogik texnologiyalar, estetik tarbiya, metodika.

Аннотация :В данной статье анализируются педагогические возможности образцов устного народного творчества в формировании художественного мышления учащихся. Освещаются методические подходы к развитию образного мышления, эстетического вкуса и творческих способностей учащихся на основе сказок, эпосов, пословиц и загадок. Также рассматриваются дидактические принципы и методы эффективного использования народного фольклора в образовательном процессе.

Ключевые слова: устное народное творчество, художественное мышление, творческое мышление, фольклор, педагогические технологии, эстетическое воспитание, методика.

Annotation : This article examines the pedagogical potential of folklore samples in developing students’ artistic thinking. Methodological approaches to enhancing imaginative

thinking, aesthetic perception, and creative abilities through folk tales, epics, proverbs, and riddles are discussed. The study also highlights didactic principles and effective methods of integrating folklore into the educational process.

Keywords: folklore, artistic thinking, creative thinking, pedagogical technologies, aesthetic education, teaching methodology, oral folk art.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda estetik dunyoqarashini boyitish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosi bo‘lib, unda milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, estetik qarashlar va hayotiy tajribalar mujassamlashgan.Badiiy tafakkur insonning voqelikni obrazlar orqali idrok etishi, estetik baholashi va ijodiy qayta ishlashi bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirish, obrazli fikrlashini rivojlantirish va estetik didini shakllantirish uchun muhim didaktik vosita vazifasini bajaradi.Asosiy qismBadiiy tafakkur shaxsning badiiy obrazlarni idrok etish, tahlil qilish va yaratish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. U obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, emotsional sezgirlik va estetik baholash kabi tarkibiy qismlardan iborat. Mazkur sifatlarni rivojlantirishda folklor asarlarining pedagogik imkoniyatlari nihoyatda kengdir.Xalq ertaklari o‘quvchilarning tasavvur olamini boyitadi, voqealarni obrazli qabul qilishga o‘rgatadi va yaxshilik hamda yomonlik o‘rtasidagi farqni anglashga yordam beradi. Dostonlar esa qahramonlik, vatanparvarlik, jasorat va insonparvarlik kabi fazilatlarni tarannum etib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Maqol va matallar xalqning hayotiy tajribasi va donishmandligini aks ettirib, qisqa va lo‘nda fikr orqali mantiqiy hamda badiiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Topishmoqlar esa o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, topqirligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.O‘quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirishda muammoli ta’lim, ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish va bahs-munozara metodlaridan foydalanish samarali natijalar beradi. Xususan, ertak yoki doston qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish, voqealar rivojiga alternativ yechimlar taklif etish, qahramonlar obrazini mustaqil tavsiflash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish metodlari esa badiiy matn mazmunini chuqurroq anglash hamda emotsional idrokni kuchaytirishga yordam beradi.Ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish nafaqat badiiy tafakkurni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarga hurmat bilan qarash va estetik madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shu

sababli folklor namunalarini dars jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Folklor asarlari orqali o‘quvchilarning obrazli fikrlashi, ijodiy tasavvuri, estetik didi va ma’naviy dunyoqarashi rivojlanadi. Ta’lim jarayonida ertaklar, dostonlar, maqollar va topishmoqlardan maqsadli hamda tizimli foydalanish badiiy tafakkurni rivojlantirish samaradorligini oshiradi. Shu bois xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.

3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari”. // Pedagogika va psixologiya. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 45–52.

4. To‘xtaboyev A. “Xalq og‘zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati”. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 33–38.

5. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016. – 224 b. 6. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol, 2014. – 180 b.

ZAMONAVIY JAMIYATDA EPISTEMIK TAFAKKUR VA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI.

Raximova Aziza Davranbekovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti
azizadavranbekovna @gmail.com
+998975254030

Annotatsiya

Ushbu ishda zamonaviy jamiyatda epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Epistemik tafakkurning mazmuni, uning bilimlarni anglash va baholashdagi o‘rni yoritiladi hamda tanqidiy fikrlash bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, axborot oqimi kuchaygan hozirgi davrda insonning mustaqil fikrlashi, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotlarni farqlay olishida ushbu ko‘nikmalarning tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: epistemik tafakkur, tanqidiy fikrlash, zamonaviy jamiyat, axborot oqimi, bilim, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash, ishonchlilik, media savodxonlik.

Kirish

Bugungi kunda inson har kuni turli manbalardan – internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarga duch keladi. Bunday sharoitda har qanday axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash tushunchalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu ishda epistemik tafakkurning mazmuni, uning tanqidiy fikrlash bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi.Epistemik tafakkur – bu insonning bilimni anglash, uning manbalarini tushunish va ishonchliligini baholash qobiliyatidir. Bu turdagi tafakkur insonni “men bu ma’lumotni qayerdan oldim?”, “u qanchalik ishonchli?”, “unga ishonish mumkinmi?” kabi savollarni berishga undaydi. Epistemik tafakkur oddiy bilim olishdan farqli ravishda bilimning sifatiga, uning asoslanganligiga e’tibor qaratadi.Bunday tafakkur shakllangan shaxs har qanday ma’lumotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni tekshiradi, solishtiradi va xulosa chiqaradi. Bu esa insonni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash va uning xususiyatlari

Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan qaror qabul qilish jarayonidir. Tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan inson turli fikrlarni solishtiradi, dalillarni tekshiradi va mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Tanqidiy fikrlash quyidagi xususiyatlarga ega:

- mantiqiylik
- mustaqillik
- dalillarga asoslanish
- tahliliy yondashuv

Bu fikrlash turi insonni manipulyatsiya va yolg‘on axborot ta’siridan himoya qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda “fake news” va noto‘g‘ri ma’lumotlar keng tarqalayotgan bir paytda tanqidiy fikrlash juda zarur ko‘nikmaga aylangan.

Epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlik. Epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Epistemik tafakkur bilimning mohiyatini anglashga qaratilgan bo‘lsa, tanqidiy fikrlash ushbu bilimni amalda qo‘llash, tahlil qilish va baholash jarayonini ifodalaydi.Boshqacha aytganda, epistemik tafakkur tanqidiy fikrlashning asosini tashkil etadi. Agar inson bilimning manbai va

ishonchliligini tushunmasa, u to‘g‘ri tahlil qila olmaydi. Shu sababli epistemik yondashuv tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy jamiyatda ularning ahamiyati.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlashning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Internet orqali tarqaladigan ma’lumotlar har doim ham to‘g‘ri yoki ishonchli bo‘lavermaydi. Shuning uchun har bir inson axborotni tanlab qabul qilishni o‘rganishi zarur.

Epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash quyidagi jihatlarda muhim:

- to‘g‘ri qaror qabul qilishda
- mustaqil fikr yuritishda
- yolg‘on axborotni aniqlashda
- ijtimoiy faollikni oshirishda

Ayniqsa yoshlar uchun bu ko‘nikmalar juda zarur, chunki ular kelajakda jamiyatning faol a’zolariga aylanadi. Ta’lim tizimida ham ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash zamonaviy jamiyatda insonning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir. Epistemik tafakkur insonni bilimning mohiyatini anglashga, uning manbalarini tahlil qilishga va ishonchliligini baholashga yo‘naltiradi. Tanqidiy fikrlash esa ushbu bilimni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish hamda asoslangan va mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi va mustahkamlaydi.Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida har bir inson juda ko‘p turdagi ma’lumotlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda har qanday axborotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish emas, balki uni tekshirish, tahlil qilish va tanlab qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash aynan shu jarayonda insonni noto‘g‘ri, soxta yoki manipulyativ axborot ta’siridan himoya qiluvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, bu ko‘nikmalar shaxsning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, uning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlaydi hamda ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Xulosa .

Xulosa qilib aytganda,ta’lim tizimida ham epistemik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim, chunki bu kelajak avlodning bilimli, tahliliy fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.Umuman olganda, epistemik tafakkur va tanqidiy fikrlash zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ular insonni nafaqat bilimli, balki ongli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababli ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish har bir inson va butun jamiyat uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. To‘xtaxodjaeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Xoliqov A.A. Falsafa asoslari. – Toshkent: Universitet, 2015.
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Boston: Pearson, 2014.
5. Dewey J. How We Think. – New York: Dover Publications, 1997.
6. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2013.
7. Internet manbalari:
   - www.google.com
   - www.ziyonet.uz
   - www.scholar.google.com

ILMIY TAFAKKUR EPISTEMIK TASAVVURNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

Raximova Aziza Davranbekovna
University of innovation technologies
azizadavranbekovna @gmail.com
+998975254030

Annotatsiya

Mazkur ishda epistemik tasavvur tushunchasi va uning ilmiy tafakkur bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Epistemik tasavvur insonning bilimni qanday qabul qilishi, tushunishi va baholashiga oid qarashlar tizimi sifatida yoritiladi. Tadqiqotda ilmiy tafakkurning asosiy xususiyatlari — ob’ektivlik, dalillarga tayanish, tizimlilik va tanqidiy yondashuv — epistemik tasavvurning eng mukammal shakli ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, ilmiy tafakkurning shakllanishi jarayonida tajriba, kuzatuv va mantiqiy xulosalarning o‘rni ochib beriladi. Ish yakunida ilmiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: epistemik tasavvur, ilmiy tafakkur, bilish jarayoni, haqiqat, bilim, ilmiy metod, tanqidiy fikrlash, empirik tadqiqot, mantiqiy tahlil, ob’ektivlik.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda bilimning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Insoniyat taraqqiyoti bevosita bilim ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, epistemik tasavvur — ya’ni insonning bilimni qanday tushunishi,

qabul qilishi va baholashi — muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Epistemik tasavvur nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli bo‘lib, u inson tafakkuri va qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Ilmiy tafakkur esa epistemik tasavvurning eng rivojlangan va tizimli shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U haqiqatni anglashda tasodifiylikdan emas, balki aniq metodlar, dalillar va mantiqiy xulosalardan foydalanishni talab etadi. Mazkur tezisda ilmiy tafakkurning epistemik tasavvurdagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi.

Epistemik tasavvur mohiyati.

Epistemik tasavvur — bu insonning bilimga bo‘lgan munosabati, bilim manbalari va uning ishonchliligiga oid qarashlar tizimidir. Har bir inson o‘z epistemik tasavvuriga ega bo‘lib, u uning dunyoni qanday idrok etishini belgilaydi. Masalan, ba’zi insonlar bilimni mutlaq va o‘zgarmas deb bilsa, boshqalar uni doimiy ravishda rivojlanib boruvchi jarayon sifatida qabul qiladi.Epistemik tasavvur shakllanishiga ijtimoiy muhit, ta’lim, madaniyat va shaxsiy tajriba katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida talabalar bilimni faqat yodlash orqali emas, balki uni tushunish va tahlil qilish orqali o‘zlashtirishi zarur. Bu esa ilmiy tafakkurning rivojlanishini taqozo etadi.

Ilmiy tafakkurning asosiy xususiyatlari.

Ilmiy tafakkur — bu borliqni ilmiy metodlar asosida anglashga qaratilgan fikrlash shaklidir. U quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Birinchidan, ob’ektivlik — ilmiy tafakkur shaxsiy fikr va hissiyotlardan xoli bo‘lib, faqat dalillarga asoslanadi.

Ikkinchidan, dalillarga tayanish — har qanday xulosa empirik kuzatuvlar yoki tajribalar bilan isbotlanishi kerak.

Uchinchidan, tizimlilik — bilimlar tartibli va o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi.

To‘rtinchidan, tanqidiy yondashuv — mavjud bilimlar doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqiladi va tekshiriladi. Aynan shu xususiyatlar ilmiy tafakkurni boshqa fikrlash shakllaridan ajratib turadi va uni epistemik tasavvurning eng yuqori darajasiga olib chiqadi.

Ilmiy tafakkur va epistemik tasavvur o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Ilmiy tafakkur epistemik tasavvurning rivojlangan shakli sifatida insonning bilimga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartiradi. Agar oddiy epistemik tasavvurda bilim ko‘pincha tayyor va o‘zgarmas deb qabul qilinsa, ilmiy tafakkurda bilim dinamik, tekshiriluvchi va rivojlanib boruvchi hodisa sifatida qaraladi.Ilmiy tafakkur insonni har qanday axborotni tanqidiy baholashga, uning manbalarini tekshirishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Bu esa noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bugungi axborot asrida bu juda dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy metod va uning ahamiyati:Ilmiy tafakkurning asosini ilmiy metod tashkil etadi. Ilmiy metod kuzatuv, tajriba, tahlil va umumlashtirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metod yordamida inson borliqni chuqurroq anglaydi va yangi bilimlar yaratadi.Ilmiy metodning ustunligi shundaki, u sub’ektivlikni kamaytirib, haqiqatga yaqinroq natijalarga erishishni ta’minlaydi. Shu sababli, ilm-fan sohasida aynan ilmiy metod asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi.

Zamonaviy jamiyatda ilmiy tafakkurning roli: Bugungi kunda ilmiy tafakkur nafaqat ilmiy doiralarda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalar rivoji, global muammolar va axborot oqimining ortishi insondan yuqori darajadagi tanqidiy fikrlashni talab etadi.Ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxs voqealarga chuqurroq yondashadi, mustaqil qaror qabul qiladi va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘shadi. Shu bois, ta’lim tizimida ilmiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda ilmiy tafakkur jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Texnologiyalar, tibbiyot, iqtisodiyot va ta’lim sohalaridagi yutuqlar aynan ilmiy yondashuv natijasidir.

Ilmiy tafakkur:

- insonni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi
- noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlashga yordam beradi
- muammolarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi
- innovatsion g‘oyalarni sh akllantiradi

Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan har qanday axborotni ilmiy tafakkurga ega inson darhol tekshiradi va uning ishonchliligini baholaydi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, epistemik tasavvur insonning bilimga bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. U shaxsning qanday fikrlashi, axborotni qanday qabul qilishi va uni qay darajada tahlil qila olishini aniqlaydi. Shu jihatdan, epistemik tasavvur nafaqat nazariy tushuncha, balki inson faoliyatining barcha jabhalarida namoyon bo‘ladigan amaliy hodisadir.Ilmiy tafakkur esa epistemik tasavvurning eng yuqori va mukammal shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U bilimni tasodifiy yoki sub’ektiv qarashlar asosida emas, balki aniq dalillar, tajribalar va mantiqiy tahlil orqali shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tafakkurga xos bo‘lgan ob’ektivlik, tizimlilik, izchillik va tanqidiy yondashuv insonni chuqurroq fikrlashga undaydi hamda har qanday masalaga asosli yondashishni ta’minlaydi.Shuningdek, ilmiy tafakkur epistemik tasavvurni rivojlantirish orqali insonni mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Bunday shaxs axborotni tanqidiy baholay oladi, turli manbalarni solishtiradi va eng ishonchli xulosaga kelishga intiladi. Bu esa ayniqsa bugungi kunda, ya’ni axborot oqimi keskin oshgan davrda nihoyatda muhimdir. Chunki turli noto‘g‘ri yoki asossiz ma’lumotlar keng tarqalayotgan bir sharoitda ilmiy tafakkur insonni bunday

xatolardan himoya qiluvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.Bundan tashqari, ilmiy tafakkur jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi aynan ilmiy tafakkurga asoslanadi. Shu bois, har bir jamiyat o‘z taraqqiyotini ta’minlash uchun yosh avlodda ilmiy tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Ta’lim tizimida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, ularni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

References .

1. Popper K. R. Ilmiy tadqiqot mantiqi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, (tarjima nashr).
2. Kuhn T. S. Ilmiy inqiloblar tuzilishi. — Toshkent: Ma’naviyat, (tarjima nashr).
3. Chalmers A. F. Fan nima? — Toshkent: O‘qituvchi, (tarjima nashr).
4.Audi R. Epistemologiya: bilim nazariyasiga kirish. — (tarjima manba).
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Falsafa”, “Bilish nazariyasi” bo‘limlari. — Toshkent, 2000–2005.
6. Fayzullayev O. Falsafa asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
7. Jo‘rayev N. Falsafa (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent: Sharq, 2019.
8. Oliy ta’lim muassasalari uchun “Falsafa” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar. — Toshkent, 2020–2024.
9. Internet resurslari: https://www.ziyonet.uz, https://www.edu.uz

JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDAN FOYDALANIB BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Otajanov Islom Amatovich
Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS USING THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS

Researcher of the Urgench State Pedagogical Institute
Otajanov Islom Amatovich

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ

Отажанов Ислом Аматович
Исследователь Ургенчского государственного педагогического института

Annotatsiya. Ushbu maqola jadidlar ma’naviy merosidan foydalanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini tahlil qiladi. Jadidlar harakati o‘z davrida ta’limda innovatsion yondashuvlar va metodlarni joriy etishga katta e’tibor qaratgan. Maqolada jadidlarning pedagogik g‘oyalari, metodik yondashuvlari va ma’naviy qadriyatlari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda qanday qo‘llanishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Jadidlarning ta’lim metodikasi va ma’naviy merosi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirishda qanday rol o‘ynashi, ularning ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qanday qo‘llashi mumkinligi muhokama qilinadi. Maqola, jadidlarning ma’naviy merosidan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarni tayyorlashda samarali metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Abstract. This article analyzes the methodology of developing the professional competence of future primary school teachers using the spiritual heritage of the ancients. In its time, the Jadidlar movement paid great attention to the introduction of innovative approaches and methods in education. The article examines how the pedagogical ideas, methodical approaches and spiritual values of the moderns can be used to improve the professional competence of teachers. It will be discussed how the educational methodology and spiritual heritage of the Jadids play a role in improving the qualifications of primary school teachers, how they can use innovative approaches in the educational process. The article is aimed at developing effective methods for improving the quality of education and training teachers using the spiritual heritage of the ancients.

Аннотация. В статье анализируется методика формирования профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов с использованием духовного наследия древних. В свое время движение Джадидлар уделяло большое внимание внедрению инновационных подходов и методов в образование. В статье рассматривается, как педагогические идеи, методические подходы и духовные ценности современников могут быть использованы для повышения профессиональной компетентности учителей. Будет обсуждено, какую роль образовательная методика и духовное наследие джадидов играют в повышении квалификации учителей начальных классов, как они могут использовать инновационные подходы в образовательном процессе. Статья направлена на разработку эффективных методов повышения качества образования и подготовки учителей с использованием духовного наследия древних.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, ma’naviy meros, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kasbiy kompetentlik, pedagogik metodika, ta’lim innovatsiyalari, metodik yondashuvlar, ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilar tayyorlash, ma’naviyat.

Key words: Jadids, spiritual heritage, primary school teachers, professional competence, pedagogical methodology, educational innovations, methodological approaches, improving the quality of education, teacher training, spirituality.

Ключевые слова: джадиды, духовное наследие, учителя начальных классов, профессиональная компетентность, педагогическая методика, образовательные инновации, методические подходы, повышение качества образования, подготовка учителей, духовность.

Kirish

Jadidlar harakati o‘z davrida ta’lim, madaniyat va ma’naviyat sohalarida yangilanishni va modernizatsiyani ta’minlashni maqsad qilgan. Ularning ta’lim sohasidagi g‘oyalari va amaliyotlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jadidlar ma’naviy merosi, xususan, o‘qituvchilar tayyorlash va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha metodik yondashuvlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ularning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissalari, pedagogik metodlari va ma’naviy qadriyatlari, yangi avlod o‘qituvchilarining malakasini oshirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqola jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini o‘rganadi. Jadidlar ta’limida yotgan asosiy tamoyillar — innovatsion yondashuvlar, pedagogik yangiliklar, va o‘qituvchi-oqituvchilik faoliyatida ma’naviyatning muhimligi — ushbu tadqiqotning asosiy mavzularidan biridir. Jadidlarning pedagogik amaliyotlari va ta’lim metodikasi zamonaviy ta’lim tizimida qanday integratsiya qilinishi mumkinligi, ularning kasbiy kompetentligini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Jadidlar ta’lim metodikasi, o‘z davrida yangilanish va taraqqiyotga intilish orqali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ularning uslublari va pedagogik yondashuvlari o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llashga tayyorlashda, shuningdek, ularning metodik va ma’naviy malakalarini oshirishda qanday yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, jadidlarning ta’lim sohasidagi o‘rni va ularning merosidan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlari tahlil qilinadi.

Ma’naviy merosdan foydalanish orqali ta’lim tizimini rivojlantirish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning ahamiyati, shuningdek, bu jarayonda qanday innovatsion yondashuvlar va metodikalar qo‘llanishi mumkinligi, maqolamizning asosiy maqsadi va vazifalari bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili (sharhi).

Jadidning (1912) bu asari jadidlarning ta’lim va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarini o‘z ichiga oladi [4]. Jadidlar ta’lim tizimida innovatsion metodlarni va yangi pedagogik uslublarni joriy etishga e’tibor qaratgan. Ushbu asar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy metodlarni qanday qilib qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Maqola jadidlarning o‘qituvchilar tayyorlashdagi yondashuvlari va metodikalarini zamonaviy ta’lim tizimiga qanday integratsiya qilish mumkinligini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.

Ismoilov (2008) jadid pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimiga ta’sirini o‘rganadi va jadidlarning pedagogik g‘oyalari qanday qilib yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlashda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi [2]. Ularning ta’lim metodikasi va pedagogik prinsiplarini o‘rganish, jadidlarning ma’naviy qadriyatlari va ta’limga bo‘lgan yondashuvlarini tahlil qilish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga qanday hissa qo‘shish mumkinligini aniqlaydi. Ushbu tadqiqot, jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanish orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning qanday usullari borligini ko‘rsatadi.

Mamatkulov (2015) jadidlarning pedagogik metodlarini va ularning ta’limdagi innovatsiyalar bilan qanday integratsiya qilinishini tahlil qiladi [6]. Maqolada jadidlarning metodik yondashuvlari, o‘qituvchilarning malakasini oshirishdagi roli va ularning samaradorligi muhokama qilinadi. O‘qituvchilarning pedagogik metodlarini zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llash orqali qanday innovatsiyalar amalga oshirilishi mumkinligi va buning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Akramov (2019) jadid ta’limining zamonaviy pedagogikaga integratsiyasini o‘rganadi [1]. Tadqiqot jadidlarning pedagogik metodlari va yondashuvlarini zamonaviy ta’lim tizimiga qanday integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Ularning metodologik yondashuvlari va ma’naviy qadriyatlari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qanday qo‘llanishi mumkinligi haqida chuqur tahlil qiladi. Maqola jadidlarning ta’lim metodikasi va ularning zamonaviy ta’lim tizimida qanday ishlatilishi mumkinligini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Karimov (2021) jadidlarning pedagogik merosini va uning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rnini o‘rganadi [7]. Maqolada jadidlarning ta’lim sohasidagi g‘oyalari va metodik yondashuvlarining ta’lim sifatini yaxshilashdagi rolini tahlil qiladi. Ularning pedagogik uslublari va ma’naviy qadriyatlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qanday qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot, jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirishning samarali usullarini aniqlashda yordam beradi.

Ushbu adabiyotlar jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanish va ularning pedagogik metodlarini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qanday qo‘llash mumkinligini tushunishda muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Jadidlarning ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlari va metodikalarini tahlil qilish orqali, ularning ta’limdagi o‘rni va zamonaviy pedagogikaga qo‘shgan hissalari aniqlanadi.

Muhokama

Jadidlarning ta’lim metodikasi va pedagogik yondashuvlari bo‘yicha olib borilgan tahlil, ularning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qanday samarali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Jadidlarning ta’limdagi innovatsion yondashuvlari, metodikalar va ma’naviy qadriyatlari zamonaviy pedagogikaga qanday integratsiya qilinishi mumkinligi haqida quyidagi asosiy fikrlarni keltirish mumkin:

Innovatsion yondashuvlar: Jadidlar ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga katta e’tibor qaratgan. Ularning pedagogik metodlari, xususan, o‘qituvchilarni tajriba asosida tayyorlash, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish usullari, hozirgi kunda ham samarali hisoblanadi. Bu metodlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda ham foydalanilishi mumkin.

Ma’naviy qadriyatlar: Jadidlarning ma’naviy qadriyatlari, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga ma’naviy va axloqiy tamoyillarni o‘rgatish bo‘yicha o‘tkazgan ishlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy qadriyatlarni o‘qituvchilar malakasini oshirishda integratsiya qilish, ularning ma’naviy va axloqiy bilimlarini mustahkamlashda yordam beradi.

Pedagogik metodlar: Jadidlarning pedagogik metodlari zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llash uchun moslashuvchan va innovatsiondir [5]. Ularning metodik yondashuvlari, masalan, amaliy mashg‘ulotlar, individual va guruh bo‘yicha ishlash, va tajriba almashish jarayonlari, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy integratsiya: Jadidlarning ta’lim metodikalarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish jarayoni, ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo ular ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Jadidlarning pedagogik yondashuvlarini va metodologiyalarini zamonaviy pedagogik kontekstda qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishi mumkin [3].

Natija

Jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonini yaxshilashda katta imkoniyatlar yaratadi. Ularning innovatsion yondashuvlari va pedagogik metodlari zamonaviy ta’lim tizimida

qo‘llanilsa, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Jadidlarning pedagogik g‘oyalari va metodikalarining o‘rganilishi, ularning zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda yangi yondashuvlarni taklif qiladi. Ushbu metodikalar va yondashuvlar, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘qituvchilarning malakasini rivojlantirish va o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, jadidlarning ta’lim metodikasi va ma’naviy qadriyatlarini zamonaviy pedagogikaga integratsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirish uchun samarali strategiyalar va metodlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa.

Jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim tizimining sifatini oshirish va pedagogik jarayonlarni yanada takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga yordam berdi:

1. Jadidlarning ta’limdagi innovatsiyalari: Jadidlar ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o‘ynagan. Ularning pedagogik metodlari, tajriba asosidagi o‘qitish, ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatish, va individual yondashuvlar hozirgi kunda ham samarali bo‘lib qolmoqda. Ushbu metodlarni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirishda qo‘llash mumkin.

2. Ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati: Jadidlarning ma’naviy qadriyatlari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy va axloqiy tamoyillarni o‘rgatish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida ma’naviy yondashuvlarini mustahkamlashda yordam beradi.

3. Pedagogik metodlarning integratsiyasi: Jadidlarning pedagogik metodlari va yondashuvlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

4. Zamonaviy ta’lim tizimidagi qo‘llanilishi: Jadidlarning ta’lim metodikalarini zamonaviy pedagogik kontekstda qo‘llash, yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion usullarni kiritishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida, ta’lim tizimida yanada samarali metodlarni ishlab chiqish va qo‘llashga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning pedagogik yondashuvlari va ma’naviy qadriyatlaridan foydalanish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yangi va samarali strategiyalarni taklif etadi. Jadidlarning ta’lim metodikasi va ma’naviy merosi zamonaviy ta’lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim resurs sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramov, A. (2019). Jadid ta’limining zamonaviy pedagogikaga integratsiyasi: Teoriya va amaliyot. Tashkent: Akademnashr.
2. Ismoilov, R. (2008). Jadid pedagogikasi va uning zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri. O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi Nashriyoti.
3. Ismoilov, A. (2019). *Jadidlar va ularning ta’limiy faoliyati*. Samarqand Matbaasi.
4. Jadid, A. (1912). O‘qituvchilarni tayyorlash va ularning pedagogik metodikasi. Tashkent: Jadid Matbaasi.
5. Tursunov, N. (2018). *O‘zbek ta’limi tarixida jadidlarning roli*. Toshkent Akademiya.
6. Mamatkulov, I. (2015). Ta’limdagi innovatsiyalar: Jadidlarning pedagogik metodlari va ularning samaradorligi. Journal of Modern Education, 22(4), 45-59.
7. Karimov, N. (2021). Pedagogik meros va ta’lim sifatini oshirish: Jadidlar misolida. International Journal of Educational Research, 30(2), 67-82.

EKSPERIMENTAL GURUHLARDA ILMIY YOZUV KOMPETENSIYASINING RIVOJLANISH DINAMIKASI.

Indira Rahimova Qudrat qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Tayanch doktoranti
irakhimova123@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada lingvistika va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar misolida eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – maxsus ishlab chiqilgan akademik yozuv dasturi va topshiriqlar tizimi ta’sirida talabalarning ilmiy yozuv bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari o‘zgarishini aniqlash hamda bu jarayonning bosqichma-bosqich dinamikasini ko‘rsatishdan iborat. Ishda pedagogik eksperiment, diagnostik testlar, portfel tahlili va statistik qayta ishlash usullari qo‘llanib, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda ilmiy matn rejalashtirish, manbalar bilan ishlash, plagiatdan qochish va IMRAD strukturasi bo‘yicha kompetensiyalar sezilarli ravishda oshdi. Munozara bo‘limida ilmiy yozuvni o‘qitishning raqamli texnologiyalar

bilan uyg‘unlashgan modeli, akademik halollikni shakllantirish omillari va mazkur modelni boshqa fanlar bo‘yicha o‘qitish tizimiga transfer qilish imkoniyatlari yoritiladi.

Tayanch iboralar: *ilmiy yozuv kompetensiyasi; akademik yozuv; eksperimental guruh; dinamik rivojlanish; IMRAD formati; plagiat va akademik halollik; raqamli ta’lim texnologiyalari; diagnostik baholash; lingvistik ta’lim; universitet talabalari.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyati va akademik yozuv madaniyatiga qo‘yilayotgan talablar sezilarli darajada kuchayib, talabalardan ilmiy maqola, tezis va bitiruv ishlarini xalqaro standartlar asosida yozish kutilmoqda. Ilmiy yozuv kompetensiyasi – bu talabaning ilmiy g‘oyani mantiqan asoslangan, tizimli va halol shaklda yozma matn ko‘rinishida ifodalay olish qobiliyati bo‘lib, u nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ilmiy tafakkur, axloq va axborot madaniyatini ham qamrab oladi. Xalqaro amaliyotda ilmiy maqolalar uchun IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) formati universal standart sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, bu formatni talabalarga bosqichma-bosqich o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuvlar hali ham izchil takomillashtirilmoqda.

Mavjud tadqiqotlar akademik yozuvni o‘qitish samaradorligi ko‘pincha darslik va nazariy ma’lumotlarga tayyorlanishi, amaliy yozuv faoliyati, keng o‘qish va refleksiv tahlil elementlari esa yetarli darajada integratsiyalashmaganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, plagiatga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy va texnik vositalar joriy etilayotganiga qaramay, talabalarning intellektual halollik tamoyillarini ongli ravishda qabul qilishi va ichkilashtirishi ko‘p jihatdan akademik yozuv darslarining mazmuni va metodikasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini o‘rganish, samarali o‘qitish modelini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.Mazkur tadqiqotning maqsadi – lingvistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardan tashkil topgan eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining bosqichma-bosqich rivojlanish dinamikasini aniqlash va tahlil qilishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: talabalarning dastlabki (diagnostik) ilmiy yozuv darajasini aniqlash; IMRAD formatiga asoslangan o‘quv moduli va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; pedagogik eksperimentni o‘tkazish; oraliq va yakuniy baholash natijalarini solishtirish; kompetensiya rivojlanishining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Metodlar

Tadqiqot dizayni

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi; bunda mavjud akademik guruhlar saqlangan holda ulardan eksperimental va nazorat guruhlari sifatida foydalanildi. Kvazi-eksperimental yondashuv real o‘quv jarayonini buzmagan holda yangi metodikani amaliyotga sinov tariqasida tatbiq etish imkonini berdi. Eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv

Mustaqil Respublikamizni har sohada rivojlantirishning negizini tashkil etuvchi ilm-fanni taraqqiy ettirishda jamiyatimiz har bir a’zosining tashabbuskor, g’ayratli, bilimli, qobiliyatli, ijodkor va axborot madaniyatli bo‘lishligi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbusning uchinchisi “Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish”ga qaratilgan. Yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga oid bilimini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish zarur. Bular qatorida hozirgi kunda horijiy va mahalliy ta’lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinayotgan blended learning (aralash ta’lim) texnologiyasi alohida o‘rin tutadi.

Blended learningni yuzma-yuz o‘qitish va onlayn o‘qitish aralashmasi sifatida olish mumkin. Talabalar o‘qish joyida (ta’lim muassasasida, uyda yoki biron-bir joyda) va o‘qish paytida (dars soatlarida, kechqurun yoki dam olish kunlari) tanlov qilishadi. Ammo o‘qituvchi tanlovning qay darajada bo‘lishini, shuningdek, o‘quvchining qaysi elementlari onlayn rejimida va qaysi elementlar auditoriyada bajarilishini hal qiladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanib borayotganligi sababli o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar ular foydalana oladigan umumiy onlayn muhitga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘qituvchiga bilan suhbatlashishi, bilimlari bilan o‘rtoqlashishi, savollar berishlari, o‘quv manbalariga kirishlari va Internetda to‘liq ishlashi mumkin bo‘lgan onlayn tadbirlarni tashkil etish va boshqarish imkonini beradi - tasodifiy internet foydalanuvchilari bu ma’lumotlarga qiynalmasdan kiradilar. Ta’limda foydalanish uchun ko‘plab raqamli manbalar mavjud. Bunga o‘quv videofilmlari, interfaol o‘quv o‘yinlari va o‘quvchilarga video, animatsiya, web-sahifalar, musiqa va boshqa imkoniyatlari beradigan dasturlar kiradi. Bularning barchasi ta’lim oluvchilarni jalb qilish va mustaqil ishlashga yordam beradi.

Blended learning – an’anaviy va elektron ta’lim shakllarining eng yaxshi usullarini o‘zida mujassamlashtirgan ta’lim shakli hisoblanadi. An’anaviy ta’limda talabani o‘qitadilar, blended learningda esa – o‘qishga o‘rgatib, mustaqil faoliyatini tashkil qiladilar.

An’anaviy ta’limda markazda – o‘qituvchi (teacher-centered), blended learningda esa - talaba (student-centered) markazda bo‘ladi. Bunda talaba ko‘p ishlaydi va muvaffaqiyatlari uning o‘ziga bog’liq.

Sloan konsorsiumi (The Sloan Consortium) ma’lumotlariga ko‘ra, amerikalik talabalarning 60% dan ko‘prog‘i blended learning texnologiyasini odatdagidan ko‘ra samaraliroq deb hisoblashadi. Bu texnologiyaning afzalliklarini ko‘rib chiqamiz.

1. Ta’lim jarayonining moslashuvchanligi. Bu texnologiyaga istalgan o‘qituvchi va talabalarni jalb qilish mumkin. O‘qituvchilar hatto boshqa davlatda bo‘la turib ham vebinarlar o‘tkazishlari mumkin; talaba elektron o‘quv manbalariga o‘zi uchun qulay bo‘lgan vaqtda istalgan joydan kirishi va foydalanishi mumkin.

2. Ta’lim jarayonining shaffofligi. Imtihonlar kompyuterda topshirilishi sababli talaba obyektiv baholanadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalar va o‘qituvchiga muntazam ravishda o‘zaro muloqotlarni olib borishga imkon beradi, bu ularning bir-birlarini yaxshiroq tushunishlarini anglatadi.

3. Har bir talabaga shaxsiy yondashuv. O‘qituvchilar talabalarning shaxsiy xususiyatlariga qarab o‘quv materialining murakkabligi va hajmini belgilashi mumkin. Turli modellarning kombinatsiyasi har bir talabani o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlantirishga imkon beradi.

4. Mustaqillikning rivojlanishi. Talaba o‘z vaqtini to‘g‘ri rejalashtirib, samarali foydalanishni va intizomni o‘rganadi. Aks holda, bu tizim yordamida muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

5. Motivatsiyani oshirish. Hozirgi zamon talabalari shunchaki o‘rganishni emas, balki ta’lim jarayonining interfaol va qiziqarli bo‘lishini xohlashadi, shu bilan bir qatorda vebinarlarda ishtirok etib, forumlarda munozaralar o‘tkazadilar va turli xil dasturlarni o‘zlashtiradilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ayollarning har sohada, xususan ta’lim tizimidagi faolligi mamlakat kelajagi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonlarida ta’lim sifatini oshirish uchun blended learning texnologiyasidan samarali foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishga erishish mumkin. O‘qituvchilar maktabda yoshlarga sifatli ta’lim berishlari uchun ular oliy ta’lim muassasasida zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”. T.:- “O`zbekiston” 2017-yil, 45-b.
2. Driscoll M. Blended Learning: Let’s Get Beyond the Hype. IBM Global Services. https://www07.ibm.com/services/pdf/blended_learning.pdf.
3. Huang R., Ma D., Zhang H. Towards a Design Theory of Blended Learning Curriculum. Heidelberg: Springer, 2008. – P. 2.
4. Rooney J.E. Blending learning opportunities to enhance educational programming and meetings. Association Management, 2003.55(5), 26–32.
5. Watson, J. F. (2008). Blended learning: The convergence of online learning and face-to-face education. http://www.inacol.org/resources/promisingpractices/NACOL_PPBlendedLearning-lr.pdf.

TALABA QIZLARNING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRISH, GENDER TENGLIK VA OILA MASALALARI

Abdullayeva Asal Ilxomovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, o‘zbek millatining o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni, gender tenglik va oila masalalari yoritilgan bo‘lib, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, oila, ayol, gender tenglik, ma’naviyat, millat, an’ana.

Abstract. This article reflects the issues of increasing the role of women in society, the formation and enhancement of the identity of the Uzbek nation, the role of family, family, gender equality and family, their attitude to the family, and the role in public life.

Key words: society, family, woman, gender equality, spirituality, nation, tradition.

Uchinchi Renesansga qadam qo‘yayotgan yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida fidokorona mehnatda aynan ayollarimizning alohida o‘rni borligi ko‘ngilda faxr tuyg‘usini yuksaltiradi. Zotan, ayoli e’zozlangan yurtda yashashning o‘zi saodat, shunday emasmi?! “Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma’naviy darajasini avvalo shu yurt ayollarining ma’naviy saviyasi belgilaydi. Bugungi kunda dunyoda “fidoyi” degan so‘zga eng munosib bo‘lgan Ona siymosi oldida ta’zim qilamiz. Hayotimiz quvonchi, xonadonlarimiz ko‘rki bo‘lmish aziz ayollarimiz sha’niga eng go‘zal tilaklarimizni izhor etamiz. Ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo‘jizasi bo‘lib kelgan va hamisha shunday bo‘lib qoladi", – deydi hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev.

Ma’lumki, ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biri sifatida qarab kelingan.

O‘zbek millatining o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.

O‘tgan yillarda mamlakatimizning qator xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lgani inson huquqlari, jumladan, ayollarning huquqlarini himoya qilish sohasida muhim hisoblangan Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishlarni tugatish to‘g‘risidagi, Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi, Ayol va erkaklarni bir xil qiymatga ega mehnat uchun bir xil rag‘batlantirish to‘g‘risidagi, Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyalar, Pekin platformasi va Harakatlar rejasi kabi xalqaro hujjatlarga qo‘shilishga asos bo‘ldi. Bundan tashqari, gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarida asosiy maqsadlarning biri sifatida belgilandi.

Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun hamma joyda barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ularga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy

ekspluatatsiya hamda ekspluatasiyaning boshqa shakllarini, erta nikohlar va zo‘rlab nikohlashni tugatish kabi qator chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-81-son Farmoniga binoan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasini, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida esa Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha olib borilayotgan tizimli ishlar bugungi kunda ayollarga bo‘lgan e’tiborning qay darajada ekanligini ko‘rsatadi. [1]

Ayollarning huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar ichida O‘zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi qonuni alohida o‘rin egallaydi. Mazkur qonunda xotin-qizlarga nisbatan jamiyatda uchraydigan barcha turdagi tazyiq hamda jinsiy, jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlari aniq belgilab quyilgan.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasiga yordam ko‘rsatish, maslahat berish mexanizmi hamda chora-tadbirlari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish to‘g‘risida axborot olishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida tunu kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog‘i (ishonch telefoni) ishlab turishini ta’minlash tizimi ham joriy qilinganligi o‘z muddatida kiritilgan qoidalardan biri bo‘ldi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning nafaqat kundalik turmushda, jamiyatimizda ham mavqei, nufuzi oshib bormoqda.

Millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei ham har jihatdan yuqori baholanmoqda. Jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar e’tirofiga ko‘ra, O‘zbekiston ayollar uchun munosib muhit yaratgan mamlakatlar qatoriga kiritilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda azal-azaldan muhtarama ayollarga yuksak ehtirom ko‘rsatib kelinadi.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida O‘rta Osiyo xalqlarining o‘tmishini o‘rganish va unda ayollarning tutgan o‘rni, maqomi va albatta ma’rifati darajasini aniqlash o‘sha davrning madaniyati va ma’naviyati darajasini ham belgilashga zamin yaratadi. Shu o‘rinda, bugungi O‘rta Osiyo ayolining jahon miqyosida topayotgan shuhrati, ularning ilm sohasida, iqtisodiyot, ma’naviy-ma’rifiy sohada qilayotgan mehnatlari, yurt taraqqiyotiga qo‘shayotgan sezilarli hissalarini alohida ta’kidlab, ayollarning o‘tmishda ham shunday ajdodlari borligini faxr va g‘urur to‘yg‘usiga aylantirish bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng muhim vazifadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-81-son Farmoniga binoan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasini, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida esa Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha olib borilayotgan tizimli ishlar bugungi kunda ayollarga bo‘lgan e’tiborning qay darajada ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son Farmoniga Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida yurtimizda birqancha ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar» doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida «Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish» belgilangan.

Ushbu maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning o‘z huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishida ularni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi dasturlarni kengaytirish talab etiladi.

2022 — 2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur (keyingi o‘rinlarda — Milliy dastur) xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Milliy dastur O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida«, «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida», «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining «2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida»gi qarori, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Xullas, o‘zbek ayolining ma’naviyati millatning nafaqat o‘tmishi va buguni, balki kelajagining ham asosiy o‘lchovi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-81-сон Фармони. 2022 йил 1 март.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги ПҚ-5020-сонли “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021 й.
3. Саидова Б. Н. Аёллар таълимини қўллаб-қувватлашда маърифатпарвар аёллар ўрни //Современное образование (Узбекистан)-2021.-№.1 (98).-С.12-17.
4. Саидова Б. Н. The role of women educators in supporting women's education //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1. – С. 12-17.
5. Narzullaevna S. B. The Influence of Islam on the Formation of Womens Education System in the Middle Ages //JournalNX. – С. 204-206.
6.Мирзаева Ф. О. Развитие межличностных взаимоотношений у будущих учителей в условиях современности //Наука и образование сегодня. – 2018. – №. 2 (25). – С. 57-58.
7.Вохидова Н. Х., Халикова З. М. Развитие системы образования в Республики Узбекистан //Europaische Fachhochschule-2016. – №. 4. – С. 23-24.
8.Shamsitdinovna M. A. Local-modular technology for developing social competencies in students //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 56-61.

PEDAGOGIK TA’LIMDA MAFKURAVIY TAHDID TUSHUNCHASI TAVSIFI

Jo‘raboyev Xolmuhammad Abdulhakimovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada mafkuraviy tahdid tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ildizlari, bugungi globallashuv sharoitida namoyon bo‘layotgan shakllari, jamiyat va yoshlar hayotiga ta’siri, shuningdek, unga qarshi kurashish mexanizmlari tizimli tarzda yoritiladi. Tadqiqotda O‘zbekistonning mafkuraviy xavfsizlik siyosati, milliy g‘oya asosidagi immunitet yaratish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida mafkuraviy tahdidlarning xalqaro miqyosdagi ko‘rinishlari va ularning oqibatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy tahdid, mafkuraviy xavfsizlik, milliy g‘oya, ideologik kurash, axborot urushi, mafkuraviy immunitet, yoshlar tarbiyasi, g‘oyaviy profilaktika, kiberxavfsizlik.

XXI asrda harbiy tahdidlar bilan bir qatorda mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot tahdidlari ham davlatlar milliy xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Har qanday jamiyatning ideologik barqarorligi — bu uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Ayniqsa, global axborot oqimi tezlashgan hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar turli shakllarda — diniy ekstremizm, axborot manipulyatsiyasi, madaniy ekspansiya va g‘oyaviy iskanjada namoyon bo‘lmoqda.

Mafkuraviy tahdidlar inson ongiga, qarashlariga va hayotiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan eng xavfli vosita sifatida baholanadi. Shu sababli har bir davlat, har bir jamiyat o‘z mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash, aholining, ayniqsa yosh avlodning g‘oyaviy immunitetini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mafkuraviy tahdid tushunchasi va uning nazariy asoslari. “Mafkura” tushunchasi qadimdan mavjud bo‘lib, u jamiyatning dunyoqarashi, maqsadi va qadriyatlarini ifodalaydi. “Mafkuraviy tahdid” esa — bu yot g‘oyalar, axborot yoki mafkuralarning jamiyatga, milliy g‘oyaga, davlat barqarorligiga tahdid soluvchi shaklda ta’sir ko‘rsatishidir. U quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

• Nishoni – inson ongini egallash;
• Vositasi – ommaviy axborot vositalari, internet, ta’lim;
• Ko‘rinishi – diniy, siyosiy, madaniy, texnologik va ijtimoiy;
• Oqibati – fuqarolik nizolari, milliy o‘zlik yo‘qolishi, radikalizm.

Tarixiy jihatdan, mafkuraviy tahdidlar Sovuq urush davrida AQSh va SSSR o‘rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshilikda o‘z aksini topgan. Bugungi kunda esa bu kurash “yumshoq kuch” (soft power) shaklida davom etmoqda.

2. Mafkuraviy tahdidlarning asosiy shakllari

a) Axborot urushlari:

Dunyo miqyosida axborotlar yordamida yolg‘on narrativlar, manipulyatsiyalar orqali jamiyatda ishonchsizlik, ruhiy zo‘riqish va ijtimoiy keskinlik keltirib chiqariladi. Masalan, “Arab bahori” inqiloblarida ijtimoiy tarmoqlar asosiy vosita bo‘lgan.

b) Diniy ekstremizm:

Yoshlarni radikal yo‘nalishlarga og‘dirish, islom dini niqobi ostida terrorizm va ekstremizmni targ‘ib qilish — bu mafkuraviy tahdidning eng xavfli ko‘rinishlaridan biridir.

c) Madaniy ekspansiya va globallashuv:

Yot madaniyat, iste’molchilikka asoslangan turmush tarzi, shaxsiy manfaatni umumiy qadriyatlardan ustun qo‘yish — bu jamiyatda individualizm va milliy qadriyatlarning yemirilishiga olib keladi.

d) Kiberxavfsizlik tahdidlari:

Kiberfazodagi tahdidlar, yolg‘on axborotlar, tahdidli saytlar, radikalizm targ‘ib qiluvchi kontentlar mafkuraviy xavfsizlikni zaiflashtiradi.

3. Mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy hayotga ta’siri

• Yoshlar orasida radikal qarashlarning kuchayishi;
• Fuqarolar orasida befarqlik, davlat va jamiyatga ishonchsizlik paydo bo‘lishi;
• Ijtimoiy nizolarning kelib chiqishi;
• Milliy qadriyatlarning zaiflashuvi va g‘arbona turmush tarzining ustuvorligi.

Masalan, ayrim mamlakatlarda radikal guruhlar ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni yollash, manipulyatsiya qilish orqali mafkuraviy nazoratni qo‘lga kiritgan.

4. O‘zbekistonda mafkuraviy tahdidlar va unga qarshi kurashish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida mafkuraviy tahdidlarga qarshi

kurashish borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi:

• “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” konsepsiyasi asosida ma’naviy-mafkuraviy ishlarni rivojlantirish;

• Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar ittifoqi” va boshqa tashkilotlar orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;

• Ta’lim dasturlariga “ma’naviyat asoslari”, “axborot xavfsizligi”, “diniy savodxonlik” fanlarini joriy etish;

• Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy kontentlarni ko‘paytirish, g‘oyaviy targ‘ibot guruhlarini faollashtirish.

5. Mafkuraviy immunitet va himoya mexanizmlari. Mafkuraviy immunitet — bu shaxsning yot va zararli g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyati, ongli tanqidiy fikrlashga ega bo‘lishidir. U quyidagilarga asoslanadi:

• Ma’rifiy immunitet – bilim va savodxonlikka tayanadi;

• Milliy qadriyatlarga sodiqlik – ajdodlarga hurmat, tarixiy xotirani asrash;

• Axborot madaniyati – internetdagi axborotlarni tahlil qilish qobiliyati;

• Ijodiy fikrlash va tanqidiy yondashuv – g‘oyalarga emas, faktlarga tayangan qarorlar chiqarish.

Bugungi tahlikali dunyoda mafkuraviy tahdidlar shunchaki g‘oyaviy ziddiyat emas, balki jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi vositadir. Ayniqsa, yoshlar ongiga bo‘lgan mafkuraviy hujumlar, ularning tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi — jamiyatni ichidan yemirish xavfini tug‘diradi. Shu bois, har bir fuqaroda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g‘oya va qadriyatlar asosida tarbiya berish eng muhim strategik vazifadir. Bu yo‘lda davlat, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, oilalar va jamoatchilik bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Tursunov B.Q. “Mafkuraviy xavfsizlik: nazariy va amaliy asoslar.” – T.: Iqtisodiyot, 2021.
3. Abdullaeva M. “Axborot urushlari va g‘oyaviy tahdidlar.” – T.: Innovatsiya, 2020.
4. Huntington S. “Civilizations Clash?” Foreign Affairs Journal, 1996.
5. www.yoshlar.gov.uz – O‘zbekiston Yoshlar agentligi rasmiy sayti.
6. www.unesco.org – YUNESKOning axborot xavfsizligi bo‘yicha hisobotlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyatni yuksaltirish”ga oid farmon va qarorlari (2020-2024 yy).

TA’LIMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNING SUITSID PROFILAKTIKASIGA TA’SIRI: HOLAT VA TENDENSIYALAR

Jo‘raboyev Xolmuhammad Abdulhakimovich

Annotatsiya. Harbiy xizmatchilardagi qo‘rquv, xavf-xatarlarni diagnostika qilish bugungi kunda harbiy psixologiya, harbiy tibbiyot va psixologiyaga oid soha mutaxassislarining asosiy muammosi sifatida kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri inson psixikasini o‘rganish yoki xavf-xatarni, qo‘rquvni o‘lchab olish, aniqlash bo‘yicha yagona standartdagi metodikalarning mavjud emasligidir. Shu sababdan bugungi kunda xavf-xatarlarni aniqlash uni boshqarish bo‘yicha eng ilg‘or xorij tajribalarni o‘rganish, ularni milliy armiyamizga mostlashtirish, standartlashtirish soha mutaxassislarining vazifalarilaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada qo‘rquv, xavf-xatarlarni aniqlash ularni diagnostika qilish va boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi va nazariyalar hamda psixodiagnostik metodikalar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: emotsiya, qo‘rquv, tahdid, boshqaruv, xavf-xatar, ilg‘or tajriba, psixodiagnostika, profilaktika, profilaktika qilish usullari, ilmiy asoslangan psixologik metodikalar ijtimoiy-psixologik kompetensiya, autopsixologik kompetensiya, kognitiv dissonans, suitsid, baholashning ekspert usullari va mezonlari, xalqaro standart talablar, harbiy xizmatchilar.

Jamiyat rivojlanishi tarixini o‘raganish shuni ko‘rsatmoqdaki, ilk moddiy va ma’naviy madaniyat maskanlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, psixologik to‘qnashuvlar o‘ziga xos tarzda Mashriq zaminida ham ro‘y berib turgan. Uning ayrim belgilarini bugungi xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida qoraladigan namunalarda ham kuzatish mumkin. Bu xususiyat asosan tarix falsafa, adabiyotshunoslik va etnografiya fanlarida ularning nuqtai-nazari asosida o‘rganilgan. Tarixiy, psixologik adabiyotlar va boshqa ilmiy-amaliy manbaalarning tahliliy natijalari asosida “psixologik to‘qnashuv”ning o‘sha davrda eng ko‘p tarqalgan turlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Mish-mishlar tarqatish;

G‘iybatlar uyushtirish;

Ig‘vo va boshqalar.

Ta’kidlab o‘tish kerakki, hali “psixologik to‘qnashuv”ga ilmiy psixologik urg‘u berilganligiga hamda ilmiy asosi yaratilganligi tufayli uni “ilmiy asosga ega bo‘lmagan psixologik kurash” deb ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular faqatgina shaxsiy himoya va raqib (yovuz kuch)ga ta’sir ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan bo‘lib ijobiy tus kasb etgan va ular vazifasining ko‘lami ancha chegaralangan edi. Tarixiy rivojlanish bosqichi davomida psixologik kurash xarakteri o‘zgarib, ta’sir doirasi kengayib, undan aniq bir siyosiy maqsad sari foydalanish uchun sharoit vujudga keldi. Bu yaratilgan zamin, fikrimizcha, hududlarning bo‘linishi, resurslarning taqsimlanishi va chegaralarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Endilikda ular yordamida nafaqat shaxsiy maqsadda yovuzlikka qarshi kurashishda, balki siyosiy partiyalarning faoliyatda, siyosiy

etakchilarning imidji uchun, umuman davlat boshqaruvida mukammal tarzda foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, texnolok rivojlanishi davrida psixologik kurashlar nafaqat inson hayotida balki jamiyat hayotida ham o‘ziga xos tarzda muhim o‘rin egallangan. Ulardan turli maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanilishiga qaramasdan, psixologik kurashlar bevosita inson ongi tasavvuri va idrokiga qaratilgan. Undan o‘rinli foydalanishni o‘zlari uchun maqsad qilib olgan tomon uchun kerakli ijtimoiy tasavvur va utanovkalarni shakllantirish masalasi maxsus “zamonaviy urush” sifatida qo‘llab kelinmoqda. Ammo uning o‘ziga xos xarakteri o‘ta murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki psixologik kurashni olib borish, qo‘llash vosita va usullarining rang – barangli ya’ni qator qo‘layliklarga (arzon, qo‘llanish usullarining ko‘pligi va h.k.)ga ekanligi tufayli aniqlanishi ancha murakkabdir. Ta’kidlash lozimki ulardan nafaqat siyosiy maqsadlarda, balki ijtimoiy munosabatlarni ijobiylashtirish maqsadlarida ham foydalanilgan. Shu asnoda, xilma – xil qarashlar qa ularni amalga oshirish yo‘llari yaratilgan.

Psixologik to‘qnashuvlar tarixiy va ijtimoiysiyosiy shart-sharoitlar hamda har bir davr bilan uzviy aloqadorlikda rivojlangan. Har bir davrning siyosiy almashunuvi rivojlanishi o‘zgacha tus olib, o‘ziga xos tarzda zamonaviy shaklga ega bo‘lib kelgan. Lekin psixologik to‘qnashuvlarning tarixiy ildizlari va ko‘rinishlari xalq va davlat bilan bir davrda rivojlanmagan. Ular insoniyat paydo bo‘lgan davrlardayoq vujudga kelishi ehtimoldan xoli emas. Mazkur fikr ilk psixologik kurashning maqsad va mazmuni aks ettirilgan tarixiy – ilmiy va amaliy manbaalardagi xulosalarda ko‘rish mumkin. Keyingi bosqichlarda esa, ya’ni davlat paydo bo‘lib evolyusion jarayonlar bosib o‘tilgan davrdan boshlab, mazkur holat siyosiy va harbiy tus ola boshlagan.

Davlat evolyusiyasiga, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarining tarixiga nazar solinganda, har qanday mamlakat tinchlik va barqarorlikni ta’minlashni o‘z siyosatining ustivor yo‘l sari o‘z taraqqiyotini ta’minlash maqsadida psixologik kurashdan ham foydalanilgan. Bu xususda qadimgi Rimlik olim Polney Makedonskiy shunday degan edi: “Har bir lashkarboshi urushni bir xalq bilan boshlashdan oldin, ularga taaluqli bo‘lgan o‘rf odat (ta’sir ko‘rsatish maqsadida etnik va etnomadaniy omil sifatida) tashkilot va harbiy nayranglarni chuqur o‘rganib olish shart”.

Mutafakkir harbiy nayrang deganda, raqibni aldash unga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan har qanday usul va vositalar nazarda tutilib, unga qarshi ish tutish uchun uni chuqur o‘rganib olishni tavsiya etgan. Bu yuqoridagi fikrlarni tasdiqlashda qo‘shimcha dalil hisoblanadi. Fikrimizcha, usha davr nuqtai nazari asosida psixologgik ta’sir ko‘rsatish uchun tanlangan o‘ziga xos usul hisoblanadiki, bu fikrni tegishli ma’lumotlar asosida hujum qilishning taktik vosita sifatida tanlanganligini isbotlash mumkin.

Bunda yolg‘on xabar, mish-mish va ig‘volardan keng foydalanganligi ba’zi manbalar (adabiyotlar ro‘yxatiga qaratilsin) dan ma’lumdir. Shuning uchun,

psixologik to‘qnashuv hujumlar u yoki bu tarzda siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy madaniy sohalarda olib borilgan (1-rasmga qaratilsin) deb ta’kidlash o‘rinlidir.

Psixologik kurash o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lib, bevosita psixologik to‘qnashuvlar nazariyasi (psixologik fanining yutuqlaridan (ilmiy izlanishlar natijalari, xulosalari va tavsiyalari) siyosiy maqsadlarni amalga oshirish maqsadida amaliyotga qo‘llanilishi nazarda tutiladi. Bunda shaxs nazariyasi, ijtimoiy munosabatlar konsepsiyasi va ijtimoiy guruhlar nazariyasiga tayanilib bu yo‘nalishlardagi ilmiy ma’lumotlar nazarda tutmoqda) va amaliyoti (aniq bir siyosatni targ‘ib etish ya’ni muvaffaqqiyatini ta’minlash maqsadida psixologiya fanining yutuqlaridan foylanish). Bu kunga qadar tadqiq etilgan ilmiy – ommaviy, ilmiy – harbiy va boshqa manbaalarda, psixologik to‘qnashuv tushunchasi va uning uning mazmun mohiyatiga ikki xil qarama qarshi fikr bildirgan. Manbaalarning birida esa axborot to‘qnashuvining bir qismi sifatida, keyingisida esa axborot to‘qnashuvi psixologik to‘qnashuvning bir qismi deb ko‘rsatilsada uning aniq tavsifi keltirilmaydi. Tadqiqotchi psixologiya fanlari doktori, professor, polkovnik V.G. Krisko esa umumiy tavsiflar asosida tasnif bilan chegaralanib qolgan.

T.K. Balashenko psixologik kurash tushunchasi deversion-ommaviylashuv faqat g‘arbiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishini ko‘rsatib o‘tadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan manbaalarda psixologik kurash tushunchasiga biryoqlama va faqat salbiy xarekterga ega bo‘lgan tarzda yondashilganligi aniqlanadi vaholanki uni xarakteridagi ijobiy jihatlari ham mavjud bo‘lib u nazarda chetda qolgan. Shuning uchun psixologik siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, axborot va deversion-terroristik yig‘indilarni qamrab olgan zamonaviy to‘qnashularning turi bo‘lib, inson ongiga kerakli g‘oyani singdirishga qaratilgan bo‘lib ijobiy va salbiy xarakterga egadir. Uni ijobiy jihati alohida mamlakat strategiyasini amalga oshirishini samaradorligini ta’minlash, yani mudofaa tafakkurini shakllantirish maqsadida ijobiy ustanovkalar berish, kerakli g‘oyalarni singdirish, jamiyatda ifodalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy og‘ishlarni silliqlash maqsadida turli usul va vositalar orqali olib boriladigan dasturiy-maqsadli tadbir. Uni maqsadi tanlangan siyosiy maqsadga erishishdan iboratdir.

Psixologik kurash o‘z maqsadiga ega ekanligi bilan birga, uning o‘ziga xos vazifalari ham mavjuddir (masalan T.G.Beloshenko uni faqat harbiy xizmatchilarni xalqi va mamlakatiga sodiqlik uchun bergan qasamyodiga sodiq qolmaslikka chorlashga qaratilgan deb ko‘rsatib o‘tadi. Psixologik kurash vazifalari siyosiy xarakteriga ega bo‘lib, tanlangan ob’ektga nisbatan o‘zgarishi mumkin. Ammo uning umumiy vazifalari ham borki, bularga quyidagilar kiradi.

Ijtimoiy – oqartuv vazifasi. U turli ko‘rinishda raqib (alohida shaxs, guruh yoki aholi tanlanishi mumkin) tafakkuri, hissiyotiga qaratilgan xatti-harakatlarni o‘zgartirishning turli vositalari (oddiy reklama, filmlar, radio va teleshoular, internetdan foydalanilish va b.) orqali maqsadi va yo‘nalishlarini o‘zgartirib tanlangan natijaga erishish uchun ta’sir ko‘rsatishdan ibarat. Bunda nafaqat alohida bir ob’ektga, balki kengroq bo‘lgan xalqaro ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun “ish” olib boriladi. Jahonda sodir bo‘lgan turli siyosiy, harbiy va boshqar holatlarning tahlili hattoki bu yo‘nalishda turli diplomatik yo‘llar va halqaro

tashkilotlarning yordamidan foydalanish, aniqrog‘i ularni shunga yo‘naltirib faoliyat yuritishlarini ko‘rsatmoqda. Ba’zida esa mediator orqali nafaqat siyosiy, balki harbiy yo‘nalishda maqsadli foydalanish kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida raqib aholisi va armiyasida tartibsizliklar, parokandalikni vujudga keltirishi mumkin;

Radio-elektron-psixologik hujum. Elektromagnit to‘lqinlari yordamida u yoki bu ob’ektga yo‘naltirilgan signallarga turli to‘siqlarni yaratib, bu orqali raqib psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatish, undan hukm chiqarish, to‘g‘ri yo‘l tanlashida xatoliklarga yo‘l qo‘yishi uchun “sharoit yaratib”, o‘zlarining maqsadlariga erishishdan iborat. Ta’kidlash lozimki, ba’zi mualliflar mazkur hujumni bir vaqtning o‘zidayoq axborot hujumi sifatida ham sharhlashgan.

Xullas, Markaziy Osiyo davlatlari misolida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotimizning natijalari asnosida psixologik to‘qnashuvlar o‘z xarakteriga ega bo‘lib, uning maqsad va mazmuni qo‘llanish jihatidan ajralib turadi. Buni psixologik kurashning xarakteri deb ko‘rsatib o‘tish mumkin. Chunki unda iqdsodiy, ijtimoiy, mafkuraviy yo‘nalishlarni qamrab olgan axborot-ma’lumotlar yig‘indisi jamlangan bo‘lib, u bevosita kishilar ongiga ta’sir o‘tkazishga qaratilgandir. Tadqiqod doirasida o‘rganilgan manbaalarning siyosiy-psixologik tahlili va olib borilgan qiyosiy tahlillarning xulosaviy ko‘rsatgichi sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Birinchidan, psixologik kurash qaysi yo‘nalish va maqsad sari qo‘llanilmasin, uning asosiy ob’ekti inson va uning ongi hisoblanib, uz ichiga iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, kurashlarni qamrab olgan;

Ikkinchidan, psixologik kurash ichki va tashqi guruhlarga bo‘linib, o‘z tuzilishi va xarakteri jihatlari bilan farqlanadi;

Uchinchidan, psixologik kurash usul va vositalari tanlangan ob’ektning xarakteriga qarab doimo rivojlanib, mukammallashib boradi;

To‘rtinchida, psixologik kurash har qanday to‘qnashuv va kurashlarning asosiy elementlaridan hisoblanib, konstruktiv va destruktiv xarakterlarga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Майерс Д. Социальная психология. – М.: “Олма - Пресс”, 2022.
2. Многомерные граицы Центральной Азии. Аналитическая серия. М-.: «Гендальф», 2020. 2.-97с.
3. Сентябрев А. Терроризм и идеология. Обозревтель №4., 2004;
4. Олишанский Д.В. Психология терроризма. - СПБ: “Петер”, 2022.- 288 с.

TALABALARNING MUSTAQIL BILIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI PEDAGOGIK IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Rasul Jumashev Ashirovich
Urganch shahar 23-son madaniyat markazi qoshidagi “Orazibon” raqs ansambli musiqa rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’limda talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini raqamli pedagogik vositalar asosida tashkil etish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Mustaqil ta’limning maqsadni belgilash, resurs tanlash, topshiriqni bajarish, hamkorlik, o‘zini nazorat qilish va refleksiya bosqichlariga mos raqamli vositalar tasnifi ishlab chiqilgan. Ta’limni boshqarish tizimlari, elektron kutubxonalar, bulutli servislar, videodarslar, virtual laboratoriyalar, adaptiv platformalar, elektron portfolio va sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Raqamli vosita samaradorligi uning ko‘pligi bilan emas, balki o‘quv maqsadi, topshiriq turi, talabaning tayyorgarligi va teskari aloqa mexanizmi bilan uyg‘unligi orqali belgilanishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, raqamli pedagogika, raqamli vosita, elektron ta’lim resursi, LMS, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, elektron portfolio, sun’iy intellekt, raqamli kompetensiya.

Аннотация. В статье теоретически и практически анализируются возможности организации самостоятельной учебной деятельности студентов на основе цифровых педагогических средств. Представлена классификация цифровых инструментов, соответствующая этапам целеполагания, выбора ресурсов, выполнения заданий, взаимодействия, самоконтроля и рефлексии. Обосновано, что эффективность определяется не количеством сервисов, а их согласованностью с учебной целью, типом задания, уровнем подготовки студента и механизмом обратной связи.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, цифровая педагогика, цифровые средства, электронный ресурс, LMS, саморегуляция, рефлексия, электронное портфолио.

Abstract. The article analyzes theoretical and practical opportunities for organizing university students’ independent learning through digital pedagogical tools. It classifies tools according to goal setting, resource selection, task performance, collaboration, self-monitoring and reflection. The effectiveness of technology is shown to depend on alignment with learning outcomes, task design, learner readiness and feedback rather than on the number of platforms used.

Keywords: independent learning, digital pedagogy, digital tools, e-learning resource, LMS, self-regulation, reflection, e-portfolio, digital competence.

KIRISH. Raqamli transformatsiya oliy ta’limning mazmuni, tashkiliy shakllari va talaba-o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni yangilamoqda. Axborotning tez yangilanishi sharoitida mutaxassisning faqat auditoriyada olingan bilimlari yetarli bo‘lmay qoladi; u yangi ma’lumotni mustaqil izlash,

ishonchliligini baholash, qayta ishlash, amaliy vaziyatga ko‘chirish va o‘z natijasini tahlil qilishga qodir bo‘lishi zarur. Shu sababli mustaqil ta’lim o‘quv rejasidagi auditoriyadan tashqari soatlar yig‘indisi emas, balki talabaning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan faoliyat sifatida talqin qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida masofaviy ta’lim va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish hamda talabalarda amaliy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi esa ta’lim, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun tizimli shart-sharoit yaratadi [3].

Amaliyotda elektron platformaning mavjudligi o‘z-o‘zidan samarali mustaqil ta’limni kafolatlamaydi. Ko‘pincha raqamli muhitga faqat ma’ruza matni, taqdimot va test joylashtiriladi; topshiriqni bajarish jarayoni, talabaning tanlov erkinligi, maslahat olish imkoniyati va refleksiyasi esa yetarlicha loyihalanmaydi. Bunday holatda texnologiya an’anaviy topshiriqni elektron shaklga o‘tkazadi, biroq uning didaktik mohiyatini o‘zgartirmaydi. UNESCO texnologiya ta’lim maqsadiga xizmat qilishi, tenglik, sifat va barqarorlik tamoyillari bilan baholanishi kerakligini ta’kidlaydi [4].

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Unda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik modellashtirish, tasniflash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil birligi sifatida raqamli vositaning nomi emas, balki uning bajaradigan pedagogik funksiyasi olindi. Bu yondashuv muayyan dastur yoki platforma o‘zgarganda ham tavsiyalarning metodik ahamiyatini saqlash imkonini beradi.

Vositalar quyidagi mezonlar asosida baholandi: o‘quv maqsadiga muvofiqlik; talaba faolligini yuzaga keltirish darajasi; individuallashtirish imkoniyati; teskari aloqa tezligi va mazmuni; hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash; foydalanish qulayligi; ochiqlik va qurilmalararo moslik; ma’lumotlar xavfsizligi; natijani hujjatlashtirish hamda tahlil qilish imkoniyati.

Tahlil natijasida talabaning mustaqil bilim olish faoliyati oltita o‘zaro bog‘liq bosqichga ajratildi: 1) maqsadni anglash va rejalashtirish; 2) axborotni izlash va saralash; 3) bilimni o‘zlashtirish va qayta ishlash; 4) amaliy mahsulot yaratish; 5) hamkorlik va teskari aloqa; 6) o‘zini baholash va refleksiya. Har bir bosqichda raqamli vosita turli pedagogik vazifani bajaradi.

Mustaqil faoliyat bosqichi	Raqamli vositalar	Pedagogik vazifa	Kutiladigan natija
Maqsad va reja	LMS taqvimi, vazifalar paneli, rejalashtiruvchi	Muddat va mezonlarni aniqlashtirish	Mas’uliyat va vaqt boshqaruvi
Axborot izlash	Elektron kutubxona, ilmiy baza, katalog	Manbani topish va ishonchliligini tekshirish	Axborot savodxonligi
O‘zlashtirish	Video, podkast,	Mazmunni turli	Tushunish va

	interaktiv modul, simulyatsiya	formatda o‘rganish	individual sur’at
Mahsulot yaratish	Bulutli hujjat, mind-map, taqdimot, virtual laboratoriya	Bilimni amaliy vazifaga ko‘chirish	Ijodiy va muammoli yechim
Hamkorlik	Forum, videomuloqot, umumiy doska, peer review	Savol, muhokama va o‘zaro baholash	Kommunikativ kompetensiya
Nazorat va refleksiya	Test, analitika, e-portfolio, refleksiya kundaligi	Natija va jarayonni tahlil qilish	O‘zini boshqarib o‘rganish

LMS mustaqil ta’limning tashkiliy yadrosi vazifasini bajarishi mumkin. Unda o‘quv natijalari, yo‘riqnoma, baholash rubrikasi, muddat, resurs va muloqot kanallari bir joyda taqdim etiladi. Biroq LMS faqat fayl omboriga aylantirilmasligi kerak. Har bir modul “nimani bilaman?”, “nimani bajaraman?”, “natija qanday baholanadi?” va “yordamni qayerdan olaman?” savollariga aniq javob beradigan tarzda tuzilishi zarur.

Elektron kutubxonalar va ilmiy bazalar talabaning manba bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi tayyor havolalar ro‘yxatini berish bilan cheklanmasdan, kalit so‘z tuzish, filtrlash, bibliografik ma’lumotni tekshirish, birlamchi va ikkilamchi manbani farqlash, iqtibos keltirish hamda akademik halollik talablarini topshiriqqa kiritishi lozim.

Talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishda raqamli pedagogik imkoniyatlardan foydalanish pedagogik shart-sharoitlar.

Birinchi shart – pedagogik maqsadning texnologiyadan ustuvorligi. Vosita mashhurligi yoki funksiyalarining ko‘pligi uchun emas, aniq o‘quv muammosini hal qilishi uchun tanlanadi.

Ikkinchi shart – yagona va tushunarli raqamli muhit. Bir fan doirasida asossiz ko‘p platformadan foydalanish loginlar, formatlar va bildirishnomalar yukini oshirib, diqqatni mazmundan texnik jarayonga ko‘chiradi.

Uchinchi shart – talabaning raqamli va axborot kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish. Platformadan foydalanish bo‘yicha qisqa video-yo‘riqnoma, namunaviy bajarilgan ish, manba ishonchliligini baholash chek-listi va texnik yordam kanali berilishi lozim. Raqamli ko‘nikma yetishmasligini mas’uliyatsizlik sifatida baholash ta’limdagi tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

To‘rtinchi shart – mazmunli teskari aloqa. “To‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” belgisi talabaning keyingi harakatini ko‘rsatmaydi. Samarali izoh xatoning joyini, sababini, takomillashtirish yo‘lini va qayta topshirish imkoniyatini bildiradi. O‘qituvchi izohi, avtomatik ko‘rsatma, o‘zaro baholash va o‘zini tekshirish bir-birini to‘ldirishi kerak.

Xulosa. Talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini raqamli pedagogik vositalar asosida tashkil etish oliy ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishidir. Bunda natija platformalar soni bilan emas, talabaning maqsad qo‘yishi, axborotni

tanqidiy qayta ishlashi, bilimni amalda qo‘llashi, o‘z faoliyatini nazorat qilishi va refleksiya qila olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan “maqsad – raqamli resurs – mustaqil harakat – teskari aloqa – refleksiya” modeli raqamli vositalarni yagona pedagogik siklga birlashtiradi. Modelni samarali amalga oshirish uchun o‘quv maqsadining ustuvorligi, yagona raqamli muhit, raqamli kompetensiya, mazmunli teskari aloqa, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va inklyuzivlik ta’minlanishi lozim. Keyingi empirik tadqiqotlarda modelning turli fanlar kesimidagi samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari, oldingi va keyingi diagnostika hamda sifat ma’lumotlari asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabr. https://lex.uz/docs/4545884
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil 5-oktabr. https://lex.uz/docs/5030957
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
5. Garrison, D. R. Self-directed learning: Toward a comprehensive model. Adult Education Quarterly, 1997, 48(1), 18–33.
6. Zimmerman, B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 2002, 41(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2